



O'zbek xalq
ertaklari

Uch og'ayni botirlar





O'zbek xalq
ertaklari

Uch og'ayni botirlar




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO'K: 398.21.(575.1)

KBK: 82.3(50')

O' – 89

Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent:
Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.

ISBN 978-9943-27-722-9

Mazkur to'plamdan o'rinni olgan ertaklarni biz bolaligimizda
bobojonlarimizdan, buvijonlarimizdan eshitib ulg'ayganmiz.

Insonlarni mardlikka chorlovchi, saxiy va bag'rikeng
bo'lishga undovchi, hayotda yashashdan maqsad odamlarga
yaxshilik qilish va ular o'tasiga e兹gulik urug'larini sochish,
qo'yingki, barcha insoniy fazilatlar ulug'langan xalq ertak-
lari endi bizning farzandlarimiz qalbiga ham yetib borsin,
degan niyat bilan nashrga tayyorlayotgan mazkur kitobimiz
bizning navbatdagi tuhfamizdir.

Bolalarimiz bilan bolaligimizga qaytish zavqini, bolalari-
mizning quvonchiga sherik bo'lish baxtini sizga-da ilinamiz.

UO'K: 398.21.(575.1)

KBK: 82.3(50')

ISBN 978-9943-27-722-9

© «Uch og'ayni botirlar». O'zbek xalq ertaklari. «Yangi asr
avlodi», 2017-yil.





BAROQVOY, MIYOVJON VA XO'ROZVOY

Qadim-qadim zamonlarda odam bolasi hamma hayvonlar bilan inoq, ahil, bir-birining tilini tushunib yashar ekan.

Bir qishloqda Baroqvoy it, Miyovjon mushuk hamda kekkaygan Xo'rozvoy yashashar ekan. Ular qishloqda yashar ekanlar-u, bir-birlarini kiga bordi-keldi qilishmaganidan Baroqvoy Miyovjonne, Miyovjon Xo'rozvoyni tanimas ekan. Miyovjonning to'q yashayotganini eshitgan Baroqvoy bir kuni so'rab-surishtirib unikiga meh-monga kelibdi. Miyovjon Baroqvoyni yaxshi kutib olib, rosa ziyofat qilibdi. Mehmondorchilik tugagach, Baroqvoy Miyovjonga qarab:

– Oshna, men tuz-noningni yeb, sen bilan do'st-birodar bo'ldim. Aslida, sening oldingga maslahat so'rab kelgandim, – debdi.

– Mayli, – debdi Miyovjon, – sen o'rgangani kelasan-u, men yo'q deymanmi? So'ra, o'rgatay, ni-mani bilmoxchisan?

– Seni yemish topishning zo'r yo'lini biladi, shuning uchun hech och qolmaydi, deyishadi, shu rostmi? – debdi Baroqvoy.

– Rost bo'lsa rost-da! Men oziqning hidiga qarab topaman. Mana, masalan, go'shtning hidini yetti tosh naridan turib ham bilaman, – deb javob beribdi Miyovjon.

Shunda Baroqvoy:

– Oshna, sendagi xuddi ana shu odatni o'rgangani kelganman. Rozi bo'lib, meni shogirdlikka olsang, – debdi.

Miyovjon rozi bo'lib Baroqvoyni o'ziga shogirdlikka olibdi. Ular biri ustoz, biri shogird bo'lib yashay boshlashibdi. Bir kuni Xo'rozvoy kekkayganicha «qu-qu-qu» deb kelib qolibdi. Miyovjon bilan Baroqvoy unga salom berishibdi. Xo'rozvoy salomga alik olmasdan, nazar-pisand qilmay, kekkayganicha:

– Qaysi birlaring Miyovjon? – deb so'rabdi:

– Xo'sh, Miyov menman, xizmat, – debdi Miyovjon Xo'rozvoyga.

– Sen Miyovjon bo'lsang, qani menga ayt-chi, sen ovqatingni hidlab topasanmi yo titkilab, – debdi Xo'rozvoy.

– Men yemishimni hidlab, hidiga qarab topaman, – deb javob beribdi Miyovjon.

Shunda Baroqvoy:

– To'g'ri, to'g'ri. Miyovjonning aytgan so'zi to'g'ri, u yemishini hidiga qarab topadi. Shuning uchun men unga shogird tushdim, – debdi.

Xo'rozvoy:

– Sen shalpang qulqoq jim tur. Sendan gap so'rayotganim yo'q, – debdi-da, Miyovjonga qarab: – Unday bo'lsa, meni ham shogirdlikka ola-sanmi? – debdi.

– Seni shogirdlikka olsam – olaman-u, ammo bitta shartim bor, – debdi Miyovjon.

– Qanday shart ekan, bilsam bo'ladimi? – debdi Xo'rozvoy.

– Shartim shuki, g'o'dayib, kekkayishingni kamaytirasan. Baroqvoy bilan menga o'xshab sod-daroq, oddiyroq bo'lasan. Agar tojing yo'l qo'yama-sa, qo'shnim usta Hojiga oldirib tashlaysan. Shu gaplarimni qilsang, o'zimga shogird qilib olganim bo'lsin.

Xo'rozvoy Miyovjonning hamma gapiga «Nima desa desin, avval yemishni hidiga qarab topishni o'rganib olay, keyin o'zim bilaman», debdi-da, Miyovjonning hamma shartini qabul qilib, unga shogird tushibdi.

Uchovlon: Miyovjon, Baroqvoy va Xo'rozvoy birga-birga birovi ustoz, ikkovi shogird bo'lib, ahil, inoq yashayverishibdi.

Miyovjon Baroqvoy bilan Xo'rozvoyga hid yordamida yemish topishni o'rgata boshladi.

– Shamolning esishiga qarab, hidni bilish mumkin, – debdi Miyovjon ularga, – lekin buning uchun qorin och bo'lmog'i, qulqoq ding tur-mog'i kerak. Qo'y go'shtining hidi boshqa-yu, mol go'shtining hidi boshqa.

Miyovjon, unday qilsang hidni yaxshi bilasan, shunday qilsang hidni yaxshi bilasan, deb rosa

o'rgatibdi. Xo'roz Miyovjonning gaplariga qulq solgan bo'lib turibdi-da, yerni titkilay boshlabdi. Bundan Miyovjonning jahli chiqib ketibdi-da:

– Sendan shogird chiqmaydi, yerni titkilaganing titkilagan ekan, – deb unga javob berib yuboribdi.

Baroqvoy ham yemakni hidiga qarab topish yo'lini butunlay o'rganib oldim, deb ruxsat berishini, o'z uyiga borib yashashini aytibdi.

Miyovjon:

– Men hali hammasini o'rgatmadim, sen esa hammasini bilib olmading, – deb Baroqvoyna javob bermabdi.

Oradan yana bir-ikki kun o'tgach Baroqvoy:

– Men hammasini o'rganib oldim. Xohlagan paytimda hidiga qarab yemishimni topib ola-man, – deb yana ruxsat so'rabdi.

Miyovjon yana:

– Biroz sabr qil, sen hali hammasini batamom o'rganib olganing yo'q, – deb unga javob bermabdi.

Baroqvoy qayta-qayta so'rayvergach, ruxsat beradigan bo'libdi:

– Xo'p, javob berayin, lekin bugun emas, – debdi Miyovjon, – ertaga kelgin.

Ertalab turib Miyovjon xotiniga:

– Ertalab Baroqvoy kelib meni so'rasa azonda chiqib ketdilar, lekin qayerga ketganlarini aytmadilar, bilmayman, degin, – deb tayinlab uydan chiqib ketibdi. Ertalabki choy-non paytida Baroqvoy eshikni taqillatib kelib, Miyovjonni uchratmay, xotinidan:

– Miyovjon qayoqqa ketdilar, – deb so'rabdi.

Xotini:

– Qayoqqadir chiqib ketdilar. Lekin qayoqqa ketganlarini aytmadilar, – debdi.

Baroqvoy:


– Meni sinab ko'rish uchun chiqib ketgan, – debdi. Darhaqiqat, Miyovjon Baroqvoyni sinab ko'rish uchun «Qani ko'ray-chi, Baroqvoy hidlab yemak topishni butunlay o'rgandimikin, yo'qmikin», deb ataylab chiqib ketgan ekan. Shunday qilib Baroqvoy «Meni sinash uchun shunday qilgan», deb hid olib Miyovjonning izidan boraveribdi. U bir qancha vaqt yurib, ni-hoyat, Miyovjon yashirinib olgan joygacha yetib boribdi. Miyovjon avval bir yerga yashiringan ekan, undan nariroqqa borib bir toshdan ikkin-chisiga, undan nariroqqa borib yana bir toshdan ikkinchisiga sakragan ekan. Keyin g'orning o'ng tomonidan kirib, chap tomonidan chiqib ketgan ekan. Shunday qilib yo'lini adashtirib-adashtirib, oxiri bir daraxtning tepasiga chiqib olib, jimgina pisib yotgan ekan. Baroqvoy Miyovjonning yashiringan, u yoqdan bu yoqdan yurgan yo'lidan hidlab-hidlab yuraveribdi. G'orning o'ng kavagidan kirib, chap kavagidan chiqibdi. Miyovjon daraxtning tepasida «Ha, Baroqvoy chakki emas, hiddan topishni o'rganadigan bo'lib qolibdi», deb xursand bo'libdi. Ammo xursandchiligi uzoqqa bormabdi. Baroqvoy daraxtning tagiga borib Miyovjonning izini yo'qotib qo'yibdi. U daraxtga qaramay, Miyovjonne ko'rmay aylanaveribdi, aylanaveribdi, aylanaveribdi. Oxiri daraxtni gir-gir aylana-aylana iziga qayta boshlabdi. Baroqvoyning bu ishini daraxt tepasida o'tirgan Miyovjon ko'rib afsuslanibdi. Keyin:

– Hoy, Baroqvoy, tepangga – daraxtga qara.
Men bu yerdaman-ku?! – debdi.

Baroqvoy daraxtga qarasa, Miyovjon kulib turgan emish. Miyovjon daraxtdan tushib Baroqvoyna tanbeh berib:

– Seni oxirigacha hidga qarab yemak topishni o'rgangin desam, oxirigacha qunt qilma-ding. Xo'rozvoyni-ku o'rganolmaydi, deb jo'natib yuborgan edim. Sen ham qunt bilan oxirigacha o'rganib, nihoyasiga yetkazmading. Kishi bir narsaga kirishdimi, unga qo'l urdimi, oxiriga yetkazishi lozim. Bo'lmasa hech narsa chiqmaydi, biron bir yutuqqa erisholmaydi, – debdi.

Shu-shu saboqni nihoyasiga yetkazmagani uchun Baroqvoylarning barchasi faqat yerni hidlab, o'ljasini, yemishini topib yeb yurar ekan.





HUNARLI YIGIT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-da bir shaharda bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning Mamatboy degan bitta-yu bitta o'g'li bor ekan.

Kampirning ota meros bir hovlisi bor ekan. Chol-kampir bu hovlini uch yuz tillaga sotishibdi va maslahatlashib o'g'ilni savdo ishiga o'rgatmoq-chi bo'lishibdi.

Chol o'g'lini chaqirib:

– Bolam, biz endi qarib, kuchdan qoldik. Sen mana bu yuz tillani olib, savdogarchilik qilgin, – debdi.

Bola yuz tillani beliga tugib, yo'rg'a eshakka minib: «Hay-yo hayt» deb safarga jo'nabdi.

Yurib-yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bozorga yaqin bir joyda odamlar to'planishib turgan

emish, to'da yaqiniga borib odamlarning biridan: «Nima gap?» deb so'rasha, u odam:

– Bu yer ilm beradigan joy. Kimki yuz tilla to'lasa, bir yil mobaynida ilm o'rganib chiqadi,
– debdi.

Bizning Mamatboy ham ilm o'rganishni havas qilib yurar ekan. Bu gapni eshitgach: «Savdo ishidan nima foyda, yoshlikda ilm o'rganib olish kerak», – deb yuz tillani to'labdi. Havas bilan astoydil o'qiy boshlabdi. Oradan bir yil o'tibdi. Mamatboy zehni o'tkirlilik qilib o'qituvchidan ham o'zib ketibdi.

Endi uyiga qaytmoqchi bo'libdi. Ammo hech narsasi qolmagan, hatto eshagini ham sotib yuborgan ekan. Nima qilarini bilmay, hayron bo'lib turganida, o'qituvchining rahmi kelib, unga bir eshak beribdi. Bir yarim oy deganda Mamatboy uyiga kelibdi. Ko'pdan beri kutib o'tirgan ota-onasi o'g'lini ko'rib juda quvonibdi. Hol-ahvol so'ragandan keyin kampir:

– Bolam, yueling orqada kelyaptimi? – deb so'rabdi. Bola indamabdi. Bir fursat o'tib damini olgandan keyin ota-onasiga:

– Xafa bo'imasangizlar bir gap aytaman, – debdi.
– Mayli, ayt, bolam, – deyishibdi ular.

Shunda bola o'z boshidan kechirgan hamma hodisani aytib beribdi. Oradan bir hafta o'tibdi. Ular o'zlaricha maslahatni bir joyga qo'yib, bolaga yana yuz tilla beribdilar. Ammo boshqa narsaga sarf qilmagin, deb tayinlab, uni savdo-ga jo'natibdilar. Bola cho'l-biyobonlar, tog'-toshlar oshib, oxiri bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir joyda odamlar to'planib turgan emish. Bola su-

rishtiribdi. Ulardan biri: «Bu yer cholg'u o'rgana-digan joy, kimki yuz tilla to'lasa, bir yilda ajoyib cholg'uchi bo'lib chiqadi», – debdi.

Bola o'ylab turib: «Ota-onam urishsa urishar, ilm o'rgandim, endi buni ham o'rganib qo'yay», deb yuz tilla to'lab mакtabga kiribdi. Oradan bir yil o'tibdi. Bolaning zehni o'tkir ekan, oz fursatda ustozidan ham o'zib ketibdi. Endi yurtiga ketmoqchi bo'lib ustozidan ruxsat so'rabdi. Ustozi bolaning juda uquvli bo'lgani, ammo ketishga hech narsasi qolmaganidan bir toy bilan yo'lga kerakli oziq-ovqatni berib, bolani jo'natibdi. Bola uch hafta deganda uyiga yetib kelibdi. Bir yildan beri ko'z tikib zoriqib o'tirgan ota-onal o'g'lini ko'rib juda sevinishibdi.

Kampir bolasidan hol-ahvol so'rab bo'lib:

– Bolam, yuking orqada kelyaptimi? – deb so'rabdi.

Bola nafasini rostlab olgandan keyin, voqeani aytib beribdi. Buni eshitgan kampir bilan chol xafa bo'libdi, bolani qattiq koyishibdi.

O'n kundan keyin chol bilan kampir ikkisi maslahat qilishibdi.

Otasi o'g'lini chaqirib:

– Bolam, bisotimizda atigi uch yuz tilla bor edi, ikki yuz tillani sarf qilding, endi bor-yo'g'i yuz tillagina pulimiz qoldi, shuni ehtiyyot qilib, hech narsaga sarf qilmasdan, arzon mollardan olib kel, jon bolam! – deb tayinlab, bolani yana savdoga jo'natibdi.

Bola ota-onasi bilan xayrlashib, noma'lum shaharga jo'nab ketibdi. Yura-yura bir joyga ye-

tibdi. Toyi hurkib ketib, odamlar to'planib turgan joyga borib to'xtabdi. Bola odamlardan: «Nega to'planib turibsizlar?» – deb so'rasha, ulardan biri: «Bu yerda shatranj o'yini o'rgatiladi. Kimki yuz til-la to'lasa, shatranj o'rganadi», – debdi. Mamatboy o'ylab turib: «Yuz til-la berib ilm o'rgandim, yuz til-la berib cholg'uchi boldim, endi yana yuz tilladan qo-chib buni o'rganmay qolaymi? Kel, tavakkal, buni ham o'rganib olay», – deb ahd qilibdi va qo'lidagi yuz tillani to'lab, shatranj o'rganishga kirishibdi. Bir yilda shatranj o'yinini juda yaxshi o'rganib, keyin yurtiga qaytibdi. Ko'p yo'l yurib, uyiga yetibdi. Ota-onasi bolasini sog'inib ko'z tikib o'tirgan ekan, u bilan ko'rishib bo'lib:

– Bolam, yuking qani, orqada kelyaptimi? – deb eshikka chiqib qarashsa, hech nima yo'q emish. Hayron bo'lishibdi. Bola bu safar shatranj o'yinini o'rganganligini aytib beribdi.

Chol bilan kampir ilgarigidan ham qattiqroq xafa bo'lishibdi. Nochorlikdan Mamatni bir boyga xizmatkor qilib berishibdi. Mamatboy judayam serg'ayrat, chaqqon bola ekan, uch kun o'tmas-danoq boyning xizmatkorlari orasida tanilib qolibdi. Boy ham uning chaqqonligiga va ishbilarmonligiga qoyil qolibdi.

Kunlardan bir kuni boy uzoq bir shahardan bir necha ming yilqi va qo'ylarni olib kelayotgan ekan, dasht-biyobonlarda bir qancha kun yurishganidan keyin yilqi-qo'ylari cho'llab qolibdi. Qidirib-qidirib bir quduq topishibdi. Quduq juda eski ekan. Boy: «Kim tushadi?» – deb so'rasha, xizmatkorlari churq etmabdi. Oxiri Mamatboy:

«Bu ishni men bajaraman», – deb, beliga arqon bog'lab quduqqa tusha boshlabdi. Quduq juda chuqur ekan, tushib ketaveribdi. Oxiri oyog'i quduq tagiga tegibdi. Qarasa, quduq tagi keng, hamma yoq qorong'i, zulmat, qup-quruq, suv de gan narsa yo'q emish. Belidan arqonni yechib, nariroqqa borib qarasa, bitta xum turgannish va undan hadeb tilla qaynab chiqayotgan mish. Bola olib tushgan chelagini darhol tillaga to'ladi-rib, yuqoriga uzatibdi. Bo'shagan chelak qaytib tushibdi. Shunday qilib, xumdag'i tillani tamom qilibdi, keyin arqonga chirmashib yuqoriga chiqa boshlabdi. Shu tobda boy: «Bolani hozir tortib ol sam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sheri k bo'ladi. Undan ko'ra bolaning shu quduqda o'lib ketgani yaxshi», – deb o'yab, arqonni shart ta qirqib yuboribdi. Boy hamma tillani olib, yo'nga ravona bo'libdi.

Endi gapni boladan eshititing.

Mamatboy ko'zini ochib, o'zini quduqda ko'ribdi. «Attang, boy yaxshilikka yomonlik qildi. Ajalim shu yerda ekan-da endi», – deb juda xafa bo'lib ichkariroqqa yuribdi. Atrofga nazar solsa, bir yoqda bir eshik ko'rinishibdi, eshikdan kirib qarasa, ichkarisi juda yaxshi bezatilgan bir uy emish. Bu uy bir devniki bo'lib, unda o'sha dev yotgan ekan. Uyning shipida bir qancha cholg'u asboblari osilgan emish. Yigit devordagi g'ijjak ni chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo'lib hushsiz yotgan ekan, g'ijjak tovushini eshitib o'ziga kelibdi. Yetti kun deganda tuzalib turibdi va:

– E, bola, sen kimsan? Menga ko'p yaxshilik qilding. Tila tilagingni! – debdi.

Bola qo'rqib ketib, darhol devga salom beribdi. Dev alik olib, uning bu yerga qanday kelgani ni so'rabdi. Bola devga boshdan kechirganlarini aytib beribdi. Devning bolaga rahmi kelib:

– Sen meni o'limdan olib qolding, endi men senga himmat qilaman, tila tilagingni, – debdi.

Bola oldin devning tillasini quduqdan chiqarib yuborganini va shu sababli gunohini kechirishni so'rabdi. Dev uning gunohini kechiribdi.

So'ngra Mamatboy:

– Meni yorug' dunyoga olib chiqib qo'ysang bas, – debdi.

Dev uni yelkasiga mindirib, bir zumda ochiq havoga chiqarib qo'yibdi. Mamatboy dev bilan xayrashib, yo'nga ravona bo'libdi Mamatboy tez-tez yurib boyga yetib olibdi va bilmas kishi bo'lib, yana ilgarigidek boyning xizmatini qilaveribdi. Buni ko'rgan boyning esi chiqib ketibdi, boy ham qo'rqqanidan noiloj o'zini bilmaslikka solib yura-veribdi-yu, bolani yo'q qilish payiga tushibdi.

Boy uyiga – xotiniga quyidagicha xat yozibdi:

«Mendan sizlarga ko'pdan-ko'p salom. Yaqinda borib qolaman. Jon xotin, men borgunimcha shu xatni olib borgan bolani o'ldirib yubor. Sababini borganimda aytaman».

Xatni taxlab, muhrini bosib: «Endi buni kim uyga yetkazadi?» desa, hech kim indamabdi, chunki boy oldinroq boshqa xizmatkorlari bilan til biriktirib qo'ygan ekan.

Xatni oxiri Mamatboy olib ketibdi. Yura-yura bir yerga yetganida o'yabdi: «E, men qancha ovo-

ra bo'lib ilm o'rgangan edim, boyning duysi salomini o'qib ko'rmaymanmi?» – deb xatni ochib o'qisa, gap o'zi haqida ekan. Xatni darrov yirtib tashlabdi-da, o'rniga quyidagi xatni yozibdi:

«Rafiqam G'ilmonnisoga!

Duysi salomdan so'ng ma'lum va ravshan bo'lsinki, men bu olkada omon-eson yuribman. Nasib bo'lsa, yaqinda borib qolaman. Ushbu yuborgan xizmatkor bola Mamatboy juda epchil ekan, baraka topsin, men buyurgan eng qiyin ishlarni yakka o'zi muhayyo qildi. Davlatimizning ortishiga sababchi bo'ldi. Mamatboyni yaxshilab kutib ol, darhol katta qizimizni shunga to'y qilib ber, toki men borganimda kuyov bo'lib kutib olsin».

Mamatboy xatni o'xshatib yozibdi va xat oxi-
riga boy nomidan imzo chekibdi. Mamatboy bir
haftada yetib kelib, xatni boyning xotiniga berib-
di. Xotin xatni o'qib: «O'zlari aytibdilar, to'y qil-
masa bo'lmas ekan», – deb ertasigayoq to'y-to-
mosha qilib, katta qizini Mamatboya beribdi.
Bir necha kun deganda, boy ham yetib kelibdi.
Eshikdan uni qizi bilan kuyovi kutib olishibdi.
Boyning joni hiqildog'iga kelibdi-yu, ammo sir
boy bermay, o'zini zo'rg'a tutib olibdi. Yigit ham
bilmas kishi bo'lib, qaynotasining hurmatini
bajo keltirib yuraveribdi. Oradan bir necha kun
o'tgandan keyin boy xotinini chaqirib:

– Sen nima ish qilib qo'yding? – deb uni ko-yibdi. Xotini:

– O'zingiz aytibsiz-ku! – deb xatni ko'rsatgan ekan, boy:

– Bu men yozgan xat emas, obbo qurg'ur-ey, mendan ham usta ekan-a, – deb qolibdi. Le-kin Mamatboyni yo'q qilishni kecha-yu kunduz o'ylab yuraveribdi.


Kunlarning birida yigitning esiga ota-onasi tushib: «Xotinim bilan bir borib kelay», – deb boydan ijozat so'rabdi. Boy jon deb javob beribdi. Mamatboy xotini bilan ota-onasini ko'rish uchun yo'lga tushibdi. Yurib-yurib bir katta shaharga kelibdilar. Mamatboy o'sha shahar podshosining saroyi yonidan o'ta turib, darvozaga ko'zi tushibdi, darvoza tepasiga osilgan bir necha odamni ko'ribdi. Surishtirsa, podshoning bir go'zal qizi bor ekan. U shatranjga juda usta ekan. «Kim-ki shu o'yinda meni yutib chiqsa, o'shangan tegaman», deb shart qo'ygan ekan. Haligilar shatranj o'yinida yutqazgan kishilarning tanalari ekan.

Mamatboy o'ylab turib: «Ikki hunarim meni ikki marta o'limdan olib qoldi, uchinchisi ham bekor ketmas. Kel, tavakkal, shu o'yinni ham o'ynab ko'ray», – deb shoh qizi yoniga kiribdi. Qiz uni mensimagandek bo'lib qabul qilibdi.

O'yin boshlanibdi. Qiz ham, yigit ham bir-biridan sira qolishmabdi. Uch kun deganda qiz yutqazibdi. Qiz bilan otasi Mamatboyning shatranjga ustaligiga qoyil qolishibdi. Podsho yigitga qizini bermoqchi bo'lgan ekan, yigit unamabdi. Shu sababli podsho Mamatboyga yarim podsholigini hadya qilibdi. Mamatboy ota-onasini ham shaharga olib kelib, kambag'al, beva-bechora, yetim-yesirlarga muruvvatli bo'lib kun kechira boshlabdi.

Mamatboyning qaynotasi bo'lmish anavi boy kunlardan bir kun Mamatboyga arzga kelibdi. Lekin kuyovini tanimabdi. Kuyov qaynotasining arzini obdan eshitib bo'lib, keyin boyning butun qilgan ishlarini o'ziga aytib beribdi. Boy juda yomon ahvolga tushib, yigitning oyog'iga yiqilib, o'z qilmishlariga tavba qilibdi.

Shunday qilib, Mamatboy murod-maqсадига yetibdi.





HAR KIMNING MEHNATI O'ZIGA SHIRIN

Bir ota-onaning yakka-yu yagona o'g'li bo'l-gan ekan. Yolg'izligi sabab bolani erkaltib, ko'ngliga qarab katta qilishibdi. Bola voyaga yetgach, otasi o'g'lini chaqirib: «O'g'lim, endi katta bo'lib qolding, biror hunar o'rgan, oxirida xor bo'lmayсан!» – debdi. Bola, «xo'p», debdi. Ertasi kuni ishga ketayotganida uni onasi to'xtatib:

– O'g'lim, sen og'ir mehnat qilib joningni qiy-nab yurma, ko'chaga chiqib o'rtoqlaring bilan o'yna, qaytib kelganingda otangga mana buni berarsan, – deb bir tanga pul beribdi.

Bola xursand bc'lib ko'chaga chiqib ketibdi. Kechgacha o'ynab yuribdi. Uyiga kelsa, otasi hovuz bo'yida o'tirgan ekan. Onasidan olgan pu-

lini «o'zim ishlab topdim», deya otasiga beribdi. Ota tangani olib hovuzga tashlabdi. Bola indamabdi. Ertasiga ham shu voqea qaytarilibdi. Bu holdan hayron bo'lgan ona va bola uchinchi kuni o'tirib maslahatlashibdi.


Bola:


– Otam bu pulni mehnat qilmasdan olib kelganimni bilganga o'xshaydi. Endi bugun mehnat qilib pul topib kelay-chi, nima qilar ekan? – debdi-da, bir odamnikida xizmat qilib pul topibdi.

Kechqurun uyiga kelib otasiga bersa, otasi u pulni ham hovuzga tashlabdi. Bola otasiga bir xo'mrayib qarabdi-da, kiyimlarini yechib, o'zini hovuzga tashlabdi. Haligi bir tangani topib chiqibdi.

Shunda otasi o'g'liga:

– Ko'rdingmi, o'g'lim, o'z mehnating bilan topilgan daromad – pul qadrli bo'ladi, – degan ekan.





PODACHINING QIZI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda uzoq yurtlardan birida bir podachi bor ekan. Uning xotini ancha vaqt kasal yotib, oxiri olamdan o'tibdi-da, yolg'izgina bir qizi yetim qolibdi.

Podachi bir tul xotinga uylanibdi, ikkinchi xotini bir qiz ergashtirib kelibdi. Yetim qizga o'gay ona hadeb zulm qilaveribdi, yetim qizning rangi-ro'yi za'faronday sarg'ayib ketibdi. Ona o'z qiziga kunda yog'lik non berar ekan-da, o'gay qiziga qotgan non berib, og'ir-og'ir ishlarni buyurar ekan.

Yetim qizga onasidan bir sigir, bir xo'roz va bir tovuq qolgan ekan.

O'gay ona har kuni qizga: «Bir savat paxtani yigirib, sigirni boqib kel!» – deb qizni dalaga hay-

dab yuborar ekan. Qiz charxni oldiga olib, qat-tiq nonni sovuq suvgaga ivitib yeb, o‘gay ona bergen ipning yarmisini ham yigirolmay kelar ekan. O‘gay ona qiz sho‘rlikning sochlardan tortib urar, a’zoyi badanini o‘ymalab, ko‘kartirib yuborar ekan. Otasi ham keyingi xotinining gapiga kirar ekan.

Bir kun qiz dalada sigirni o‘tga qo‘yib, o‘zi charx yigirib o‘tirsa, birdan qattiq shamol turibdi-yu, paxtasini uchirib ketibdi. Qiz uni ushlab olaman deb yugurib ketaveribdi, lekin tutolmabdi. Oxiri paxtani shamol bir tog‘ bag‘ridagi g‘orga olib kirib ketibdi. Qiz paxtaning ketidan g‘orning ichiga kirsa, oppoq sochli bir kampir o‘tirgan emish. Qiz darhol qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib:

- Assalomu alaykum, buvijon! – debdi.
- Vaalaykum assalom, kel, qizim, kel! Xo‘s, nima kulfat tushdi boshingga? – deb so‘rabdi kampir.

Qiz boshidan kechirgan hamma voqeani kampirga birma-bir aytib beribdi.

Shunda kampir:

- E, bolam, xafa bo‘lma, o‘gay onangning bergen paxtasini sigirga yedir, keyin sigirning yelindan iplarni tortib o‘rab olaver! – debdi va qizning boshini silab turib:

– Agar boshingga biror kulfat tushsa, mening yonimga kel, senga yordam beraman, – debdi.

Qiz sevinchini ichiga sig‘dirolmay, tezda sigir oldiga boribdi, paxtani sigirga yedirib, yelinidan sut soqqandek ipni tortib olaveribdi. Bir tekis ingichka ip chiqaveribdi. Bir nafasda bir necha

kalava ip sog'ib olib, o'gay onaning oldiga kelsa u qarg'ab:

– Muncha kech kelding?! Bor, sigirning tagini tozala, hovlini supur! – deb o'dag'aylabdi. Shundan keyin o'gay ona necha savat paxta bersa ham, qiz hammasini silliq ip qilib kelaveribdi. O'gay ona bunga chidolmay poylabdi, qarasaki, voqealigidek emish.

Bir kuni kechqurun eri ishdan kelganda:

– Dadasi, hademay qish kiradi, mening mol go'shti yegim kelyapti, menga shu sigirni so'yib bersangiz, – debdi.

Laqma eri «xo'p» deb, sigirni so'ydirib, go'shtyog'ini saranjomlabdi. Yetim qiz sho'rlik yig'lab-yig'lab g'ordagi kampir oldiga boribdi va bo'lgan voqeani aytib beribdi. Shunda kampir qizning boshini silab turib:

– Yig'lama, bolam, hechqisi yo'q. Uyingga borib sigiringning suyaklarini, terisini, dum va shoxlarini yig'ib, bir joyga ko'm. Payti kelganda kuningga yaraydi, – debdi.

Qiz kampirning aytganlarini qilibdi. Bir kun o'gay ona o'z qizini rosa yasantirib, mehmonga olib ketibdi. O'gay qizning oldiga bir kepchik guruch bilan bir kepchik moshni aralashtirib: «Men kelguncha mana shu mosh bilan guruchni bir-biridan ajratib qo'y», deb qizning boshiga bir mushturib, eshikni ustidan qulflab ketibdi. Qizning onasidan qolgan haligi bitta tovug'i bilan bitta xo'rozi kelib, yig'lab o'tirgan qizga yordam beribdi: bir nafasda moshni moshga, guruchni guruchga ajratibdi-qo'yibdi. Qiz quvona-quvona kampir oldiga boribdi. Kampir qizning boshini silab:

– Bolam, qizlarimdan to'rttasini senga qo'shib beray. Sen ular bilan yurt podshosining to'yiga borgin, ko'mib qo'ygan kalla-pochalaringni ochib qara-chi, nima sir ko'rар ekansan, – debdi.

O'sha onda to'rtta qiz paydo bo'lib, kampirga salom beribdi. Podachining qizi ular bilan birga uyiga borib, ko'mib qo'ygan narsalarini ochib qarasa, sigirning terisi bir libos bo'libdiki, tilla tugmalar qadalgan, yal-yal tovlanarmish. Sigirning tuyoqlari bir g'alati kavush bo'libdiki, xuddi qoshiqqa o'xsharmish, suyaklari dur, gavhar, marjon bo'lib qolibdi. Haligi qizlar olib kelgan ko'ylaklarini, haligi libos, kavushlarni qizga kiydirib, ro'mol o'ratib, gulob bilan yuzini yuvganlarida qiz to'rt kunlik oydek bo'lib, uning husn-jamoli haligi qizlar husnidan yuz chandon oshib ketibdi. U qizlar podachining qiziga cho'ri bo'lishib, to'yga borishibdi.

To'y egalari «Allaqaysi yurt podshosining qizi keldi» deb o'ylab, qizni uyning to'riga o'tqazishibdi. Qizning o'gay onasi ham to'yga borgan ekan, poygakda qolib ketibdi. Ziyofat juda quyuq bo'libdi, qand o'rniga novvot, suv o'rniga sharbat tortilibdi. Ziyofat o'tgandan keyin qiz dasturxonagi meva-chevalarni o'gay onaga uzatibdi. O'gay ona qizni tanimay suyuna-suyuna ovqatlarni olib qaytibdi. Qiz ko'p izzat-hurmat bilan to'ydan chiqibdi, uyiga tez borish uchun shoshilibdi, shoshilgani sababli oyog'idan bir poy kavushi tushib qolibdi. O'gay onasi borguncha, hech narsani ko'rmagandek uyga kelib o'tiribdi.

Bir vaqt o'gay ona qizi bilan uyga kelib, o'gay qiziga maqtanibdi:

– Biz ajoyib tomoshalarni ko'rdik, quyuq ziyo-fatda bo'ldik, bir podshoning qizi keldi, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shirin-shakar so'zi bor, o'z oldidagi xilma-xil ovqatlarni bizga berdi. Sen nima qilib o'tiribsan, qo'yib ketgan mosh-guruchlarni nima qilding?

Qiz bir kepchik mosh, bir kepchik guruchni onasi oldiga olib chiqib qo'yibdi. Buni ko'rgan o'gay onaning dami ichiga tushib ketibdi.

Podshoning to'yini o'tkazib kelayotgan kam-pirlardan biri yo'lda botqoqqa botib qolgan bir moy chiroylar kavushni topib olibdi.

«Bu qanaqa kavush bo'ldi, umrimda bunday chiroylar, bejirim kavushni ko'rмаган edim», deb to'ppa-to'g'ri podshoning oldiga olib boribdi.

Podsho kavushni ko'rib, «Oyoq kiyimi shuncha chiroylar bo'lsa, kavushning egasi qanchalik chiroylar ekan-a. Egasi kim bo'lsa ham olaman, yurt-u olamni qidirib, shu kavushning egasini topinglar!» – debdi.

Ikkita kampir uyma-uy yurib, haligi kavushni har bir qizga kiygizib ko'ribdi, hech kimning oyog'iga to'g'ri kelmabdi. «Endi kimning uyi qoldi?» deganda, «Falon podachining uyi qoldi», deyishibdi.

«Podachining uyiga boringlar!» – deb buyuribdi podsho.

Kampirlar podachining uyiga kelishi bilan o'gay ona yetim qizni tandirga qamab, tandir og'zini kepchik bilan berkitibdi. O'z qizini yastib kampirlarga ro'para qilibdi. Kavushni qizga kiygazmoqchi bo'lishsa, uning oyoq uchi ham

sig'masmish. Buni ko'rgan onasi kalovlanib qolibdi.

Kampirlar endi ketaylik deb turganda, tovuq bilan xo'roz tandirning boshiga chiqib: «Bibi, bibi, bunda» dernish. Kampirlardan bittasi: «Tavba, tovuq ham gapiradimi? Tandirda bir gap borga o'xshaydi», – deb uni ochib qarasa, bir qiz o'tirgan emishki, go'yo hur paridek. So'ngra uni tandirdan chiqarib olib, kavushni kiygizib ko'risha, oyog'iga loppa-loyiq kelibdi. Kampirlar podsho oldiga borib: «Suyunchi, suyunchi!» deyishibdi va «Shunday bo'yи tolma, ikki yuzi olma, og'zi angishvonadek mohpora qizga loyiқ keldi», deb qizni podshoga ta'rif qilishibdi. Podsho har ikkala kampirga bosh-oyoq sarpo beribdi. To'y harakatiga tushibdi. O'gay onaning joni halqu-miga kelib, xo'roz bilan tovuqning boshlarini uzib tashlabdi.

To'y yaqinlashgan sari o'z qizini parvarish qilaveribdi. O'gay ona qizning ikki ko'zini o'yib, o'zini qamishzor to'qayga tashlabdi va uning o'rniqa o'z qizini uzatib boribdi. Podsho qarasa, judayam xunuk qiz emish.

Bir bo'zchi chol to'tilariga naycha qilish uchun to'qayga borsa, bir qiz muk tushib yig'lab yotgan emish.

Chol borib:

– E, bolam, nima bo'ldi senga, nega yig'laysan? – deb so'rabdi.

Shunda qiz voqeani birma-bir aytib beribdi.

Cholning qizga rahmi kelib:

– Bolam, menda na o'g'il, na qiz bor. Uyda birgina kampirim bor, u boyaqish charx yigirib ip qilib beradi, men bo'z to'qiyman, shu bilan kun ko'ramiz. Endi sen menga qiz bo'lgan, yolg'izlik kampirning ham joniga tekkan, – debdi.

Qiz rozi bo'libdi. Keyin chol qizni yetaklab uyga olib boribdi, kampir xursand bo'libdi.

Qiz kulsu – og'zidan gul, yig'lasa – ko'zidan dur to'kilar ekan.

Kunlardan bir kun kampir bir qiziq narsa gapirgan ekan, qiz qah-qah urib kulib yuboribdi, shunda og'zidan guldastalar to'kilibdi. Qiz cholga qarab:

– Otajon, mana shu gullarni savatga terib, podsho qasri oldidan o'tavering. «Gul keldi! Gul keldi!» deng. Agar podsho xotini chiqib, «Gulin-gizni sotasizmi?» desa, «Ko'zga sotaman» deng, – deb tayinlabdi.

Chol qiz aytganiday, «Gul keldi-e-e! Gul keldi-e-e!» deb o'taversa, podshoning xotini uni chaqirtirib so'rabdi:

- Guling necha pul?
- Gulimni pulga sotmayman, ko'zga alishaman.

Podshoning xotini yetim qizning sandiqda saqlangan ikki ko'zini chiqarib beribdi. Chol ko'zlarni keltirib beribdi. Kechasi qiz ko'zlari ni o'z o'rinlariga solib uxbab yotsa, g'or ichidagi kampir kelib, qizning ko'zlarini tuzatibdi. Qiz uyg'onsa, ko'zi chiroqdek ochilibdi, hamma yoqni dur bosib ketibdi. Kulgan sari og'zidan gullar to'kilarmish.

Kunda chol savat-savat gullarni, durlarni so-taverib boyib ketibdi, cho'llarni obod qilibdi, to'qaylarni gulistoniga aylantirib yuboribdi.

Bir kuni o'sha yurtning podshosi ovga chiqibdi. Qarasa, cho'l-biyobonlar obod bo'lib, tog' te-pasida mustahkam qo'rg'onlar paydo bo'lgan emish. Ilgarigi ov joylarida bulbullar, to'tilar, qumrilar sayrayotgan emish.

Podsho odamlardan:

– Bu yerni kim obod qildi? – deb so'ragan ekan, odamlar:

– Bo'zchi cholning qizi obod qildi, – deb javob berishibdi.

Podsho «Shu qizni bir ko'rsam, armonim yo'q edi», – deb kecha-kunduz orzuda bo'libdi.


Qiz bir kuni dugonalari bilan ovga chiqibdi. Ular daryoning u yuzida ov qilib yursa, bu yuzida podsho ov qilib yurgan ekan. Bir mahal shamol kelib qizning yuzidan pardani ko'taribdi. Podsho qizni ko'rishi bilan hushidan ketib, otdan yiqilibdi. Qizlar podshoni saroyga olib ketibdilar. Qiz podshoga:


– E, podsho, agar loyiq ko'rsangiz, vazirlarингиз, mingta yigitingiz va uy ichingiz bilan biznikiга mehmon bo'lib borsangiz edi, – debdi.

Podsho rozi bo'libdi va navkarlari bilan qizning uyiga mehmonga kelibdi. O'gay opasi podshoga turmushga chiqqandan keyin qizning otasi ham podsho vazirlari bilan birga yurar ekan. O'sha kuni ham qizning otasi podsho navkarlari orasida bor ekan. Qiz qirq qo'yni so'ydirib, turli nozne'mat bilan mehmonlarni kutib olibdi. Yarim

kecha bo'lganda, yuziga yetti qavat parda tutib, dutor chalib, boshidan o'tganlarni birma-bir aytib beribdi, keyin yuzidan pardani olib tashlabdi, podachi o'z qizini tanib, u bilan yig'lab ko'rishibdi va «Meni ko'rlik bosgan ekan, bolam», deb uzr so'rabdi.

Shunday qilib, qiz o'z otasi bilan tinch hayot kechira boshlabdi.





HALOL MEHNAT

Burungi o'tgan zamonda bir boy yashagan ekan. Uning juda katta boyligi bo'lib, bitta-yu bitta o'g'li bo'lgan ekan. Bola yoshligidan erka va arzanda, tantiq bo'lib o'sibdi. Otasidan keyin barcha mol-u dunyo shu o'g'liga qolibdi va u faqat oshnalari hamda ulfatlari bilan har kuni ziyofat ustiga ziyofat, bazm ustiga bazm qu'rib, bor boyligini sarflab bo'libdi. Barcha boylik batamom tugagach, yor-u jo'ralari ham kelmay qo'yibdi. Oshnalarinikiga borsa, boyvachchanning yuziga ham qarashmabdi. Boyvachcha o'zo'zidan nihoyatda xafa bo'libdi, afsus-nadomatlar chekibdi.

Kunlardan bir kuni, nima qilishini bilmay, onasidan maslahat so'rabdi. Onasi:

– Ey, bolam, mana, otangdan qolgan boylik senga vafo qilmadi, do'st-birodarlarling ham bizdan yuz o'girdi. Sen o'zing esa mehnat qilmading, mehnatdan qochding. Oxir-oqibatda mana shu ahvolga tushding. Endi, bolam, el aro chiqib, bir halol mehnat qiladigan kishiga sidqidildan xizmat qilib, halol non topsang, shunda turmushing but, o'zing baxtli bo'lasan, – debdi.

Shundan keyin yigit onasining so'zini olib, bir chanoch non bilan qo'liga bir ketmon olib, «hayt» deb halol kishiga xizmat qilish uchun jo'nab ketibdi. Yigit yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir qishloqda bir dehqonnikiga boribdi, u dehqonga salom beribdi.

– Qani, bobo, men halol mehnatning orqasidan kun kechiradigan kishiga xizmat qilaman, deb uzoq yerdan keldim, sizning mehnatingizni halol deb eshitdim. Meni xizmatga olsangiz, – debdi.

Dehqon bobo oltmishdan oshgan, soch-soqoli oqargan kishi ekan. Bobo bu gapni eshitib yigtni juda ham izzat qilib, uning hurmatiga ziyofat beribdi.

Ziyofat ustida: «O'g'lim, men ham nonim halol deb yurgan edim. Lekin mening nonim ham biroz shubhali bo'ldi. Chunki men qo'sh qo'shganimda mening yerimga yaqin joyda bir dehqonning yeri ham bor edi. Ho'kizimiz shuning bug'doyidan bir tishlam yeb qo'ygan. Men u dehqonni hali rozi qila olganimcha yo'q. Shuning uchun nonimning halolligiga ko'nglim to'lmaydi. Mana shu qishloqdan narigi qishloqqa o'tsangiz, mening Eraliboy degan akam bor. Ana shu akamning nonini ha-

lol desa bo'ladi. Shu akamnikiga boring», – deb javob berib yuboribdi.

Yigit ertalabgacha dehqon bobonikida mehmon bo'lib, keyin jo'nab ketibdi.

Yigit Eraliboynikini so'rab borsa, oldidan bir ko'kala soqolli kishi chiqibdi. U kishidan:

– Erali boboning uyi qaysi? – deb so'rabdi.

Shunda u:

– Erali bobo men bo'laman, – debdi.

Erali bobo yetmish yosha yaqinlashib qolgan chol ekan. Lekin hali ukasidan ancha tetik, soqoli ham uncha oqarmagan ekan. Yigit:

– Bobo, men mehnattalab bo'laman, kimning mehnati va oshi halol bo'lsa, shunga xizmat qilaman, – debdi.

Shunda Erali bobo:

– E, bolam, mening nonim halol edi, yaqinda halolligi ozroq shubhali bo'ldi, chunki mening yerimga bir qo'shнимning bir dona bug'doyi tushib, shu bug'doy o'sib, bosh tortib boshi pishdi. Men shu bir tup bug'doyning donini egasiga olib borib berdim-u, lekin somonini bera olmadim. Shuning uchun men o'z nonimni halol deb ayta olmayman, – debdi.

Bola nima qilishini, nima deb javob berishini bilmay turgan ekan, Erali boboning o'zi:

– Mana shu qishloqdan narigi qishloqqa o'tsangiz mening Sheraliboy degan akam bor. Shu kishining noni halol bo'lsa, ajab emas, – debdi.

Yigit bu yerda ham bir kecha yotib, juda izzat-u hurmat ko'ribdi. Erali dehqonga qoyil qolib, rahmat aytib, jo'nab ketibdi. Yigit yo'nga tushib kech kirgan paytda Sheraliboyning qishlog'iga

yetib boribdi. Sheraliboy degan dehqonning uyi-ni so'roqlabdi. Bundan xabar topgan Sheraliboy yigitga peshvoz chiqib, uni yaxshi kutib olibdi. Shunda yigit:

– Bobo, men mehnattalab bo'laman, sizning mehnatingiz va noningiz halol deb eshitib, xizmatingizga uzoq joydan keldim, – debdi.

Sheraliboy yetmishdan oshib, saksonga yaqinlashgan ekan, lekin hali o'zi baquvvat, qaddi tik, soqoli qop-qora ekan. Buni ko'rib yigit hayron bo'lib qolibdi va halol bo'lsa shu dehqonning noni halol bo'lar, deb o'ylabdi.

Sheraliboy:

– Bolam, mening nonim haqiqatan ham halol, mehnat qilib, peshona teri to'kib non yeb kelayotirman. Lekin men halol mehnat qiladigan, to'g'riso'z kishiga ish beraman, – debdi.

Shunday qilib, yigit Sheraliboynikida bir tanga pul evaziga bir yil ishslashga kelishibdi. Bu paytda yigit yolg'on gapirmabdi, halol mehnat qilibdi. Oradan bir yil vaqt o'tibdi. Kunlardan bir kuni yigit bir joyni tekislayman deb ketmon qo'ymoqchi bo'lgan ekan, bobo chopib borib ketmonini tortib olibdi-da:

– Bolam, mana, bir tangaga bir yil halol xizmat qilding. Endi bu ketmonni ursang, menga sening haqing ketadi, – debdi.

Sherali bobo shunday deb yigitga bir tanga berib, haqiga duo qilib, jo'natib yuboribdi. Yigit bobosi bilan xayr-ma'zurni quyuq qilib, dimog'i chog' bo'lib yo'lga chiqibdi.

Yo'lda juda katta bir karvon qirq tuyaga har xil qimmatbaho zeb-ziynat, kiyim-kechak ortib borayotgan ekan. Yigit karvonlardan, qani karvon bobolar, sizlarga yo'l bo'lsin, deb so'rabdi. Karvonlar, nasib etsa shahri Zilolga boramiz, debdi. Yigit:

– Men ham shahri Ziloldan bo'laman. Shahri Zilolda mening oilam, onam va xotinim bor. Sizlardan iltimos, men bozor qilib, oilamga, onamga va xotinimga kiyim-kechak va biroz meva-cheva berib yuborsam, olib borib berasizlarmi? – debdi.

Karvonlar rozi bo'lishibdi. Yigit haligi tangasiga bir-ikki chorak meva-cheva bilan bir qancha kiyim-kechak olib, karvonlarga topshiribdi. O'zi yo'lda davom etibdi.

Gapni karvonlardan eshititing.

Karvonlar yo'l yurib, yo'l yursayam oz emas, mo'l yurib, bir joyga borganda oldidan ikkita podshoning chopari chiqib qolibdi. Choparlar:

– Ey, karvonlar, bizning mushkulimiz juda ham og'ir. Shahar podshosining qizi nihoyatda kasal, uni tabiblar ko'rib, dardiga faqat anor shifo bo'ladi, ezib suvini ichiringlar, deyishdi. Bizning mamlakatda anor bo'lmaydi. Mabodo sizlarda anor yo'qmi? – deb so'rashibdi.

Karvonboshi:

– Bizlarda anor bor-u, lekin omonat-da. Bir yigitniki, qanday qilib, omonatga xiyonat qilib, uni sizlarga beramiz? – debdi.

– Bo'lmasa, – debdi choparlar, – bizlar sizlar bilan birga borib, yigitning oilasini rozi qilib, anoridan olib kelamiz, – deb karvonlar bilan birga boribdi.

Karvonboshi anor, kiyim-kechakni yigitning oilasi va ota-onasiga beribdi. Haligi birga borganlar yigitning oilasidan to'rt dona anor so'rabi. Yigitning xotini choparlarni izzat-u hurmat va ehtirom bilan qarshi olib, ulardan bir tanga ham pul olmay, podshoning qiziga bir nechta anor sovg'a qilibdi. Choparlarning nihoyatda dili chog' bo'lib, podshohga voqeani aytib berishibdi. Podsho xursand bo'lib, ularga sarpolar beribdi. Podshoning qizi anor yeb, darddan forig' bo'lib, tuzalib ketibdi. Bundan xursand bo'lgan shoh va malika choparlarni chaqirib, anor bergen yigitning oilasiga bir qancha qimmatbaho buyumlar, zeb-u ziynatlar, shohona liboslar berib yuboribdi.

Yigitning oilasi bu sovg'alarni olib, g'oyatda vaqt xush va shod-u xurram bo'libdi. Yigitning xotini juda ko'p boylikka ega bo'lib, o'xhashi yo'q bir ajoyib qasr qurdirib, yigitning onasi bilan yashayveribdi. Yigit ketayotganda xotini homilador ekan, vaqt o'tib, farzand tug'ilibdi. Chaqaloq o'sib ulg'ayib, yetti-sakkiz yoshga to'lib qolibdi.

Endi gapni yigitdan eshititing.

Yigit karvonlardan ajralgandan keyin bir bog'bonnikida besh yil halol mehnat qilibdi. Uning mehnatidan bog'bon ham nihoyatda xursand bo'libdi. Yigit bog'bondan juda ko'p hunarlarni: gul ekish, uni parvarish qilish, payvandlash usullarini, tokka qarash, olma, anor, nokni parvarishlash kabi ishlarni juda mukammal o'rganib olibdi. Bog'bon bilan ikkalasi inoqlashib, xuddi ota-boladay bo'lib ketishibdi. Har ikkalasi ham bog'da o'zlari par-

varish qilgan gullardan saralab terib, bozorga chiqarib sota boshlabdi. Yigit tayyorlagan gu'dastaga podshoh, beklar va vazirlarning qizlari ishqiboz bo'lib, ikki-uch baravar ortiq pul to'labdilar va undan yigit bilan bog'bon nihoyatda boy bo'lib ketibdi. Kunlardan bir kuni yigit bog'bon otasidan o'z yurti, shahri Zilolga jo'namoqchi bo'lib ruxsat so'rabdi.

Bog'bon yigitga ming tanga berib:

– Bozordan bir yaxshi uchqur ot olib kelng, minib ketasiz, – debdi.

Yigit ming tangani olib bozorga borsa, bir mo'ysafid chol:

– Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor. Ming tanga berganga sotaman, – deb yurgan ekan.

Yigit:

– Bobo, mana sizga ming tanga, – deb ming tangani sanab beribdi.

Shunda bobo:

– Bolam, achchig'ing kelsa ichingga yut, – debdi.
– Bo'ldimi? – debdi bola.
– Nasihatim shu, – debdi bobo.

Yigit nasihatni ming tangaga sotib olib, bog'bon otasinikiga quruq qaytib boribdi. Bog'bon erta-siga yana ming tanga berib, bozorga jo'natiibdi. Yigit bir ot olaman deb bozorga borsa, yana haligi chol: «Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor, ming tanga berganga aytaman», – deb yurgan emish.

Bola:

– Bobo, mana ming tanga, – deb tangani sanab beribdi.

Bobo:

- Bolam, ajal yetmay chirkay o'lmas, - debdi.
- Bobo, nasihatingiz shumi, - debdi yigit.

Bobo:

- Shu, - debdi.

Yigit yana bozordan quruq qaytibdi. Bog'bon unga hech nima demay, ertasiga yana ming tanga sanab berib, bozorga jo'natibdi.

Yigit bozorga borsa, yana shu chol: «Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor, kimda-kim ming tanga bersa aytaman», - deb yurgan emish.

Yigit:

- Bobo, mana ming tanga, nasihatingizni aytin, - debdi.

Bobo:

- Har kimning sevgani o'ziga yaxshi, - debdi.

Yigit bu nasihatni ham ming tangaga olib, keyin o'ziga o'zi: «Kel endi, yana bog'bon otamga jabr qilmayin», deb yayov yo'lga chiqibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursayam mo'l yurib, bora-bora karvonga yo'liqibdi.

Karvonlardan:

- Yo'l bo'ssin? - deb so'ragan ekan, karvon boshlig'i:

- Shahri Zilolga ketyapmiz, - debdi.

- Shahri Zilol borsangizlar, meni ham hamroh etib ola ketinglar, - debdi yigit.

Karvon boshlig'i rozi bo'libdi. Yigit karvonlarga qo'shilib yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Bora-bora cho'l-u biyobonga chiqib ketibdi. Cho'l-u biyobonda bir quduq bor ekan. Karvon chanqab, horib shu quduqqa boribdi. Karvonlar quduqqa qovg'asini tashlabdi, hech suv kelmabdi, yana tashlabdi, quduqdan suv chiqmabdi.

Shundan keyin karvonlar birin-ketin to'rt tuyakashni quduqqa tashlagan ekan, ulardan bittasi ham qaytib chiqmabdi. Keyin karvonboshi yigitga:

– Qani, yigit, sen kir. Agar suv bo'lmasa, bitta qolmay qirilib ketamiz, – debdi.

Yigit o'ylab-o'ylab: «Bobo, ajal yetmay chirkay o'lmas, degan edi. Kel-ey, ajalim yetsa, shu quduqning ichida o'larman, ajalim yetmasa, o'lmasdan qaytib chiqarman», – deb quduqqa qovg'a bilan tushibdi. Quduqning tagida ikkita bahaybat dev gaplashib o'tirgan emish. Birovi bir parini quchoqlab o'tirgan bo'lsa, birovi bir toshbaqani quchoqlab o'tirgan emish. Yigit quduqqa tushgandan keyin devlarning biri:

– Qani ayt-chi, ey, odamzot. Bu yaxshimi, u yaxshimi, – deb so'rabdi. Yigit o'ylab turib: «Bobo, har kimning sevgani o'ziga yaxshi degan edi, shuni aytaman», debdi va «Ey, barzangilar, har kimning sevgani o'ziga yaxshi-da», – debdi.

Shunda devlar:

– Qancha suv kerak bo'lsa, olaver, – deyishibdi.


Yigit juda ko'p suv tortib, karvonlarni va uning tuyalarini o'limdan qutqarib qolibdi. Haligi to'rt tuyachidan devlar: «Pari yaxshimi, toshbaqa yaxshimi?» – deb so'raganda: «Albatta, toshbaqadan pari yaxshi», degani uchun toshbaqani sevgan dev ularni o'ldirgan ekan. Ularning o'ligini ham chiqarib, shu joyga dafn etishibdi.

Yigitning mehnati evaziga karvonlar bittadan tuya va sovg'a-salomlar berishibdi. Yigitning tuyasi qirqta bo'lib, bir karvon qilib, shahri Zilol-

ga boribdi. Qarasa hovlisining o'rnidagi bir katta qasr bino bo'libdi. «Vo ajabo», deb hayron qolib, tuyalarini qo'yib, ichkariga kirsa, bir katta binoning ichida xotini boshiga sham yoqib qo'yib, uzun, kelishgan birov bilan yotgan emish.

Yigit jo'nab ketayotganda befarzand ekan, xotinini begona bilan yotganini ko'rib, «Ha, meni o'lib ketdi, deb, xotinim erga tegib olibdi-da», – degan xayolda haligi yotganlarning ikkovini ham chopib tashlamoqchi bo'libdi. Keyin o'ziga-o'zi, men «Achchig'ing kelsa ichingga yut», degan nasihatni ming tangaga sotib olgan edim-ku. Kel, shunga amal qilib achchig'imni yutayin, qani, xotinim nima der ekan, deb xotinini uyg'otsa, u, «Voy otasi, kelib qoldingizmi? Mana, o'g'lingiz Sherbadan ham sakkiz yoshga to'ldi. Ketganiningizga to'qqiz yil bo'ldi», – deb xursandchilikdan boshi ko'kka yetibdi. Yigit qimmatli nasihatga amal qilib, haqiqatning tagiga yetibdi.

Halol mehnat evaziga topilgan pulni sarflab, olgan nasihatlari yigitni boy-badavlat, farog'atda yashashiga sabab bo'lgan ekan.





SUV QIZI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Burungi zamonda Bo'ston shahrida Qahhor degan bir podsho bo'lgan ekan. Uning Tursunbek degan yolg'iz o'g'li bor ekan. Qahhor podsho har safar ovga chiqqanida bir daryoning bo'yidan o'tar ekan. Podsho bir kuni shu daryoning bo'yidan kelayotsa, chiroyli bir qiz suvdan chiqib, bir necha gaz sochini yoyib daryo suvida yuvib o'tirgan mish. Podsho qizni ko'rib yaqinroq kelibdi. Qiz podshoni ko'rib qochibdi. Suvga tushib g'oyib bo'libdi. Qahhor podsho qizni bir ko'rishi-dayoq oshiq-u beqaror bo'lib qolibdi. Lekin suvga tushishning iloji yo'q, dardi ichida, xafa bo'lib qaytib ketibdi. Uyidagilarga sezdirmay uzoq vaqt shu qizning dardida kuyib yuribdi.

Bir kuni podshoning o'g'li Tursunbek ota-sidan:

– Otajon, men endi katta bo'lib qoldim, siz meni haligacha hech qayoqqa chiqarmasdan uyda saqladingiz. Bugun siz menga ruxsat bersangiz, dono vaziringizning o'g'li G'ayrat bilan ov ovlab kelsak, – debdi.

Qahhor podsho o'g'lining gapini yerda qoldirmay:

– Mayli, bolam, G'ayrat bilan ikkovingiz ov ovlab o'ynab kelinglar. Lekin uzoq joylarga ketmanglar, – debdi.

Tursunbek bilan G'ayrat juda xursand bo'lib, otga minib, miltiqlarini olib dalalarga, o'rmonlarga ketishibdi. Bular ko'p joylarni aylanib yurib, otasi qizni ko'rgan daryoga yaqinlashib qolibdilari. Bularning kelishiga suv qizi oltin beshik bilan chiqib, beshikni tayyorlab, yigitlar tomonga qarab o'tiribdi. Tursunbek bilan G'ayrat qizning yoniga yetib kelishga o'n qadam qolganda, suv qizi oltin beshikni ko'tarib, Tursunbekka qarab jilmayib qo'yibdi-da, suvga tushib g'oyib bo'libdi. Tursunbek qizni ko'rib, unga xushtor bo'libdi va nima qilarini bilmay yig'lashni boshlabdi. Vazirning o'g'li juda ziyrak va aqli ekan. Tursunbekning suv qiziga oshiq bo'lganini sezib, unga:

– Shahzodam, yig'lashning foydasi yo'q, bir iloj qilib shu qizni suv tagidan topish kerak, – debdi.

Tursunbekning gaplari juda qo'pol ekan. U G'ayratga:

– Katta gapirma. Men suv tagiga tushib o'laymi. Sening menda qasding bormi? – debdi.

– Do'stim, unday fikrlar menda yo'q. Siz xafa bo'lib yig'laganingizga rahmim kelib aytgan edim. Agar ko'nglingizga keladigan bo'lsa, mayli, yuring, uyga ketaylik, – debdi G'ayrat.

Tursun otiga minishni istamabdi. G'ayratga qarab:

– Sen menga qaraganda dono va aqlisan. Endi menga bir yo'l ko'rsat, bo'lmasa men o'zimi ni o'ldiraman, – debdi.

– Men sizga yo'l-yo'riq ko'rsatay desam, jahlin giz chiqadi, – debdi G'ayrat.

– Xo'p, o'rtoq, u gapimni qaytarib oldim, endi nima qilaman, ayt, – bu gal Tursunbek ovozini pastlab gapiribdi.

G'ayrat otidan tushib:

– Otlarimizni bir yerga yashirib qo'yamiz, un dan keyin ikkalamiz qo'llarimizni mahkam ush lab o'zimizni suvga tashlaymiz. Baxtimiz bo'lsa, suv qizini suv tagidan topib olarmiz, – debdi.

Tursunbek rozi bo'libdi. Ikkovi u yoq-bu yoq-larga yurib, daryo chetidagi bir kampirning uyiga borib, otlarini kampirga topshirib o'zlarini daryoga tashlabdilar. Ikkalasi suvning tagiga tushib ketishibdi. Qarasalar suvning tagida bir uy bor ekan. Sekin borib eshikni taqillatishibdi. Eshikdan bir kampir chiqib:

– Nima gap, kimsizlar? – debdi.

– Buvijon, yerning odamlari edik. Suvga tushib o'ynaymiz deb, shu joyga kelib qoldik. Biz musofirlarni bir kecha uyingizda qo'ndirsangiz. Ertaga yo'limizni topib ketar edik, – debdi.

– Ha mayli, kiringlar, – debdi kampir.

Tursun bilan G'ayrat kampirning uyiga kirishibdi. Kampir ularga choy qaynatib beribdi. Kechasi yotish uchun joy solib berib:

– Bolalarim, kechasi uydan chiqmanglar. Oqibati yomon bo'ladi, – debdi.

Tursun bilan G'ayrat «xo'p» deb, yotib qolishibdi. Kampir bilan Tursun juda qattiq uxbab qolibdi. G'ayrat tun yarmida sekin o'rnidan turib, xanjarni olib uydan ko'chaga chiqib, aylanib yuribdi. Tashqarida qo'rqinchli narsa ko'rinxabdi. Nariroq borsa, bir taxt ustida yetti qavat pardaning ichida bir odam yotgandek bo'libdi. G'ayrat «qiz shu yerda yotgan bo'lsa kerak», deb o'ylab, sekin uyga qaytibdi. Kampir G'ayratning tashqarini aylanib kelganini sezmay qolibdi. Tong otib o'rinxaridan turishibdi. Kampir sandal ustiga dasturxon yozib, ularga choy beribdi. G'ayrat choy ichib o'tirib, kampirdan:

– Kecha bizlarga «hovliga chiqmanglar», degan edingiz, men yarim kechada hamma yoqni aylanib keldim, qo'rqinchli narsa ko'rinxadi. Nariroq borsam, yetti qavat parda ichida bir odam yotgandek ko'rindi, u kim, – debdi.

Kampir:

– U mamlakatimiz podshosining qizi bo'ladi. Shu qizning husni-chiroyiga ko'p odamlar devona bo'libdi. Ana shu qiz tong otmasdan burun chiqib bir pardasini ko'tarib qo'ysa, tong otib, hamma o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladi, – debdi.

– Siz shu qizni taniyisizmi? – debdi G'ayrat.

– Albatta taniyman, men u qizning doyasi bo'laman, – debdi kampir.

– Siz u tomonga bora olasizmi? – yana so'rabdi G'ayrat.

– Bora olaman, nima ishingiz bor edi? – debdi kampir.

– Hech ishimiz yo'q. Agarda borsangiz, shu qizga «kechagilar o'lmay qayerdan keldi ekan», deb ayting, – debdi G'ayrat.

Kampir «xo'p» deb, choyini ichib bo'lib, uylarini yig'ishtirib, qizning yoniga ketibdi. Borib qiz bilan ko'rishib:

– Kechagilar o'lmay qayerdan keldi ekan, – debdi. Qiz:

– Kechagilar keldimi? Kelsa ajab bo'libdi, – deb kulibdi. Kampirni mehmon qilibdi. Kampir uyiga ketmoqchi bo'lganda qiz kampirning qo'liga bitta paxta, bitta ko'mir berib:

– Kechagilarga bering, – debdi.

Kampir bergen narsalarni olib yo'lda ketayotib, «o'la qolsin, menga hech narsa gapirmasdan: «Mana shularni kechagilarga bering», dedi. Men ahmoq bo'lib, buni ularga olib borib berarmidim», deb yerga tashlab ketibdi. Ancha yo'l yurgandan keyin, «Men bu narsalarni bekor tashladim, qaytib olib borayin, buning bir xosiyati bordir», deb orqasiga qaytib, paxta bilan ko'mirni tashlagan joyidan olib uyiga boribdi. Paxta bilan ko'mirni G'ayratga berib, o'zi «bozorga borib kelay-chi», – deb chiqib ketibdi.

G'ayrat Tursunbekka:

– Bu paxta bilan ko'mirning xosiyatini bildin-gizmi? – debdi.

Tursunbek:

– Qaydan bilay, paxta paxta-da, ko'mir ko'mir-da, – debdi.

– Paxta bilan ko'mirni bilasiz, ammo qiz nima uchun paxta bilan ko'mirni bizga yuborganini tushunmaysiz. Siz eshititing, men aytib beray: mana bu paxtani yuborgani kunduzi hech kim-ga ko'rinnangiz degani, mana bu ko'mir bo'lsa, kechasi mening oldimga kelingiz degani, – deb Tursunbekka tushuntiribdi.

– Kechasi borganimizni kampir bilib qolsa nima qilamiz, – debdi Tursunbek.

– Ana shuning uchun kampirdan berkinib ketishimiz kerak, – debdi G'ayrat.

Ikkovi maslahatlashib kampir uqlab yotgan vaqtda uydan chiqib, qiz yoniga ketishibdi. Yetti qavat parda yoniga kelganda G'ayrat Tursunbekni uyga kirgizib yuborib, o'zi qorovul bo'lib turibdi. Tursunbek qiz bilan tanishib, qiz yonida o'tirib qolibdi. Tong otganda G'ayrat Tursunbekni chaqirib olib ketibdi. Shunday qilib, G'ayrat besh-olti kun Tursunbekni poylab yuraveribdi.

Bir kuni G'ayrat Tursunbekka:

– O'rtoq, endi qiz bilan kelishib, shahrimizga qaytish kerak. Bizning ota-onalarimiz nima ah-vollarda yurgan ekan. Men ham har kuni qorovul bo'lib uyqusizlikdan charchab holdan toydim, – debdi.

Tursunbek G'ayratdan bu so'zni eshitib:

– Qorovul bo'lganiningni minnat qilma, bormay qo'yaver. O'zimning oyog'im bor, borib kelavera-man, – deb G'ayratga qo'pol muomala qilibdi.

– Xo'p, juda yaxshi, boraqol, – deb G'ayrat va Tursunbekni jo'natib, o'zi uyga kirib maza qilib uxlabdi.

Ertasi erta bilan turib qarasa, Tursunbek kelmagan. Soat o'ngacha kutibdi – kelmabdi.

G'ayrat: «Bugun qo'lga tushib qolgan bo'lsa kerak, bir bozorga chiqib hangomalarni eshitib kelay», – deb o'rnidan turib, kampirlar kiyimini kiyib, bozorga boribdi. Bozordagilarning og'zidan: «Bugun podshohimizning qizini bir yigit bilan ushlab olishibdi», degan gapni eshitibdi. U xafa bo'lib uyiga qaytibdi. O'zining kiyimlarini ichidan, kampirning kiyimlarini sirtdan kiyib, qo'liga patnis ko'tarib zindon oldiga boribdi. Qorovullar: «Kimsiz?» deb kirgizmabdilar. G'ayrat kampir bo'lib:

– Voy, sizlarga nima bo'ldi, meni tanimay qoldinglarmi, men podsho qizining doyasi bo'laman, – degandan keyin qorovullar kampirni zindonga kirgizib yuborishibdi. G'ayrat zindonga kirib qarasa, Tursunbek bilan qiz xafa bo'lib o'tirishgan ekan. G'ayrat ular bilan ko'rishib, gaplashib olibdi. Maslahat bo'yicha qizga kampirning kiyimlarini kiygizib, paranjini yopintirib, qizni chiqarib yuborib, qiz o'rniغا G'ayrat o'zi qolibdi. Oradan bir-ikki kun o'tgandan keyin podsho zindondan qizi bilan yigitni olib kelishga buyruq beribdi. Qorovullar kelib qarasalar, qiz yo'q, ikki yigit o'tiribdi. Bularni chiqarib podshoning oldiga boribdilar.

– Qiz qayerda? – deb so'rabdi podsho.

– Podshohim, bizning oramizda hech qanday qiz yo'q. Biz yerning odamlari edik. Ov ovlab yurib suvga tushib ketdik. Qayerga borishimizni bilmay parda chetida yotib qolgan edik, bizlarni olib borib zindonga qamab qo'yishdi, – debdi G'ayrat.

Podsho jallodlarni chaqirib:

– Mening qizimga nohaq tuhmat qilgani uchun vazir bilan Yahyo polvonni dorga osinglar, – deb buyuribdi.

Jallodlar shu zahoti bu ikkalasini dorga osib-dilar. Podsho G'ayrat bilan Tursunbekning qo'liga noma yozib berib:

– Shahrimizda xohlagancha qolinglar. Ketishni istasangiz menga aytinglar. Men sizlarni o'z shaharlariningizga kuzatib qo'yaman, – debdi.

G'ayrat bilan Tursunbek o'limdan qutulganlariga shukr qilib kampirning uyiga qaytishibdi. Biroz dam olib, o'zaro maslahatlashishibdi.

G'ayrat:

– Tursunbek, o'rtoq, qizning yoniga bu gal borganingizda «Bu yerdan birqalashib qochaylik», deb ayting, – debdi.

Tursunbek rozi bo'libdi. Kech kirgach Tursunbek bilan G'ayrat qiz yoniga borib, bu yerdan qochishni taklif qilishibdi. Qiz ham rozi bo'libdi. Shu kuniyoq u yerdan qochib, suv yuziga chiqishibdi, keyin otlariga minib o'z shaharlariga qarab jo'nashibdi.

Endi gapni Tursunbek bilan G'ayratning ota-laridan eshititing.

Podsho bolalarining qayerga ketganini bilmay, xafa bo'lib, ko'p odamlarni yig'ib, har tomonga odam choptiribdi. Yuborgan odamlariga:

– Agar bolalarimni topmasangiz, hammangizni dorga ostiraman, – debdi.

Odamlar qo'rqqanlaridan turli shaharlarga, cho'l-u biyobonlarga qidirib ketishibdi. Odamlar-

dan uchtasi G‘ayrat bilan Tursunbekka uchrab qolib, ularni qidirib yurganliklarini aytishibdi.

Tursunbek:

– Siz bizdan oldin otamga borib: «G‘ayrat bilan Tursunbek suv qizini olib kelyapti», – deb xabar qilinglar, – debdi.

Bu uchovi ot choptirib, podsho oldiga keli-shibdi.

Podsho sirtidan suyungandek bo‘lsa ham, ichini it tirnaganday bo‘libdi. Hech kimga bildirmas-dan bir uyini alohida yasatib qo‘yibdi.

Yigitlar shaharga yaqin kelayotganda bir da-raxt ustida qarg‘a uch marotaba «qag‘, qag‘, qag‘» debdi. Qiz bu qarg‘aning ovozini eshitib Tursunbekka:

– Shu qarg‘a nima deyapti, aytib bersangiz shahringizga boraman, aytmasangiz o‘z shahrimga qaytib ketaman, – deb yo‘lidan to‘xtabdi.

Tursunbek:

– E, qiziq ekansiz, qarg‘a nima der edi, qor yog‘sins deb qor tilab turibdi-da, – debdi.

Qiz suv parisi bo‘lganligi uchun qushlar tili-dan ham ogoh ekan:

– Yo‘q, qor so‘ramayapti, balki biror xavfdan ogoh qilayotgandir, – debdi.

– U bir qush-ku, odamzotga qanday nasihat qilsin, – debdi Tursunbek.

G‘ayrat suhbatga aralashibdi va:

– Tursunbek uchun javob aytishga ruxsat be-ring, – debdi.

– Gapiring, – debdi qiz.

Shunda G'ayrat:

– Qarg'aning birinchi «qag» degani: «Otangning fizki buzildi. Seni o'ldirmoqchi, alohida uyni jihozlab, yasatib qo'yibdi», deyapti, ikkinchi «qag» degani: «Sizga alohida osh keltirib beradi, u oshga zahar solingan, ehtiyoj bo'ling! Yotganda bezatilmagan hujraga kirib yoting. Lekin unda ham bir ajdaho bor, ehtiyoj bo'ling, deyapti. Uchinchi qag'illaganida: «Bag'ritosh otangizning niyati yomon», deyapti, – debdi.

– To'g'ri, – debdi qiz.

Tursunbek indamabdi. Shu bilan otlariga minib yana ketaverishibdi. Shaharga yaqinlashganlarida podsho askarlari bilan kutib olib, o'g'lini yasatilgan, jihozlangan uyga taklif qilibdi. Tursunbek eshikdan qadam bosib kirmoqchi bolganda, G'ayrat Tursunning qo'lidan tortib: «Kirma!» deb ishora qilibdi. Tursun:

– Ota, keyin kirarman, – deb uyga kirmabdi.

Boshqa hujraga kirib o'tirishibdi. Ikki idishta ovqat keltirib, birini Tursunbekka qo'yibdi. Tursunbek yenglarini shimarib oshni yemoqchi bolgan ekan, G'ayrat yana qo'lini tortib qo'yibdi. Tursunbekning achchig'i kelibdi. G'ayrat hovlida yurgan kuchukni chaqirib, Tursunbekning oshidan picha solib beribdi. Kuchuk oshni yeb, shu zahoti o'lib qolibdi. G'ayrat:

– Ko'rdingmi, agarda yeganingda sen ham shunday o'lib qolar eding, – debdi.

Tursunbek otasiga vaziyatni bildirmaslik uchun G'ayratning oshidan eya boshlabdi.

Ovqatni yeb bo'lgandan keyin, kechgacha o'yin-tomosha qilib o'tiribdi. Yotar vaqtı yetibdi. Podsho o'g'lini chaqirib:

– O'g'lim, sen bugun mana bu uyda yotgin, xotining onangning oldida yotsin. Ertaga to'y-tomoshani boshlaymiz, – deb alohida bir uyga taklif qilibdi. Tursunbek:

– Men xotinim bilan maslahatlashay, rozi bo'lsa shu uyda yotarman, – deb otasining so'zini G'ayrat bilan xotiniga aytibdi.

– Qanday odamsan, hamma ishga tushunib turib qilaman, deysan. Mumkin emas. Uchovimiz birga ajdaho bor uyda yotamiz, – debdi G'ayrat.

Tursun otasiga borib:

– Xotinim unamayapti. Biz bitta xonada uxmlaymiz, – deb ajdaho bor uyni ko'rsatibdi.

Otasi:

– Mayli, ixtiyor sizda, – debdi.

Tursunbek bilan qiz uxmlab qolibdi. G'ayrat uxmlasdan qilichini yalang'ochlab ajdahoning chiqishini poylab o'tiribdi. Yarim kechada sandiqdan katta bir ajdaho chiqib Tursunni yutmoqchi bo'lib boribdi. G'ayrat shu zahoti qili-chi bilan ajdahoni burdalab tashlabdi. Ajdahoning qoni suv qizining yuziga sachrabdi. G'ayrat sachragan qon zahri qizga zarar qilib qo'ymasin, deb, qiz yoniga borib qizning yuzidagi qonni ar-tayotganida birdan Tursunbek uyg'onib qolib:

– Ha, sen mening xotinimni yaxshi ko'rар ekansan, – debdi.

G'ayrat ajdaho chiqqanini, uni o'ldirib qoni qizning yuziga sachraganini aytsa ham, Tursunbek G'ayratning gapiga ishonmay xafa qilibdi.

G'ayrat:

– Men sizga qancha yaxshilik qildim, bilma-dingiz. Menga tuhmat qildingiz. Sizdek o'rtoqdan kechdim, tosh bo'lib qolay, – debdi. Shu zahoti G'ayrat tosh bo'lib qolibdi.

Suv qizi:

– Siz yaxshilikni bilmas ekansiz, qanday bo'lsa ham o'ziga keltirish kerak, – deb Tursunbekni juda qattiq koyibdi.

Tursunbek nima qilarini bilmay:

– Men bunday bo'lishini bilmadim, men-ga xiyonat qiladi, deb o'ylardim, siz menga yo'l ko'rsating, – debdi.

Suv qizi:

– Bu toshni qirq kun cho'l-biyobonlarda ko'tarib yuring. Qirqinchı kuni o'z asliga keladi, – debdi.

– Siz yolg'iz qolasiz-ku, – debdi Tursunbek.

– Men shu uyda onangiz bilan o'tiraman, mening uchun g'am yemang, – debdi suv qizi.

Tursunbek suv qizi bilan xayrlashib toshni yelkasiga ko'tarib, qirq kun dasht-biyobonlarda yuribdi. Qirqinchı kuni kechqurun bir chashma bo'yida o'tirgan ekan, Xizr bobo kelib qolib-di. Tursunbek joyidan turib, salom beribdi. Xizr uning salomiga alik olib:

– Ha bolam, bu cho'l-u biyobonlarda nima qilib yuribsan? – debdi.

Tursunbek bo'lgan voqeanning hammasini ga-pirib beribdi.


Xizr bobo:

– Qani, o'g'lim, bir ko'ray-chi, – debdi.

Tursunbek toshni ko'rsatibdi. Xizr bobo has-sasi bilan toshni turtib:

– Hay, o'g'lim tur, nima qilib yotibsan, – debdi.

Shu zahoti G'ayrat boshini ko'tarib, salom beribdi. Xizr bobo G'ayratning salomiga alik olib, g'oyib bo'libdi. Tursunbek bilan G'ayrat quchoqlashib ko'rishib birga shaharga qaytib kelishibdi. Ertasiga podshoning yomon niyatlarini xalqqa fosh qilib, otasi o'rniga o'zi podsho bo'libdi. G'ayrat vazir bo'libdi. Qirq kecha, qirq kunduz to'y-tomosha qilib suv qiziga uylanib, murod-maqsadiga yetibdi.





HASAN VA HURILIQO

Qadim zamonda, Sharq mamlakatlarining birida Ahmadjon degan savdogar bo'lgan ekan. Uning Hasan degan o'g'li va Huriliqo degan qizi bor ekan.

Oylar, yillar o'tibdi. Ota-onasi o'lib, Hasan bilan Huriliqo yetim bo'lib qolibdi. Hasan bir boyning eshidiga xizmat qilib yuribdi. Bir qancha vaqt o'tgach, Hasanning xizmati boyga yo-qibdi. Boy o'zining Zulayho ismli qizini unga beribdi. Zulayho Hasanning singlisi Huriliqo bilan bir hovlida yashay boshlabdi. Hasan boyning xizmatini bajarib yuraveribdi.

Zulayho Huriliqoni yomon ko'rар екан. Qanday bo'lmasin uni yo'qotish payiga tushibdi. Bir kuni Hasan ishga ketganida uydagi butun

asboblarni hovliga olib chiqib, yoqib yuboribdi. Hasan ishdan kelganida Zulayho yig'lab-yig'lab:

– Singlingiz menga o'chakishib, hamma narsaga o't qo'ydi. Mening javobimni bering, men bu uyda bunday ahvolda yasholmayman, – debdi.

Hasanning achchig'i kelib, Huriliqoni qamchi bilan urib, qattiq qiy nabdi. Huriliqo yolvorib:

– Jon aka, men begunohni urmang. Men bu ishlarni qilganim yo'q. Kelinoyimning o'zi qilgan, – debdi.

Hasan Huriliqoning so'ziga qulq solmabdi.

Oradan bir yil o'tgach, Zulayho bir o'g'il tug'ibdi. Zulayho bolaga qaramabdi, uni Huriliqo parvarish qilibdi. O'g'il olti yoshga to'lganda juda ham shirin bo'libdi. Hasan o'g'lini juda ham yaxshi ko'rар ekan. Kunlardan bir kun Hasan boy bilan birga ovga chiqib ketishibdi. Zulayhoning fikri buzilib, kechasi Huriliqo uqlab yotgan vaqtida o'z bolasini pichoq bilan so'yib, pichoqni Huriliqoning ko'rpasiga tiqib qo'yibdi. Yarim kechada Hasan ovdan kelibdi. Zulayho Hasanni yig'lab kutib olibdi.

Hasan:

– Nimaga yig'laysan? – deb so'rabdi.

Ungacha Huriliqo ham uyg'onib o'rnidan turibdi. Zulayho bolasini qo'liga olib:

– Ko'rdingizmi, kechasi men uqlab qolgan vaqtida Huriliqo bolamni o'ldiribdi, – debdi.

Hasan juda xafa bo'lib, Huriliqoga:

– Nimaga o'ldirding, bola senga nima yomonlik qildi? Senday singilning bo'lmagani yaxshi edi, – deb baqiribdi. Huriliqo:

– Akajon, nima uchun meni bekordan-bekor urishasiz. Men nimaga ukamni o'ldiraman. Bunday vijdonsizlik mening qo'llimdan kelmaydi. Bu menga tuhmat, – deb yig'labdi.

Zulayho Huriliqoning ko'rpasini ochib, undan o'zi qo'ygan pichoqni olib:

– Yolg'on bolsa bu nima? Pichoqni ko'rpanqiz orasiga yashirib qo'yibsiz-ku, – debdi.

– Tuhmat qilganingizdan ko'ra, meni o'ldirtirib yuborsangiz ming marta yaxshi bo'lar edi, – debdi Huriliqo.

Hasan jahl ustida:

– Sen mening bittagina bolamni o'ldirding, senday singilning keragi yo'q, – debdi, g'azabiga chidolmay singlisining ikki qo'llini kesib, uyidan haydab chiqaribdi.

Bechora Huriliqo uydan chiqib, necha kunlar yo'l yurib, och-nahor qiynalib, bir boyning bog'iga yetib kelibdi. Bog' yonida qovun-tarvuz pishib yotgan ekan. Huriliqo kunduzlari bog'da yashirinib uxlarkan, kechalari esa turib polizdag'i qovunlarni yerkan.

Bir kuni polizning egasi Sultonxon o'g'illariga:

– Bolalarim, qovun-tarvuzlarimizni bir narsa g'ajib ketayotibdi. Polizni poylash kerak, – debdi.

Shunda boyning katta o'g'li qo'lliga yarog' olib:

– Men borib poylayman, – debdi.

Yarim kechagacha poylab o'tiribdi, hech narsa ko'rinxabdi. Keyin uxbab qolibdi. Ertasiga o'rnidan turib, otasi oldiga borib:

– Ota, hech narsa ko'rmadim, – debdi.

Boy ertasi kun qovun poliziga o'rtancha o'g'li ni yuboribdi. U ham kechasi uxlab qolibdi. Ertalab daladan qaytib kelib, otasiga:

– Qovun polizida men ham hech narsa ko'rghanim yo'q, – debdi.

Podshoning kenja o'g'li Anvar:

– Ota, endi meni yuboring, – deb yolvoribdi.

Otasi:

– O'g'lim, akalaringning qo'lidan hech narsa kelmadi, sening qo'lingdan nima kelar edi, qo'y, borma, – debdi.

Anvar akalariga qaraganda dono va aqlli yigit ekan. Otasiga:

– Ota, akalarim bajara olmagan ishlarni balki men bajararman, – deb turib olibdi. Boy Anvarning so'zini qaytarmay:

– Mayli, bolam, borsang bora qol! – deb javob beribdi.

Anvar xursand bo'lib, biroz tuz va pichoq olib tunni dalada o'tkazish uchun polizga ketibdi.

Kechqurun daladagi kapa ichiga kirib qorovul bo'lib o'tiribdi. Yarim kecha bo'lganda Anvarning uyqusi kela boshlabdi. Anvar uxlab qolishdan qo'rqib yonidan pichoq olib, barmog'idan biroz kesib, tuz sepibdi.

Barmog'inining og'rig'idan uyqusi o'chib ketibdi. Biroz vaqt o'tgach, polizda shitir-shitir tovushlar eshitila boshlabdi. Bu paytda Huriliqo sekin kelib qovunni eya boshlagan ekan. Anvar qizni ko'rib, yugurib boribdi va uni tutib kapaga olib kelibdi. Anvar Huriliqoning chiroyiga mahliyo bo'lib qolibdi va qizdan:

– Siz kim bo'lasiz, dalada nima qilib yuribsiz?
– deb so'rabdi.

Huriliqo yig'lab-yig'lab boshidan o'tganlarni Anvarga birma-bir so'zlab beribdi. Anvarning Huriliqoga juda rahmi kelibdi.

Tong otibdi. Anvar Huriliqo bilan otasining oldiga borib, ko'rgan-bilgan voqeasini unga aytib beribdi. Boyning qizga rahmi kelib, xizmatchilariga:

– Bu qizni yaxshi kiyintiringlar, bizning uyda yuraversin, – debdi.

Shundan keyin Huriliqo boyning xonardonida yashay boshlabdi.

Oradan bir necha vaqt o'tgach, Anvar boyning yoniga kelib:

– E, ota, sizga aytadigan bir so'zim bor, – debdi.

– Ayt, bolam, – debdi boy.

– Otajon, dalada poyloqchilik qilganimda Huriliqo menga yoqib qolgan edi. Agar rozi bo'sangiz unga uylansam, – debdi Anvar.

– O'g'lim, uylanadigan bo'sang senga podsholarning chiroyli qizlaridan olib beraman. U qizning ikki qo'li yo'q, cho'loq-ku, nima qilasan? – debdi otasi.

– Menga podsho qizi kerak emas. Cho'loq bo'lsa ham mayli, uni olib bermasangiz men dunyodan uylanmay o'taman, – debdi Anvar.

Boy o'g'lini juda yaxshi ko'rар ekan, uning bu so'zlaridan keyin, agar aytganini qilmasam, mendan xafa boladi, deb o'yabdi.

– Ha mayli, bolam, men roziman, – debdi.

Anvar juda xursand bo'libdi. Anvar bilan Huriliqoning to'yi bo'libdi. To'y-tomosha bir necha kun davom etibdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgach, boy Anvari chaqirib, unga uzoq bir yurtdan kelgan xatni ko'rsatibdi.

Bir mamlakatning podshosi o'lim oldidan fuqarolarini yig'ib: «Men o'lsam, o'rningga Sulton podshoning o'g'li Anvarni podsho qilinglar, u juda aqli, ham dono yigit», deb vasiyat qilib vafot etgan ekan. Fuqarolar maslahatlashib, Anvarni podsholikka ko'tarmoqchi bo'lib Sultonxonadan Anvarni so'ragan ekanlar.

Boy o'g'liga:

– O'g'lim, podsho bo'lib borasanmi? – debdi,

Anvar:

– Borsam boray, lekin xotinim Huriliqo homilador. Agar o'g'il tug'sa menga karnay-surnaylar bilan xabar bering. Agar qiz tug'sa xat yozing, – debdi. Otasi:

– Ma'qul, o'g'lim, – debdi.

Ertasiga Anvar ota-onasi va xotini bilan xayrlashib yo'lga chiqibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tayinlangan shaharga yetibdi. Xalq bilan tanishib taxtga chiqib, podsholik davrini sura boshlabdi.

Endi ikki og'iz so'zni Huriliqodan eshititing.

Huriliqo to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat deganda oltin kokilli bir o'g'il, kumush kokilli bir qiz tug'ibdi. Boy sevinibdi. Xat ham yozibdi, karnay-surnay ham chaldirib, Anvarga xushxabar yuboribdi. Xushxabar olib boradigan yigitlar Huriliqo tug'ilib o'sgan shahardan o'tar ekan. Navkarlar shu shahardan karnay-surnay chalib o'tayotganda Huriliqoning kelinoyisi Zulayho ko'chaga chiqib turgan ekan. Buni ko'rib Zulayho ajablanibdi. Ularning yoniga borib:

– Qayerdan kelib, qayerga borasizlar, qanday xushxabar olib ketayotirsizlar? – deb so'rabdi.

Xabarchi:

- Sulton boyning o'g'li Anvar boshqa shaharga podsho bo'lib ketgan edi. Uning qo'li yo'q, cho'loq Huriliqo degan xotini bor. Shu bir o'g'il, bir qiz tug'di. Biz Anvarga xabar olib ketayotibmiz, – debdi.

Zulayhoning fikri buzilib, Hasanning shaharda yo'qligidan foydalanib navkarlar oldiga tushibdi.

– Baribir, bugun Anvarning shahriga yetolmaysiz. Bugun mening uyimda mehmon bo'lib qolinglar, ertaga jo'narsiz, – debdi.

Bu gap xabarchilarga yoqibdi. Otlarini tashqariga bog'lab, Zulayhoning uyiga kirishibdi. Zulayho ularni yaxshilab mehmon qilibdi, sharob quyib berib, mast qilibdi. Yigitlar uxlab qolganlarida Zulayho ularning cho'ntaklarini kavlabdi. Birining cho'ntagidan Sultonxonning Anvarga yozgan xatini topib o'qibdi, uni yirtib tashlab boshqa xat yozib, unda: «Xotining Huriliqo kuchuk bilan mushuk tug'di. Nima qilamiz?» deb yozib, xatni navkarning cho'ntagiga solib qo'yibdi. Ertasiga tong otgandan keyin xabarchilar nonushta qilib, xatni ochib ko'rmay yo'nga ravona bo'libdi. Kechqurun Anvar podshoning shahriga yetib borishibdi. Podshoga xatni berishibdi. Anvar xatni o'qib ajablanibdi. Otasiga shunday xat yozibdi: «Ey, aziz otajonim, Huriliqo it bilan mushuk tug'sa ham borgunimcha yaxshi qarab turinglar. Yaqinda boraman. It bilan mushuk tug'ding, deb aslo ko'nglini ranjitmanglar».

Anvar xatni xabarchilarga berib yuboribdi. Ular xatni olib Huriliqo o'sib-ulg'aygan shaharga yetganda Zulayho yana ularning oldidan chiqibdi:

– Bugun tag'in bizning uyda mehmon bo'ling-lar, – deb xabarchilarni uyiga olib kiribdi.

Navkarlar ziyofatdan mamnun bo'lib, mast-alast uxbab qolishibdi. Zulayho yana navkarlar-ning cho'ntagini kavlabdi. Birining cho'ntagidan xatni topib olibdi, o'qib, yirtib tashlabdi.

Anvar podsho nomidan Sulton boy nomiga boshqa xat yozibdi: «Ey, qimmatli otajonim, Huriliqo menga kerak emas. Oltin kokilli o'g'il, kumush kokilli qiz tuqqan bo'lsa ham mening ko'zimga ko'rinxmasin. Mana shu xatim yetishi bilan Huriliqoning ikki ko'kragini kesib, bolalari-ni xurjunga solib, yelkasiga ortib, haydab yubo-ring. Agar men borganimda Huriliqoni bolalari bilan uyda ko'rsam ikkimizning oramiz buziladi, men sizday otamdan kechaman».

Zulayho xatni buklab navkarning cho'ntagiga solib qo'yibdi. Tong otgach, xabarchilar yo'lga tushibdilar. Bir kecha-yu bir kunduz yo'l yurib Sultonxonning saroyiga yetibdilar. O'rdaga borib xatni podshoga topshiribdilar. Boy xatni o'qib, juda xafa bo'libdi. «Bu nima gap, Huriliqo oltindek o'g'il bilan qiz tug'sa-yu, uning ko'kragini kesib tashla, uydan haydab yubor, emish. Bu qanday zulm, bedodlik», deb o'ylabdi. Hech kim-ga aytmay besh-olti kun juda xafa bo'lib, nima qilarini bilmay yuribdi.

Huriliqo juda ziyrak ekan. Boyning bunday xafaligidan Anvarning ko'ngil qoladigan xat yozganini sezib olibdi va boy huzuriga kiribdi-da:

– Otajon, nima bo'ldi sizga. Besh-olti kundan beri juda xafa ko'rinasiz? – deb so'rabdi. Boy ga-

pira olmay yig'lab yuboribdi. Huriliqoga Anvarning xatini uzatibdi. Xatni o'qib, Huriliqo ham yig'lab yuboribdi.

– Otajon, o'g'lingizning buyrug'i shunday bo'lgandan keyin bajarmay ilojingiz yo'q. Mayli, men roziman, o'g'lingizning aytganini qiling, – debdi. Sultonxon o'ylanib turib:

– Qizim, sening ko'kragingni kesib tashlamay, ikki qora ko'z bolangni xurjunga solib beray. Sen bu shahardan ket! – debdi.

Huriliqo rozi bo'libdi. Ikki bolani xurjunning ikki ko'ziga solib Huriliqoning yelkasiga qo'yibdi. Huriliqo xayrlashib, yig'lay-yig'lay yo'nga tushibdi.

Bir-ikki kun yo'l bosibdi. Uchinchi kun bir an-hordan egilib suv ichayotgan ekan, oltin kokilli o'g'il xurjundan suvga tushib oqib ketibdi. Huriliqo zor-zor yig'lab bir buloqning yonida yotib, ikkinchi bolasini emizib uxbab qolibdi. Shu payt Xizr bobo Huriliqoning oltin kokilli o'g'lini va akasi kesib tashlagan ikki qo'lini olib kelib, uni uyg'otibdi:

– Tur qizim, qimmatli narsalarin ni ol!

Huriliqo cho'chib uyg'onsa, yonida o'g'lini va kesib tashlangan qo'lini ko'tarib bir chol turgan emish. Huriliqo sevinib ketibdi, o'rnidan turib cholga salom beribdi.

– Vaalaykum assalom, qizim, bu o'g'il seni-kimi? – deb so'rabdi Xizr bobo.

– Meniki, otajon, – deb shoshilib javob beribdi Huriliqo. – Kelayotib, katta suvdan o'tayotganda xurjunimdan tushib, oqib ketgan edi.

– Bu qo'l kimniki? Taniysanmi? – debdi chol.

– Ha, otajon, mening ilgari xuddi shunday qo'llim bor edi. Kelinoyim menga tuhmat qilgani-da akam qo'llimni kesib, meni uydan haydab yuborgan edi, – debdi va boshidan kechirgan sarguzashtini aytib yig'labdi.

Xizr bobo Huriliqoning qo'llarini tuzatib qo'yib-di. Huriliqoning qo'llari avvalgiday soppa-sog' bo'libdi. Huriliqo rahmat aytibdi. Xizr Huriliqoning bir qo'liga yetti dona tosh, bir qo'liga qirq dona tosh beribdi:

– Qizim, yana bir kun yo'l yursang, falon yerda katta daryo bor, o'sha daryoga yetganda yetti dona toshni tashlasang, yetti ariqqa bo'linadi. Shu suvdan o'tib, yana bir kun yo'l yursang, bir cho'l-biyobon keladi. Qirq bir toshni tashlasang yaxshi uy paydo bo'ladi, davlatga ega bo'lasan. Bolalaring bilan o'sha yerda bemalol o'ynab-kulib yashayverasan, – deb, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Huriliqo toshlarni olib, yo'lga ravona bo'libdi.

Bir kun yo'l yurib, daryo labiga kelib, yetti dona toshni tashlabdi. Daryo yetti ariqqa bo'linibdi.

Suvdan sog'-salomat o'tibdi. Keyin yana bir kun yo'l bosib bir cho'lga yetibdi. Cho'lga qirq bir toshni tashlagan ekan, olamda yo'q imoratlar, bog'lar hozir bo'libdi. Darrov beshta xotin yugurib chiqib:

– Biz sizni kutib o'tirgan edik, xush keldingiz,
– debdi.

Huriliqoning qo'lidan bolalarini olib, uyga olib kirishibdi, uni besh-olti qavat ko'rpa cha ustiga o'tqazishibdi. Oldiga necha turli noz-ne'matlarni qo'yib, mehmon qilishibdi.

Huriliqo erining uyida kiymagan eng yaxshi kiyimlarni kiyibdi. Uylar chiroyli bezatilgan emish, bir qancha xotinlar uning xizmatida tayyor turgan emishlar. Huriliqo juda hayron bo'libdi.

Bog'larda turli mevalar pishib, tagiga tushib yotgan emish. Mevalar og'ziga tushsa boldek erib ketar emish.

Huriliqo bu shirin-sharbat, noz-ne'mat ichida yashayversin, endi ikki og'iz so'zni Anvardan eshiting.

Anvar podsholik qilib turgan shaharda vazir-vuzarolarini chaqirib:

– Men o'z shahrimga borib, o'n besh kunda qaytib kelaman, – debdi va ular bilan xayrlashib, o'z shahriga jo'nabdi. Bir necha kun yo'l bosib, o'z shahriga kelib uyiga kirsa Huriliqo yo'q, ota-onasi xafa bo'lib, g'am-g'ussa chekib o'tirgan emish. Anvar darrov otasidan:

– Huriliqo qani? – deb so'rabdi.

Podsho:

– Iye, tag'in so'raysan-a, o'g'lim, o'zing xatingda: «Huriliqo menga kerak emas, Huriliqoning ko'kragini kesib, tuqqan bolalarini xurjunga solib uydan haydab yuboring, agar men borganimda Huriliqoni bolalari bilan uyda ko'rsam, ikkimizning oramiz buziladi. Men sizday otandan kechaman», deb yozibsan-ku. Men noiloj Huriliqoning bolalarini xurjunga solib, yelkasiga qo'yib chiqarib yubordim. Qay tomonga ketgani ni bilmayman, – debdi.

Anvar:

– E, o'zingiz xatingizda Huriliqo bir ku-chuk, bir mushuk tug'di, degansiz. Men «Nima

tuqqan bo'lsa ham borgunimcha kutib turinglar» deb, xat yozgan edim, – debdi.

Otasi bu gapdan hayron bo'lib oraga dushman tushganini bilibdi. Anvar ham voqeaga tushungach:

– Menga podsholik kerak emas, hamma narsadan kechdim. Huriliqoni topsam bas, – deb uydan chiqib ketibdi.

Cho'l-biyobonlarni kezib yuribdi. Huriliqo yurgan yo'ldan ketaveribdi.

Anvar cho'llarda bora bersin, ikki og'iz so'zni Huriliqoning akasi Hasandan eshiting.

Hasan xotini Zulayhoning tuhmatchi ekani ni tushunib qolibdi. Qarindosh-urug'i bo'lma ganidan juda qayg'uribdi. Singlisi uchun g'am chekibdi. Ko'nglini ochish uchun shaharda ko'chama-ko'cha yurib tomosha qilibdi. Lekin ko'ngli hech ochilmabdi. Uxlasa tushiga hamma vaqt Huriliqo kirar ekan. Huriliqo dunyoda bor mikin, yo'qmikin deb o'ylab xafa bo'lar ekan. Bir kuni xotini bilan urishib qolib:

– Bor, kerak emassan, seningdek kasofatning dastidan singlimdan ham ajraldim, – debdi-da, uydan achchiqlanib chiqib ketibdi. Singlisi Huriliqoni izlab, cho'lma-cho'l yurib Anvarga yo'liqib qolibdi. Anvar:

– Ha, aka, siz ham menga o'xshab bu cho'l-biyobonda nima qilib yuribsiz? – debdi. Hasan:

– Oh, inim, mening bir singlim yo'qolgan edi. Shuni qidirib yuribman. Siz nima qilib yuribsiz? – debdi. Anvar:

– Mening xotinim yo'qoldi. Shu xotinimni qidi rib yuribman, – debdi.

– Xotiningizning ismi nima? – deb so'rabdi Hasan.

– Huriliqo, – debdi Anvar.

– Mening ham singlimning ismi Huriliqo edi. Biroq ikki qo'li yo'q edi, – debdi Hasan. Anvar ko'ziga yosh olib:

– Mening xotinimning ham ikki qo'li yo'q edi, bechora ko'p azoblarni tortgan ekan. Mening rahmim kelib unga uylangan edim, – debdi-da, Huriliqoning boshidan o'tgan sarguzashtini Hasanga so'zlab beribdi. Hasan o'zini tutolmay yig'lab yuboribdi. Anvar Hasanning yig'laganiga hayron bo'lib:

– Nega yig'layapsan? – debdi.

Hasan peshonasiga bir urib:

– Ana shu Huriliqo mening singlim bo'ladi. Xotinimning singlimga qilgan tuhmatini tushunmay uning ikki qo'lini kesib, haydab yuborgan edim, – deb yana ho'ngrab yig'labdi.

– Qo'ying, aka, yig'lamang, ikkovimiz bir kishi ni izlayotgan ekanmiz. Baxtimiz bo'lsa Huriliqoni topib olarmiz, – debdi Anvar.

Ikkisi boshqatdan quchoqlashib ko'rishibdi, bir-birini hurmat qilib, yo'lga ravona bo'lishibdi. Necha kun yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, Huriliqoning turgan joyiga kelishibdi.

Huriliqo o'sha vaqtida derazadan qarab tur gan ekan. Uzoqdan akasi bilan erini ko'rib, tanib qolibdi. U darrov ikki bolasini chaqirib:

– O'g'lim, sen borib «dada» deb, o'ng tomonda gi kishining qo'lini ushla, qizim, sen chopib borib «tog'a» deb, chap tomondagi kishining qo'lini ush lab, ikkingiz ularni uyga olib kiringlar, – debdi.

O'g'li bilan qizi uydan chopib chiqishibdi, kelayotgan kishilarga qarab yugurishibdi. O'g'il bola Anvarni «dada» deb, qiz bola Hasanni «tog'a» deb quchoqlab olibdi. Ularni bolalar uyga sudrabdi. Anvar bilan Hasan hayron bo'lib, bir-birlariga qarab bolalarni qo'lga olib uyga kirib-dilar. Huriliqo ular bilan birma-bir ko'rishibdi. Lekin ular hayron bo'lib, «yuzidan Huriliqoga o'xshaydi, lekin qo'li borligidan Huriliqo emas-ku», deb o'ylarmishlar.

Huriliqo turib eshikka chiqib ketibdi. Hasan Anvarga:

– Xuddi mening singlim Huriliqoga o'xshaydi, lekin qo'li bor, – debdi. Anvar ham xuddi shunday so'zni aytib ajablanibdi.

Huriliqo akasi bilan eri oldiga turli taomlar keltirib, ularni ziyofat qilibdi.

Hasan:

– Mening senga o'xshagan bir singlim bor edi. Uni yo'qotgan edim. Men o'sha singlimni izlab yuribman. Shu tomonlarga kelgan bo'lsa sen ko'rgandirsan. Ammo uning ikki qo'li yo'q edi, – debdi.

– Bu yerkaga siz aytgan odam kelmadi, ko'rganim yo'q, – debdi Huriliqo.

Hasan bilan Anvar ovqatlarini yeb-ichib jo'namoqchi bo'lishibdi.

– Shu joyda yotib qolinglar. Boradigan joyingizga ertaga borarsizlar, – debdi Huriliqo.

– Mayli, buguncha shu joyda yotsak yotaylik, – debdi Anvar.

Ular qolishibdi. Huriliqo Hasan bilan Anvari boqqa olib kirib, tomosha qildiribdi. Kech-

qurun yana ziyofat berib, atlas-shoyi ko'rpalar, ko'rpachalar solib yotqizibdi. Akasi bilan eri yotib uxbabdi. Huriliqo kechasi o'rnidan turib toza dur-marvaridlar va bir gavhar ko'zli baldoqni akasining cho'ntagiga solib qo'yibdi. Tong otibdi. Hasan bilan Anvar o'rinlardan turib, nonushta qilib, xayrashib yo'lga ravona bo'libdilar. Ular ketgandan keyin biroz vaqt o'tgach, Huriliqo ikki xizmatkorini chaqirib:

– Haligi ketgan odamlarni qaytarib olib keling-lar! – debdi.

Xizmatkorlar Hasan bilan Anvarning orqasidan yetib borib:

– Sizlarni Huriliqo chaqiryapti, – debdilar.

Hasan bilan Anvar hayron bo'lib qaytib keli-shibdi. Huriliqo achchiqlangan bo'lib ularga:

– Sizlar qanday uyatsiz odamlarsiz? Men sizni hurmat qilib ziyofat qilsam-u, sizlar mening oltin baldog'im bilan marvaridlarimni o'g'irlab olib ketibsizlar. Bu qanday gap? – debdi.

Hasan bilan Anvar:

– Biz olgan emasmiz, – deb qasam ichibdilar.

Huriliqo:

– Sizning olmadim, deganlaringizga ishon-mayman, cho'ntaklaringizni qarayman, – debdi.

Ular rozi bo'lishibdi. Huriliqo avval Anvarning cho'ntagini qarabdi. Hech narsa topolmabdi, keyin akasi Hasanning cho'ntagini qarabdi. Cho'ntakdan marvarid bilan baldoqni olib:

– Bu nima, nimaga olmadim deb, qasam ich-dingiz? – deb so'rabdi.

Hasan:

– Azbaroyi Xudo, men olganim yo'q. Ammo bিror kishi dushmanlik qilib solib qo'ygan bo'lsa kerak, – deb yig'lab yuboribdi.

Hasanning yig'laganiga chiday olmay Huriliqo ham yig'lab yuboribdi:

– Aka, men sizning singlingiz Huriliqoman. Ko'rdingizmi, siz shu marvarid bilan baldo-g'imni o'zingiz olganingiz yo'q, albatta. Men o'zim jo'rttaga cho'ntagingizga solib qo'ydim. Shunga o'xshash, Zulayho kelinoyim o'z bolasini o'zi o'ldirib, ko'rparm tagiga pichoqni yashirib qo'yib, menga tuhmat qilgan edi. Siz o'shanda menga zulm qilib, zor-zor yig'latib, qo'llarimni kesib, uydan haydab chiqargan edingiz, – debdi.

Hasan o'zini tutolmay yig'lab:

– Jigarim, singlim Huriliqo senmisan, – debdi.

Huriliqo akasi bilan boshqatdan ko'rishib:

– Menman, mana bu podsho mening qallig'im. Mana shu ikki bola shu kishining farzandi, – debdi.

Hasan bilan Anvar juda xursand bo'libdi. Har uchovi topishganiga xursand bo'lib bir necha kun birga yashabdi. Huriliqoning xizmatkorlari uydagi hamma buyumlarni bir qancha tuyalarga yuklab, Sultonxonning shahriga jo'nashibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, shaharga yetib kelibdilar. Huriliqo qaynota va qaynonasi bilan ko'rishib, boshidan o'tgan voqealar ni birma-bir so'zlab beribdi.

Boy xursand bo'lib, boshqatdan qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib beribdi.

Hasan singlisi bilan bir shaharda turishga ahd qilibdi. Anvar xotin, bola-chaqasi va Hasanni olib

o'zining podsho bo'lib turgan shahriga boribdi. U yerda Hasanni o'ziga vazir qilib olibdi.

Anvar navkarlarni chaqirib, Zulayho tuhmat qilib yozgan xatni topdiribdi. Shu ishlari uchun Zulayhonni jazoga hukm etibdi.

Anvar – podsho, Hasan – vazir, Huriliq esa podshoning dono xotini bo'lib umr kechirib, murod-maqsadlariga yetibdilar.





MALIKAYI GULIZOR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-da bir boyning Malikayi Gulizor ismli yakka-yu yolg'iz qizi bor ekan. «Qizimga ko'z tegmasin» deb, boy uni hovlidan tashqariga chiqarmas ekan. Gulizor juda go'zal, lekin o'z husnini o'zidan boshqa ko'rib quvonmagan ekan. Qiz o'n yetti yoshga kiribdi. Lekin ostona hatlab tashqariga chiqmabdi. Otasi hovli ichida qizi uchun bir deraza qurib bergen ekan, qiz faqat ana shu derazadan qarab o'tgan-ketganni tomosha qilar ekan. Kunlardan bir kuni boy o'zining ishi bilan ketganida, qizi oynadan qarab o'tirsa, deraza tagidan bir xushsurat yigit o'taveribdi. Shunda qiz:

– Hoy yigit, kel, men bilan o'yna, – debdi zerikanidan.

Yigit qarabdi-yu, qizning husn-jamolini ko'rib behush bo'lib yiqilibdi.

Qiz esa:

«Bu yigit mendan qochib ketdi, meni yoqtirmadi», deb orqasiga qarab o'tiraveribdi.

Ikkinchı kun yana boy o'z ishi bilan ketganida, qiz deraza oldiga kelib o'tgan-ketganni tomosha qilib o'tirsa, kechagidan ham xushsurat bir yigit deraza tagidan o'tayotgan ekan. Qiz derazadan qichqiribdi:

– Hoy yigit, kel, men bilan o'yna.

Bu yigit ham bir qarabdi-yu, aqli-hushidan begona bo'lib qolibdi. «Bu yigit ham meni yoqtirmadi», deb o'yabdi qiz. Lekin yigit kun botguncha derazaga qarab turibdi, qiz esa qaytib ko'rinxabdi.

Uchinchi kuni boy ishiga ketganda qiz yana deraza oldiga kelib o'tirsa, bir yigit o'tayotgan emishki, bu yigit avvalgi ikki yigittan ham xushsurat emish. Qiz zerikib o'tirgan emasmi, darrov bu yigitni ham chaqiribdi:

– Hoy yigit, kel, men bilan o'yna.

Bu yigit ham bir qarashda aqli-hushidan begona bo'lib yiqilibdi. Qiz esa: «Bu yigit ham meni yoqtirmadi. Nahotki, meni hech kim yoqtirma-sa?» deb o'yab, rosa yig'labdi. Yigit bo'lsa to kechgacha deraza oldidan ketolmay, Gulizorning ishqida kuyib-yonib o'tiraveribdi. Dam-badam derazaga qarabdi, lekin qiz hech ko'rinish bermabdi. Yigitlar uchta bo'libdi, qiz bitta.

Kunlardan bir kuni qiz derazadan qarab o'tirsa uch yigit deraza oldida aylanib yurganmish. Malikayi Gulizor nima qilarini bilmay, uch yigiti ham chaqiribdi.

– Mening otam bir zolim, sizlarni bu yerda ko'rib qolsa meni ham o'ldiradi, sizlarni ham. Yaxshisi, men bilan o'ynamay ketaveringlar, – debdi qiz.

Biroq yigitlar bir qadam ham nari ketmabdlar. Biri «Menga teg», yana biri: «Menga teg» deb uch yigit har qaysisi bir gapni aytaveribdi. Qiz esa qaysi biriga nima deyishni bilmay boshi qotib qolibdi.

– Uchovingiz ham yaxshi yigitsiz, lekin men uch yigitning emas, bir yigitning xotini bo'lishim mumkin. Shuning uchun talashmanglar-da, menga o'ylashga vaqt beringlar, – debdi Gulizor.

Yigitlar esa hech biri oldin ketgisi kelmay, bir-birlarining ketishini kutishibdi. Lekin hech biri o'rnidan jilmaganini ko'rib:

– Nima uchun talashasiz, men hozir hech qaysingizga bir so'z deya olmayman, hammalaringiz ertaga kelinglar, shunda javob beraman, – debdi qiz.

Yigitlar ketishibdi. Tong otibdi. Uch yigit ham tong otishi bilan qizning derazasi ostida, qizdan javob kutib turaveribdilar. Qiz otasini ishga kuzatib, yigtlarning oldiga chiqibdi-da:

– Sizlarga olti oy muhlat, olti oy ichida mening ko'nglimga xush keladigan bir narsa olib kelasiz, uchovingiz ham bir kunda, bir soatda kelasiz,

shunda, qaysi biringizning olib kelgan narsangiz yoqsa shunga tegaman, qolgan ikkingizga esa singil bo'laman, – debdi Gulizor.

Qiz belgilagan kunni hammasi ko'ngliga tugib, uch yigit ham shahardan chiqib jo'nabdi. Qiz esa uch yigitni kuzatib, qaysi biri yaxshi ekanini ayira bilmay, uchovidan qaysi birini sevarini bilmay, olti oylik muhlat o'tishini kutib qolaveribdi.

Qiz qolaversin, gapni yigitlardan eshitamiz.

Yigitlar katta bir shaharga yetib boribdilar. Bu shaharga yetib borguncha ikki oy piyoda yo'l bosibdilar. Bechora oshiqlar borgunlaricha cho'ntagidagi hamma pullarini yeb-ichib, shaharga kirganlarida bir chaqa ham qolmabdi.

Uch yigit bir yerga yig'ilishib maslahat qilibdilar. Biri aytibdi:

– Do'stlar, hech qaysimizda bir pul yo'q, shuning uchun har qaysimiz bir ish qilib, pul to'playlik, ikki oylik yo'l ekan, demak, ikki oy ishlab pul topsak, ikki oyda yetib borsak, olti oy o'tadi.

Ikki yigit qabul qilibdi. Har qaysisi o'zlariga ish topishibdi. Birinchi yigit bir baliqchining qozoniga o't yoqadigan bo'libdi. Ikkinci yigit bir boyning yeriga don sochib, ekin ekibdi, uchinchi yigit bir bog'bonga shogird bo'libdi. Shunday qilib, uch yigit to'rt oy rosa ishlashib, har qaysisi yuz tangadan pul to'plabdi.

To'rt oydan keyin bular bir yerga to'planishibdi, lekin qanday qilib olti oy o'tib ketganini bilmabdilar. Qizning sharti va muddati yetib qolganini ham endi bilibdilar. Qizning muddati bozor kuni-

ga to'g'ri kelibdi. «Endi qanday qilib boramiz, hali hech nima olganimiz ham yo'q» deb qayg'uribdilari. Shunday bo'sa ham, yigitlar bozorga kirib, har qaysisi qiz uchun bir sovg'a olmoqchi bo'libdi.

Bozorga kirib borib, u yoq-bu yoqni qarab yursalar, bir kishi ko'zgu sotayotgan ekan. Birinchi yigit o'zicha: «Bu ko'zgudan birini olib borsam», deb o'yabdi va ko'zgu sotuvchi yoniga borib:

- Ko'zgularingizning bahosini aytинг, – debdi.
- Bu ko'zgu bir tanga, mana bunisi esa yuz tanga, – deb ko'zgularni ko'rsatibdi ko'zgu sotuvchi.
- Sabab nima? – deb so'rabdi yigit.
- Sabab shuki, bu ko'zguda faqat o'zingni ko'rasan, shuning uchun bir tanga, mana bu ko'zguda esa ikki oylik yo'l uzoqdagi sevgilingni ko'rishing mumkin, shuning uchun yuz tanga, – debdi sotuvchi.
- Menga yuz tangalik ko'zguni bering, – debdi yigit va sehrli ko'zguni olibdi. Yigit ko'zguni olib, hech narsani ko'rmagandek, ko'zguni cho'ntagiga solib yuraveribdi.

Ikkinci yigit qo'lida ikkita gilam olib turgan savdogarning yoniga boribdi. Gilamlar ham juda chiroqli ekan, ikkinchi yigit o'zicha: «Bu gilam sevgilimga ajoyib sovg'a bo'lar», deb o'yabdi. Yigit gilamchidan gilamlarning bahosini so'ragan ekan, gilamchi ham:

- Birining bahosi bir tanga, birining bahosi yuz tanga, – debdi. Yigit sababini so'ragan ekan, gilamchi:

– Bu gilamda faqat o'tirib maza qilasiz. Bu gilamda esa ikki oylik yo'lni ikki soatda bosib bora-siz, – deb sotuvchi gilamlarni ko'rsatibdi.

Yigit sehrli gilamni olib, bu gilamning sehrli ekanligini hamrohlariga aytmay, ko'zgu olgan do'stining yoniga kelibdi.

Uchinchi yigit bozorda yurib, bir bog'bonning olmasi oldiga kelib to'xtabdi. Bog'bon ikki xil olma sotayotgan ekan. Olmalardan birining bahosi bir tanga, yana birining bahosi yuz tanga. Yigit sababini so'rabdi. Shunda bog'bon aytibdi:

– Bir tangalik olmani yesang yeb qo'yaverasan. Yuz tangalik olmani o'lgan odamga hidlatsang jon kiradi, yedirsang avvalgi holiga kelib qoladi, – debdi bog'bon.

Yigit yuz tangaga sehrli olmani olibdi.

Shunda uch yigit bir yerga chiqishib:

– Endi nima qildik, qani nimalarni oldik, bir ko'raylik, – debdilar.

Avval ko'zgu sotib olgan yigit o'z sovg'asini ko'rsatibdi va uni sinovdan o'tkazmoqchi bo'lib, ko'zguga:

– Qani, Malikayi Gulizorni ko'rsat! – debdi.

Ko'zgu Malikayi Gulizorni ko'rsatibdi. Qarasalar, Malikayi Gulizor o'lib yotganmish. Qarindoshlari esa faryod urib yig'layotgan emishlar.

– Nima qildik? – debdi yigitlar bir-birlariga.

Gilamli yigit aytibdi:

– Ikki oylik yo'lni ikki soatda bosib o'tadigan gilam olganman. Chiqing ustiga, hozir yetib boramiz, – debdi.

Uchalasi gilamga o'tirib:

– Uch gilamim, yetkaz Malikayi Gulizorga, – debdilar.

Shu ondayoq gilam osmon-u falakka uchib, ikki soat o'tar-o'tmas Malikayi Gulizorning hovlisiga yetkazibdi. Uch yigit qizning qarindoshlarini nari-beri itarib, hech qaysisiga qulq solmay, to'g'ri qizning oldiga borishibdi. Shu vaqt olma olgan yigit qizning burniga olmani yaqinlashtirib hidlatgan ekan, qiz bir aksirib ko'zini ochibdi. Yigit olmani qizga yedirgan ekan, qiz avvalgidek sapchib o'rnidan turib, butunlay sog'ayib ketibdi. Qarasa, hovli to'la odam. Uch yigit ham bor.

– Nima gap, bir narsa bo'ldimi? – debdi qiz.

Hammalari hayron bo'lib, qizning yuzi-ko'zidan o'pib, yigtlarning boshidan tanga-tillalar sochibdilar. Motamxona hovli to'yga aylanibdi.

– Mana, aytgan kuningiz yetib keldi, biz ham yetib keldik, – debdi yigitlar.

Birinchi yigit ko'zguni qizga beribdi:

– Agar bu ko'zgu bo'lmasa, biz ko'rmagan bo'lardik, siz esa allaqachon mozorda yotgan bo'ladtingiz. Mening sizga eng yaxshi sovg'am shu, – debdi.

Qiz ko'zguni olib yigitga ta'zim qilibdi.

Ikkinchi yigit qizga gilamni berib:

– Agar bu gilam bo'lmaganida ikki oylik yo'ldan kim kela olar edi, albatta, ko'zgu ham foydasiz bo'lardi, – debdi.

Qiz bu yigitga ham ta'zim qilibdi.

Uchinchi yigit indamay turaveribdi. Shunda qiz:

– Xo'sh, siz nima bilan meni shod qilasiz? – debdi.

– Nima ham deyman, beradigan narsam yo'q,
– debdi yigit, keyin so'zida davom etib, – bir olma
olib kelgan edim, uni yeb qo'ydingiz.

Qiz:

– Demak, sizning olmangiz bilan men tirilgan
ekanman-da, – debdi.

– Shunday, – debdi yigit.

Bu gap-so'zlarni hamma eshitib turgan ekan,
qiz xaloyiqqa yuzlanibdi:

– Men mana shu uch yigitning birisiga xotin
bo'lishim kerak. Biri ko'zgu bilan mening o'lganim-
ni bilibdi, ikkinchisi ikki oylik yo'ldan do'stlarini
birga olib yetib kelibdi, uchinchisi esa menga jon
kiritibdi, qaysi birisiga ma'qul deysizlar?

– Ko'zgu – naqd narsa ekan, oladi-yu, nasiya
bo'lmaydi, gilam ham mana, berasiz-u qutulasiz,
lekin sizga jon kiritgan olmani qaydan olib bera
olasiz, siz ana shu olmani olib kelgan yigitga xo-
tin bo'lasiz, – deyishibdi odamlar.

Bu gap hammalariga ma'qul bo'libdi. Malikayi
Gulizor:

– Ko'zgu bo'lmasa ko'rмаган bo'lardingizlar,
gilam bo'lmasa kela olmas ekansizlar, lekin olma
bo'lmasa na ko'zgu, na gilam meni ajal qo'lidan
olib qolar edi, endi hammangiz shu yigitning mu-
nosib yori bo'lishga ruxsat bersangizlar, – deb
ikki yigitga yuzlanibdi.

Yigitlar ham o'ylanib, oq ko'ngillik bilan rozi
bo'lishibdi va Malikayi Gulizor bilan singil tu-

tinib, olma olib kelib yedirgan yigitga to'y qilib berishibdi. Bu ishga qizning qarindoshlari, otasi ham rozi bo'lishibdi.

Malikayi Gulizor ham munosib yor topib, yigit ham sevganiga yetib, hammalari shod bo'lib, murod-maqsadlariga yetibdilar.

Eshitganlar ham yaxshi niyatlariga yetsinlar.





BESH QIZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Burungi zamonda, Sharq mamlakatlarining birida, Kalla bozor mahallasi-da go'zallikda tengi yo'q, aqli raso Karomatxon ismli bir qiz yashar ekan. U bir kuni bozorga borib, ro'zg'or uchun go'sht, yog', guruch, sabzi, piyoz va shunga o'xshagan mayda-chuyda narsalarini olibdi. Olgan narsalarini ko'tarib olib borish uchun bozordan bir hammol yollab, uyiga qaytibdi. Hammol qo'lidagi narsalarini ko'tarib qizning hovlisiga kelibdi. U umrida bunday hovlini ko'rmagan ekan, hayron bo'lib og'zi ochilib qolibdi. Hovli juda chiroyli ekan. Turli mevali daraxtlar, mevalar og'zingga olsang asaldan

ham shirin. Hovlining o'rtasida katta hovuz. Hovuzning atrofida bir-biridan chiroyli to'rtta supa bor ekan. Supalarning ustiga anorday qizil gilamlar yozilib, atlas, shoyi ko'rpachalar solingan ekan. Supalarning atroflarida turli-tuman, xush isli gullar ochilib turgan emish. Uning zinasida ikki it oltin zanjirda bog'langan holda yotar ekan. Hammol bu ziynatlangan hovliga kirib tomosha qilib turibdi. Karomatxon uyga kirib, bir tilla olib chiqib hammolga beribdi. Hammol qo'liga tillani olib, bir tillaga, bir Karomatxonga qarabdi. Bu ahvolni ko'rgan Mo'tabarxon: «Karomatxon, hammolga yana bir tilla olib chiqib ber, oz deb bilmasin!» – debdi. Karomatxon uyga kirib yana bir tilla olib chiqib beribdi. Hammol bu tillani olib hayron bo'libdi. Mo'tabarxon hammolga:

– Nega hayron bo'lib turibsiz, tilla ozmi? – debdi.

Hammol:

– Men bu ikki tillani zo'rg'a topar edim. Sizlarning ozgina narsangizni ko'tarib olib kelganimga ikki tilla berganiningizga hayronman. Menga hazillashib berdingizmi yoki rostdanmi? – deb so'rabdi.

Mo'tabarxon:

– Siz bilan nega hazillashamiz, albatta, rostdan berdik, – debdi.

Hammol sevinib, xursand bo'lib tillalarni cho'ntagiga solibdi. Shu vaqtda ko'cha darvoza-si taqillab qolibdi. Karomatxon yugurib chiqibdi. Ko'chada uchta ko'r yigit turgan ekan.

Ular:

– Biz bir musofir yigitlarmiz. Agar mumkin bo'ssa, bugun sizlarning hovlingizda tunasak,

ertaga boradigan yerlarimizga ketar edik, – debdilar.

Karomatxon:

- Men opamdan so'ray, – deb uyg'a kirib bu so'zlarni Mo'tabarxoniga aytibdi.
- Musofirlar bo'lsa ayt, kirsinlar! – debdi Mo'tabarxon.

Karomatxon chiqib ko'rlarni boshlab kiribdi. Ko'rlar kirib Mo'tabarxoniga salom beribdilar. Mo'tabarxon ularning salomini qabul qilib, bezatilgan supalarining biriga taklif qilibdi. Ko'rlar chiqib o'tiribdilar. Mo'tabarxon mehmonlar oldiga dasturxon yozib katta patnisga turli mevalar va shirinliklar qo'yibdi. Choy damlab, piyolaga quyib mehmonlarga uzatibdi.

Mo'tabarxon Mukarramxonga:

- Sizlar ovqatga harakat qiling! – debdi.

Mukarramxon go'sht, sabzi-piyozni to'g'rab, ovqatga harakat qilibdi. Osh damlabdi. Musofirlar choylarni ichib bo'libdilar. Mo'tabarxon das-turxonlarni yig'ishtirib olib:

- Mukarramxon, uydan sozlarni olib chiq, kel-gan mehmonlarga kuy chalib beraylik, – debdi.

Mukarramxon uyg'a kirib, dutor, tanbur, g'ijjak olib chiqibdi. Mo'tabarxon g'ijjakni olibdi, Mukarramxon qo'liga tanbur olibdi. Karomatxon dutor chalib, opa-singillar ashula boshlabdilar. Bular o'yin-tomosha qilib tursin. Endigi so'zni boshqa yoqdan eshititing.

Shu shaharning odil podshosi shu kuni o'zing dono vaziri bilan maslahatlashibdi.

- Kechalari xalqimiz nima ishlar bilan mashg'ul bo'lar ekan, bir sinaylik, – debdi.

Vazir bu so'zni ma'qul ko'ribdi. Ikkalasi savdogar kiyimlarini kiyib, ikkita otni minib shaharni aylanib yurib, Mo'tabarxonlarning mahlasisiga kelib qolibdi. Mo'tabarxonlarning soz chalib aytgan ashulalari podshoning qulog'iga eshitilibdi. Podsho bu mungli ovozlarni eshitib havasi kelibdi. Biroz eshitib turib, vaziriga:

– Shu hovliga kirib ko'raylik, – debdi.

Vazir: «xo'p» debdi. Darhol otdan tushib darvozani taqillatibdilar. Karomatxon dutorini qo'yib, yugurib chiqibdi. Podsho:

– Biz musofir savdogarmiz, kechasi kelib tunashga joy topolmay, shu joyga kelib qoldik. Sizlar hali yotmagan ekansizlar, sizlardan iltimos qilib so'raymiz. Shu bugun bir kecha bizga hovlingizdan joy bersangiz, yotib ertaga ertalab ket-sak, – debdi.

Karomatxon bu ahvolni Mo'tabarxonga aytibdi.

– Musofirlar bo'lsa kirsin! – debdi Mo'tabarxon.

Karomatxon chiqib musofirlarni olib kiribdi. Podsho salom berib hammalari bilan ko'rishibdi. Mo'tabarxon bu mehmonlarga ham ko'rilar qatoridan joy beribdi. Yangitdan dasturxon tortibdi. Choylar ichilib bo'lgandan keyin, Mo'tabarxon kelgan mehmonlarga yuzlanib, shunday debdi:

– Bu kech sizlar bizning mehmonimizsiz. Endi bizlar nima harakat qilsak, ajablanib savol bermanglar. Agar harakatimiz ustidan savol bersangiz qattiq jazo beramiz, – debdi.

Musofirlar bunga rozi bo'lishibdi. Mo'tabarxon o'rnidan turib bir oltin laganga palov suzib podsho bilan vazir oldiga qo'yibdi. Ikkinchilagandagisini ko'rlnarning oldiga qo'yibdi. Uchinchi

lagandagini esa hammolga, to'rtinchi lagandagi palovni o'zlarining oldilariga qo'yishibdi. Ovqat-dan keyin choy ichilibdi. Undan keyin dasturxonlar yig'ishtirilib yana ashula, soz, o'zin boshlanibdi. Yarim soat o'tgandan keyin, sozlarni uyga olib kirib qo'yibdilar. Mo'tabarxon Mukaramxonga:

– Ikkita kuchukni keltir! – debdi.

Karomatxon qozondagi oshni ikkita oltin tovoqqa suzib keltiribdi. Mo'tabarxon qamchi bilan kuchukni holdan ketguncha savalabdi. Kuchuklar xuddi odamdek yig'lar emish. Mo'tabar ura-ura charchabdi. Qo'lidagi qamchini tashlab, kuchuklarning boshlarini silab, yuzlaridan o'pib, oltin tovoqdagi oshni beribdi. Kuchuklar yeb to'ygandan keyin ularni yana o'z joyiga bog'labdi. Bu ahvolni ko'rgan musofirlar hayron qolishibdi. Ayniqsa, podsho ajablanib toqat qilolmasdan so'rashga majbur bo'libdi:

– Nima uchun kuchuklarni urdingiz va nima uchun bosh-ko'zlarini silab, o'pib, oltin tovoqda osh berdingiz?!

Mo'tabarxonning achchig'i kelib:

– Men sizlarga aytgan edim-ku! Nimaga savol berdingiz? Endi mendan xafa bo'lmaning, o'z gunohlaringiz o'z bo'yningizda, – debdi-da, o'rnidan turib uy yoniga borib, bir tugmachani bos-gan ekan, shu zahoti o'n polvon chiqib:

– Nima xizmat buyurasiz? – debdilar. Mo'tabarxon:

– Mana bu ikki savdogar bilan uchta ko'rnинг oyoq-qo'llarini bog'lang, – deb buyruq beribdi.

Polvonlar shu zahoti bularning oyoq-qo'llarini bog'labdilar. Mo'tabarxon polvonlarga:

– Endi sizga ruxsat, joylaringizga kiring! – debdi.

Polvonlar tugmacha bosilgan uyga kirib ketibdilar. Mo'tabarxon musofirlarga:

– Xo'sh, endi sizlar dunyoda qanday huzurhalovatlar ko'rdingiz va qanday azob-uqubatlar chekdingiz, o'shalarni birma-bir menga aytib beringiz. Men sizlarning tortgan rohat va azoblar-ringizga qarab jazo beraman, – debdi.

Oyoq-qo'llari bog'langan bechoralar bunga rozi bo'libdilar.

Birinchi musofir o'z hikoyasini boshlabdi:

– Men Dog'iston shahar podshosining o'g'li Shohanbor shahzoda bo'laman. O'n to'rt yoshda edim. Bir kuni otam dono vaziri bilan meni ovga olib chiqdi. Men otam bilan ov ovlab, u yoq-bu yoqni aylanib yurdim. Ovni ovlab bo'lganimizdan keyin otam bilan vazir ikkalasi dam olib o'tirdi. Men ham o'tirdim. Bir payt miltiqni qo'limga olib qarasam, o'q turadigan joyi qirilib qolibdi. Ichida o'qi borligini bilmasdan otiladigan joyini bosib yuboribman. O'q otilib vazirning ko'ziga tegdi. Uning bir ko'zi ko'r bo'lib qoldi. Otam meni so'kdi. Men:

– Ota, miltiq ichida o'q yo'q deb bosgan edim. Qachon o'q solganimni o'zim ham bilmayman, deb, qo'rqib yig'ladim. Vazirning juda achchig'i keldi. Lekin otamdan qo'rqqanidan hech narsa qilolmadi. Shuning bilan ovlagan narsalarimizni olib shaharga ketdik. Oradan uch-to'rt oy o'tgandan keyin otam menga:

– O'g'lim, endi sen amakingning oldiga borib, shu yerda o'qigin. Vazirning ko'zi ko'r bo'lganidan beri avzoyi boshqacha bo'lib qoldi. Men qo'rqaman, men yo'q vaqtimda senga jabr qilib qo'ymasin! – dedi.

Men otamning gapiga ko'ndim. Otam meni bir qancha askar bilan ertasiga Bo'ston shahriga kuzatdi. Biz kemaga tushib bir necha kun yurib Bo'ston shahriga keldik. Amakim Bo'ston shahrining podshosi edi. Otam mening ket-ganimni amakimga xabar qilgan ekan. Amakim bir qancha mulozimlar bilan kelib meni qarshi oldi. Uylariga borib bir-ikki oy mehmon bo'lganimdan keyin, amakimning o'g'li bilan qizi o'qiydigan maktabga kirib o'qib yurdim. Oradan yillar o'tib men amakimdan shahrimga ketishga ijozat so'radim. Amakim:

- Ketma, menga o'g'il bo'l! – dedi. Men:
- Otam yoniga boray, undan keyin o'ylab ko'raman! – dedim.

Amakim rozi bo'lib bir qancha sovg'a-salomlar berib, bir qancha askarlar bilan jo'natdi. Otamning nomiga, o'g'ling ketdi, deb xat berib yubordi. Biz kemaga tushib jo'nadik. Bir necha kun yo'l yurib, shahrimizning chetidagi sohilga tushdik. Ovqat qilib yeb, yangi kiyimlarimni kiyib tursam, bir to'p askar ko'rindi. Men: «Otamning askarlari meni qarshi olish uchun kelayotibdi», deb qarab tursam, askarlar kela solib qo'l-oyog'imni bog'ladilar. Askarlarimni qirib, meni olib ketishdi. Zindonga tashladilar. Zindonda ikki kun och yotdim. Uchinchi kuni podsho oldiga olib chi-

qishdi. Qarasam, otam o'lib, otamning o'rniga ko'r vazir podsho bo'lgan ekan. Menden o'ch olmoq uchun bu ishlarni qilgan ekan. Podsho bo'lgan vazir g'azab bilan yonimga kelib:

– Esingda bormi, mening ko'zimni ko'r qilgansan? – deb qo'lini ko'zimga tiqib shu zamon bir ko'zimni ko'r qildi. Bu azobni oz ko'rib darhol jallod chaqirdi-da:

– Bu badbaxtni choping! – deb buyurdi.

Jallodlar meni chopishga olib ketdilar. Men jallodlarga yalindim, yig'ladim, o'zimni ularga tanitdim. Bu jallodlar otamning jallodlari edi. Menga rahmi kelib, bu shahardan qochib, boshqa shaharga ket, ketmasang podsho bilib qolsa sening ham, bizning ham kallamizni oladi, deyishdi. Ketishga qasam ichdim. Jallodlar meni qo'yib yuborishdi. Men ularga ming-ming rahmatlar aytib qoldim. Jallodlar ketdilar. Men o'n kun yo'l yurib, qancha azoblar chekib shahrin-gizga keldim. Choyxonaga kirib choy ichib o'tirgan edim, bu ikki o'rtoq, shu yerga kirdilar. Ular bilan tanishib, shu uyga qadam bosgan edik, – deb so'zini tamomlabdi.

Mo'tabarxon:

– Karomatxon, bu musofirning oyoq-qo'llarini yechib yubor. O'zining tortgan azoblari ham oz emas ekan, – debdi.

Karomatxon darhol uning oyoq-qo'llarini yechib yuboribdi. Mo'tabarxon ikkinchi ko'rga:

– Qani, yigit, endi sizga navbat, – debdi.

Ikkinci musofirning hikoyasi:

– Men Kan'on shahri podshosining o'g'li shahzoda G'ulom bo'laman. Meni otam o'qitdi, ilmli

bo'ldim. Juda chiroyli xat yozar edim. Xatimni ko'rganlar havas qilishardi. Mening shunchalik husnixatligimni Hirot shahrining podshosi eshitib: «Shu o'g'lingni menga yubor. O'zimga kotib qilaman», deb otamga xat yuboribdi. Otam menga aytди. Men rozi bo'lmadim. Shunda otam: «O'g'lim, o'zingga ma'lum, u katta podsho. Men unga tobeman. Sen bormasang, menga o'chaki-shadi», dedi. Men borishga majbur bo'ldim. Ertasiga otam meni besh yuz askari bilan Hirotga jo'natdi. Biz bir necha kun yo'l yurib, Hirot shahrining bir chetiga borib tushdik. Shu yerda ovqatlandik. Bir mahal hammamiz miltiqlarni bir joyga to'plab qo'yib dam olib yotdik. Oradan biroz vaqt o'tgach, tashqariga chiqdim. Qarasam, bir gala otliq biz tomonga kelayotgan ekan. Hirot podshosi kutib olish uchun askar yuboribdi, deb o'yladim-da, bu haqda askarlarimga aytib turgan edim, haligi otliq askarlar kelib bizlarga hujum qildilar. Askarlarimni otganini otdi, chopganini chopdi. Men qo'rqqanimdan o'liklar orasiga kirib, o'lgan bo'lib yotib oldim. Bitta ham tirik odam qolmadi. Hammasini o'ldirib, mollarimizni olib chiqib ketdilar. Keyin bilsam, bular qaroqchilar ekan. Ertasiga o'liklar orasidan chiqib shaharga jo'nadim. Shu ahvolim bilan podsho oldiga borishga nomus qildim. Aylanib yurib bir do'konga ko'zim tushib qoldi. Kirib salom berdim. Do'kon-dor salomimni qabul qilib, menga joy ko'rsatdi. O'tirdim. U kishi:

– Siz kim bo'lasiz, qayerdan keldingiz? – deb so'radi. Men boshimdan o'tgan ishlarni gapirdim va:

– Podsho oldiga kelayotib, qaroqchilarga uchrab shu ko'yga tushdim. Podsho oldiga borishga nomus qilaman, agar mumkin bo'lsa sizning oldingizda bir necha vaqt ishlab, o'zimni tiklab, keyin podsho oldiga borsam, – deb iltimos qildim.

– Bolam, men bu gaplardan xabardorman. Podsho oldiga bormay mening olimga kelib yaxshi qilibsan, – dedi do'kondor.

– Bu nima deganingiz, tushuna olmadim? – dedim men.

Shundan keyin do'kondor gap boshlab:

– Podshohimiz sening otangga dushman. Qanday bo'lmasin bu yerga olib kelib, otangni podsholikdan mahrum qilmoqchi, – dedi.

Men:

– Siz bu ishlarni qaydan bilasiz? – dedim.

Do'kondor:

– Men podshoning kiyimlarini yetkazib beradi-gan do'kondorman. Bir vaqt vazir bilan podsho sening to'g'ringda maslahatlashib o'tirganida eshitgandim.

Men podshoning buzuq niyatini eshitib xafa bo'ldim. Do'kondor yaxshi odam ekan, «Xafa bo'lma, o'g'lim, ertaga men seni o'tinchilar ga qo'shib qo'yay, biroz vaqt ular bilan yur, kiyimlaringni tuzatib olib, uyingga ketasan», dedi. Men bunga rozi bo'ldim. Shu kuni do'kondorning uyida mehmon bo'lib yotdim. Ertasiga o'tinchilar bilan tanishdim. Qo'limga bolta, arqon olib o'tinchilik qila boshladim. Bir kuni boshqalardan burunroq turib, arqon, boltani olib o'tinga ketdim. Tog'larni oralab yursam, bir joyda bir tup quruq daraxt turibdi. Men shu daraxtni yiqlitsam ancha-

gina o'tinli bo'lib qolaman, deb o'yladim. Daraxtning tagini bolta bilan chopdim, bo'lmasdi. Keyin belidan arqon solib tortgan edim, ildiz-pildizi bilan qo'porilib chiqdi. Ko'zimga daraxt ildizi tagida bir g'or ko'rindi. Bu qanday g'or ekan deb, ichkari kirib bitta eshik ko'rdim. Eshikni ochsam bir qiz o'tiribdi. Oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor. Bunday chiroyli qizni hech uchratmagan edim. Qiz ham meni ko'rib hayron qoldi. Meni atlasi ko'rpachalar solib o'tirishga taklif qildi. Men o'tirdim. Keyin ovqat qilib, mehmon qildi. Men ovqat yeb o'tirib:

– Siz kim bo'lasiz, bu yerda nima qilib yurib-siz? – deb so'radim.

Qiz so'z boshlab:

– Men Parsi shahar podshosining qizi Kumushxon bo'laman, o'n besh yoshimda menga bir dev xushtor bo'lib, o'g'irlab kelgan. Meni shu yerda boqib yuradi, – dedi.

Men qachon olib qochganligini so'radim.

Kumushxon:

- Ikki yil bo'ldi, – dedi.
- Qochib ketsangiz bo'lmaydimi? – dedim.
- Hech qochishning iloji yo'q, – dedi qiz.
- Dev qayerda va qachon keladi? – deb so'radim.

Kumushxon: «Hozir Ko'hiqofda, qirq kunda bir kelib ketadi, mabodo kerak bo'lib qolsa, uni mana bu tugmachani bosib chaqiraman», deb g'or chetidagi bir tugmani ko'rsatdi.

Men qiziq ustida haligi tugmachani bosib qo'ydim. Shu zamon havo bulutlanib bo'ron turdi. Kumushxon:

– Voy, siz devni chaqirib qo'yibsiz, u kelayotibdi, qoching, – deb yo'l ko'rsatdi. Men qochdim.

Dev bilan qizning o'rtaсидаги suhbatdan xabarim yo'q, ammo g'orga kiraverishda bolta va arqonni ko'rgan dev, xavfsirab, odam qiyofasida shaharga kelgan va aynan do'kondorning yoniga to'xtab, boltaning egasini so'ragan. Tabiiyki, do'kondor mening boltamni tanir edi va u mening manzilimni aytgan. Dev mening yonimga keldi. Men notanish odam boltamni topib olibdi, degan xayolda, «Ha, bolta bilan arqon meniki», – dedim. Dev meni qo'llig'iqa qisib havoga ko'tarildi. U to'g'ri Kumushxonning oldiga olib kirib, qo'llimga bir qilich berdi va qizni chop, deb buyruq berdi. Men: «Bekordan bekorga nimaga chopaman», – deb unamadim. Mendan qilichini tortib olib Kumushxonga bordi: «Yigitni chop!» – dedi. Qiz ham: «Gunohi bo'lmasa nega chopaman», – dedi.

Dev jahl bilan qilichini tortib olib, qizni burda-burda qilib tashladi. Keyin menga qarab: «Endi seni qanday qilib o'ldiray?» – dedi. Men: «Ixtiyor o'zingda», – dedim.

Bir narsani o'qib menga puflagan edi, men shuzamon maymun bo'lib qoldim. Dev meni ko'tarib osmonga uchdi. Yurib-yurib, keyin bir dasht-biyobonga tashlab yubordi. Men maymun bo'lib daraxtma-daraxt sakrab besh-olti kun yurdim. Bir payt daraxtga chiqib o'tirsam bir kema kelayotir. Darrov daryo bo'ylab kemaning orqasidan borsam u sohilga kelib to'xtadi. Men chetda kuzatib turdim. Odamlar tushdi. Yana odamlar chiqdi. Kemada qo'ng'iroq chalinganda men ham sakrab kemaga chiqib oldim. Odamlar: «Bu

kema haydovchisining maymuni bo'lsa kerak», deb yo'l bo'shatdilar. Men to'g'ri kema boshlig'i yoniga kirib ko'rishgani qo'limni uzatdim. Kema boshlig'i kulib qo'l berdi. Uning yordamchisi bor ekan, u hayron bo'lib qoldi. Kema boshlig'i: «Bu birovlarining boqqan maymuni bo'lsa kerak, adashib bizga kelibdi», dedi. Uning gapiga tushunib o'tirdim. Bir necha kun yo'l yurdik. Kunlardan bir kuni boshliq yordamchisi bilan shatranj o'ynadilar. Men ularning o'ynaganiga qarab o'tirdim. Boshliq ikki marotaba mot qildi. Shundan keyin o'yinni to'xtatdilar. Men boshliq bilan o'ynamoqchi bo'lib, unga ishora qildim. Boshliq mening bu so'zimga tushunib, rozi bo'ldi. Shatranj o'ynadik. Men boshliqni mot qildim. Boshliq bilan yordamchisi bunga hayron bo'lishdi. O'yinni tamom qildik. Keyingi kun Quddus shahriga kelib to'xtadik. Bir vaqt qarasam, kemadagi odamlar ariza yozib, har birlari uni alohida xatjildga soldilar. Men boshliqdan ishorat bilan qalam-qog'oz so'radim. Boshliq so'zimga tushunib, menga qalam-qog'oz berdi. Men o'tirib ariza yozdim. Boshliq mening xatimga qarab ajablandi. Yozib bo'lib, xatjildga solib boshliqqa berdim. Boshliq hamma odamlarning arizalarni yig'ib, shu shaharning podshosiga olib ketdi. Ariza yozishimizning sababi, podshoga chiroyli xat yozadigan kotib kerak bo'lgan ekan. Boshliq arizalarni podshoga beribdi. Podsho xatlarни ochib ko'rib, mening yozgan xatimni yoqtirib qolibdi:

– Shu odamni menga keltiring! – debdi.
Boshliq podshoga qarab kulib:

– Podshohim, buni yozgan odamzot emas, maymun, – debdi.

Podsho ajablanibdi.

– U kimning maymuni? – debdi.

– Adashib kemaga tushib qolgan. Biz ham birga olib kelaverdik, – debdi boshliq.

– Mayli, keltiring! – debdi podsho.

Boshliq meni podshoning oldiga olib keldi. Podsho mening qo'llimga qog'oz berdi. Men bu safar oshiqmasdan ilgarigidan ham chiroyliroq qilib ariza yozdim. Podsho:

– Maymunning xat yozganini endi ko'rdim, – debkulti va meni o'ziga kotiblikka olib qoldi.

Boshliq ketdi. Ertasiga podsho meni xotining oldiga olib kirdi. Xotini menga ovqatlar berdi. Podshoning o'n sakkiz yoshlarda bir qizi bor ekan. Uni chaqirish uchun xizmatkorlardan birini yubordi. Xizmatchi borib qizni olib keldi. Qiz eshikni ochib orqasiga qaytdi. Podsho:

– Kir, qizim, bu yerda men, buving, maymundan boshqa hech kim yo'q, – dedi. Qiz:

– Kirmayman, u maymun emas, odam, – dedi.

– Men seni ko'rsin deb chaqirgan edim, kira-ver, – dedi podsho.

Qiz kirdi, menga qarab:

– Ota, bu maymun emas, odam, – dedi.

– Qanday bilding, – dedi podsho.

– Albatta, bilaman. Bu odam jodu qilingan, – dedi qiz.

– Asliga keltirish mumkinmi? – dedi.

– Bo'ladi, lekin juda qiyin, – dedi.

Podsho:

– Qizim, agarda uni asl holiga keltirishning iloji bolsa, sen o'qib qaytar. Men buni o'zimga kotib qilib olaman, – dedi.

Qiz otasining so'zini qaytara olmay, xo'p, dedi. Shu kuni kechasi bilan o'qib tong otganda, meni odam suratiga kirgizdi. Podsho bilan xotini men bilan qaytadan ko'rishdi. Bir necha kun ular bilan birga yashadim. Bir kuni podshoning bog'ida o'tirgan edik, osmonda bir kabutar paydo bo'ldi.

Qiz o'rnidan turib:

– Seni jodu qilgan dev men bilan kurashishga keldi, – dedi.

O'zi amalini qilib, katta bir qora qushga aylandi-yu, kabutar bilan olishdi. Kabutar yerga tushib bir yumalab it bo'ldi. Qiz bir yuma-lab sher bo'ldi-da, yana olishdi. Ular rosa olishib bir-birlarini yenga olmadi. Qizning achchig'i keldi. Bir katta o't bo'lib devni kuydirib, o'zi ham o'ldi. Buni ko'rib qizning onasi ham jon taslim qildi. Podshoning g'azabi kelib:

– Yo'qol, ket, mening shahrimda turma! Men senga yaxshilik qilaman deb, xotinimdan, qizimdan ajraldim, – deb meni haydab yubordi.

Oldirmay haydab yuborganiga ming bor shukrlar qilib, och-yalang'och, azoblar chekib, necha kun yo'l yurib, shu shaharga keldim. Choyxonaga kirib, bu o'rtoqlar bilan tanishdim, choyxonadan chiqib sizning uyingizga keldik, – deb so'zni tamom qilibdi ikkinchi musofir.

Mo'tabarxon:

– Karomatxon, shu zahoti uning oyoq-qo'llarini yechib yubor, o'zining tortgan azoblari ham yetar ekan, – debdi.

- Karomatxon shu zahoti uning oyoq-qo'llarini yechibdi. Mo'tabarxon uchinchi ko'r musofirga:
 - Qani yigit, sizga navbat! – debdi.
- U ham boshidan o'tganlarini hikoya qila boshlabdi.

▪ Uchinchi musofirning hikoyasi:

- Men Misr podshosining o'g'li shahzoda Bahrom bo'laman. Men har yili bir marotaba o'rtoqlarim bilan kemaga tushib, Quddus shahriga borib, tomosha qilib qaytar edim. Kunlarning birida o'rtoqlarim bilan kemaga tushib Quddus shahriga yo'l oldim. Qattiq bo'ron bo'ldi, daryo to'lqinlanib, toshib ketdi. Olti-yetti kun bo'ldi hamki, manzilga yetolmadik. Bo'ron to'xtadi. Men kema boshlig'i oldiga kirib:

– Bugun yetti kun bo'ldi. Nima uchun shu vaqtgacha manzilga yetolmadik, – deb so'radim. Boshliq xafa bo'lib:

- Shahzodam, bo'ron to'lqinlarida yo'ldan adashibmiz. Endi joningizni qutqarishni o'ylang. Mana bu ko'ringan yonar tog'ning ohanrabosi bizlarni o'ziga tortayapti, – dedi afsuslanib.

Men qo'rqqanimdan shu zamon o'zimni daryoga tashladim. Kema yonar toqqa urilib, parchalanib ketdi. Men daryoda ikki kecha-kunduz oqib-oqib bir orolga keldim: qarasam, hamma yoq suv. Ichimda endi o'larkanman, dedim. Suda oqib juda holsizlangan ekanman, shu yerda tavakkal qilib dam oldim. Yotib uxladim. Bir mahal tush ko'rdim. Tushimda bir nuroni chol: «O'g'lim, xafa bo'lma. O'rningdan turib o'n besh qadam oldinga qarab yur. Shu joyda bir eski uy

bor. Qo'rqmasdan, ichkariga kir. O'ng tarafda-
 gi tomda hazrat Alidan qolgan bir miltiq o'qi bi-
 lan osig'liq turibdi. Qo'lingga olib yigirma qadam
 o'ng tomonga yoursang, bir tepada misdan yasal-
 gan bir ot bor. Otning ustida qalqon ushlab o'tir-
 gan bir odam bor, ko'ziga ko'rinnmasdan yashiri-
 nib turib haligi odamni ko'zlab otsang u odam
 daryoga yumalab tushadi-da, senga bir kema
 bilan keladi, sen gapirmasdan, kemaga tush-
 gin, seni daryodan bir chetga chiqarib qo'yadi. U
 odam suv egasi bo'ladi», – dedi. O'rnimdan sak-
 rab turdim-u, tushimda ko'rgan narsalarni qilib
 ko'ray deb, o'n besh qadam oldinga yurdim. Bir
 eski uy uchradi. Sekin eshikni ochib uyga kir-
 sam, bitta miltiq o'ng tarafdag'i devorda osig'liq
 turibdi. Qo'limga olib qarasam o'qi bor ekan.
 Olib chiqib yigirma qadam o'ng tomonga qarab
 yurdim. Qarasam bir tepalikda misdan yasalgan
 ot ustida qalqon tutgan odam o'tiribdi, ko'ziga
 ko'rinnmay yiroqdan otgan edim, u odamga o'q te-
 gib daryoga qulab tushdi. Ko'p o'tmay bir kema
 paydo bo'ldi. Men indamasdan kemaga tushdim.
 Kema yo'lga tushdi. Daryo chetiga yaqin qolgan-
 da bekordan-bekorga meni qo'rquv bosdi. Shun-
 da gapirib yuboribman, shu zahoti kema g'oyib
 bo'ldi. Suza-suza o'lar holatda zo'rg'a qirg'oqqa
 chiqdim. Qulog'imga bo'rilarning ovozi keldi.
 Qo'rqqanimdan bir katta daraxtning tepasiga
 chiqib oldim. Birozdan keyin daryoda kema pay-
 do bo'ldi. U qirg'oqqa kelib to'xtadi. Kemadan uch
 kishi tushib, yuz qadamcha yurishdi-da, uyilib
 yotgan tikonni olib tashlab ostiga kirib ketishdi.
 Men hayron bo'ldim. Bir vaqt qarasam, yer os-

tiga kirib ketgan odamlarning biri qolib ikkitasi chiqdi-da, kemaga o'tirib jo'nab ketdi. Ular kettgandan keyin daraxtdan tushib haligi joyga bordim. Changalni olib tashlasam, bir eshik paydo bo'ldi, ochib kirmsam, yer ostida uzun ketgan yo'l bor ekan. Haligi yo'l bilan boraverdim. Yana bir eshikni ochdim, qarasam, uy ostin-ustin bo'lib yotibdi, hayron bo'lib tursam, bir yosh yigit uydan chiqib qoldi. U jon holatda:

– Jon Bahrom, meni o'ldirmang! – deb oyog'imga yiqilib yig'ladi. Men bu bolani hech tanimasdim. Uning ismimni bilganiga ajablandim.

– Siz mening ismimni qayerdan bildingiz, – deb so'radim.

Yigit:

– Men Kan'on shahridagi Jalolboyning o'g'li Ibrohim bo'laman, otam bir kuni bir munajjimga mening baxtim uchun fol ochirgan ekan. U kishi o'g'lingizning o'limi shahzoda Bahromning qo'lda, qirq kunda Misrdan kelib o'ldiradi, degan ekan. Otam qo'rqib shu joyga imorat qilib, meni sizdan qochirib keltirdi. Mana bugun qirqinchi kun, – dedi.

Men unga:

– Yolg'on. Men seni bekordan-bekorga nega o'ldiraman? Menga hech zarar qilgan emassan, mana endi men sen bilan tanishdim. Boshimga og'ir kunlar tushib shu joylarga kelib qoldim. Endi sen menga ini bo'l, men aka bo'lay, – dedim.

Yigit juda suyunib o'rnidan turib pastdag'i uyga boshlab kirdi. Uylari juda chiroyli yasta tilgan ekan, havasim keldi. Yigitning har turli pishirilgan tayyor ovqatlari bor ekan, oldim-

ga qo'ydi, men necha kunlardan beri och edim. Maza qilib ovqatlandim. Bir vaqt Ibrohim:

– Yuqoridagi uyda tarvuz bor, olib chiqay, – dedi.

Men:

– Siz o'tiring, men olib chiqay, – dedim.

Zinaga chiqayotsam, Ibrohim:

– Bahrom aka, pichoqni ham olib chiqing! – dedi.

Xo'p dedim, tarvuz juda katta ekan, pichoqni olib tarvuzga sanchib zinadan tushib kelayotgan edim, qoqilib ketdim. Qo'limdan tarvuz tushib ketib, pichoq uchib bolaning yuragiga sanchilib qoldi. Juda xafa bo'lib yig'ladim. O'rnimdan turib nima qilarimni bilmay qaytib haligi daraxt ustiga chiqib bir kechani o'tkazdim. Ertasiga daryoda yana kema ko'rindi. U Ibrohimni olib kelgan kema ekan. Undan besh kishi tushib, Ibrohim yotgan joyga kirib ketdi. Birozdan keyin yig'lab Ibrohimni ko'tarib chiqishdi-da, kemaga solib jo'nab ketishdi. Ular ketgandan keyin daraxt ustidan tushdim. Ibrohim turgan uyga kirib, qolgan nonlarni yeb bir necha kun turdim. Bir kuni daryoga chiqsam, daryoning suvi o'zidan o'zi qurib ketibdi. Men suyunib daryoning nari-gi tarafiga o'tdim. Qibla tomonga qarab bir kun yurganimdan keyin bir shahar keldi. Shaharda masjidga kirsam qalandarlar zikr qilib, yig'lab o'tirishibdi. Oldiga bordim, hech yig'lashdan to'xtamadilar. Men ulardan nima uchun yig'laysiz, deb so'radim. U odam:

– Agarda bu sirni bilmox istasang bozorga borib katta qo'y olib kel. So'yib go'shtini bizlarga

bersang, o'zing terisiga kirib tursang shundan keyin biz senga bu sirlarni aytamiz, – dedi.

Shundan keyin men o'ylab, mayli, nima bo'ssam bo'lay, shu qalandarlarning sirlarini bilay dedim-da, bozorga borib bir katta qo'y olib kelib, so'yib go'shtini ularga berib o'zim terisiga kirib yotdim. Bir vaqtda bir katta semurg' qush uchib kelib, meni ko'tarib olib ketdi. Bir cho'l-biyobonga borganda yerga tushib, meni yemoqchi boldi, men teri ichidan chiqqan edim, semurg' qush mendan qo'rqib uchib ketdi. Men yana cho'l-biyobonda qoldim. Atrofimga qarasam, yaqin o'rtada shahar ko'rinxaydi. Tavakkal, deb bir tarafga qarab bir necha kun yurdim, bir bog' ko'rindi. Yaqin borsam atrofi devor bilan o'ralgan qo'rg'on ekan. Borib eshigini taqillatdim. Bir qiz chiqdi. Men u qizga o'zimning ahvolimni bayon qildim. Qiz: «Bu joy parilar podshosi qizining joyi. Men kirib so'ray, ruxsat bersa chiqib aytaman», – deb kirib ketdi. Birozdan keyin bir necha qizlar chiqib, meni boshlab, parilar podshosining qizi oldiga olib kirdilalar-da, o'zları chiqib ketdilar. Men shu joyda o'tirib, boshimdan o'tgan ishlarni qizga aytib berdim va qizdan so'radim:

– Nima sababdan o'z shahrингизда turmay bu cho'l-biyobonga kelib imorat solib, bog'-bo'ston qilib o'tirasiz, – dedim.

Qiz:

– Mening otam parilarning podshosi. Menga devlar xushtor bo'lib qolishdi, otam devlardan qochib, meni cho'l-biyobonga imorat qilib, olib kelib qo'ydi. Har uch oyda otamni ko'rib kela-

man. Mening ismimni Mohipari deydilar, – deb boshidan o'tganlarini menga aytib berdi. Men ham boshimdan o'tganlarni aytib, Mohiparidan menga turmushga chiqishini so'radim.

– Men uch kundan keyin ota-onamning oldiga borib, ulardan ruxsat olib kelaman, undan keyin to'y-tomosha qilib, turmush quramiz, – dedi.

Ikki kun mehmon bo'ldim. Uchinchi kuni Mohipari menga bir necha kalitlarni berib:

– Bu qirqta kalitni olib, bog'larni ochib, men kelguncha tomosha qiling, lekin qirqinchi boqqa kirmang. Men o'zim kelganda sizni olib kiraman, – dedi.

Qiz qirqta kanizaklari bilan birga birma-bir yumalashib qirq bir kabutar bo'lib uchib ketdilar. Men shu joyda o'zim yolg'iz qoldim. Bu bog'lar bir-biridan go'zal ekan. Endi Mohipari ochma degan qirqinchi boqqa keldim. Bunda nima bor ekan, deb qiziqib eshikni ochib kirdim. Boqqa kirsam, mevalar pishgan, bulbullar sayragan. Bu boqqa kirib hech chiqqim kelmay qoldi. Bog'ni aylanib yurib o'rtasiga borsam, bir katta hovuz bor ekan. U oltin-kumushlardan yasalgan ekan, hovuzning suvi tiniqligidan tubi ko'rinar edi. Hovuz bo'yida bir ot turgan ekan, ustida oltin egar, to'qim, otning boshida oltin yugan, egarining qoshida bir oltin soplik qamchi, butun asboblari bilan ot suratdek qotib turardi. Men otni ko'rib, ajablandim, yoniga borib u yoqbu yoqlarini ko'rib, otning ustiga mindim. Bir qamchi urgan edim, ot shu zamon meni osmonga ko'tarib uchib bir cho'l-u biyobonga olib borib tashladi. Dumi bilan ko'zimga bir urdi, shu vaqt-

da mana shu ko'zim oqib, ko'r bo'lib qoldim, ot bo'lsa g'oyib bo'ldi. Men yana cho'l-biyobonlarda yolg'iz qolib, bir necha kunlar yo'l yurib, qancha azoblar chekib, mana shu sizning shahrингизга keldim, choyxonaga kirib choy ichib o'tirib, bu ikki o'rtoq bilan tanishib, boshimizdan o'tgan ishlarni bir-birimizga hasrat qilib o'tirib, choyxona dan chiqib, birgalashib shu sizning uyingizga qadam qo'ygan edik, – debdi.

Mo'tabarxon Karomatga: «Bu musofirning ham oyoq-qo'llarini yechib yubor, o'zining tortgan azobi ham yetarli ekan», – debdi.

Karomatxon uchinchi musofir – ko'rning ham oyoq-qo'llarini yechib yuboribdi.

Mo'tabarxon:

– Endi sizga navbat, gapiring, – dedi podsho bilan vazirga qarab.

Vazir:

– Biz savdogar emasmiz. Men shu shahar podshosining vaziriman, mening yonimdagi podshoning o'zi, – debdi.

Bu gapni eshitib Mo'tabarxon darrov borib ularning oyoq-qo'llarini yechibdi. Podsho bilan vazir o'rinalidan turib otlarini minib uydan chiqib ketishibdi. Qolgan mehmonlar yotib qolib-dilar.

Ertasiga podsho bir yasovulni chaqirib, «Kalla bozor mahallasida yashovchi uch qizni uydagi mehmonlari bilan tezda mening oldimga olib kel!» – deb buyruq beribdi.

Yasovul kelib Mo'tabarxonni ikkita singlisi va uydagi mehmonlari bilan birga saroyga olib ke-

libdi. Podsho ularga o'rın ko'rsatibdi, o'tiribdilar. Podsho Mo'tabarxonaga:

– Kecha uylaringizda bo'lgan ishlarni bizza aytib bering. Nima uchun itlarni urdingiz va nima uchun yana quchoqlab o'pib, ularga oltin tovoqda osh berdingiz? – debdi.

Mo'tabarxon boshidan o'tganlarini hikoya qilibdi:

– Bizlar o'sha mahallalik Salim degan boyning qizlari bo'lamiz. Bizlar besh qiz edik. Ota-onamiz vafot etib, ulardan ko'p mol-dunyo qoldi. Biz besh opa-singil maslahatlashib, o'la-o'lguncha erga tegmaslikka, ota-onamizdan qolgan mol-dunyo bilan yashashga qaror qildik. Shunga hammamiz rozi bo'ldik. Kunlardan bir kuni men dan kichik ikkita singlim Adolatxon bilan Salomatxon erga tegmoqchi bo'lishibdi. Ular men ga maslahat soldilar. Men ularga erga tegmanglar, deb ko'p nasihatlar qildim, lekin ular mening nasihatlarimni qulqoqqa olmadilar, shundan keyin men otamdan qolgan mol-dunyoni beshga bo'lib, ikki bo'lagini ikki singlimga berdim. Ular shu mollarni olib erga tegib, uydan chiqib ketdilar. Biz ikkita singlim bilan burungiday yuraver dik. Oradan besh-olti oy o'tdi. Bir kun bizning darvozani birov kelib taqillatdi. Chiqib qarasam, Adolatxon. Meni ko'rishi bilan yig'lab yubordi. «Opajon, men sizning so'zingizga kirmay bekor qilgan ekanman. Erim bor-budimni yeb, urib, meni uydan haydab chiqardi», dedi. Jigarim bo'lgani uchun hech narsa deya olmadim. Bir qorindan tushgandan keyin rahming kelar ekan. Oradan yana besh-olti kun o'tgandan keyin yana

darvoza taqillab qoldi. Bu gall Salomatxon kelibdi. U Adolatdan ham yomon ahvolda qolibdi. Uni ham eri mol-mulkini yeb, urib haydab yuboribdi. Shunday qilib, bu ikkita singlimning gunohni kechib, o'z oramizga qo'shib yuraverdik. Oradan yana bir-ikki oy o'tgandan keyin Adolatxon bilan Salomatxon ikkalasi yana erga tegmoqchi bo'lib menga maslahat soldilar. Men unamadim. Bular menga bo'ysunmadilar. Men: «Agarda erga tegadigan bo'sangiz yana qaytib kelmangiz. Endi burungi ahvolda keladigan bo'sangiz uyimga krigizmayman», – dedim. Singillarim rozi bo'lishdi.

Hech narsa deyolmadim. Yana qancha mol-mulk bilan ularni uzatdim. Yana uch qiz qoldik. O'yin-tomoshamizni qilib yuraverdik. Oradan vaqt o'tib, Adolat bilan Salomatning erlari dun-yolarini yeb yana haydab yuboribdi. Ko'z yoshlarini oqizib zor-zor yig'lab keldilar. Yana rahmimiz kelib ularni oramizga qo'shdik. Bir qancha vaqt o'z o'yinlarimizni o'ynab, tomosha qilib yurdik. Qarasam, otamdan qolgan meros kamayib borayotir. Bir kuni o'tirib:

– Singillarim, endi biz bekor yotmaylik, ikki-uchtamiz shaharma-shahar yurib savdo qilaylik, tomoshamizni ham qilarmiz. Kim men bilan savdoga boradi, – dedim.

Adolat bilan Salomatxon bizlar boramiz, deyishdi. Xo'p dedim. Ertasiga uchalamiz erkak kiymlarni kiyib, yarim mollarimizni olib, kemaga o'tirib ketdik. Bir necha kun yo'l yurib, erta bilan boradigan shahrimizga borib tushdik. Qarasak, shahar odamlarining hammasi tosh bo'lib yotibdi. Mollarni dengiz bo'yiga qo'yib shahar aylan-

dik. Odamlar do'konlarini ochib qo'yganicha, otliqlar otlariga minganicha qotib qolgan. Hech bir jonli, qimirlagan odamzot yo'q. Bu ahvollarga ajablanib kechgacha shaharlarni aylanib yurdik, kechqurun yiroqda bir chiroq ko'rindi. Uchalamiz nima gapligini bilaylik, deb shu chiroqli uyga kirdik, bir yosh kelishgan yigit kitob o'qib o'tirgan ekan. Bizlarni ichkariga taklif qildi. Men so'z boshlab:

– Aka, shahar odamlarining bu ahvolga tushib qolganining sababi nima? – deb so'radim.

– Bu shaharning odamlari, maishat va ichkiliklar bilan mashg'ul bo'lganlari uchun shu ahvolga giriftor bo'ldilar, – dedi yigit.

Yigitning muloyimligi va yumshoq so'zligi men ga yoddi. Shu joyda o'tirib uni o'zimga munosib ko'rdim. Yigit ham mening ro'yxushligimni bilib, turmush qurishni taklif qildi.

Men rozi bo'ldim. Lekin shart qo'ydim. Bizning shaharga borasiz, to'y-tomosha qilib, nikohlab olsangiz tegaman, dedim. Yigit rozi bo'ldi. Ertasiga birgalashib, olib kelgan mollarimizni sotolmasdan qaytadan kemaga o'tirib o'z shahrimizga jo'nadik. Shahrimizga bir kunlik yo'l qolganda kechasi hammamiz yotib uxladi. Biz uxlaganda Adolat bilan Salomat o'rinalidan turib, maslahatlashibdi-da, yigitni qopga solib, daryoga tashlab yuborishibdi. Ertasiga tong otganda qarasam, haligi yigit ko'rinxaydi. Singillarimdan so'radim. Biz ko'rganimiz yo'q, deyishdi. Yugurib kirib kema boshlig'idan so'radim. U:

– Kechasi ikkita singling yigitni uxbab yotganida qopga solib, daryoga tashlab yuborishdi, – dedi.

Shu joyda o'tirib xo'p yig'ladim. Singillarimni chiqib qarg'adim. Shahrimizga kelib kemadan tushib, singillarimga men qancha yaxshiliklar qildim, sizlar menga dushmanlik qildinglar, endi men sizlardan ham, dunyo-moldan ham kechdim, deb ularni qoldirib, cho'l-biyobonlarga qarab ketdim. Ikki kun yo'l yurdim. Bir yerda ketayotsam oldinda oq ilon kelayotir. Men yo'ldan chiqib o'zimni chetga tortdim. Ilon o'tib ketdi. Yana yo'nga tushib ketayotsam qora ilon yugurib kelayotir. O'zimni chetga tortib bir katta toshni olib turdim. Ilon yaqin kelganida toshni otib ilonning boshini yanchib o'ldirdim. Yana oldingga qarab yurib charchab, bir yerda yotib uxbab qolibman. Bir vaqt o'rnimdan tursam, juda ham kelishgan bir chiroyli qiz yonimda o'tiribdi. Qiz men bilan ko'rishdi va: «Qaydan kelasiz, qayoqqa borasiz», deb so'radi. Men boshimdan o'tgan ishlarning hammasini aytdim.

Qiz:

– Qo'ying, opa, xafa bo'l mang, uyingizga qaying! – dedi.

Men, bormayman, dedim. Qiz:

– Siz menga katta yordam qildingiz. Meni o'limdan qutqardingiz, men ham sizga yordam qildim, – dedi. Men hayron bo'lib:

– Sizga nima yordam qildim. Sizni shu bugun ko'rib turibman, – dedim.

Qiz:

– Men parilar podshosining qizi edim. Menga bir dev xushtor bo'lib meni olmoq bo'lib kelganida men oq ilon bo'lib qochayotgan edim. Siz yo'lda

kelayotgan ekansiz. Menga yo'l bo'shatib berdingiz. Men o'tib ketdim. Mening orqamdan qora ilon bo'lib kelayotgan dushmanim – dev edi. Siz uni o'ldirdingiz, agarda siz uni o'ldirmaganingizda, u meni o'ldirar edi. Sizning yaxshililingizga binoan sizni ranjitgan ikkita singlingizni kuchuk qilib hovlingizga boylab keldim, endi siz uyingizga borib o'yin-tomoshangizni qilib yuravering, hech narsadan qo'rwmang, boshingizga yomon kun tushsa, mana bu sochimni kuydirlsangiz men kelib yordam beraman, – deb sochidan uch dona yulib berib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men bu gaplarni eshitib uyimga qaytib keldim. Qarasam, haqiqatan ham ikkita singlimni ikkita kuchuk qilib boylab ketibdi. Shuning bilan yana biz uch opa-singil ahil yashayverdik. Kuchuklarga ovqat berar oldidan urganim haligi yaxshi ko'rgan yigitimni daryoga tashlab yuborganiga xafa bo'laman, o'pib, quchoqlaganim it bo'lsa ham jigarim, deb rahmim keladi, – debdi.

Podsho:

- Haligi o'nta polvon qanday kishilar, – debdi.
- U polvonlarga dunyo berib saqlaganman, boshimga og'ir kun tushsa yordamchim bo'ladi, – deb so'zini tamom qilibdi qiz.

Podsho Mo'tabarxonaga:

- Shu ikkita kuchukni odam qilish mumkinmi? – debdi.

Mo'tabarxon:

- Bilmadim, odam qilsa shu qizning o'zi qilar, – debdi.

Podsho:

– Bo'lmasa shu qizning sochini kuydiring, kelsin, – debdi.

Mo'tabarxon hovliga chiqib qizning sochini kuydiribdi, qiz shu zahoti, xizmat, deb kelibdi. Mo'tabarxon qizni podsho oldiga olib kiribdi.

Podsho pari qizdan:

– Ikki kuchukni o'z asliga keltirish mumkinmi? – deb so'rabdi.

Pari qiz:

– Agarda Mo'tabarxon opam rozi bo'salar, men asliga keltiraman, – debdi.

Kuchuklarni oldirib kelibdi. Pari qiz o'qib ularni o'zining avvalgi qiz holiga keltiribdi. Podsho ko'rdikim, bu qizlar ham bir-biridan chiroyli. Podsho yana pari qizdan so'rabdi:

– Mana bu uchta ko'rning ko'zlarini tuzatish mumkinmi? – debdi. Pari qiz ularni ko'rib:

– Ikkalasining ko'zi jodudan bo'lsa, bularni tuzatish mumkin, bittasini tuzatib bo'lmaydi. Nega desangiz bu jodu emas, odamdan bo'lgan, – debdi. Podsho:

– Mayli bo'lmasa, ikkalasining ko'zini tuzating, – debdi.

Pari qiz o'qib ikki ko'rning ko'zini soppa-sog', avvalgiday qilibdi.


Pari qiz:


– Endi ruxsat etsangiz ketsam! – debdi.

Podsho ruxsat beribdi. Pari qiz xayr-xush, deb ko'zdan g'oyib bo'libdi. Podsho o'zining dono vaziri bilan maslahatlashib o'tirib Mo'tabarxonni o'ziga munosib ko'ribdi. Hammadan kichik Karomatxonni o'g'liga munosib ko'ribdi. Qolgan

qizlarni uchta ko'r nomini olgan shahzodalarga olib bermoqchi bo'libdi. Bu maslahatni qizlarga, yigitlarga aytibdi. Bular ham rozi bo'libdilar. Podsho otasi bor ikki shahzodaning otalariga «Sizning yo'qolgan o'g'illaringizni shahrimdan uylantirmoqchiman, to'yga kelishingizni so'rayman» deb, noma yozibdi. Nomalarni podsholarga yuboribdi. Bolalarini yo'qotgan podsholar noma-ni o'qib xursand bo'libdilar. Ko'p mukofotlarni olib necha kunlar yo'l yurib yetib kelibdilar. Bolalarini ko'rib, podshoga olib kelgan sovg'alarini berib, qirq kecha-kunduz to'y-tomoshalar qilib, to'ydan keyin ikki podsho o'g'il va kelinlarini olib o'z shaharlariga ketibdilar. Otasi o'lgan shahzodani shoh Akbar podsho o'zi bilan olib qolib, o'g'il qilib olibdi.

Shuning bilan hammalari rohatda davron suribdilar.





QUYOSH YERINING PAHLAVONI

Qadimgi zamonda bir chol bor ekan, uning o'n yashar o'g'lidan boshqa hech kimi yo'q ekan. Chol nihoyatda qashshoq, yeyarga ovqati, kiyarga kiyimi yo'q ekan. U kunlardan bir kuni qo'shnisi Salimboyning oldiga kelib:

– Boy ota, bizga yordam qiling, o'g'lim Rustamjon bilan birga qo'llimdan kelgan xizmatni aymayman, rahm qiling, – deb yig'labdi.

Salimboy chol bilan bolaga qarab:

– Mening ortiqcha ovqatim yo'q. Oldin bo'yningdagi qarzingni uz, erta-indin o'lib ketsang, mening haqim kuyib ketadimi? O'g'lingni hech kim bir tiyinga olmaydi, – debdi.

Chol hayron bo'lib:

– Boy ota, mening sizdan qanday qarzim bor?
Menga hech narsa berganeringiz yo'q edi-ku, – debdi.

– Gapirma, imonsiz chol! Hali sen tonmoqchimisan, – deb qo'lida o'ynab turgan qamchisi bilan cholni ura ketibdi.

Chol qamchi zarbiga chidayolmay yerga yiqilib, ko'zlaridan tirqirab yosh oqa boshlabdi. Kichkina Rustam voqeaga tushunmay qo'rqb, cholni quchoqlab yig'labdi. Chol o'zini qo'nga olib, yalibnidi:

– Menga tushuntiring, yodimdan ko'tarilgan bo'lsa eslating. Sizdan qachon nima olgan edim? Qanday qarzim bor?

Salimboy cholning ko'kragiga yopishib yotgan Rustamning bo'ynidan ushlab bir tomonga otib yuboribdi-da, cholning yoqasidan bo'g'ib:

– Menga qara, imonsiz chol! Xotining o'lganda yuvg'ichiga pulni kim berdi? Qabristonga domlalarini kimning ot-aravasida olib boarding? Payshanba kunidagi yuz odamga qilingan xudoyi osh-chi? Axir, o'zing ham o'g'ling bilan kirib osh yeding-ku! – debdi.

Chol qurumsoq boyning surbetlik bilan qilgan tuhmatlaridan g'azablanibdi.

Nima qilsin, turarga darmoni yo'q, ochlik, qarilik cholni yengibdi. Noiloj yalina boshlabdi:

– Boy, ota, axir o'zingiz «Men xudoyi qilyapman, o'g'ling bilan kirib osh yeb chiq», deb aytdingiz-ku. Menga rahm qiling. O'g'lim Rustam-jonga azob bermang, – deb turganda, eshikdan

domla-imom kirib kelibdi. Salimboy domlani **ko'rib**:

– Mana, taqsirim aytsinlar, – debdi.

Domla:

– Xo'sh, nima gap ekan? Menda boy otamning qanday so'zлari bor ekan, – deb unga qarabdi.

Salimboy domlaga:

– Taqsir, bultur bizning uyda o'tkazilgan xudoyining savobini shu cholning xotiniga bag'ishlagan edingizmi? – debdi. Domla voqeani anglab, shunday debdi:

– Albatta, cholning marhuma xotiniga bag'ishlagan edim.

Salimboy cholga qarab:

– Mana eshitdingizmi? Senga rahm qilib, qo'shnim deb, pul sarf qilib, senga yaxshilik qilsam, sen imonsiz tonib o'tiribsan, – debdi.

Domla:

– Hay, hay, bunday nomunosib ishni qilma, boy otamga rahmat ayt! Ma'raka uchun ketgan xarajatlarni bo'yningga ol, – debdi.

Chol yig'lab:

– Menga yana bunday kulfatlar bormidi?! Ota-bola yeysarga bir burda non topa olmay, ochlik balosidan qutula olmay yurganda, shuncha pullarni qayerdan topib beraman, – debdi va Rustamni bag'riga bosib:

– Sho'rlik bolam, men qaridim, yoshimni yashadim, sen endi qanday ahvolga tushasan, – deb yig'labdi.

Domla cholga qarab aytibdi:

– Hoy, ahmoq, nodon, nega yig'laysan? Boy ota hozir ber, deb zo'rlayotganlari yo'q-ku! Topganingda berasan-da. Tonmasang bas. Mana o'g'ling katta bo'lib qoldi. Bir kun qo'lidan ish kelganda ishlab topib beradi-da.

Chol bunday uzoq muddat berilganiga hayron bo'lib, «xo'p» deyishdan boshqa iloj topa olmabdi.

Domla cholga qarab:

– «Xo'p» deyish bilan ish bitmaydi. Boy otamdan qancha qarzing borligini o'z qulog'ing bilan eshitib ol, – debdi.

Chol nima deyishini bilmay sukut qilibdi.

Domla qo'liga qalam-qog'oz olib yoza boshlabdi.

Domla:

– Boy ota, cholda qancha haqingiz bor? – deb so'rabdi.

Salimboy: «O'n besh tilla», debdi. Chol hayotida bir tillani ham ko'rmagani uchun «o'n besh tilla» degan so'z uni gangitib qo'yibdi. Domla yozib bo'lib, cholga barmoq bosishni taklif qilibdi. «Xo'p» deb so'z bergen chol qog'ozning che-tiga barmoq bosibdi. Domla qo'shimcha qilib, Rustamning barmog'ini ham bostirib olibdi:

– Ana endi keta beringlar. O'g'ling katta bo'lganda ishlab topib berar, – debdi.

Bir burda non tilab kelgan ota-bola Salimboy eshididan o'n besh tilla qarzdor bo'lib chiqib ketibdilar.

Chol uyiga borar ekan, eshik oldida qo'shnisi Siddiq yamoqchini ko'rib, bo'lgan voqeani so'zlab beribdi va «kimdan yordam olayin?» deb so'rabdi.

Siddiq yamoqchi voqeadan xabardor bo'lib, g'a-zab bilan:

– Tuzoqqa tushibsan, endi foydasi yo'q. Shar-hokimi la'nati badbaxt Salimboyning kuyovi bo'ladi. Endi taqdirga tan berishdan boshqa chora yo'q, – debdi.

Chol o'g'li Rustamni bag'riga bosib, ochlik bilan qayg'urib, boshini yostiqqa qo'yibdi. Xayol uni har tomonga olib ketar, Rustamning bir burda nonga zor bo'lib yig'lashi cholni yana qayg'uuga solar ekan.

Yarim kecha, hamma shirin uyquda, ammo chol hamon oh tortar, bag'ri ezilar ekan. Shu payt uch kishi eshikdan kirib, cholning tepasiga kelibdi. Biri cholni tepib: «Tur, imonsiz!» – debdi. Chol «kutilmagan mehmon»lardan bunday muomalani ko'rib, hayron qolibdi.

– Mendan nima istaysizlar? – deb so'rabdi.

Ulardan biri:

– Uyni bo'shat! Bu yerdan hoziroq chiqib ket!
– debdi.

Chol esini yo'qotib: «Sizlar yanglishgan bo'lsalaring kerak, bu uy mening o'zimniki», – degan ekan, «mehmonlar»dan ikkinchisi:

– Bizlarni alday olmaysan. Bizlar shahar hokimining odamlarimiz. Sen imonsiz bundan bir yil ilgari bu uyni Salimboyga o'n besh tillaga sotib, pulini naqd olgansan. Boy ana shu vaqtga qadar «insof» qilib kelsalar, sen tonmoqchi bo'lgansan, – debdi.

Chol xunob bo'lib:

– Sotgan emasman, sotmayman, – desa, uchinchisi qo'lidagi qog'ozni ko'rsatib:

– Sotgan emasman deysanmi? Mana tilxating. Ota-bola barmoq bosgansanlar. Hokimning jahli chiqib, «To‘g‘rilikcha chiqsa chiqsin, qaysarlik qilsa, uydan sudrab chiqib, ota-bolani zindonga tashlanglar» deb buyruq berdilar, – debdi.

Chol bu hukmni eshitib, es-hushidan ajralib Rustamni bag‘riga bosib, o‘zi o‘sib katta bo‘lgan, yashagan boshpanasidan chiqib ketar ekan, cholning oh-zori va nolasiga qo‘snnisi Siddiq yamoqchi oilasi bilan uyg‘onib ketibdi. Cholning huzuriga chiqib, ahvolini ko‘rib, achinib xayrlashar ekan, yamoqchining xotini «qayerga bor-sangiz hamrohingiz bo‘lsin», deb bir dona zog‘ora non beribdi. Chol bechora Rustamni opichib tog‘ tomonga yo‘l olibdi.

Chol qir oshibdi, soy kechibdi, uzoq yo‘l yuribdi. Hamma yoq jimjit, har zamonda Rustamning «qayerga ketyapmiz?» degan savoli jimlikni buzar ekan. Lekin chol bu savolga hech qanday javob qaytarmas ekan. Qaysi tomonga ketayotganini o‘zi ham bilmas ekan. Chol horib-tolib bir archazorga yetibdi. Pastakkina bir archa yonda o‘tirib unga suyanib ko‘zini yumibdi. Chol yuqoriga qarasa yosh bolasini oldingi ikki oyog‘i orasiga olib cholga hujum qilmoqchiday tayyorlanib turgan katta ayiqni ko‘ribdi. Bechora chol shoshib qolibdi. Qochay desa darmoni, qutulishning imkonini yo‘q emish. Rustamni bag‘riga bosib, «umrimiz tugagan ekan» deb ko‘z yosh to‘kibdi. Rustam o‘zi tomon kelayotgan hayvonni birinchi marta ko‘rgani uchun qo‘rqqandan qichqirib yuboribdi. Chol ko‘zlari yumilgan

holda Rustamning yig'isini eshitib, «ha, bolam-dan ajraldim» deb behush bo'lib yiqilibdi. Ayiq asta-sekin kelib, cholning bag'ridan Rustamni ajratib olib, bolasiga yetaklatibdi-da, o'zi cholni ko'tarib, g'orga kirib ketibdi.

Quyosh chiqibdi. Chol hushiga kelib ko'zini ochsa, bag'rida bolasi yo'q emish, jon holatda atrofga qarabdi. Yuqori tomonda Rustamning ayiq bolasi bilan asal yeb turganini ko'ribdi. Chol ko'zlariga ishonmabdi. Chol, tushimmi, o'ngimi deb Rustamni chaqiribdi. Rustam anchan dan beri so'zsiz yotgan otasining ovozini eshitib, uning yoniga chopib kelibdi-da:

– Ota, turing, asal yeng, – debdi.

Chol Rustamdan:

– Kim u? – deb so'rabdi.

– Bu mening o'rtog'im. Onasi sizni ko'tarib ke-lib, bu yerga yotqizib qo'ydi: «Otang uyg'ongun-chá xalaqit berma, uxlasin. Mening bolam se ning o'rtog'ing bo'ladi. Sizlar asal yeb turinglar, men qaytib kelaman», dedi.

Chol Rustamdan eshitganlariga goh ishonib, goh ishonmasdan, hayron bo'lib turganida ayiq eshikdan bir dasta non, bir qovoq idishda sut olib kiribdi. Chol ayiqni ko'rishi bilanoq o'rnidan turib ta'zim qilibdi. Ayiq qo'lidagi narsalarni yerga qo'yib, cholga: «O'tiring, o'zingizni urintirmang. Men sizga non, sut keltirdim. Oldin ovqatlanib oling, so'ngra suhbatlashamiz», – debdi.

Chol bunday hurmatga hayron bo'lib ayiqqa qarabdi. Ayiq:

– Otajon, siz ko'p ajablanmang. Mening bu yerlarda cho'pon do'stlarim bor. Boylarning,

hokimlarning qo'yalarini boqadilar. Non, sutni o'shalarnikidan keltirdim, – deb ovqatga taklif qilibdi. Chol xo'rsinib, boshidan kechirganlarini hikoya qilib beribdi. Ayiq cholning so'zlarini eshitib:

– Otajon, siz meni ham bolam, deb qabul qiling. Bu ikki go'dak do'st bo'lsin. Bizlar ham shu yerda erkin umr kechiraylik, – debdi.

Ular ko'p vaqt birga yashabdilar. Chol tog'dan o'tin yig'ar ekan. Ayiq o'tinni kechasi shaharga yaqin joyga keltirib berar, chol uni sotar, shu taxlit tirikchilik qilishar ekan. Rustam ayiqning bolasi bilan o'ynashib o'sa boshlabdi. Bir kun cho'ponlar Rustamning ayiq bolasi bilan kurashayotganini ko'rib, unga qoyil qolishibdi. Besh-olti yil ichida Rustamning hamma yoqqa dong'i ketibdi. U bilan bel ushlashadigan odam bo'lmasdi. Cho'ponlar orasida Ayiqpolvon degan nom bilan shuhrat topibdi.

Kunlardan bir kun Rustam otasi bilan shahardan o'tin sotib qaytib kelayotganida, chol unga yo'lda ola ot mingan, movut to'n kiygan, qo'lida qamchi o'ynatib turgan bir boyni ko'rsatib:

– Mana, bizning uyimizni tortib olib, haydab yuborgan Salimboy shu bo'ladi, – debdi.

Rustam qarasa odamlar to'planib, nimanidir qiziqib tomosha qilar ekanlar. Salimboy zavqlanib, mo'ylovini burab kimgargadir jilmayib gerdayar ekan.

Rustamning qulog'iga birovning ingragan tanish ovoz eshitilibdi. Rustam yugurib borib, o'zini to'daga uribdi, qarasa do'stining ukasini

ovchilar ushlab, tuyaning ustiga ortib kelayotgan ekanlar. Kishilarning aytishlariga qara-ganda, Salimboy ovchilar bilan ovga chiqqanda shu ayiq bolasini ushlabdi. Rustam g'azablanib, bir hujumda ayiq bolasi bog'langan arqonlarni uzib tashlabdi-da, ayiqchani qutqarib olibdi. Ovchilar birdan Rustamga hujum qilibdilar. Rustam o'ziga yaqinlashgan har bir ovchini belidan ushlab har tomonga otib yubora beribdi. Qo'liga tushgan odam Rustamning qarshisiga yana qaytib kelolmabdi. Rustam Salimboyga tashlangan ekan, Salimboyning oti chaqqonlik qilib, uni qutqarib qolibdi. Rustam ayiq bolasini ko'tarib, archazor tomon yo'l olibdi. Bu voqeani ko'rgan xaloyiq Rustamning g'ayratiga, shijoatiga, kuch-quvvatiga qoyil qolib, ofarin aytibdi. Bu voqea butun shaharga tarqalibdi. Salimboy xavfsirab qolibdi.

Kechalari o'z uyida ham xavotirda yotibdi. Hokim darg'azab bo'lib, «Ayiq bolasini ovchilar qo'lidan qutqazgan pahlavonni ushlab kelinsin», degan farmon chiqaribdi. Borishga hech kimda yurak yo'q emish, borganlar, topa olmadik, degan bahonalar to'qishar ekan. Shahar xalqi orasida o'tinchi polvon unday qilibdi, falon joyda bunday qilibdi, degan so'zlar avj olibdi.

Shaharda och-yalang'och qiynalib, kun ko'ra olmagan bechoralar toqqa borib o'tinchilik qilib, tinch hayot kechira boshlabdilar. Bir kuni Salimboy kimdandir Rustam o'sha cholning o'g'li ekanligini, tog'da yashab, shahardan qochib chiqqanlarga atrofidan joy berib, ularga

yordam qilayotganini eshitib nafasi og'ziga tiqilib shaharga borib voqeani aytib beribdi. Bu xabarni eshitgan shahar hokimining badaniga titroq kirib, yuz otliq yigitga o'zi bosh bo'lib archazorga yo'l olibdi. Yo'lida yigitlariga:

– Kimda kim Rustamni tirik ushlasa, mukofot berib, o'zimga yuzboshi qilib olaman, – debdi.

Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, archazor oldidagi bir saroyga yetibdilar. Shahar hokimi yigitlariga:

– Shu yerda dam olib, Rustamni kechasi uyquda yotganida borib ushlang, bizning sharpmizni bilsa qochib ketadi, – debdi.

Chol o'z do'stlari bilan shaharga o'tin olib ketgan, kechasi Rustam ayiq bolasi bilan tepada uqlab yotgan ekan. Tog' shamollari g'ir-g'ir esib Rustamning badanini o'pib siypar, ayiq bolasining yunglari hilpirab rohatga yana rohat qo'shar ekan. Shu payt tepe ustida bir sharpa paydo bo'libdi. Rustamni ko'tarib, balanddan pastga qarab sakrabdi. Rustam cho'chib uyg'onibdi. Qutqaruvchiga qarab:

– Nima bo'ldi, mehribonim? – debdi. U ona ayiq ekan. Ayiq: «Senga hujum qilmoqchilar. Shahar hokimi yuz otliq yigit bilan shu tarafga kelayotir», debdi.

Rustam ona ayiqqa:

– Endi nima qilmoqchisiz? – debdi.
– Men seni qutqarmoqchiman, – debdi ona ayiq.

Rustam ona ayiqqa:

– Qachongacha biz ulardan qochib kun kechiramiz? Biz ham qarshisiga chiqamiz, – debdi.

Ona ayiq:

– Ular ko'p, hammasining oti bor. Bizning do'stlarimiz shaharga o'tin olib ketgan. Yur, vaqtni qo'ldan boy bermaylik, – debdi.

Shu vaqt do'mbillab chopib ayiq bolasi yetib kelibdi. Rustam uni ko'rib juda xursand bo'libdi.

Ona ayiq Rustamni qochishga undabdi. Ammo Rustam qochishni istamabdi. Rustamning bu holini sezgan ona ayiq:

– Endi nima qilmoqchisan? – deb so'rabdi.

Rustam:

– Dushmanga qarshi hujum qilaylik, – debdi.

Ayiq bolasi boshini silkitib, tumshug'ini ko'tarib, ikki qo'li bilan Rustamning belidan ushlab:

– Bo'sh kelmaymiz, do'stim, – debdi.

Soydan toqqa o'rmalab kelayotgan otliqlar bir-biridan oldin chiqishga harakat qilishibdi. Otlarning pishqirgani, shahar hokiminining ovozi eshitilibdi. Dushmanlar otdan tushib, toshlar orasiga yashirinib, Rustamga qarshi hujum boshlabdilar. Uch pahlavon yuqoridan turib, dushmanlarga qarab, tosh ota boshlabdi.

Jang qizib ketibdi. Biri «boshim» deb dodlarmish, biri otdan ag'darilarmish, birining beli singanmish, xullas, dushman qattiq talafotga uchrabdi. Do'stlar xursand, dushmanlar g'amgin bo'libdi. Biroq Rustamning yiqqan toshlari tugab qolibdi. Shahar hokimi yana hujumga o'tibdi. Rustam qo'liga bir gavron olib ularning yo'lini to'smoqchi bo'lganda, ona ayiq yo'g'on archa da-

raxtini ko'tarib kelib dushman ustiga otibdi. Bu zarbadan avval shahar hokimi qocha boshlabdi. Uning ketidan yigitlar ham tumtaraqay bo'lib qochibdi. Rustam va ayiqlar ot, anjomlardan o'lja olib, o'z yerlarida yashayveribdilar. Bu voqeа shu kunning o'zidayoq hammaga ma'lum bo'libdi. Hokim buning alamiga chidayolmay, Rustamni tutib kelgan kishiga bo'yи baravar oltin berishga va'da qilibdi. Bu va'dani eshitib, og'zida tishi yo'q, boshida sochi yo'q, bir ko'zli kampir shahar hokimi oldiga kelib ta'zim qilib:

– Ey, hokim, menga ruxsat bering, Rustamni ushlab kelay. Faqat buning uchun menga o'zingiz ishongan, yuzida bir dona tuki yo'q, o'n beshta ko'sa odamni topib, har qaysisiga bir oylik ovqat g'amlab berasiz. Rustamni ushlab kelganimdan keyin mening maslahatim bilan ish qilasiz, – debdi.

Shahar hokimi kampirning aytganini bajo keltirib, ertasiga tog' tomonga yuboribdi. Kampirning buyrug'i bilan o'n besh ko'sa xotin-qizlar kiyimini kiyib, yo'lda bir-biri bilan mushtlashib, yuzi ko'kargan, burni qonagan, boshi yorilgan holda dodlashib, kampir boshchiligidagi archazor-ga kirib borishibdi. Dod-faryodni eshitgan Rustam bilan o'tinchilar ularning oldilariga boribdilar, voqeani so'rabdilar, kampir o'zini Rustam oyog'iga tashlab, boshini toshlarga urib, kiyimlarini yirtib:

– Dod, zolimning dastidan, bizlarning ar-zimizni eshituvchi, holimizdan xabar oluvchi, bizlarga mehr-u shafqat qiluvchi Rustamjon qa-

yerda? Bizning mushkulimizni faqat u oson qili-shi mumkin, – deb faryod uribdi.

Rustam:

– Xafa bo'lmanglar, onajonlar, Rustam men bo'laman. Nima bo'ldi? Menga tushuntiring-lar, – deyishi bilan o'n besh «xotin» Rustamning oyog'iga o'zini tashlab yig'lay boshlabdi.

Kampir:

– Ko'zimizning nuri Rustamjon, bizlarni zolimning zulmidan qutqar. Sening zarbingni yeb alamiga kuygan, xonavayron bo'lgur shahar hokimi bizlarni erkaklarimiz, bolalarimiz bilan chaqirib, tayoqlari bilan urib, erkaklarimizni zindonga, bolalarimizni qafasga solib, oftob tu-shadigan joyga osib qo'ydi. Uylarimizni tortib olib, bizlarni sahroga haydab yubordi. Biz nima qilamiz? Kimdan yordam olamiz? – deb nola-yu fig'on qilibdi.

Rustam:

– Yig'lamanglar, kelinglar, sizlar ham biz bilan birga bo'linglar. Shu yerda qolinglar, – deb joy tayyorlab, ovqat beribdi.

Har kim o'z tirikchiligini qilib, kechqurun o'zi tayyorlab qo'ygan joyiga borib yotar ekan.

Ayiq bolasi onasidan saboq olish uchun o'rmonga ketgan payt Rustam yolg'iz zerikib o'tir-gan ekan, Siddiq yamoqchi yoniga kelib o'tiribdi:

– Zerikkan ko'rinasan. Hikoya aytib beraymi?
– debdi u.

– Jonim bilan eshitaman, – debdi Rustam.

Siddiq yamoqchi hikoyasini boshlabdi:

– Bir vaqtlar bir yamoqchi bo'lgan ekan. Uning nihoyatda aqli, chiroyli qizi bor ekan. Otasi kambag'al yamoqchi bo'lishiga qaramay qizga boyldan, beklardan sovchilar kelar ekan. Yamoqchi ularga bermas ekan, chunki qizining yoshlikdan birga o'sib, birga o'ynab yurgan qo'shnisining o'g'lini sevishini sezар ekan. Zolimlarning zulmiga, amaldorlarning qiynoqlariga toqat qila olmagan qo'shnisi esa tug'ilib-o'sgan joyidan ayrilib, shahardan chiqib ketgan ekan. Ota-bola bir tog'da tirikchilik qila boshlabdilar. Bola kundan-kunga o'sib, voyaga yetib aqli, hushli, botir bo'lib yetishibdi, atrofdagi odamlar orasida obro' qozonibdi. Ezilgan bechoralarga shafqat qilibdi. Uning botirligiga hech kim teng kelolmabdi. Hatto uni ko'ra olmagan dushmanlar ham uning qarshisiga ochiq chiqqa olmabdi. Yigitning shuhratini eshitgan yamoqchi bilan qiz nihoyatda xursand bo'lib, uning kirib kelishini toqatsizlik bilan kutibdi. Lekin shuncha vaqt o'tsa ham yigit bir marotaba bo'lsa-da xabar olmabdi.

Rustam butun voqeani eshitib, to'satdan: «Yigitning ishi vijdondan emas», deb qo'yibdi. Siddiq yamoqchi hikoyasini davom ettiribdi:

– Qizning dong'i shahar hokimining qulog'iga borib yetibdi. Shahar hokimi g'oyibdan oshiq bo'lib, to'rt xotin ustiga xotinlikka so'rab, qancha sarpolar bilan yamoqchinikiga sovchi yuboribdi. Qiz va uning otasi sovchilarni qaytarib yuboribdi. Hokim yamoqchining oyoq-ko'lini bog'lab, suvg'a tashlab, uyiga o't qo'yib, qizni zo'rlab olib ketibdi. Qo'shnilar qizning otasini olimdan qutqa-

rib qolibdilar. Olib ketilgan qiz har qanday azoblariga bardosh berib, yigitni kutibdi. Yigitdan darak bo'lma bdi. Qizning otasi qo'shnilar qo'lida uch-to'rt kun turib, biroz tuzalgandan keyin bu voqealardan pahlavonni xabardor qilgani yo'l olibdi.

Siddiq yamoqchi Rustamdag'i holatni sezib, hikoyasini davom ettirmoqchi bo'lganida yara langan bir «xotin» Rustamning oldiga kelib:

– Rustamjon, onangiz jon berish oldidalar. Sizga juda mushtoq bo'lib yotibdilar. Oldilariga kirsangiz, – deb yalinibdi.

Rustam sakrab turib, «kasal» yotgan joyga boribdi. Siddiq yamoqchi ham o'z joyiga ketibdi. Kampirga haqiqatan g'arg'ara kelib turgan ekan. Rustam tepasiga borganida ikkinchi «xotin»:

– Ko'p qiyalmang, mana, azamatingiz qarshingizda turibdi, – debdi.

«Og'ir» yotgan kampir qo'llari bilan Rustamga imo qilib bir quchoqlab o'pishni umid qilibdi. Rustam o'zini kampir quchog'iga tashlashi bilan kampir behush qiladigan dorini Rustamning burniga tutibdi. Rustam hushsiz bo'lib yiqlibdi.

Kampir ko'salarga:

– Qani, tezda mening buyrug'imni bajaringlar, – debdi.

Xotin kiyimidagi erkaklar Rustamni arqon bilan bog'lab, shahar tomon yo'l olibdilar. Arqon bilan qo'l-oyog'i bog'langan behush Rustamni qimmataho gilamlar, duxoba ko'rpachalar solingan hashamatli uyga olib kelib, eshik tagiga tashlabdilar. Uy ichida qator odamlar o'tirgan mish. Har birining oldiga kimxobdan bosh-oyoq

sarpo qo'yilgan emish. Shahar hokimi xursandlik bilan odamlarga:

– Sizlarga hozir bergan hadyam arzimasdir. Sizlarni yana ham xursand qilaman, – deb va'da qilayotganida Salimboy o'rnidan turib:

– Ertaga xalqni rastaga yig'ib dor tikamiz-da, bu muttahamni osib, sizlarni o'shalar oldida hadyalar bilan ko'mib yuboramiz, – deb ko'kragini kerib, mo'ylovini burab qo'yibdi.

Kampir Salimboya qarab:

– Xato o'ylaysiz, boyvachcham. Birinchidan, bu yalangoyoqni xalqqa ma'lum qilish yaramaydi. Ikkinchidan, ko'p saqlab bo'lmaydi. Hushiga kelib qolsa arqonlarni uzib, xalos bo'lishi mumkin. Nima bo'lmasin tezda yo'qotish kerak, – debdi.

Shahar hokimi:

– Ey, ona, bu ish sizning ixtiyoriningizda. Qanday chora ko'rsangiz, qabul qilamiz, – debdi.

Kampir:

– Unday bolsa, Shayontepa tog'ida «tubi yo'q» g'or bor. Shunga tashlaymiz. Unda devlar, ajdarlar bor. Ularga ham ovqat kerak, – debdi.

Hamma xaxolab kulib: «Sizning hiylangizdan shayton ham qo'rqadi», – deyishibdi. Shu qaror bilan bechora Rustamni «tubi yo'q» g'orga olib borib tashlabdilar.

Rustam har kuni sahar turganida, atrofdagi cho'ponlardan o'rgangan bir kuyni nayda mashq qiladigan odati bor ekan. Uni eshitgan o'tinchilar tong otganini sezib yerto'ladan chiqishar va o'z tirikchiliklariga ketar ekanlar. Bugun jimjit bo'libdi. O'tinchilarning nazarida hali tong otma-

ganday tuyilib, ag'darilib yotaverish jonlariga tegibdi. Ammo Rustamning otasi ko'ngliga g'ulg'ula tushibdi, u pastki uyidan chiqib, Rustam yotadigan supaga kelibdi. Supa ustida Rustamning do'ppisidan boshqa narsani ko'rmabdi. Chol betoqatlanib atrofga qarabdi va uni chaqiribdi. Bu chaqiriq xuddi na'ra kabi o'tinchilar qulog'iga borib yetibdi. O'tinchilar oldinma-ketin chopib kelib, chol atrofiga yig'ilibdilar. Hamma hayron emish. Oradan «atroflarni qidiraylik», degan ovoz chiqibdi. Chol bir narsani eslagandek, chap tomonga yugurib ketibdi. Birozdan keyin og'ziga kumush qoplangan, unga o'z egasining nomi yozilgan nosqovoqni ko'tarib kelib, «bu xiyonat, makr», – deb o'tinchilarga xitob qilibdi.

– Do'stlarim, biz Rustamdan ayrilibmiz, kechagi panoh so'rab kelganlar, zorlangan ayollar emas, topshiriq bilan kelgan «erkak ayyorlar» ekan. Bunga dalil mana bu nosqovoq, men buni taniyman. Bu nosqovoq Salimboyning jiyani Bo'ri ko'saniki.

O'tinchilardan biri nosqovoqdagi harflarni tutilib, zo'rg'a o'qib, cholning shubhalarini tasdiglabdi.

Rustam tubi yo'q g'orda bir kecha-yu kunduz yotib, asta-sekin hushiga kelib qarasa, qo'l-oyoqlari yo'g'on arqonlar bilan bog'langan holda zulmat ichida yotgan emish. Faqat vahimali ovozlar, uzoqlardan oh-faryod, ingragan tovushlar eshitilib turgan emish. Rustam o'zini xalos qilish uchun ko'p harakat qilibdi, lekin foyda bermadidi. Oxiri bir chiranganda ko'kragidan bog'lan-

gan arqon uzilib ketibdi. Rustam o'zini banddan ozod qilib, ingragan tovushni topish uchun o'sha tomon yo'l olibdi. Biroz yurgandan keyin chap tomonda bir g'or ko'ribdi, g'orning og'zi tegirmon toshi bilan to'silgan emish, ingragan tovush o'sha g'ordan kelar ekan. Rustam ichkari kiribdi. Yo'lda suyaklarni ko'ribdi. To'rda bir katta xona bo'lib, toshdan yasalgan supa kabi taxta o'rnatilgan emish. Atrofda qora chiroqlar, piliklar oxirgi moylarni shimib lipillab turgan emish. Tosh supaga yoyilgan vahshiy hayvonlar terisi o'z xizmatlarini ado etib, chirib ketgan ekan. Bunday saroy qarshisida zulmatxona ko'rinishi turganmish. Unda qirq temir qoziqqa qirq kokil boylangan, katta xumdag'i muz singari sovuq suvga ikki oyog'i tizzasiga qadar tiqilgan, ikki qo'lini quloch ochdirib ikki tomondagi dorga osilgan o'n yetti yoshli qiz azobga bardosh bera olmay so'ngi nafasini olayotgan emish. Uning husn-jamoliga shu qorong'i zulmat chidash bera olmay, o'zini chetga olib qochar, qizning oydek yuzidan yorug' nurlar shu'la sochib turmoqda ekan. Buni ko'rgan Rustam o'ylab, uning kimligini va nima uchun bunday ahvolga tushganligini surishtirmasdanoq o'zini qiz tomon otibdi. Qoziqlarni sug'urib qizni xalos qilganida qiz holsizlanib, yerga yiqlibdi. Shu payt yelkasi chiqqan, bukri, oyoqlari qiyshiq, soqoli o'sgan, bo'yи bilan enining farqi bo'limgan bahaybat bir odam bilan yetmish yoshlarda, qo'lidagi hassasidan burni uzun, soqol o'rnida o'n ikki dona tukidan boshqa hech narsasi yo'q chol kirib kelibdi. Birinchisi, shu

mamlakatning katta qaroqchisi bo'lsa, ikkinchi-si, qaroqchiga o'lja topib keladigan, xalqni qaroqchi tuzog'iga ilintirib beradigan domla ekan. Qaroqchi bu qizni domlaning makr-u hiylasi bilan o'g'irlab kelib, o'ziga xotin qilmoqchi ekan. Qiz bunga unamagach, uni azoblab o'dirmoqchi bo'lganda bundan xabar topgan domla makr bilan qizni ko'ndirishni bo'yniga olib birga kelgan ekan. Bexosdan Rustamga ro'para kelgan qaroqchi domlaga qarab:

– Mening g'azabxonam mehr-shafqatxonaga aylanibdi, – deb xaxolab kulib yuboribdi.

Rustam indamay, qarab turibdi.

Qaroqchi:

– Ey, go'dak, kimsan? Yana benom-u nishon o'lib ketma. O'zingni tanit, – deb Rustamning te-pasiga boribdi.

O'ziga qaratmoqchi bo'lib, Rustamning qu-log'idan tortgan ekan, Rustam asta o'rnidan turib, qaroqchining ko'kragiga bir musht tushiribdi. Qaroqchi uch-to'rt dumalab, orqada turgan domlani bosib qolibdi. Qaroqchi to'satdan tushgan bu zarbadan g'azablanibdi. O'rnidan turmoqchi bo'lsa, semizligi xalaqit beribdi. Uning harakatlaridan domlaning suyaklari sinib ketibdi. Qaroqchi zo'rg'a turib, belidagi shamshirini olib Rustamga hamla qilganda, Rustam suv to'ldirilgan xumni ko'tarib, qaroqchiga otibdi. Qaroqchi yerga yiqilibdi. Rustam yugurib borib qaroqchining qo'lidan shamshirini tortib olib, uni o'diribdi.

Qiz uzun kipriklarini asta ochibdi, Rustam bir hovuch suv keltirib qizga tutibdi. Qiz suvdan

bir-ikki qultum ichib, tepasida turgan yigitga ko'zi tushib so'rabdi:

– Kimsiz, nima uchun bu yerga keldingiz? Men o'limga hukm etilganman. Siz qoching, o'zingizni qutqaring. Agarda meni qutqarmoqchi ekanligin-gizni bilib qolsa, sizni ham qiyab o'ldiradi.

Rustam qizga tikilib:

– Siz hozirdan boshlab ozodsiz, – debdi.

Qiz hayron bo'lib:

– Bu hech mumkin emas-ku! Necha yillar-dan beri uning changaliga tushgan kishi qutulib chiqolmagan. U o'z zulmi va qonxo'rliги orqasi-dan «bukri dev» deb nom chiqargan. Bu mam-lakatda undan bezmagan va qo'rwmagan odam yo'q. Hatto, yosh bolalar ham uning nomini eshitsa, yig'idan to'xtaydi. Uning shamshiriga hukmdorlarning minglab yigitlari bardosh berol-magan, – debdi.

Rustam o'z so'zlarining javobini intazorlik bi-lan kutayotgan qizga qarab:

– Mana shu shamshirgami? – deb, qaroqchi qo'lidan tortib olgan shamshirni ko'rsatibdi.

Qiz hayron bo'lib:

– Siz buni qayerdan oldingiz? – debdi.

Rustam qizga qaroqchi bilan domla yotgan chuqurni ko'rsatibdi. Qiz xursandligidan ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Ofarin, Quyosh yerining pahlavoniga! – debdi.

Bu so'zni eshitgan Rustam ajablanib:

– Siz mening quyosh yerining odami ekan-ligimni qayerdan bildingiz? O'zingiz kimsiz? – deb so'rabdi.

Qiz:

– Mening ismim Tongguli. Buni faqat men emas, butun xalq biladi, sizni qancha vaqtlardan beri xalq intizorlik bilan kutadi. «Bukri dev»ni o'ldirishga, xalqni qora zulmatdan qutqarishga siz sababchi bo'ldingiz. Sizning nomingiz Rustam, kasbingiz o'tinchilik, bularni mening bobom o'z hikoyalarida aytib berardilar. Qani, yuring, mening birinchi xizmatim sizni xalqqa tanish-tirishdan boshlansin, – deb ikkovi shahar tomon yo'l olibdi. Yo'lda qiz Rustamni butun voqeadan xabardor qilibdi.

Tong payti keng bir sayhonlikka kelishibdi. Odamlar yig'ilgan ekan. Hammada g'am-tashvish, birov behush bo'lib yiqilar, birov o'z libosini yirtib, boshini yerga urib yig'lar, ba'zilar behush-larga suv sepib, ularni sabr qilishga undar ekan. Uzoqdagi tepalik ustida o'n to'rt yoshli o'g'il bola bir qo'y bilan turganmish. Bola va qo'yning ko'zlarini bog'langan emish. Yig'in orasidan uch-to'rt odam bola tomon tashlansa, xalq ularning borishlariga yo'l qo'ymasmish. Rustam bunga hayron bo'lib, qizdan so'rabdi:

– Ey, Tongguli, menga bu sirni aytib ber.

Tongguli Rustamga qarab, ko'zlaridan beto'xtov marvarid yoshlarini oqizib:

– Koshki endi men tug'ilmagan bo'lganimda, xalqning bu qadar oh-fig'onini eshitmagan bo'lar edim. Ikki yildan beri bu xalqimizning kundalik marosimi, – debdi.

Rustam «kundalik marosimi» degan so'zlarni eshitib:

– Ey, Tongguli, bu sirdan meni tezroq xabar-dor qil, – debdi.

Tongguli toqatsizlanib:

– Bundan bir necha yil ilgari bizning mammalakatda bir ajdaho paydo bo'ldi. Ko'p xonardonlar ni vayron qildi. Mollarni qirdi. Shahar xalqi unga qarshi chiqa olmadi. Ajdaho shu tepe orqasida yashaydi. Har kuni tong paytida ajdaho uchun bir bola bilan bir qo'y tayyorlab qo'yiladi. Ajdaho yo'l ustida uchragan bola bilan qo'yni yeb, to'yanidan keyin shahar tomon yurmasdan iziga qaytib ketadi.

Shu payt xalq orasida birdan shovqin-suron ko'tarilibdi. Tongguli Rustamga:

– Ana, ajdaho bola tomon chiqyapti, – deb behush bo'lib yiqlibdi.

Rustam qarasa, qop-qora bahaybat bir maxluq bola tomon o'rmalab kelayotgan emish. Ajdahoni sezgan qo'y toqatsizlanib qochmoqchi bo'libdi. Bola onasini yordamga chaqirgandek chinqiribdi. Bola bilan qo'yni bir arqonga bog'langani sababli, ikkisidan birining ham qutulishi mumkin emas ekan. Rustam tepe tomonga yuguribdi. Ajdaho bola bilan qo'y yeyish uchun domiga torta boshlabdi. Qo'y tipirlashdan to'xtabdi. Bola mudray boshlabdi. Ajdaho nafasiga tortganda oldinda bola, ortidan qo'y uning og'ziga yaqinlashibdi. Bolaning ikki oyog'i ajdaho og'ziga ro'para bo'libdi. Qo'qqisdan tushgan kuchli zarba ajdahoni gangitibdi.

Ajdaho o'zini o'nglab olish uchun soy tomon burilmoqchi bo'lganida qahr bilan tashlanib, siqilgan ikki oyoq orasidan qutula olmabdi. Yigit chaqqonlik bilan ajdahoga ikkinchi zarba

tushiribdi. Ajdahoning kallasi tanasidan ajralibdi.

Ajdaho yutmoqchi bo'lgan bola Rustamning bo'ynidan mahkam quchoqlabdi. Xalq bugungi marosimni shodlik to'yiga aylantirib yuboribdi. Yig'in ichida baland bo'yli, oq soqolli bir kishi Rustamning oldiga kelib, ko'zlaridan sevinch yoshlarini to'kib:

– Bizlarni ofatdan qutqarib, g'am-qayg'udan ozod qilding, ko'nglimizga nur bergen ey, bahodir, kimsan? – debdi.

Tongguli hushiga kelib qarasa, hamma yoq shodlikka to'lgan, xalq Rustamni o'rab olib, uning sha'niga qayta-qayta ofarinlar aytayotgan emish. Rustamdan savol so'rab turgan odamning ko'zi Tongguliga tushib qolibdi. U:

– Tongguli, hayotmisan? Seni zulmatdan kim qutqardi? – deb bag'rige bosib yig'labdi.

Tongguli:

– Sizlarni ofatdan kim qutqargan bo'lsa, meni ham zulmatdan o'sha qutqardi. Bukri devni, odamxo'r ajdahoni o'dirgan, sizlarni ofatdan qutqarib baxtli hayot eshigini ochgan, o'zlarizingiz dostonlar to'qib yurgan Quyosh yerining pahlavoni – Rustam o'tinchi shu bo'ladi, – debdi.

Xalq Rustam bilan shahar tomon yo'l olibdi, bir necha kun shodlik to'yi qilishibdi. Rustam hamon do'stlarini va chol otasini o'ylar ekan. Kunlardan bir kuni Rustam Tonggulining bobosi oldiga kelibdi. Unga o'zining do'stlari, betob xotinini ko'rgani borgani va arqonga bog'lanib qora zulmatda yotgani to'g'risida bir-

ma-bir so'zlab beribdi. Hozirgi vaqtda do'stlari qanday ahvolda ekanligini bilish yer yuziga chiqish uchun maslahat so'rabdi. Bobo uzoq o'ylab, sekin Rustamga qarabdi. Bu juda og'ir ish, deb bosh chayqabdi. Rustamning yuzida bo'lgan o'zgarishni sezib:

– Ey, pahlavon, dunyo yaratilganidan beri hech bir odam Quyosh yeriga chiqqan emas. Lekin bobolarimizning hikoyalariga qaraganda, shu shaharning chap tomonida Qirq tog' degan baland tog' bor. Shuning tepasida Quyosh yeri-ga chiqish uchun yo'l bor emish. Lekin uni hech kim ko'rgan emas. U tog'ning tepasiga chiqaman, deb necha ming odam halok bo'lgan ekan. Yo'llar xavfli. Vahshiy hayvonlar ko'p, yana u tog' qirq bo'g'in bo'lib, har bo'g'inining balandligi yuz gazli silliq toshdan iborat. Kel, pahlavonim, sen bu niyattingdan qayt. Bizning pahlavonimiz va sarkardamiz bo'l. Bizlar sendan ajralishni istamaymiz, – debdi.

Rustam ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Ey, menga dunyoning zahmatini loyiq ko'rmay, shafqat qiluvchi g'amguzorim, axir unda mening do'stlarim va yetimligimni bildirmay tarbiyalab voyaga yetkazgan mehribonlarim bor. Menden ayilib ularning ahvoli nima bo'ldi: shulardan xabar olmasam ko'nglim tinchimaydi, – debdi.

Bobo shu so'zni eshitib, noiloj rozi bo'libdi. Ertasi butun shahar xalqi Rustam bilan xayrlashibdi. Shahar oqsoqoli Rustamning peshonasidan o'pib:

– Bizdan senga esdalik va yo'lingda ham-rohing bo'lsin, – deb bobosidan qolgan qadim-

gi kamon bilan besh gaz uzunlikdagi o'q-yoyni beribdi. Rustam shahar xalqi bilan xayrlashib, tog' tomon yo'l olibdi. Cho'llar kezibdi, qirlar oshibdi. Yo'llar yurib tog' tagiga yetibdi. Qarasa, tog' bobo aytgandan ham vahimali, tepasi ko'rinxmaydigan, silliq toshdan iborat baland emish, uning ustiga chiqish hech aqlga to'g'ri kelmas-mish. Rustam hayron bo'lib, nima qilishini bilmasdan xayol surib tog' bag'rida o'tirgan ekan, uzoqdan na'ra tortib kelayotgan bahaybat ovozni eshitibdi. Rustam qarasa, toshlarni har tarafga uloqtirib, og'zini katta ochib, yugurbanicha Rustam tomon ona sher kelayotgan emish. Rustam irg'ib turibdi va qo'lidagi kamonga o'q-yoyni joylab, sherni mo'ljalga olibdi. Buni sezgan sher o'z joyida to'xtab:

– Ey, odamzot! Menga yordam ber, mening bolalarimni o'limdan qutqar, – deb Rustamning oyog'iga bosh uribdi.

Rustam sherning boshini silab:

– Ey, vahshiy hayvonlarning podshosi, men dan qanday yordam kutasan. Ayt, men tayyorman, – debdi.

Ona sher Rustamning etagidan boshlab, tog'ning orqa tomoniga yuguribdi. Rustam borib qarasa, sher kiradigan g'orning og'zida ho'kizdan katta chayon turgan emish. U sherning g'or ichidagi ikki bolasini chaqib o'ldiray deb turgan ekan. Rustam kamonga o'q joylab, chayonni mo'ljalga olib otibdi, o'q borib chayonning boshiga tegibdi. Chayon gan-gib g'or og'zidan ag'darilib tushibdi. Rustam yugurib borib, shamshiri bilan chayonning nayzasini qirqib, pora-pora qilib tashlabdi. G'or ichida

chayondan qo'rqib yotgan sher bolalari yugurib kelib onasining bag'riga tashlanibdi. Ona sher xursand bo'lib, Rustamga ta'zim qilibdi. Rustam ko'p yurib charchaganidan yonboshlab uyquga ketibdi. Ona sher ikki bolasini Rustamning yonda qoldirib, o'zi g'orga ovqat tayyorlash uchun ketibdi. Sher bolalari xursandligidan bir-biri bilan o'ynashib na'ra tortibdilar. Shu paytda og'zida bir qo'yni tishlagancha ota sher kelib qolibdi. Rustamni ko'rib, qahri kelib og'zidagi qo'yni tashlab, Rustamni pora-pora qilib tashlamoqchi bo'libdi. Birdan sher bolalari:

– Bu odamga tegmang. Bizlarni o'limdan qutqardi, – deb, ota sherning bo'yniga yopishibdilar.

Ota sher bu so'zlarga taajjublanib turgan ekan, ona sher g'ordan chiqib kelibdi va bo'lgan voqeani aytib, burdalanib yotgan chayonni ko'rsatibdi. Kechga yaqin Rustam uyqudan turib qarasa, atrofida bir necha sherlar Rustamning uyg'onishini kutib turgan emish. Rustam irg'ib o'rnidan turibdi-da, boshqalarga nisbatan balandroqda turgan bir sherga ta'zim qilibdi. U sher shu tog'da yashovchi sherlarning sardori ekan. Sardor sher o'rnidan turib Rustamning oldiga kelibdi va oldingi ikki oyog'ini Rustamning yelkasiga qo'yib:

– Bizning hayotimizni xavfga solib yurgan dushmanimizni yakson qilib, kelgusi avlodlarimizning boshiga tushadigan kulfatlardan ozod qilgan qahramon, tila tilagingni? – debdi.

Rustam ta'zim bilan:

– Mening tilagim, o'z do'stlarimni ko'rish, ular-dan xabar olishdir, – debdi.

– Ular qayerda? – deb so'rabdi sherlar boshi.

Rustam:

– Ular Quyosh yerining archazorida, – deb javob beribdi.

Rustamdan bu so'zni eshitgan sherlar bir-birlariga qarab qo'yibdilar. Sardor sher hamon jim turar ekan. Rustam o'z tilagiga erishish uchun javob kutibdi. Birozdan keyin sardor sher boshini ko'taribdi va atrofga qarab baland ovoz bilan o'kiribdi. Shunda kalta, yo'g'on oyoqlari bilan yurib kelgan past bo'yli sher sardorga ta'zim qilibdi.

Sardor haligi sherga:

– Bu yigitni tog'ning tepasiga olib chiq va yo'lni ko'rsat, qaytishingda sog'-salomat olib chiqqanning uchun bizga nishona keltir, – debdi.

Sher oqsoqolga ta'zim qilibdi va Rustamning oldiga kelib turibdi. Sardor sher Rustamga qarab:

– Ey, pahlavon, sening safaring juda xavfli. Shuning uchun seni olib boruvchi sher nima desa, qaysarlik qilmasdan aytganini bajarasan, bo'lmasa falokat ro'y berishi mumkin. Ikkinchidan, Quyosh yeriga qadaming tegishi bilan bizga ishonarli nishona berib yuborasan. Toki bizlarning ko'nglimiz tinchisin, – debdi.

Rustam bu shartlarni qabul qilib sher ustiga minibdi. Boshqa sherlar ularni kuzatib qolibdi. Kuzatuvchilar g'orning og'ziga kelib yana xayrlashib o'z izlariga qaytibdilar. Rustam bilan sher g'or ichiga kirib ketibdilar. Sher g'or ichi-

da o'qdek uchibdi. O'qtin-o'qtin na'ra tortibdi. Uning na'rasiga atrofdan har xil ovozlar eshitilibdi. Rustam atrofdan kelayotgan ovozlarni bilishga qiziqib:

– Ey, vahshiy hayvonlar podshosi, bu ovozlar qanday ovozlar? Bulardan meni xabardor qil, – desa, sher Rustamdan bu savolni eshitib:

– Pahlavonim, bunday savollarni beradigan vaqt emas. Sendan so'rayman, jimlik saqlab bor. Bo'lmasa meni va o'zingni halok qilasan, – debdi.

Yana yo'lda ketar ekanlar, goh qushlarning sayrashi, goh mazlumlarning ingrashi, goh chaqmoqlar chaqib momaqaldiroq guldurashi, goh sozlar chalinib bazmlar qiyqirig'i, goh qizlarning yoqimli ashulalari eshitilibdi. Bunday ovozlarni eshitgan Rustam yalinib so'rabdi:

– Meni bu voqealardan xabardor qil.

Sher Rustamga iltimos qilib:

– Quyosh yeridagi do'stlaring hurmati uchun jimlik saqla, – debdi.

Rustam rozi bo'libdi. Lekin g'or ichida qorong'i-likdan hech narsa bilib bo'lmabdi. Agar sherning bo'ynidagi junlarini mahkam ushlaganda, uning tez chopishidan Rustam uchib ketishi turgan gap edi. Shu payt sher:

– Ey, pahlavon, ko'zingni yum. Men «och» demagunimcha ochmaysan. Agar o'z ixtiyorining bilan bir ish qilib qo'ysang, o'z do'stlaring va mening do'stlarim oldida javobgarsan, – debdi.

Rustam ko'zlarini yumib, sherning bo'ynidan mahkam quchoqlabdi. Sher yana tezroq chopib shunday o'kiribdiki, Rustam bunday ovozni bi-

rinchchi marta eshitibdi. Sherdan chiqqan terga Rustamning kiyimlari ivib, suv bo'lib oqa boshlabdi. Sher birozdan keyin to'xtab, Rustamga «tush» debdi. Rustam ko'zini yumganicha sher ustidan tushibdi. Sher «ko'zingni och», deb buyuribdi. Ko'zini ochsa, Rustam tog' tepasida turgan emish. Tog'ning tepasi nihoyatda keng va sayhonlik bo'lib, gullar ochilgan, maysalar ko'kargan, buloqlardan tiniq suvlar oqib turgan ekan. Bu yerlar xuddi bir bog'bon parvarish qilgandek emish.

Rustam sherdan:

– Bu yerda kim yashaydi? – deb so'rabdi.

Sher charchaganidanmi javob bermasdan bu loq tomon yuribdi.

Borib buloqda cho'milibdi va yana o'z holiga kelibdi. Bu mo'jizadan Rustam ajablanibdi. Sher Rustamga qarab so'zlabdi:

– Quloi sol, pahlavonim. Sirlardan seni xabardor qilay. Yo'ldagi sayrashlar, ingrashlar, bazmlar va boshqa ovozlar Quyosh yeridagi insonlarga xos edi. Ular bir-birlariga shunday munosabatda bo'lib, ba'zilarining ingrashlariidan ba'zilar zavqlanib ishrat qilishar edi. Ikkinchi senga «ko'zingni yum!» dedim. U yerda do'stlaringning hayoti ko'rinar edi. Mana endi sen ularning oldilariga borib bilasan. «Bu tog'dagi bog'lar kimniki», deding. Bu tog' tilsimlangan. Bu yerga insonlardan faqat sening qadaming tegdi. Men va mening bobolarim shu yerni qo'riqlovchilardir. Bizning avloddan boshqa sherlar bu yerga kela olmaydi. Vaqtida o'z

egasi keladi. Buyuk sirli tog'lar tekis sayhon va bo'stonlarga aylanadi.

Rustam nihoyatda qiziqib:

- Egasi kim va qachon keladi? – deb so'rabdi.
- Buni senga aytish qiyin. Bobolarimizning hikoyalariga qaraganda: «Quyosh bu zulmat yerga o'z nurini sochganda keladi». Qani qahramon, o'z safaringni davom ettir.

- Men senga nishona berishim kerak edi. Nima beray? – deb so'rabdi Rustam.

Sher Rustamni yetaklab, tog'ning bir chetiga olib boribdi va yuqoridan qirq gazcha osilib tushgan bahaybat bir daraxt ildizini ko'rsatib:

- Mana shu ildizga osilib yuqoriga chiqasan. Shu ildiz yonida kavak bor. Shunga yetganingda shu kavakdan tuproq olib menga tashlaysan. U tuproq Quyosh yerining tuprog'i hisoblanadi. Mana shu tuproqni nishona qilib olib boraman.

Rustam «Quyosh yerining tuprog'i», degan so'zni eshitib, ko'nglida do'stlari bilan quchoqlashib ko'rishayotgandek oshiqib xursand bo'libdi. Lekin ildizga qanday qilib osilib chiqishga hayron bo'libdi. Chunki ildizning pastga osilib tushgan uchi Rustam turgan yerdan o'n gaz yuqorida tugagan ekan. Sher Rustamning hayronligini sezib:

- Ustimga min, oxirgi marta seni sayohat qildiray, – deb ustiga mindiribdi.

Sher tog' atrofidan chopib kelib ildiz oldiga ya-qinlashganda Rustam birdan ildizga sakrabdi. Rustam ildizni quchoqlab yuqoriga o'rmalabdi. Sher aytgan tuproqdan olib bir yengiga boylab

sherga tashlabdi va sher bilan do‘s tlarcha xayrlashib yuqoriga yo‘l olibdi.

Quyosh yerining pahlavoni tong otar paytidagi yer yuziga chiqibdi. Atrofiga qarasa tanish archazor ko‘rinibdi. U ildiz Rustam otasi bilan birinchi marta archazorga kelganda, chol su-yangan past bo‘yli yo‘g‘on archaning ildizi ekan. Rustam o‘zi yotadigan supa ustida ona ayiq kenja bolasini oldingi oyoqlari orasiga olib, qayg‘u bilan boshini qo‘yi solib o‘tirganini ko‘ribdi. Ko‘zi birdan Rustamga tushib qolgan ona ayiq ovozi boricha o‘kirib yuboribdi va Rustamni o‘z bag‘riga bosibdi. Ona ayiq ko‘zidan yosh to‘kibdi:

— Sendan ayrilganimizdan uch kun o‘tgach, hokim yigitlari bilan kelib, archazorga o‘t qo‘yib, bu yerdagilarning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab olib ketdi. Cho‘ponlarning aytishlariga qaraganda, bugun kechqurun xalqni yig‘ib, o‘tinchilarni dorga osar emishlar.

Kechki payt ayiq bilan Rustam shaharga kelib qarasa, keng maydonga odam yig‘ilgan emish. Kimdir ko‘z yoshi to‘kayotganmish. Kimdir ko‘makka intilib, o‘zini ojiz bilib betoqat bo‘lib umidsizlik bilan dovdirarmish. Kimdir kimxob to‘n kiyib ot o‘ynatib, dor atrofidan odamlarni haydarmish. Kimdir «gunohkor»larning dorda tipirchilashlarini tomosha qilmoqchi bo‘lib soyabon aravada kelib turganmish. Dorning chap tomonida temir qafaslar bor emish. Bunda hokimning zulmiga qarshilik ko‘rsatgan yoki uy-joylarini tashlab ketgan odamlarning bolalari qamab qo‘yilganmish. Qafasdagilarning hammasi yarim yalang‘och, murg‘ak badanlari ko‘mir singari

qorayib ketgan emish. Ko'pdan beri ochlik va tashnalikka duchor bo'lganlari uchun suyaklari badanini yorib chiqqandek ko'rinarlmish. Mana shu mahbuslar orasida Siddiq yamoqchining qizi Zuhra ham bor emish.

Bir payt karnaylar chalinib, yasovullar yo'l ochib, jallodlar bolta ushlagan holda qo'llari orqaliga bog'langan, ranglari o'chgan Rustamning otasi boshliq qirq yetti «gunohkor»ni dor tagiga olib kelibdilar.

Salimboy saman otda kelib, xalqqa shahar hokiminинг gunohkorlarni dorga osib o'ldirish to'g'risidagi farmonini o'qib beribdi. Jallodlar dorlardan arqonlarni tushirib gunohkorlar bo'yniga bog'labdi. Salimboy zavqlanib, kulib turganida kuchli qo'l yelkasidan ushlab olib, ot ustidan otib yuboribdi.

Yasovullar Salimboyga hujum qilgan qo'lni ushiamoqchi bo'lganida, u qo'l har zarbada ikki-uch yasovulni ag'darib turibdi. Jallodlar hayron bo'lib, farmonni bajarishga shoshilgan ekanlar, to'satdan boshlariga tushgan yo'g'on so'yil ularni yerparchin qilibdi. Mahbuslar o'zlarini jallodlar qo'lidan ozod qilayotgan ayiqni ko'rib shodlanibdilar. Shu orada kimdir «Salimboyni otdan otib yuborgan Rustam ekan» deyishi bilan, «Rustam tirik, Rustam keldi» degan so'zlar xalq orasiga tarqalibdi. To's-to'polon bo'lib, odamlar kim-kimligini bilmasdan aralashib ketibdi. Bir qancha vaqt davom etgan g'alayondan keyin o'lgan o'ttiz jallod, ikki yuz yasovul, pachoqlangan temir qafas va Salimboyning jasadidan boshqa hech kim maydonda qolmabdi.

Har kim o'z farzandini olib Rustamga ofarin aytib, archazor tomon ketibdi. Siddiq yamoqchi o'z qizi bilan oldinda borayotgan Rustamning yoniga borib, jilmayib, ohista so'z boshlabdi:

– Xotirangizda bordir. Bir kun archazorda hikoya aytib berayotganimda «xotin» kishi kelib qolib hikoyam chala qolgan edi.

Rustam o'ylab turmasdan:

– Xotiramda umr bo'yи saqlangan. Qani, yo'l ustida bo'lsa ham, hikoyaning davomini aytинг, – deya iltimos qilibdi.

Siddiq yamoqchi ko'z qiri bilan qiziga qarabdi. Zuhra bir narsani sezgandek, uyalib yerga qarabdi. Siddiq yamoqchi so'zida davom etibdi.

– Ana o'sha zolimning zulmiga bardosh qilib o'z vafodorini intazorlik bilan kutgan qiz qarshingizda turgan mening qizim Zuhra edi.

Rustam yalt etib Zuhraga qarabdi. Siddiq yamoqchi Rustamdan so'z kutar ekan. Rustam bir narsani eslagandek:

– Ha, aytgandek, bu kishining pahlavoni kim va qayerda? – deb so'rabdi.

Siddiq yamoqchi Rustamdan to'rt qadam chet-roqda butun voqeadan xabardor bo'lib kelayotgan Rustamning otasiga imo qilibdi. Ular bir-birlariga qarab jilmayishibdi:

– Zuhraning pahlavoni kimligini bilmoxchimisan – bu o'zingsan, – debdi.

Rustam oldinga tashlagan qadamini to'xtatib otasiga qarabdi. Chol Rustamning bergen savoliga qaytarilgan javobni tabassum bilan tasdiqlabdi.

Tong shamollari g'irillab archalar orasida esar, archa yaproqlari esa o'z soyalariga kelayotgan do'stlarini olqishlar ekan. Bir qancha vaqt-dan beri jimlik hukm surgan archazor shodlikka to'libdi. Zulm ko'rganlar, alamdiydarlar Quyosh yerining pahlavoni yetakchiligidagi ozod, hur, go'zal hayot kechira boshlabdilar.





UR, TO'QMOQ!

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Olatog' etagida
bir chol bilan kampir yashar ekan. Ular
parranda va hayvonlarni ovlab, kun ke-
chirar ekanlar.

Kuz payti ekan. Kunlardan bir kun cholning
tuzog'iga kattakon bir laylak ilinibdi. Chol uni
tuzoqdan chiqargan ekan, laylak tilga kiribdi:

– Chol bobo, meni qo'yib yuboring, men lay-
laklar shohi bo'laman, nima so'rasangiz bera-
man, – debdi.

– Seni qaydan topaman? – deb so'rabdi chol.
– Olatog' orqasiga o'tib, meni kimdan so'rasangiz,
uyimni ko'rsatib qo'yadi, – debdi laylak.

Chol laylakni qo'yib yuboribdi.

– Yaxshililingizni unutmayman, – debdi laylak uchib ketayotib.

Bahor yaqinlashibdi. Tuzoqqa qushlar ilinmay qolibdi. Chol laylakvoyni eslab: «Bir borib kelay, nima ish chiqar ekan», deb o'yabdi.

Olatog'dan oshib o'tibdi. Yo'lda cho'ponlarni uchratibdi.

– Bu qo'ylar kimniki? – deb so'rabdi chol.

– Laylakvoyniki! – deb javob berishibdi cho'ponlar va cholga yo'l ko'rsatishibdi.

Chol yurib-yurib yilqichilarga yo'liqibdi.

– Hoy yilqichilar! Bu yilqilar kimniki? – debdi u.

– Laylakvoyniki! – deyishibdi yilqichilar.

– Rosa badavlat ekan-da bu laylakvoy, – debdi chol suyunib, keyin yilqichilardan so'rabdi:

– Laylakvoy «so'raganingni beraman», deb va'da qilgan edi, nima so'ray?

– Qaynar xumchani so'rang, – deyishibdi yilqichilar. – U sehrli xumcha, qayna xumcha, desangiz, ichidan oltin-u kumushlar qaynab chiqadi.

Chol ularga rahmat aytibdi-da, yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri laylakvoyning uyiga yetibdi.

– Assalomu alaykum, – debdi chol eshikdan kira turib, – va'dangni bajarasanmi, deb keldim, laylakvoy.

– Tilang, tilagingizni!

– Qaynar xumchani ber, – debdi chol.

– Oh, – debdi laylak, – bobo, sizga bir tovoq tilla beray.

– Yo'q, – deb ko'nmabdi chol.

Laylak rozi bo'lib:

– Mana, oling, – deb qaynar xumchani beribdi.

Chol qaynar xumchani olib, orqasiga qaytibdi. Yo'l yurib, mo'l yurib, bir joyga yetibdi. Dam olish uchun o'tiribdi. Shu yerlik bolalarga qarab:

– O'g'illarim, xumchadan xabardor bo'lib turinglar, men uxlab olay, tag'in «Qayna, xumcha» deya ko'rmanqlar! – debdi.

– Xo'p, – deyishibdi bolalar.

Bolalar shum bolalar ekan.

Chol uyquga ketishi bilan ular:

– Qayna, xumcha! – deyishibdi.

Xumchadan tilla qaynab chiqibdi. Bolalar shoshib qolibdi. Ular tillalarni yig'ib olib, xumchani almashtirib qo'yishibdi.

Chol uyqudan turib xumchani olib yo'lga tushibdi va yetti kecha-yu yetti kunduz deganda uyiga yetibdi.

– Kampir, dasturxonni yoz! – debdi chol.

Kampir dasturxon yozibdi.

Chol ovozi boricha:

– Qayna, xumcha! – deb qichqiribdi.

Xumcha qaynamabdi.

Chol achchiqlanib, yana laylakvoyning uyi tomon yo'l olibdi. Yo'lda yana yilqichilarga uchrab:

– Laylakvoy meni aldadi, endi nima so'ray? – debdi.

– «Ochil dasturxon»ni so'rang! – deyishibdi yilqichilar.

Chol laylakvoyning oldiga boribdi.

– Ha, – debdi laylakvoy. – «Qaynar xumcha» sizga kamlik qildimi?

– Meni aldab «Qaynar xumcha» o'rniغا boshqasini beribsan, – debdi chol. – Menga «Ochil dasturxon»ni ber!

Laylak cholning so'zini qaytarmabdi.

«Ochil, dasturxon»ni olib kelayotib sodda chol yo'lida haligi shum bolalarga yo'liqibdi.

– Bolalarim, – debdi u, – mana shu dasturxonni ushlab turinglar, men yotib damimni olay. «Ochil, dasturxon!» deya ko'rmanglar tag'in.

– Xo'p! – deyishibdi bolalar va chol uyquga ketishi bilan:

– Ochil, dasturxon! – deb yuborishibdi.

Shu zahotiyoq ular oldida yetmish xil ovqat tayyor bo'libdi. Bolalar ovqatlarini shoshib-pishib o'rab olib, dasturxonni almashtirib qo'yishibdi.

Chol uyga qaytibdi-da:

– Ochil, dasturxon! – deb qichqiribdi.

Dasturxon ochilmabdi. Cholning tepa sochi tikka bo'lib ketibdi.

– Yana aldabdi meni! – debdi chol peshonasiga urib.

Chol yana laylakning oldiga yo'l olibdi va yana yilqichilarga duch kelibdi.

– Endi «Ur, to'qmoq»ni so'rang, – deyishibdi yilqichilar.

Chol laylakvoy oldiga borib:

– Bo'lar ish bo'ldi, endi arzimagan bir narsa so'rayman. Menga «Ur, to'qmoq»ni ber! – debdi.

Laylakvoy unga «Ur, to'qmoq»ni beribdi.

Chol «Ur, to'qmoq»ni olib yo'lga tushibdi. Avvalgi bolalarga yo'liqib:

– Men dam olay, sizlar to'qmoqqa qarab turing-lar. Lekin «ur, to'qmoq» deya ko'rmanglar, – deb tayinlabdi.

Bolalar cholning gapiga qulqoq solishmabdi. Chol uxlashi bilan:

– Ur, to'qmoq! – deb yuborishibdi.

To'qmoqqa jon kirib, bolalarni shunday do'pposlab ketibdiki, hech bir bola dunyoga ke-lib bunaqa kaltak yemagan ekan. Bolalar dod-lashibdi, yig'lashibdi.

Chol uyg'onibdi. Bolalar uning oldiga kelib:

– Ota, to'qmog'ingizni to'xtating! Sizning xum-changiz bilan dasturxoningizni qaytib beramiz. Odobsizligimiz uchun ta'zirimizni yedik. Aybimizga iqrormiz, – deya yalinishibdi.

Shunda chol:

– Tur, to'qmoq! – debdi.

To'qmoq urishdan to'xtabdi. Bolalar yugurib uylaridan «Qaynar xumcha» bilan «Ochil das-turxon»ni olib kelishibdi.

Chol buyumlarni olib, uyiga shoshilibdi.

– Qayna, xumcha! – debdi uyiga kelgach.

Xumchadan tilla qaynab chiqibdi.

– Ochil, dasturxon! – debdi uni ham sinab ko'rish uchun.

Dasturxon ochilib, yetmish xil ovqat hozir bo'libdi.

Chol bilan kampir laylakning tuhfalaridan xursand bo'lib, qolgan umrlarini rohatda o'tka-zib, murod-maqsadlariga yetibdilar.



LAYLAK, TULKI VA BO'RI

Bir kuni laylak tulkini ziyofatga chaqiribdi. Tulki laylaknikiga kelibdi. Laylak suyuq osh qilibdi va uni ko'zaga solib o'rtaga qo'yibdi.

– Qani, tulkivoy, ovqatdan oling, – deb tulki ni ovqatga taklif qilibdi. Tulkivoy bo'ynini cho'zib rosa urinibdi. Lekin tumshug'i ko'zaga sig'mabdi va og'zi oshga yetmabdi.

Shunda tulki:

– Qani, laylakvoy o'zlaridan bo'lsin, mening qornim to'q, – debdi.

Shunda laylak ko'zaning ichiga bahuzur tumshug'ini tiqib, xotirjam ovqatni yeyaveribdi. Laylakning o'zi qornini to'yg'azib olibdi.

Tulki o'zicha: «Ha, boplading-ku», – deb o'y labdi.

Ertasi kuni tulki laylakni ziyofatga chaqirib-di. Tulki kulchatoy qilib taxtaning ustiga yupqa qilib yoyib, o'rtaga qo'yibdi.

Shunda tulki:

– Qani, laylakvoy, oling taomdan, – debdi.

Laylak tumshug'ini taxtaga uribdi-uribdi, ammo og'ziga hech narsa kirmabdi. Laylak ham urinib hech narsa yeya olmabdi. U:

– Ey, tulkivoy, o'zingiz olavering, mening qornim to'q, – debdi.

Shunda tulki bahuzur tilini yoyib taxta us-tidagi kulchatoyning hammasini o'zi yeb tuga-tibdi. Laylak ochdan sillasi qurib, uyga qaytibdi. Ketayotganda tulki:

– Ey, laylakvoy, do'stim, ertaga ham keling, bir g'alati o'yin bor, shuni o'ynaymiz, – debdi.

Laylak ovqat yeymaganidan afsuslanib, ertasi kuni balki menbop ovqat tayyorlar, deb ertasiga ham tulkinikiga kelibdi:

– Qani, nima o'yining bor, ko'rsat – debdi laylak.

– Ey, do'stim, sen mening ustimga chiq. Sen ko'rmagan mamlakatlarni ko'rsataman, – debdi tulki.

Laylak tulkining ustiga chiqib o'tirib olibdi. Tulki laylakka:

– Do'stim, ikki qanotining ustingga yozib ikki uchini menga tishlatib qo'y, men baland yerlar-dan irg'isam, yiqilmaysan, – debdi.

Laylak ikki qanotidan tulkiga tishlatib qo'yib-di. Shunda tulki laylakning ikki qanotidan tish-lab qayerda do'lana, to'qay bo'lsa, o'shaning ichiga kirib yuguraveribdi. Laylakning qanotlari

to'kilib qip-qizil go'sht bo'lib qolibdi. Shunda tulki to'xtab laylakni ustidan tushiribdi. Laylak:

– Rahmat, tulkivoy, bo'lganimcha bo'ldim. O'yin shunchalik bo'ladi, bundan ortiq bo'lmaydi, – debdi va xafa bo'lib o'z uyiga qaytibdi.

Shunday keyin daryolarning bo'yida qurbaqa yeb, qirq kun o'zini boqibdi, uqlab dam olibdi. Qirq kunda laylakda pat ham paydo bo'lib, uch-adigan bo'libdi va tulkining oldiga uchib kelibdi.

– Do'stim, omon-eson yuribsanmi? Biznikiga bor, sening o'yining juda qiziq edi. Menda esa undan ham qiziqroq o'yin bor. Birga o'ynaymiz, – debdi. Ertasiga tulki laylakning uyiga kelibdi. Laylak tulkini yelkasida ko'tarib, osmonga uchibdi. Sekin-asta uchib, tulkini osmonga olib chiqibdi va:

- Yer ko'rinyaptimi? – deb so'rabdi.
- Ha, ko'rinyapti, – debdi tulki.

Laylak yana balandroqqa uchibdi. Birpasdan keyin:

- Tulkivoy, yer ko'rinyaptimi? – deb so'rabdi.
- Yo'q, ko'rinxayapti, – debdi tulki.

Shunda Laylak:

– Endi manzilga yaqinlashdik, bu qanotim tolди, endi bu qanotimga o't, – debdi.

Tulki sekin qo'zg'alib, laylakning u qanotidan bu qanotiga o'tay deganda, laylak bir ag'darilib, tulkining oyog'ini osmonga qilib yuboribdi. Tulki dam boshi, dam oyog'i bilan aylanib-aylanib yerga tushibdi.

Bir qo'ychivon poda boqib po'stinini yechib, yerga to'shab xotirjam o'tirgan ekan. Bir vaqt

qo'ychivon osmonga qarasa, osmondan bir narsa tushib kelayotgan emish.

Uni ko'rib qo'ychivon: «Ha, bu Xudoning basosi bo'lsa kerak», deb o'rnidan turib qochibdi. Tulki kelib haligi qo'ychivonning po'stini ustiga tushibdi. Po'stinni sudrab, bir toshning yoniga borib, po'stinni tagiga solib yotaveribdi.

Bir kuni tulki po'stinning ustida o'tirgan ekan, bir bo'ri uning oldiga kelibdi va undan so'rabdi:

- Ey, tulkivoy, bu to'nni kim tikkan?
- O'zim bichib tikkaman, – debdi tulki.
- Ey, siz chevarmisiz? Chevar bo'lsangiz men ga ham shunday bir po'stin tikib bersangiz. U qancha qo'yning terisidan bo'ladi? – debdi bo'ri.
- O'n to'rt qo'yning terisidan bo'lgan, siz katasiz, sizga o'ttiz beshta qo'yning terisi po'stin bo'ladi, – debdi tulki.

Shunda bo'ri o'ttiz beshta qo'yni haydab ke lib so'yib, go'shtini ajratib, tulkiga hammasini tayyor qilib beribdi. Tulki qo'ylarning terilarini to'plab uning ustiga chiqib o'tiraveribdi. O'ttiz beshta qo'yning go'sht-yog'ini yeb yota beribdi. Bir oydan keyin bo'rivoy kelib:

- Ey, chevar, po'stin bitdimi? – debdi.
- Po'stin bitdi, lekin yoqasidan qiyadigan joyi bor, siz shu yerda o'tirib turing, men qo'shnilarnidan qaychi olib chiqib, yoqa, yengini qiyib, ustingizga kiygizib qo'yaman, – debdi tulki va bo'rini o'tqazib qo'yib, qochib ketibdi. Tulkini kutib bo'ri kechgacha o'tiribdi. Tulki kelmabdi. Shundan keyin bo'ri talkining aldaganini bilib qolibdi va o'rnidan turib talkining uyasiga kirib qarasa, po'stin ham yo'q, tulki ham yo'q emish.

Bo'ri balandlikka chiqib qarasa, tulki bir yerda pisib ketayotgan emish. Bo'ri uni quvibdi. Tulki bir vaqt orqasiga qarasa, bo'ri unga yetay deb qolibdi. Tulki yugurib bir kavakka kirib ketibdi. Bo'ri ham uning ketidan kirmoqchi bo'libdi. Bi-roq u har qancha urinsa ham kavakka sig'mabdi. Keyin bo'ri bir dehqonning ko'zasini olib ke-lib, tulki kirib yotgan kavakning og'ziga to'g'rilab qo'yibdi. Shamolda ko'za bo'riday uvillay bosh-labdi. Tulkiga bu xuddi bo'ri uvillayotganday bo'lib eshitilibdi. Tulkining ham qorni nihoyatda ochibdi. U kavakdan boshini sekin chiqarib qarasa, bo'ri yo'q emish. Tulki bo'ridan aldangan-ligini ko'rib meni aldagani sen ko'zami, sening ham bir adabingni berib qo'yay, deb dumiga bog'lab, uni chakalakka olib borib:

– Jon tulki aka, degin, – debdi.

Ko'za indamabdi.

– Seni daryoga olib borib cho'ktirib o'ldiraman, – deb sudrab borib, uni suvga solibdi. Ko'zaga suv to'lib cho'ka boshlabdi, shunday qilib u tul-kinin o'zi bilan birga daryoga sudrab tushib ketib-di. Tulki suvga cho'ka turib, ko'zaga:

– Jon ko'za, qo'yib yubor, – deb yalina bosh-labdi.

Ko'za qo'yib yubormabdi. Tulki dumini uzib yuborib, zo'rg'a qutulibdi. Tulki dumi yulinib, cho'ltoq bo'lib kelayotsa, bir yerda qirqta tulki o'ynab yurgan emish.

Haligi tulkilar:

– Hoy kalta dum, – deb orqasidan yurib uni kechgacha masxara qilishibdi.

Bir kuni cho'ltoq tulki ularni uzumxo'rlik-

ka olib boribdi. Qirq tulki qarasa, rang-barang uzumlar tovlanib, ishkomda pishib yotgan emish. Ko'rib xursand bo'lishibdi.

Cho'ltoq tulki ularga:


- Hali quvonishga erta. Chunki uzumlar qorningiz to'ymasdan qochib qolishlari mumkin,
- debdi.

- Unda ish chatoq ekan, - deyishibdi xafa bo'lib tulkilar.

- Xafa bo'l manglar. Buning ham iloji bor, - debdi cho'ltoq tulki.

- Hammangiz tokning zangiga dumingizni mahkam bog'lab qo'ysalaringiz, ular qochib ketayotganda ushlab qolasizlar.

Bu gap tulkilarga ma'qul tushibdi. Dumlarini tok zangiga mahkam bog'lab qo'yib, uzum yeya boshlabdilar. Ko'p o'tmay so'yil ko'tarib bog'bon kelib qolibdi, cho'ltoq tulki osongina qochib qutulibdi. Qirq tulki bo'lsa kaltak zarbidan dumlari uzilib, arang qochib qutulibdilar. Shu-shu ularning o'zları ham dumsiz qolib, cho'ltoq tulkini masxara qilmaydigan bo'lishibdi.





UCH OG'AYNI BOTIRLAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-da bir kishi bo'lgan ekan. U boy ham, kambag'al ham emas ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan, uchovi ham o'qigan, oq-u qora-ni tanigan, yuzlari oyday, o'zlari tog'day, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan-lar. To'ng'ichi yigirma bir yoshda, o'rtanchasi o'n sakkiz yoshda, kenjası o'n olti yoshda ekan.

Otasi bir kuni ularni oldiga chaqirib, har birining peshonasini silab:

— O'g'llarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ism

qo'ydim. To'y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishta usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz, yana uchta narsani aytaman, qulqlaringizga olib, eslariningizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmaning – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmafsiz. Bundan boshqasini o'zingiz o'rganing. Qora toyni, saman toyni, ko'k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo'ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim. Baxtingiz yo'lda, topib olmoq uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing, dunyoni tanimay dunyo kishisi bo'lmafsiz. Baxt qushini ushlarloq uchun baxt oviga chiqing. Oq yo'l sizlarga, o'g'llarim, – debdi.

O'g'llari suyunib, safar tayyorgarligini ko'rishib, erta saharda otlanib yo'lga tushibdilar. Uch og'ayni kun bo'yi yurib, ancha olisga ketibdilar.

Namozshom vaqtida bir joyga yetibdilar. Kechasi yo'l yurmoqni munosib ko'rmay, shu joyda tunamoqni ma'qul topib, otlaridan tushib, istirohat qilib, ovqat yeb, yotish oldidan o'zaro shu maslahatga kelibdilar: «Bu joy to'qayzor ekan, biz uzoq yo'l bosib kelganmiz, charchab uqlab qolsak yaxshi bo'lmas, kechani uch qismga bo'lib, har bir qismida birimiz navbat bilan poyloqchi bo'lib uyg'oq turaylik».

To'ng'ich akasi birinchi bo'lib navbatni olibdi. Ikkala ukasi uyquga ketibdilar. Chiroq lipillab yonib turardi. Katta aka qo'lidagi yarog'ini o'ynab, atrofdagi dov-daraxtlarni tomosha qilib bir qancha vaqt o'tiribdi. Atrof jimjit. Borliq uyquda. Kecha oydin edi. Bir vaqt to'qay ichidan bir sharpa eshitilibdi. Yigit qo'rqlmay, yarog'ini chiqarib hujumga shay bo'lib turibdi.

Og'a-inilar tushgan to'qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor ekan. Odamlar bu joyga kelgani qo'rqar edilar. Sher aka-ukalarning hidini bilib, yemoq uchun asta-sekin uyasidan qo'zg'alib chiqib kelibdi. To'ng'ich botir, sherni o'ldirishga ishonsa ham, «Ukalarim bezovta bo'lmasinlar» deb, to'qayning boshqa tomoniga qarab qochibdi. Sher quvibdi. To'ng'ich botir panaga yashirinib turib, sherning orqa tomoniga qilich bilan urib, uni yaralabdi. Yarador sher bo'sh kelmabdi. Bor kuchini to'plab, o'zini to'ng'ich botir tomonga otibdi. Yigit chap beribdi va sherning naq boshini mo'ljalga olib, qilich solibdi. Sher yiqilibdi. U, sherning ustiga minib terisidan bir tasma qirqib olibdi. Beliga mahkam bog'lab olib, hech narsa ko'rmaganday, yana ukalari yoniga qaytibdi.

Poyloqchilik navbati o'rtancha botirga kelibdi. Bu gal hech qanday voqeа yuz bermabdi. Kenja botirning poyloqchilik navbati ham tinch o'tibdi. Birinchi kecha shu bilan tugabdi.

Tong otishi bilan nonushta qilib, yana yo'lga tushibdilar. Kechgacha yo'l yuribdilar, yo'l

yursalar ham mo'l yuribdilar, bir tog'ning bag'ri-ga tushib kelibdilar. Tog'ning chap tomoni keng qo'riq ekan. O'rtada bittagina baqaterak bo'lib, baqaterakning tagida bir buloq, uning oldida supa, tog'ning tagidagi g'orda esa ilonlar podshosi – ajdar sulton yolg'iz yasharkan.

Bundan bexabar botirlar shu yerga tushibdilar. Otlarini boylab, xashak solib, haligi supaga o'tirib, hordiq chiqaribdilar. Ovqatlarini yeb bo'lgach, uqlash vaqtida yana navbatma-navbat poyloqchilik qilishga kelishibdilar.

Birinchi bo'lib to'ng'ich botir navbatchilik qilibdi. Uning galida tun sokin o'tibdi. Undan keyin o'rtancha botir poyloqchilik qilibdi. Uning navbatida ham kecha oydin, jimjit ekan. Bir vaqt haligi g'ordan vahimali ovoz eshitilibdi. O'rtancha botir qo'rqmabdi, jim kutibdi. Faqat akasi bilan ukasining bezovta bo'lishlarini xohlamabdi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan g'ordan boshi xumday, uzunligi chinorday bir ilon o'rmalab kela boshlabdi.

O'rtancha botir supadan tushib, qo'riqning narigi tomoniga qarab qochibdi. Odam borligini bilib chiqqan ajdar o'rtancha botirga hamla qilibdi. Botir chap berib, ajdar sultonning dumiga qilich uribdi va uni yaralabdi. Yarador ajdarning beliga qilich solib, uni jonidan judo qilish o'rtancha botirga qiyin kechmabdi. O'rtancha botir ham ajdarning terisidan bir tasma olib, beliga bog'lab olibdi. Keyin hech narsa ko'rmaganday bo'lib, supaga qaytibdi.

Uchinchi navbat kenja botirga kelibdi. Kenja botir akasi uyquga ketgach, tonggacha poyloq-chilik qilibdi. Tong otibdi, uyg'onibdilar. Nonushtadan keyin yana otlanib, yo'lga tushib-dilar. Bu kun ham yo'l yuribdilar. Tog'lardan, cho'llardan, dasht-dalalardan o'tib, kun botganda bir tepalikka yetibdilar. To'xtab, bu kechani shu yerda o'tkazmoqqa kelishibdilar. Tepalikda o'zлari uchun joy hozirlashibdi. Ovqatlangach, yotarda yana poyloqchilik boshlanibdi.

Birinchi navbatni har doimgidek to'ng'ich botir o'tkazibdi. Tun sokinligida ukalari maza qilib uslashibdi.

Tunning ikkinchi yarmida navbat o'rtancha botirga o'tibdi. Uning poyloqchiligidagi ham atrof jimjit, butun borliq uyquda ekan.

Keyin kenja botirga gal kelibdi. Kenja botir tepalikda akalarini uxlatib poylab o'tirgan ekan, birdan shamol turib, chiroqni o'chirib qo'yibdi. Akalarining qorong'ida uslashini xohlamabdi va chiroq axtarish uchun tepalikning eng baland qismiga chiqibdi. Bu yerdan atrof kaftdek ko'rinar ekan. Shunda uzoqdan bir yorug'likka ko'zi tushibdi. Chiroqni yo-qib kelish uchun otini minibdi-yu, o'sha to-monga qarab ketibdi. Ancha yo'l yurib, cho'ning o'rtasidagi bir qo'rg'onga yetib kelibdi. Qo'rg'on yetti paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, bir tomonida eshik bor ekan. Otini tashqarida qoldirib, sekin ichkari kiribdi. Qo'rg'oning hovlisida bir chekkada o'n bir yog'ochli qora uy bo'lib, uning darchalari berk, eshiklari

ochiq ekan. Kenja botir sekin borib, darchaning yorug'idan mo'ralabdi. Uy ichida katta o'choq, qozonda sho'rva qaynab turarkan. Devorlar-da yarog'-aslahalar terib qo'yilgan, bir tomonda yigirma chog'li odam davra qurib o'tirar, ularning peshonalari qaqqaygan, ko'zlari chaqchay-gan, ko'ngillari qora, yuzlari ola, o'ylaganlari yomonlik ekan. Xullas, bular talonchilar to'dasi ekanligi, bu joy ularning to'planadigan makoni ekanani ma'lum bo'libdi. Kenja botir o'ziga o'zi: «Bu yerga chiroqni yoqish uchun keldim, qaytib ket-sam qo'rqoqlik bo'ladi. Lekin bular yaxshilik bilan menga olov berishmaydi. Qanday bo'lsa ham bir yo'l bilan hiyla ishlatib, ularga qo'shilib olay, paytini topib, ishimni bajaray», – debdi. Orqasiga qarab, bir necha qadam yurib, so'ngra yugurib kelibdi. Oyoq tovushini eshitib, o'g'rilar yarog'larini qo'llariga olib, tayyorlana boshlabdilar. Bu orada kenja botir ichkariga kirib kelibdi. Salom berib, hamma bilan so'rashib, tizza bukib o'tiridi. O'g'riboshiga qarab:

– Taqsir, men kamina qulingiz falon shahardan bo'laman, yoshligimdan beri hech ustod ko'rmay, o'zimcha mayda o'g'rilik qilib yurar edim, ko'p tajriba ko'rganman. Yakka o'zim durustroq bir ish qilmoqqa kuchim bo'lмаганидан, bir to'daga qo'shilmoqni orzu qilib yurar edim. Janoblariningizni bunda deb eshitdim, kecha-kunduz yo'l yurib, huzuringizga yetib keldim. Umidim shuki, meni yosh deb qaytar-may, oralaringizga olib, bilmagan narsalarimi-ni o'rgatib, to'dalariningizga qo'shib olsangiz

edi. Ko'p narsalardan xabarim bor, ayniqsa lahim kavlamoqqa, oldin tushib, vaziyatni bilib chiqmoqqa ustaman. Umidim borki, ishlariningzga yarab qolaman, – deb, ikki qo'lini ko'ksi-ga qo'yib yolvoribdi.

O'g'rilarning boshlig'i:

– Juda yaxshi, bizga ham shunday bir yosh o'g'ri bola zarur edi. Yaxshi kelibsiz, bizga qo'shilding. Murodingga yetding, o'g'richa, – debdi.

Kenja botir o'rnidan turib, qulluq qilib:

– Murodimga yetsam baxtliman, – debdi. Ichida esa: «Semiz qo'yalar, qassobingiz men o'zim bo'laman», deb pichirlab qo'yibdi.

Sho'rvani keltiribdilar, maza qilib ovqatlanishibdi. O'g'rilar podshoning xazinasini o'marmoqchi bo'lib shu yerga to'planishgan ekanlar. Maslahatlashib otlanibdilar. Kenja botir ham birga ketibdi. Ko'p o'tmay, o'g'rilar shaharga kirib kelibdilar, o'rdaning orqa tomonidagi bog'chaga kiribdilar. Otdan tushib, o'rdaga qanday qilib kirish to'g'risida maslahat qilib, oldin «o'g'richa»ni devordan oshirib tushirishga, hamma uxlagan bo'lsa baravar kirmoq uchun devordan birin-ketin oshib tushib, ichkarida to'planishga kelishibdilar. Kenja botirga qarab: «Sen kirib, vaziyatni bilib chiq, so'ngra devor tepasida xabardor bo'lib tur!» debdilar.

O'g'rilar kenja botirni ko'tarishib, devorga chiqaribdilar. U bir iloj qilib, pastga ham tushib olibdi. Biroz u yoq-bu yoqqa yurib, xabar olgan bo'libdi. So'ng bir aravani sekin devor tagiga keltirib qo'yibdi-da, aravaning tepasiga chiqib,

boshini devordan chiqarib, o'g'rilarga qarab: «O'rdada hamma uxlagan ekan, qulay fursat», - debdi. O'g'riboshi o'g'rilarga: «Birin-ketin devordan oshilsin, ovoz chiqarilmasin!» - deb buyuribdi. Birinchi o'g'ri devordan aravaga qarab tushmoq uchun qornini paxsaga qo'yib, boshini eggan ekan, kenja botir qilich bilan uning boshini tanasidan judo qilibdi. Undan keyin navbatdagi o'g'ri tushibdi, u ham oldingi o'g'ri holiga tushibdi. Xullas, barcha o'g'rilalar birin-ketin devordan oshib tushishibdi va tushganining bari boshidan ayrilaveribdi. Shunday qilib, kenja botir hamma o'g'rining kallasini uzib bitiribdi. Qilichini artib, qiniga solib, arkning darvozasiga kelibdi, qarasqa, darvozabon uxbab yotgan ekan. Sekingina oldidan o'tib darvozani ochib, ichkari kiribdi. Bir katta saroy, uning uch tomonida uchta eshik, to'g'ridagi eshik oldida posbon uxlagan, u sekingina - juda ehtiyotkorlik bilan posbonning qo'lidagi kalitni olibdi. Qulfga solib, ovoz chiqarmay ochibdi. Undan o'rtalari saroyga kiribdi. Unda yana uchta eshik bo'lib, bu bo'lmada o'nta chiroyli qiz poyloqchi ekan-u, hammasi ham uxbab qolgan ekan. Kenja botir ustalik bilan oldilaridan o'tibdiki, hech biri aqalli sezmadidi ham. Birinchi eshikdan bir bo'lmaga kiribdi, uning devorlari bezalgan, qip-qizil gullar qo'yilgan, ipakdan tikilgan turli uy jihozlariga to'la ekan. Gul yuzli cho'ri qizlarning o'rtasida, kumush so'rida bir qiz oyday yuzini pirpirab yonib turgan shamga qaratib uxbab yotgan ekan.

Sekin kelib tomosha qilib: «Sen to'ng'ich akamning baxt qushi», – deb o'ng qo'lidagi uzugini chiqarib olib cho'ntagiga solibdi. Orqasiga qaytib, yana o'sha o'rta saroyga chiqibdi. «Endi ikkinchi uyni ko'raylik-chi, nima sirlar bor ekan?» deb, ikkinchi bo'lmaغا kiribdi. Bunda ham xonalar o'ziga munosib ipaklar bilan yasatilgan, turli qushlarning surati bilan bezatilgan ekan. O'n nafar cho'ri qizning o'rta-sida kumush so'rida o'n sakkiz yoshlardagi bir qiz bo'lib, oy «mendan» deb talashsa, kun «mendan» deb talashadigan oq harirga o'ralgan holda pirpirab yonib turgan shamni tomosha qilgan kabi uxlab yotgan ekan. Kenja botir o'zicha: «Sen o'rtancha akamning baxt qushisan, oyog'ingdan bog'lab ketayin», – deb qo'lidan bilaguzugini sekingina olib cho'ntagiga solibdi. Orqasiga qaytib yana oldingi o'rta saroyga kelib chiqibdi. «Endi uchinchi bo'lmaغا kirmoq lozim» deb so'l tomondagi bo'lmaning eshigini ochib ichkariga kirgan ekan, bunisida hammasidan ham ziyoda chiroyli narsalar ko'ribdi. Devor qip-qizil ipaklar bilan yasatilgan, ipak gilamlar ustiga shoyi ko'rpačhalar solingan, o'n olti yoshli chiroyli cho'ri qizlardan oltitasi atrofini o'ragan holda kumush so'rida bir qiz tilla shamdonda yonib turgan shamga qarab uxlayotgan ekan. O'n olti yashar qizga cho'lpon yulduzi cho'rilikka tayyor, buning uchun kun gul teradi, oy olma tashlaydi. Odam bolasi ekanligiga hech kim ishonmaydi. Kenja botir ichida: «Mening baxt qushim sensan», – deb

uning o'ng qulog'idan sekingina tilla sirg'asi-ni chiqarib olib, chontagiga solibdi. Orqasiga qaytib, yana o'sha o'rta saroyga kelib chiqibdi.

Bular podshohning qizlari edi. Kenja botir ilgari qaysi yo'l bilan kelgan bo'lsa, yana o'sha yo'l bilan darvozaning oldiga chiqibdi. Darvozabon hali ham uyqusidan uyg'onmagan ekan. Darvozani qulflab, kalitini yana darvozabonning qo'liga tutqazib, o'tib ketibdi. Haligi paxsa devordan oshib, bog'chaga tushib, chirog'ini yondirib, otiga minib akalarining yoniga qaytibdi. Akalari uyqudan uyg'onmagan ekan. Chiroqni o'z joyiga qo'yib, qamchisini o'ynab o'tiraveribdi. Tong otibdi. Hammalari uyqudan turib, bir-birlaridan hol-ahvol so'rashibdi. Kenja botir: «Tinchlik, hech narsa bo'lgani yo'q», – deb javob beribdi. Ovqatlarini yeb, otlarini tayyorlab, yo'lga tushibdilar. Birozdan keyin shaharga kirib kelibdilar. Bir mehmonxonaga tushib, otlarini bog'lab, o'zлari atrofni tomosha qilib yurgan ekanlar, bir jarchi tunda sodir bo'lgan o'rda voqeasini aytib, atrofga jar sola boshlabdi:

– Bugun kechasi noma'lum odam tarafidan o'rdaning bog'chasida yigirma kishining boshi kesilgan, ma'lum bo'lishicha, o'ldirilganlar shaharga xavf soluvchi o'g'rilar ekan. Ichki haramning eng nozik xonalaridan bir donadan tilla buyumlar yo'qolgan. Bu sirli ishlarni bajargan botir kim ekanligini bilish uchun podshohimiz elning hamma katta-kichigidan yordam istaydi. Shahar xalqi orasida bunday ish

bajaruvchi botirlar bo'lmasligini bilib, kimning hovlisida yoki mehmonxonasida chetdan kelgan musofirlar bo'lsa, darhol o'rdaga olib borilishini buyuradi!

Bu xabardan keyin mehmonxona egasi uch og'ayni botirlarni o'rdaga borishga taklif qilibdi.

Botirlar asta-sekin o'rdaga borishibdi. Podshoh bularning musofir ekanligini bilib, alohi-da bir ziynatlangan uyga taklif qilibdi. Boshqa musofir bo'limgaganidan, ularga e'tibor bilan qarab, sir olmoqni bir vazirga topshiribdi.

Vazir: «Bulardan to'g'ridan-to'g'ri so'rasak, ehtimol aytmashlar, o'z ahvollariga qo'yib, tash-qaridan qulq solib turamiz, nima desalar so'zlaridan sirini topamiz», – deb maslahat qili-shibdi. Bu xonada bulardan boshqa hech kim yo'q ekan. Bir vaqt dasturxon yozilib, xilma-xil noz-ne'matlar keltirib qo'yilibdi. Ikkinchchi bir xonaning teshigidan podshoh bilan vazir qulq solib jim o'tiribdilar. Birozdan keyin uch og'ayni botirlar o'zaro suhbat qura boshlashibdi.

To'ng'ich botir dasturxondag'i ovqatni ko'r-satib:

– Shu go'sht qo'zi go'shti ekan, biroq shu qo'zi it emib katta bo'lgan ekan, – debdi.

O'rtancha botir:

– To'g'ri aytasiz, podshoh degani it go'shtidan ham qaytmaydi. Saralab yemoq faqirning ishi, qo'yni boqib qo'yibdimi? Men ham bir narsaga hayron bo'lib turibman, mana shu shinnidan odam isi keladi.

Kenja botir esa:

– To'g'ri, podshohlik – qonxo'rlik demakdir. Qon qo'shilgan bo'lsa ehtimoldan uzoqmasdir. Lekin yomonning qoni bo'lsa-ku, mayli, begunohning qoni qo'shilgan bo'lmasin. Men ham bir narsaga hayron bo'ldim, shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovchi novvoyning o'g'li ekan, – debdi.

– To'g'ri bo'lsa kerak, – debdi to'ng'ich botir.
– Podshoh bizni bu yerga o'rda voqeasi bilan chaqirgan. Bizdan so'rasha nima deymiz?

– Albatta yolg'on so'zlamaymiz, – debdi o'rtancha botir, – bu voqeaga aralashgan bo'lsak, aytmoq lozimdur.

Shunda kenja botir:

– Uch kunlik yo'lda qanday voqealarni ko'rgan bo'lsak, o'rtaga tashlaydigan vaqt keldi, – debdi.

To'ng'ich botir birinchi kechada sher bilan olishganini aytib, belidan tasmasini o'rtaga olib qo'yibdi. O'rtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, isbot uchun tasmani o'rtaga tashlabdi. Kenja botir esa uchinchi kechadagi voqeani aytib, olgan narsalarini o'rtaga tashlabdi.

Podshoh bilan vazir sirdan xabardor bo'libdilar. Faqat go'sht, shinni, non to'g'risidagi gaplarni tekshirib ko'rmoqchi bo'libdilar. Avval qo'ychivonni chaqirtirishibdi. Podshoh qo'ychivondan so'rabi:

– To'g'risini ayt, kecha so'yilgan qo'zining onasi itmidi?

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsan-giz aytaman.

– O'tdim, to'g'risini ayt!

– Qishning o'rtasida bir qo'y tug'ib, o'zi o'lib qoldi, o'sha vaqtida bir katta itim ham tuqqan edi. Qo'zichoqqa rahmim keldi. Yetim qo'zini och qoldirgim kelmadi. Nochor o'sha itga emizdirib, katta qilgan edim. Boshqa qo'zi qolma-gani uchun o'shani yuborgandim, – debdi.

Podshoh to'ng'ich botirning gapi rostligidan hayratlanibdi va bog'bonni chaqirib, o'rtancha botirning gapini tekshirmoqchi bo'libdi:

– To'g'risini ayt, shinniga odam qoni qo'shil-ganmi? – deb so'rabdi.

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan o'tsan-giz, bir voqeа bo'lgan edi, aytardim, – debdi bog'bon.

– Ayt, o'tdim, – debdi podshoh.

– O'tgan yozda, bog'dagi uzumzorga bir odam har kecha o'g'rilikka tushib, sizga olib qo'yilgan eng yaxshi uzumdan o'g'irlab keta boshladi. Agar qo'limga tushsa, o'ldirib, shu tokning tagiga ko'maman, deb qasd qildim. Bir kecha poylab yotdim. Yana keldi. Shash-vor to'qmoq bilan boshiga urdim. Boshi pachoq-pachoq bo'lib ketdi. Hech kim bilgani yo'q. Shu tok tagiga chuqur kavlab ko'mib qo'ydim, kelasi yili tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi ko'p edi. Lekin mazasida ozgina o'zgarish paydo bo'ldi. Men uzumdan sizga yubormay, butunicha shinni qilgan edim, – debdi.

Shoh o'rtancha botirning so'zlari ham rostligiga amin bo'libdi. Kenja botirning gapi borasi da shohning shubhasi yo'q edi. Chunki nonni podshohning o'zi taxlagan bo'lib, shohning otasi haqiqatda novvoy o'tgan edi.

Podshoh haqiqatlar ayon bo'lgach, ularning zakovatiga «ofarin» deb, botirlarning oldiga kiribdi. Hech bir narsa so'ramay, ularga qarata shunday debdi:

– Sizlarning hamma aytganlaringiz to'g'ri bo'lib chiqdi, mening sizlarga muhabbatim ortdi. Botir mehmonlar, ijozat bersangiz, bir taklifim bor edi, agar qabul qilsangiz aytar edim, – debdi.

To'ng'ich botir:

– Aytganlaringiz to'g'ri kelsa qabul qilamiz, aytningiz! – dedi.

Podshoh:

– Mening uchta qizim bor, o'g'lim yo'q. Men ertaga butun shaharni to'yga chaqirib, qirq kun osh berib, qizlarimni sizlarga nikoh qilsam, mening o'g'llarim bo'lib, bunda qolsangiz, – debdi.

To'ng'ich botir:

– Xo'p, yaxshi aytasiz, lekin bizning ham bir shartimiz bor. Bizlar podshoh bolasi emasmiz. Otamiz boy ham emas. Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo'l kuchi bilan tarbiya topganmiz. Elimiz bir bo'lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo'lar ekan? – debdi.

Podshoh:

– Men bir iqlimning podshohiman, otangiz qo'l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlar-

ning otasi bo'lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda, mendan ortiqdir. Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo'lib yig'lab yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi, – dedi.

Botirlar shohning taklifini qabul qilibdilar. Shaharda qirq kun to'y-tomosha bo'lib, botirlar podshoh qizlariga uylanibdilar. Yaxshi tarbiya orqasidan yigitlar baxt qushini qo'lga krigizibdilar.

Podshoh hamma kuyovlaridan kenja botirni yaxshi ko'rardi. Kunlardan bir kun podshoh bir salqin joyda uxlab yotgan ekan, yonidagi ariqdan bir ilon chiqib, podshohga zahar sochmoqchi bo'lib turganida, to'satdan kelib qolgan kenja botir uni ko'rib, belidan qilichini sug'urib, chopib, ikkiga bo'lib tashlabdi. Yana qilichini qiniga solib turganda podshoh uyg'onib qolibdi. Dilida: «Qizimi berganimga qanoat qilmay, meni o'ldirib, podshoh bo'lmoq xayoli bor ekan», deb shuba qilibdi. Vazirini chaqirib voqeani aytibdi. Vazirning botirlarga hasad-adovati bo'lib, qulay payt poylab yurgan ekan, bu voqeaya yaxshi bahona bo'libdi.

Vazir podshohga:

– Shunday bebahो qizlaringizni mendan bir maslahat so'ramay, yaxshi tarbiya ko'rgan deb, musofirlarga berib qo'ydingiz, mana endi uchini sizga ko'rsatishdi. Yaxshi deb sevgan kuyovingiz sizni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, boshqa kuni albatta maqsadiga yetadi, – debdi.

Podshoh vazirning so'ziga ishonib:

– Kenja botir zindonband qilinsin! – deb farmon chiqaribdi.

Kenja botirni zindonga solibdilar. Kenja botirning qallig'i juda xafa bo'libdi. U botirni ni-hoyatda yaxshi ko'rarkan. Yig'lab-yig'lab, kelinchakning ko'zlarini so'liy boshlabdi.

Bir kuni qiz otasining oyog'iga boshini qo'yib, yig'lab, qallig'ini afv etishni so'rabdi. Podshoh qizining yuzidan o'tolmay, kenja botirni zindondan oldirib kelibdi. Podshoh kenja botirga qarab:

– Botir, siz shunday vafosizmisiz? Ko'rma-yapsizmi, mening qizim sizga qanday mehribon. Shu qizimga ham qanoat qilmay, qay ko'ngil bilan meni o'dirmoqchi bo'ldingiz? – debdi.

Shunda Kenja botir podshohga bo'lgan voqeani aytib beribdi.

Podshoh o'ylab ko'rib, xato qilganini tushunibdi va botirdan kechirim so'rabdi. Shundan keyin ular birgalikda tinch-totuv, ahil yashab murod-maqsadlariga yetibdilar.





QILICH BOTIR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir zamonda Qilich botir degan bir polvon bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun Qilich botir safarga chiqibdi. Bir necha kun yurgandan keyin bir odamga duch kelibdi.

Bu odam Qilich botirga:

– Yo'l bo'lsin, og'ayni, – debdi.

Qilich botir undan:

– Men Oqbilak oyim oldiga boraman, sen nima qilib turibsan bu yerda? – deb so'rabdi.

Qilich botirga uchragan odam bo'zchi ekan, u:

– Shu tomonda Qilich botir degan bir pahlavon chiqqan emish. O'sha bilan kurashish uchun chiqib turibman, – debdi.

Qilich botir:

- Men Qilich botirni yaxshi taniyman, avval men bilan bir bel ushlashib ko'r-chi, - debdi.
- Xo'p, bo'lmasa bir kurashib olaylik, - debdi bo'zchi.

Shu bilan ikkalasi kurash boshlabdi. Ko'p vaqt o'tmabdi. Qilich botir bo'zchini ko'tarib yerga uribdi.

Bo'zchi o'rnidan turib, Qilich botirga:

- Kuchingga qoyilman. Kel, ikkimiz do'st bo'laylik, - debdi.

Qilich botir bo'zchi bilan do'st tutinibdi va unga ikki dona nay beraturib:

- Mana bu naylarni ol. Agar biridan qon, biri dan zardob tomsa, tezda qanot bog'lab, orqam dan uchib yet, - deb yo'lga tushibdi.

Bir qancha vaqt yurgandan so'ng yana bir odamga duch kelibdi. Bu odam temirchi ekan.

U ham:

- Ha, yigit, yo'l bo'lsin? - deb so'rabdi.

Qilich botir unga:

- Men Oqbilak oyim oldiga bormoqchiman.

Sen o'zing bu yerda nega turibsan? - debdi.

Haligi odam Qilich botirga:

- Qilich botir degan bir pahlavon kelayotgan emish, shu bilan kurashmoqchiman, - debdi.

Qilich botir:

- Men ham Qilich botir bilan birga yurgan edim, agar kurashmoqchi bo'lsang, avval men bilan kurashib ko'r, - debdi.

Shunda temirchi:

- Kel bo'lmasa, kurashaylik, - deb Qilich botir bilan bel ushlashibdi. Qilich botir temirchi ni dast ko'tarib yiqitibdi. Keyin uni o'rnidan

turg'azib qo'yibdi. Temirchi ham Qilich botirga do'stlikni taklif qilibdi. Qilich botir unga ham ikki dona nay berib, agar qon va zardob tomsa, orqasidan yetib borishni aytib, «Bitta eding, ikkita bo'lding, o'zim bilan uchta bo'ldik», deb yo'lga tushibdi.

Yurib-yurib, bir qishloqqa yetibdi. Bu qishloqda bir suvchi bor ekan, u ham yo'lga chiqib turgan ekan. Qilich botir u bilan ham so'rashibdi-yu, ikkisi kurashibdi. Qilich botir uni ham yiqitibdi. Bunga ham haligi naydan ikki dona berib: «Sen bilan uchta bo'ldik, o'zim bilan to'rtta bo'ldik, to'rtovimiz ham bir kishi. Shu nayning biridan qon, biridan zardob tomsa, tezda yetib bor», deb yo'lga tushibdi.

Yurib-yurib, sahroda bir gala qo'y boqib yurgan cho'ponga duch kelibdi, u bilan so'rashib bo'lib:

– Bu qo'ylar kimniki? – deb so'rabdi.

Cho'pon unga:

– Oqbilak oyimniki, – deb javob beribdi.

Qilich botir:

– Oqbilak oyim qayerda? Siz bilasizmi, unga yetish yo'li bormi? – deb so'ragan ekan, cho'pon:

– Ey, azamat yigit, sizga o'xshagan bo'z yigitlar, shahzodalar kelib uni ololmay, o'zlarini nobud qilishdi. Ko'rdingizmi, huv anavi qo'rg'on sizga o'xshaganlarning kallasidan yasalgan. Siz qanday qilib u yerga bora olasiz? – debdi.

Qilich botir biroz o'ylab turib:

– Men albatta borishim kerak, – debdi.

Cho'pon yigitni yo'lidan qaytarmoqchi bo'libdi. Lekin Qilich botir, men baribir boraman, buning uchun nima qilish kerak? – deb so'rabdi.

Cho'ponning yigitga rahmi kelib, unga yo'l-yo'riq ko'rsatibdi:

– Siz bozorga borib, bir xurjunning ikki ko'zini to'latib kishmish oling. Oqbilak oyimning bir oti bor, u kishmish yeydi. Agar Oqbilak oyimning oldiga biror kishi kirsa, oti kishnab yuboradi. Oqbilak oyim uydan chiqib, kelgan kishining kallasini qilich bilan uzib tashlaydi. Siz shunga bir hiyla ishlatting: uzoqdan yer tagini kavlab borib, xuddi ot turgan joyning tagidan chiqing. Bir bordon olib, haligi kishmish bilan birga bordonni olib kelib, teshikning og'ziga keltirib qo'ying. Kechasi bo'lganda teshikdan chiqib, bordonni teshik og'ziga tortib, o'zingiz pana-da turing, buni otga bildirmang, agar buni ot bilib qolguday bo'lsa, siz xavfda qolasiz. Oqbilak oyim uxlagan vaqtida darrov chiqib, kishmishni ot oxuriga soling, ot kishmishga chalg'igan vaqtda Oqbilak oyimning huzuriga kiring. Shu bilan uni qo'lga kiritasiz.

Qilich botir cho'pon bilan xayrlashib, uning aytganlarini birma-bir bajarishga kirishibdi: yerni kavlab borib, otning oxuri yonidan chiqibdi. Otga bildirmasdan, bordonni teshik og'ziga yopmoqchi bo'lib turganda, ot sezib qolib, birdan kishnab yuboribdi. Buni eshitgan Oqbilak oyim yotgan yeridan tura solib ot yoniga kelibdi:

– Ha, jonivor, nima sir bor, kishnab yubording? – deb otning boshini silabdi, u yoq-bu yoqni ko'zdan kechiribdi, hech narsaning sharpasini sezmagandan keyin qaytib ketibdi. Endigina ko'zi uyquga ketgan paytda ot yana kishnabdi. Oqbilak oyim yana chiqibdi. Qarasa, hech gap yo'q emish. Keyin:

– Sen muncha kishnayverding, uyqumdan bezovta qilding! – deb otga bir-ikki qamchi urib, so'ngra ichkariga kirib uxbab qolibdi. Shunda Qilich botir birdan chiqib otga kishmish solibdi. Ot kishmishni yeya boshlabdi. Qilich botir sekingina uyga kirib qarasa, Oqbilak oyim uxbab yotgan ekan. Tezda uning boshi tevaragiga qirqa qoziq qoqib, qirq kokilini qoziqlarga bog'lab qo'yibdi. Bir vaqt Oqbilak oyim uyqudan ko'zini ochib qarasa, tepasida bir yigit tikilib o'tirgan emish. Oqbilak oyim Qilich botirga qarab:

– Ne uchun kelding? Menda nima qasding bor? O'rnimdan tursam, kallangni olaman! – deb qattiq intilibdi, lekin kokillari qoziqlarga bog'langanligi uchun o'rnidan turolmabdi va Qilich botirning tadbiriga qoyil qolibdi.

So'ngra yigitga taslim bo'libdi, ular turmush qurib, birga yashay boshlabdilar.

Qilich botir haligi otni minib, ovga chiqib yuribdi. Oradan bir necha yil o'tibdi. Oqbilak oyimning oddiy yigitga turmushga chiqqanligi atrofdagi boshqa podsholarning qulog'iga yetibdi. Ular Oqbilak oyimni yo'ldan urish uchunsovchi yuboraveribdi. Oqbilak oyim aslo una-

mabdi. Oxiri Qoraxon degan podsho sovchilikka bir kampirni yuborib, unga:

– Agar o'sha qizni keltirsang, bo'ying baravar oltin beraman, – debdi.

Kampir eshakka minib, yo'lga tushibdi. Qilich botirning ovdan qaytadigan yo'li ustiga borib eshakning bir oyog'ini urib sindiribdi-da, o'zi bir chekkada yolg'ondan yig'lab o'tira-veribdi. Sal o'tmay, Qilich botir ovdan qaytibdi. Kampir Qilich botirga yalinib, ho'ng-ho'ng yig'labdi, eshakning oyog'ini ko'rsatib:

– Bolam, menga rahm qil, bu odamsiz cho'lbiyobonda qolib ketib, halok bo'lmay, – debdi.

Qilich botirning kampirga rahmi kelib, uni orqasiga mingashtirib, uyga olib ketibdi. Oqbilak oyim erining bu ishidan juda ham achiqlanibdi va erini pana joyga chaqirib olib:

– Bu shum kampirni nega keltirdingiz? Boshimizni yeydi-ku! – degan ekan, Qilich botir:

– E, buning qo'lidan nima kelardi, deysan. Qaytaga senga dalda bo'lib o'tiradi, og'iringni yengil qiladi, – debdi.

Kampir Oqbilak oyimga xizmat qilib yuraveribdi.

Kunlardan bir kun kampir Oqbilak oyimdan so'rabdi:

– Bolam, Qilich botirning joni qayerda, bilasizmi? Buni bilib olsangiz yomon bo'lmas, – debdi.

Oqbilak oyim:

– Qanday so'rasam ekan? – degan ekan, kampir:

– Kechqurun ovdan qaytganda undan arazlab gaplashmang. Gaplashish uchun harakat qilsa joni qayerda ekanligini so'rasangiz, bilsiz-qo'yasiz, – debdi.

Kechqurun Qilich botir ovdan kelibdi. Oqbilak oyim Qilich botir bilan gaplashmasdan arazlab o'tiraveribdi.

Xotinini bu ahvolda ko'rgan Qilich botirning dili siyoh bo'lib, o'zini qayoqqa urishni bilmabdi. Keyin sabrsizlanib, Oqbilak oyimdan so'rabdi:

– Nega xafasiz, xonim? Nima bo'ldi sizga?

– Shu choqqacha men sizning hech bir nishonangizni bilmayman.

– Xo'sh, qanday nishonamni? – so'rabdi Qilich botir.

– Sizning joningiz qayerda turadi?

Qilich botir aytmaslikka har qancha urinsa ham hech bo'lmasdi.

Oxiri noiloj:

– Mening jonim qilichimda, qilichsiz asti yurolmayman, – debdi.

Oqbilak oyim yoshlik qilib bu sirni o'sha ondayoq makkor kampirga yetkazibdi.

Shum kampir ich-ichidan quvonib, o'zicha: «Hm, murodimga yetar kun ham bor ekan-a!» – debdi. Ammo sir boy bermaslik uchun Oqbilak oyimga:

– Qo'ying-e, bolam, bu gapingizga ishonmayman. Sira ham ishonmayman. Eringiz sizni al-dagandir. Qani bo'lmasa, botir erta bilan ovga ketishida qilichini olib qoling-chi, nima bo'lar ekan? – debdi.

Ertalab Oqbilak oyim eridan qilichini tashlab ketishni so'rabdi. Qilich botir xotinini xafa qilmaslik uchun qilichini zo'rg'a beribdi va otlanib ovga chiqib ketibdi.

Kampir darrov qilichni tosh bilan bukib, soyga tashlabdi. Xuddi shu paytda Qilich botir yo'lda yiqilib qolibdi. Kampir tezda yog'och ot yasabdi: otning o'ng qulog'ini burasa – uchar mish, chap qulog'ini burasa – tusharmish. Yog'och ot ni minib u yoq-bu yoqqa uchirib, Oqbilak oyimni aldash payiga tushibdi. Oqbilak oyimga qarab:

– Bolam, siz ham minib ko'ring-chi, qanaqa bolarkin. Bahona bilan hamma yoqni tomosha qilib kelasiz, – debdi.

Makkor kampir Oqbilak oyimni orqasiga mingashtirib, uchib ketibdi. Yog'och otda os-monga uchgan Oqbilak oyim hech narsa qilolmay qolibdi. Makkor kampir esa bir zumda Qoraxon podshoning shahriga yetibdi, o'rdaga borib, podshoga ta'zim qilib:

– Shohim, mana, xizmatingizni ado qildim. Oqbilak oyimni olib keldim, endi mening mu-kofotimni bering, – debdi.

Qoraxon podsho kampirga ko'targanicha tilla berib jo'natibdi. Keyin Oqbilak oyimning qarshiligiga qaramay, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, unga uylanibdi.

Endigi so'zni Qilich botirning safarda uchratgan oshnalaridan eshititing.

Birdaniga haligi bo'zchi, temirchi va suv-chining nayzalaridan qon va zardob toma

boshlabdi. Bular tezlik bilan Qilich botirning holidan xabar olgani shoshibdilar. Qilich botirning eshigi oldiga kelib qarasalar, bir daryo oqayotgan emish.

Bo'zchi suvchiga qarab:

– Suvni bo'g! – debdi.

Suvchi suvni bo'g'ibdi. Soyga tushib qarasa, Botirning qilichi bukilib yotgan emish.

Uni temirchiga berib:

– Sen buni to'g'rilib peshla! – debdi suvchi.

Temirchi qilichni peshlabdi. Shu bilan Qilich botir o'z holiga kelibdi. Uyga kelib qarasa, Oqbilak oyim yo'q emish, uyda esa oshnalari o'tirishgan emish. Oqbilak oyimni ko'p qidirisibdi, hech qayerdan topolmagandan keyin:

– Bu nima sir? Attang, Oqbilak oyim qo'ldan ketibdi-da! – deb qayg'uribdi.

Bo'zchi temirchi bilan suvchini atrofdagi eng katta podsholik bo'lgan Qoraxon podshoning shahriga ergashtirib jo'nabdi. Ular juda ko'p yurib, Qoraxon podshoning shahriga yetshibdi, podshoning ravog'i tagidan o'taverishibdi. Qarasalar, hamma yoq ur-yi-qit, to'polon emish.

Suvchi Qoraxon podshoning xizmatkoridan:

– Nima uchun hamma yoqda shovqin? – deb so'ragan ekan, u:

– To'y bo'layotir, – deb javob beribdi.

Suvchi:

– Qanday to'y? – deb so'rasha, xizmatkor:

– Qoraxon podsho Oqbilak oyimga uylanmoqchi, – debdi.

Uchovlari voqeadan xabardor bo‘lib, uni Qilich botirga yetkazibdilar. Keyin hammalari maslahatni bir joyga qo‘yib, yana Qoraxon podsho shahriga jo‘nabdilar. Ular to‘y boshlanganiga bir kam qirq kun bo‘ldi deganda yetib kelibdilar.

Qilich botir Qoraxon podshoga qarshi qattiq jang boshlabdi. To‘y boisidan sarxush bo‘lgan Qoraxon podsho va uning askarlari asir tushibdilar. Qilich botir bo‘zchini shu mamlakatga podsho, suvchini esa yordamchi qilib qo‘yibdi. Oqbilak oyimni otga mindirib, temirchini boshlab o‘z yurtiga qaytibdi. Temirchi Qilich botirning qilichini, Qilich botir esa Oqbilak oyimni ardoqlab, baxtli hayot kechirishibdi.





MUSHUK, IT VA SICHQON

Bir bor ekan, biri chin, biri yolg'on ekan. Qadim zamonlarda har bir odamninggi-na emas, har bir hayvon, har qush-parranda, jonivor-jondorlarning ham o'z kasb-hunari, bajaradigan ish-yumushi, aytadigan gap-so'zi bor ekan. Masalan, bedana bo'zchi, to'rg'ay to'quvchi, qarg'a qaqimchi, chumchuq chaqimchi, hakka hakimchi, olaqarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, g'oz surnaychi, o'rdak karnaychi ekan. Ot juvoz haydovchi, tuya yuk tashuvchi, it uy poylovchi, sigir sut beruvchi, qo'y go'sht-yog', ho'kiz qo'sh haydovchi ekan. Ana shunday zamonlarda Jiydaka-pa degan tomonda bir chol-kampirning qaramog'ida bir mushuk, bir it, bir sichqon bor ekan. Chol-kampir judayam kambag'al, becho-

ra bo'lganidan mushuk, it va sichqonga ovqat topib berishga qiynalishar ekan.

Och qolganidan mushuk miyov-miyovlashdan, it bolsa tun-u kun g'ingshib-hurishdan, sichqon chiyillagancha yig'lashdan boshqa narsani bilishmas ekan. Kunlardan bir kuni mushuk it bilan sichqonga qarab:

– Hoy, og'aynilar, shu chol bilan kampir egamizga qarab, bersa yeypman, bermasa o'laman, deb qo'l qovushtirib o'tiraveramizmi? Biz ham harakat qilib non-pon, qatiq-sut topaylik. Shunga nima deysizlar? – debdi.

Bu gap itga ham, sichqonga ham juda yoqibdi.

– To'g'ri aytasan, harakatda barakat deyishgan, – debdi sichqon.

– Gaping ma'qul, mushuk. Boshqa yurtlarga bir borib ko'raylik-chi, zora rizqimiz o'sha yoqlarda bolsa, – debdi it.

Uchovlari maslahatga mahsi kiygizib, chol-kam-pirning uyidan erta azonda chiqib ketishibdi. Ular yo'l yurib, yo'l yurishsayam oz emas, ko'p emas, ancha-muncha yurishib bir joyga borissa, oldilarida bir katta, devorlari baland qo'rg'on turgan emish. Shunda sichqon:

– Avval men qo'rg'onning ichiga kirib nima gapligini bilib chiqay. Keyin sizlarni chaqiramam, – debdi-da, bir teshikdan qo'rg'onning ichiga kirib ketibdi. Mushuk bilan it tashqarida qolishibdi-da, uni poylab o'tiraverishibdi.

Endi gapni sichqondan eshititing.

Sichqon teshikdan qo'rg'onning ichiga kirsa, qo'rg'on shunday joy emishki, dunyodagi me-

va-cheva-yu oziq-ovqat, boringki, noz-ne'matning hamma xilidan bor emish. Daraxtlarning shoxlari mevalarini ko'tarolmay sinib yotgan-mish. O'rtaga bir tilla karavot qo'yilgan emish. Tilla karavotga qimmatbaho matolardan tikil-gan ko'rpachalar solig'liq, ko'rpachalar us-tida par yostiqlar emish. O'rtada dasturxon yozig'liq, dasturxonda osh deysizmi, qand-qurs deysizmi, go'sht-yog' deysizmi, hammasi bor emish. Bularni ko'rib sichqonning og'zidan so'lagi oqib ketibdi. «Oldin oshnalarimni bu yerga chaqiray, keyin bирgalashib qornimizni to'yg'azib, bir maza qilaylik», – debdi-da, kirgan teshigidan chiqib mushuk bilan itga qo'rg'on ichida ko'rgan-bilganlarini ta'riflay boshlabdi. It bilan mushukning so'lagi oqib ketibdi.

– Bo'lmasa, tezroq qo'rg'on ichiga kiraylik, – debdi mushuk.

– Ha, tez boshla, kiraylik-da, bir maza qilib to'yaylik. Kambag'alning bir to'ygani – bir boyi-gani, deyishgan-ku, – deb it ham qistalang qilibdi.

Uchovlon qo'rg'onning ichiga kiramiz deb, rosayam urinishibdi, ammo kirisholmabdi. Sichqon teshikdan kirarmish, mushuk bilan it teshikka sig'masmish. Shu payt mushuk bir yo'l topibdi. Uzoqdan yugurib kelib devorning ustiga chiqibdi. Itga ham yugurib kelib chiq, degan ekan, it ikki-uch marotaba ham uzoqdan yugurib kelib chiqolmabdi. It men qo'rg'onga kirolmas ekanman, sizlar kirib chiqavering-lar. Men qo'rg'onnei poylab o'tiraman, deb rozi bo'libdi. Shunday qilib, it yana qorovul bo'lib

qolibdi. Mushuk bilan sichqon qo'rg'onning Ichiga kirib rosa qorinlarini to'ydirishibdi. Keyin itga ham ovqatlardan olib chiqishibdi. It ham qornini to'yg'azib, uchovlon yana yo'lga tushishibdi. Yo'lda uchovlon qo'shiq aytib, o'yinga tushib ketishayotgan ekan, uzoqdan bir ko'k yoldor bo'ri ko'rinishibdi. Qarab turishsa, ko'k yoldor bo'ri og'zini ochib, tishini shaqirlatib ularga qarab kelayotgan emish. Sichqon bilan mushuk orqalariga qaramay qochib, biri teshikdan, biri devordan oshib boqqa kirib ketishibdi. Itning bir o'zi qolibdi. Qochay desa qochadigan joy, yashirinay desa, yashirinadigan joy topolmabdi. Shu payt bo'ri yetib kelib itga:

– Yoningdagi kimlar edi? – debdi.

It:

– Oshnalarim mushuk va sichqon, – debdi.

Bo'ri:

– Ular nega seni tashlab qochib qolishdi? – deb so'rabi.

It:

– Sizdan qo'rqb ketishgan chog'i, – deb javob beribdi.

Bo'ri:

– Sen-chi, sen qo'rqmadingmi? – debdi.

It o'zini dadilroq qilib ko'rsatib:

– Nimadan ham qo'rkar edim. Siz bo'ri bo'lsangiz ham yaxshi, aqlli bo'risiz. Menga tegmaysiz, – debdi.

– Nega endi shunday deb o'ylaysan? – so'rabi bo'ri. – Seni yeb qo'ysam-chi?

– Chunki siz otangizga o'xshaysiz. Otangiz bilan mening otam juda ahil yashashgan, – debdi it.

Bu gapdan bo'ri erib ketibdi-da:

– Bo'pti, yemasam yemabman. Qani ayt-chi, qayerga ketyapsizlar? – debdi.

It boshidan o'tgan-ketganlarni, oshnalari bilan chol-kampirning uyida qanday yashaganliklarini bayon qilib beribdi. Bo'ri itning so'zini eshitib unga:

– Meni ham oshna qilib olinglar. O'rtoqlar ringni chaqir, ular bilan tanishib oshna tutinay, – debdi.

It orqaga qaytib, qo'rg'onning oldiga borib, chiqinglar, bo'ri bilan oshna bo'ldik, u biz bilan ketadigan bo'ldi, desa ham ular chiqishmabdi. Bir payt bo'ri ham qo'rg'onning oldiga kelib:

– Itning gapi to'g'ri, men sizlarga tegmayman. Tegsam katta bo'ri ursin, – deb qasam ichibdi.

Shundan keyin mushuk bilan sichqon chiqib kelishibdi. It «Boshga mushkul ish tushganda oshnani tashlab ketish ekan-da, bundan keyin bunaqa qilmanglar», – deb mushuk bilan sichqonni uyaltiribdi. Keyin hammalari yana qaytadan do'st-o'rtoq bo'lishib, umrbod ahil-inoq yashashga, bir-birlariga xiyonat qilmaslikka qasam ichishibdi.

Bo'rivoy:

– Endi, shu qo'rg'onning egalarini izlaymiz. Topsak, ular bilan jang qilamiz-da, yo shu

bog'ga xo'jayin bo'lib yashaymiz, yo shu yo'lda o'lib ketamiz, shunga rozimisizlar? – debdi.

Och-nahorlik, qiyinchilik jonlaridan o'tib ketgan it, mushuk va sichqon jon-jon deb rozi bo'lishibdi. Endi to'rtovlon bo'lib kunchiqar tomonga qarab yo'l olishibdi. Ular yo'lda biri qo'shiq aytib, boshqasi o'yinga tushib ketishayotgan ekan, uzoqdan tulki ko'rinishibdi. U yaqinlashib kelib, salom beribdi-da, «Yo'l bo'lsin?» deb so'rabdi. Bo'ri katta qo'rg'onning egasini izlab ketishayotganini, topishsa ularni gumdon qilib, qo'rg'onga ega bo'lib unda yashashlarini, yo shu yo'lda o'lib ketishlarini aytib beribdi.

Tulki:

– Meni ham o'rtoq qilib olinglar, – deb yalini-b-yolvoribdi.

Ular rozi bo'lib, uni o'zlariga qo'shib olishibdi. Ular yo'l yurib, yo'l yurishsayam oz emas, ko'p emas, keragicha yurib bir yerga borib qolishibdi. Qarashsa, yana bir katta, devorlari baland qo'rg'on emish. Hech kim qo'rg'onga chiqib, ichkariga kirolmabdi. «Endi nima qildik, qo'rg'onning ichiga qanday kirdik», deb turishgan ekan, sichqon: «Men kirib bilib chiqaman», deb bir teshikdan qo'rg'on ichiga kirib ketibdi.

Bu qo'rg'onning ichida ham mevalarini ko'tarolmay shoxlari sinib yotgan daraxtlar behad ko'p emish. O'rtadagi karavotda xilma-xil ovqatlar, noz-ne'matlar to'lib yotgan emish. Ammo hech kim yo'q emish. Sichqon qornini to'yg'azib olibdi-da, oshnalari it, mushuk, bo'ri va tulkilarga ovqatlardan olib chiqib beribdi.

Hammalari qorinlarini yaxshilab to'yg'azib olib, yo'lga tushibdilar. Yolda ketishayotsa, uzoqdan arslon ko'rinishdi. Arslon ularni nazar-pisand qilmay bo'kirganicha kelaveribdi.

Mushuk itga qarab:

– Aka, o'lganimiz shu, arslon biz bilan pachakilashib o'tirmaydi, ikki yamlab bir yutadi, – debdi.

Shunda bo'ri bilan sichqon:

– Oldin unga do'st bo'lishni aytamiz, ko'nmasa hammamiz bирgalashib harakat qilsak, arslon bizni ikki yamlab yutishi u yoqda tursin, uning o'zini bir yoqlik qilamiz, – deyishibdi.

Bo'ri:

– Men arslonga ro'baru kelaman, it, sen arslonning o'ng tomonidan kelib yopishasan, mushuk, sen uning chap tomonidan kelib yopishasan, – debdi. – Tulki, sen uning ustiga chiqib olasan, – degan ekan, sichqon xafa bo'lib, men nima qilay, debdi.

Bo'ri:

– Sen ham arslonning ustiga chiqib, u qulog'idan bu qulog'iga sakrab-sakrab o'taverasan, – debdi.

Shunday deb turishgan ekan, arslon bo'kirganicha yetib kelibdi.

Bo'ri: «Do'st-birodar bo'laylik» degan ekan, arslon uni nazar-pisand qilmay, bo'riga tashlanibdi. Bo'ri chap berib qolibdi. Shu payt arslonning o'ng tomonidan it, chap tomonidan mushuk tashlanibdi. Orqada qolgan bo'ri orqasidan yopishibdi. Sichqon bilan tulki esa lip

etib arslonning ustiga chiqib olishibdi. Sichqon u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib rosa jonini chiqaribdi. Ammo tulki xiyonat qilib, arslon tomonga o'tib olibdi. Baribir arslon bardosh berolmay yiqilib, o'lib qolibdi. Bo'ri, it, mushuk, sichqonlar «Oshna qo'lini olmagan ning jazosi shu», deb arslondan qutulganlariga shukr qilib, talkini «Sen do'st bo'lmas ekan san», deb haydab yuborib, yo'nga tushishibdi.

Ular yurib-yurib bir yerga borib qarashsa, oldilaridan yana yetti paxsali baland qo'rg'on chiqibdi. Bu qo'rg'onning ham darvozasi yo'q emish. Qo'rg'onning ichidan tutun chiqib, yaxshi hid kelayotgan emish. Bo'ri, it, mushuk va sichqon maslahatni bir yerga qo'yib, qo'rg'onning ichiga kirmoqchi bo'lishibdi. Sichqon yana aqlilik qilib:

– Avval men kirib qo'rg'on ichida nima gapligini bilib chiqay, – debdi.

Sichqonjon yana qo'rg'onning u yog'iga borib, bu yog'iga borib, kichkina bir teshikni ko'rib qolibdi. Shu teshikdan qo'rg'on ichiga kirsa, bog'ning o'rtaida bir uy bo'lib, tutun shu uyning tuynugidan chiqayotgan emish. Sichqon asta borib qarasa, uyning ichi to'la dev emish. Mastalast yotishgan emish. Sichqon orqaga qaytishini ham, ichkariga kirishini ham bilmabdi. Keyin bor-e, tavakkal, deb ichkariga kirib:

– Assalomu alaykum, akalar, – debdi.

Devlarning boshlig'i:

– Hoy, mehmon, saloming bo'lmaganda teringni shilib, somon tiqar edim. Kel, to'rga chiq. Mehmonimiz bo'l, – debdi.

Shunday deb sichqonni to'rga olishib, devlar boshlig'i oldiga o'tqazib qo'yishibdi. O'yin-kulgi yana davom etaveribdi.

Bo'ri, it va mushuk sichqonni kuta-kuta ko'z-lari to'rt bo'libdi. Rosa kutib charchashibdi.

Mushuk:

– Men bir iloj qilib, devorga chiqaman-da, qo'rg'on ichiga tushib sichqonjonga nima bo'lganini bilib chiqaman, – debdi.

Bo'ri bilan it:

– Mayli, ammo ehtiyyot bo'l. Yana bu qo'rg'on dev-parilarning joyi bo'lmasin, – deyishibdi.

Mushuk bir ilojini qilib qo'rg'onga kiribdi-da, u ham tutun chiqib turgan uyning oldiga borib qolibdi. Eshik tirqishidan asta qarasa ichkarda devlar emish. Sichqon devlar boshlig'inining yonida – to'rda maza qilib o'tirgan emish. Mushuk ham, bor tavakkal, deb eshikni ochib:

– Assalomu alaykum, pochchalar, – deb kiriibdi.

Devlar boshlig'i:

– Hoy, mehmon, salom berib qo'yding-da, agar salom bermaganingda kallangni tanang-dan olib, bir kalla bazm qilardik-da. Ha, mayli, to'rga o't, aziz mehmonimiz bo'l, – deb uni ham to'rga olib, yoniga o'tqazib mehmon qila boshlabdi.

Sichqon bilan mushukning devlar bilan bazm, aysh-ishratda o'tirishida qo'yib, gapni bo'ri bilan itdan so'rang.

Ikkovlari mushuk bilan sichqonni rosa kutishibdi. Ulardan darak bo'lavermagach, it:

– Qo'rg'onga kirish navbati meniki. Men kiramanda, nima gapligini bilib chiqaman, – debdi.

It shunday deb qo'rg'onga kirmoqchi bo'libdi, kirolmabdi. Bo'ri bilan ikkovlari rosa urinib, qo'rg'onga kirish yo'lini topisha olmabdi. Shunda devorga qo'nib turgan qo'ng'iz beka:

– Voy, anavilarning anqovligini qarang. Qo'r-g'onne ayylanib o'tishsa-ku, unga kiradigan yer osti yo'li bor. O'sha yo'ldan ichkariga kirishadi-qo'yishadi, – debdi.

Bu gapni eshitgan bo'ri bilan it qo'rg'onne ayylanib o'tishsa unga kiradigan katta lahim bor emish. Shu lahimdan yurib ichkariga kirishibdi. Bo'ri bilan it ichkariga:

– Assalomu alaykum, – deb kirib borishibdi.

Devlar boshlig'i mast-alast, ko'zlari olayib, bo'ri bilan itga qaramasdan:

– Salom berib qo'ydilaring. Agar salom bermaganlaringda ikki yamlab bir yutgan yoki tiriklayin qanoraga osib qo'ygan bo'lardim. Qani, to'rga, mehmonlar, – debdi.

Shu payt bo'ri uvillabdi, it huribdi, mushuk miyovlabdi, sichqon bo'lsa shunaqangi chiyillabdiki yer-ko'kni miyovlash, hurish, uvilash, chiyillash bosib ketibdi. Devlar qo'rqb ketib, o'takalari yorilibdi. Devlar boshlig'i: «Qochib qol, esing borida, uyimizga oq balo-qora balolar kelib qoldi», – deb baqiribdi. Devlar boshlig'i shunday deb qochib eshikdan chiqib ketaman degan ekan, ostonada hurib turgan it uni chalib yuboribdi. Bo'ri kela solib bo'g'ziga

panjasini uribdi. Mushukvoy chiyillab, sich-qonjon miyovlab uy ichini aylanaverishibdi. Bo'rining oyog'i ostidagi boshliqlarini ko'rgan devlar dod-faryod ko'tarishib, uy ichida u yoq-dan-bu yoqqa qochisharmish-u, chiqib keta-digan yo'lni topisholmasmish. Oxiri devlar taslim bo'lishibdi, bo'ri, it, mushuk va sich-qonlarning qul-cho'risiga aylanishibdi. Bo'ri, mushuk, it va sichqon damlangan oshlar, qaynatilgan go'shtlar, yaxna choylar, yopilgan nonlardan yeb-ichib, qorinlarini to'yg'azishibdi. Ozgina-ozgina sharobdan ham ichishgan ekan, mast bo'lib qolishibdi. Yo'l yurib char-cha shganidan ko'zları ketib, uxbab qolishibdi. Devlar bir-birlarini turtib, surtib, bular qip-qi-zil baloning o'zi, biri hushtak chalsa, biri tegir-mon dudini chaldi. Boshqa birovi uzoq qo'shiq aytdi. Hushtagi ham qursin, qo'shig'i ham. Bu yerdan tezroq qochib qolmasak bo'lmaydi. Hali zamon chaqirgan odamlari kelib, bizni yo-tiriklayin yeydilar, yo qo'shga qo'shib yer hay-datadilar, deganlaricha orqalariga qaramay qochib qolishibdi. Bular shunday qochib keti-shayotsa, oldilaridan sang'ib yurgan haligi tulki chiqib qolibdi. Tulki devlarni ko'rib:

– Ha, og'aynilar? – degan ekan, devlar bo'lib o'tgan voqealarni birma-bir aytib berishibdi.

– Biz birovi hushtak chalar, birovi eski tegirmonning dudini chalar, yana birovi qo'shiq aytadigan balolardan qochib kelyapmiz, – deyishibdi.

So'zlarini tugatishar ekan, tulki «Ha, bular aytayotgani yo'lda meni oshna qilishmagan bo'ri, it, mushuk va sichqon. Ana endi qo'lga tushishdi. Men ularni shunday boplab ta'zirlarini berib, qasdimni olayki, dunyoga kelganganlariiga pushaymon bo'lishsin», deb o'yabdi-da, devlarga aql o'rgata boshlabdi:

– Shuncha dev bo'laturib o'sha qari bo'ridan, qo'lidan poyloqchilikdan boshqa narsa kelmaydigan it, mo'yabidan boshqa narsasi yo'q mushukdan qo'rqb, qochib yurgani uyalmaysizlarmi? Sichqonning bo'lsa pashshaga ham kuchi yetmaydi. Sizlarni bir-biridan pahlavon, tog'ni ursa talqon qiladigan, daryo suvini sipporsa quritadigan devlar deb kim aytadi, e uyat-e, e uyat-e, – deyaveribdi.

Devlar boshlig'i uyalib ketib.

– Ey, tulki oshna, ayting, nima qilaylik? Bizza yo'l o'rgating, – debdi.

Keyin tulkinining maslahati bilan qo'rg'onga qaytib, uning tagiga xandaq qaziy boshlashibdi.

– Devorning bu tomonidan chuqur qazib, o'sha sizlar aytgan balolar o'tirgan joydan chiqamiz. Ular uxlab yotganda bittadan tappa-tappa bosamiz. Ana o'shanda xohlasanglar ularni tiriklayin yeysizlar, xohlasanglar pishirib yeysizlar, – deb aql o'rgatibdi.

Devlar tulkinining gapiga laqqa tushishib, qo'rg'onning tashqi tomonidan xandaq qaziy boshlashibdi. Bularni xandaq qazishda qo'yib, ikki og'iz gapni qo'rg'on ichidagilardan eshitting. Ular qo'rg'onda qolib, bor mol-dunyoga ega bo'lib, rohat-farog'atda yashayverishibdi.

Bir payt sichqon:

– Bunday yotavergan bilan uzoqqa bormaymiz. Hammamiz biron bir ishning boshidan tutishimiz kerak. Mana, men bog'ning ichidan tashqariga lahim kavlayman. Sen nima qilsan, mushuk? – degan ekan, mushuk:

– Men dumim, mo'ylovim bilan bug'doy yoki tariq tozalayman, – debdi.

It esa:

– Men sizlarni qo'riqlayman, yana boshqa nima ish buyursalarling, g'alla ekishmi, o'rishi mi, bajonidil bajaraveraman, – debdi.

Bo'ri:

– Men qassobchilik qilib, qo'ymi, echkimi, yog'ini yoqqa, go'shtini go'shtga ajrataman, – debdi.

Bular ishlarini taqsimlab olib, ahil, inoq bo'lib yashayveribdilar. Kunlardan bir kuni sichqon yerning ostidan kavlab, yo'l qilib ketayotgan ekan, shu yaqin oradan g'ovur-g'ovur ovoz eshitilib qolibdi. Yaxshiroq qulq solsa devlarning ovozi emish. Ularga yolda yonlariga olmay haydar yuborishgan tulki yo'l-yo'riqlar ko'rsatar emish. Sichqonjon orqasiga qaytib, oshnalarini yig'ibdi-da, ishlar chatoq, debdi va yer ostida eshitganlarini aytib beribdi.

Bo'ri:

– Bundan chiqdi, devlar qochib ketmasdan, orqalariga qaytib, biz tomon lahim kavlab keli-shayotgan ekan-da, osmondan kelishsa bilib qolardik. Bu ishda ularga ayyor tulki bosh ekan-da, – debdi.

Hammalari nima qilishni bilmay, bir maslahatga kelishholmabdi.

Shunda yana sichqon gap boshlabdi:

– Men yer osti yo'lini, asosan, tugatganman.

Ular ham u tomondan men tomonga yaqin keilib qolishibdi. Erta-indin uchrashib qolarmiz. Shunda, bo'ri qo'liga do'mbira bilan tayoqni, it nog'orani, mushuk mo'ndini olib, kuchlaringiz boricha shovqin-suron ko'tarasizlar, men esa shaqildoqni olib qattiq-qattiq shaqillataman, – debdi.

Ular maslahatni bir joyga qo'yishibdi. Bir vaqt qorong'i tushibdi. Qorong'ida sichqonjon kavlagan teshik oldidagi panada poylab turishsa, haligi devlar xandaqni kavlab bitkazib, birin-ketin chiqib kelishaveribdi. Shu payt sichqonjonning buyrug'i bilan bo'ri uvillagancha qo'lidagi do'mbirasini, it bo'lsa irillagancha nog'orasini kaltak bilan urib chala boshlashibdi. Mushuk boshini mundining ichiga tiqib bir miyovlagan ekan, ovozi yetti mahallagacha yetibdi. Sichqonning o'zi shaqildoqni shaqillatib shunaqangi chiyillab beribdiki, naq olamni buzibdi. Buni ko'rib, devlarning o'taksi yorilib, o'zlari kavlagan teshikka biri sig'ib, biri tiqilib qochib qolishibdi.

Sichqon yana donishmandlik qilib:

– Bo'ri va mushuk, sizlar men kavlagan teshikdan tashqariga chiqasizlar. It esa devlar tiqilib qolgan shu xandaqning og'zida poyloq-chilik qiladi, – debdi-da, bo'ri bilan mushukni olib teshikdan tashqariga chiqib, devlar kav-

lagan xandaqning oldida turib olib, birovi ulib, birovi miyovlab, birovi chiyillab, qo'llaridagi asbob-uskunalarini chalib turaverishibdi. Devlar bu tomondan qochib chiqay deyishsa, it irillab, qo'lidagi nog'orasini chalib ularning o'takasini yoribdi. Kirgan joylaridan orqaga qaytib ketayin deyishsa, teshik oldida turib olgan bo'ri ulib, mushuk miyovlab, sichqon chiyillab qo'llaridagi asboblarini chalib battar qo'rqtishibdi. Devlar qo'rqib ketib, endi sizlarga xiyonat qilmaymiz, deyishibdi va taslim bo'lishibdi.

Bo'ri, it, mushuk va sichqon ularni teshikdan chiqarib, bo'yin va shoxlariga arqon bog'lab, bandi qilishibdi. «Yolg'onchi, aldamchi, do'stlikka xiyonat qilganning jazosi shu», – deb dumidan bitta shoxga osib qo'yishibdi. Keyin maslahatni bir joyga qo'yishib: «Shuncha devni nima qilamiz, bir-ikkitasini xizmat qildirish uchun olib qolib, qolganlarini sotamiz», deb bozorga olib borishibdi. Keyin olib borib sotishib, puliga bozor qilib, qo'rg'onga qaytib kelib, shu yerda uzoq vaqt yashashibdi. Chol-kampirni bir vaqtlar bizga tuz-non bergen egamiz, deb ularni olib kelishib, shu qo'rg'onga ega qilib qo'yishibdi.

Shu bilan ertak tamom bo'libdi.



SEMURG‘

Bir qari ovchining uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. Ovchi o‘g‘illarini ovchilikka o‘rgatibdi.

Kunlarning birida uch o‘g‘li ovga chiqishibdi. O‘rmonzorda ov qilib yurib, char-chashibdi. Bir joyga o‘tov tikib, shu yerda to‘xtashga qaror qilishibdi. Kechga yaqin kattasi ovqat qilishga urinibdi. O‘rtancha uksasi bilan kichigi esa dam olib uxbab qolishibdi. Katta akasi ovqat pishishini kutib-kutib uxbab qolibdi. Yarim kechada bir yalmog‘iz kampir o‘rmondan kelib, qozondagi ovqatni yeb-ichib, qozonni to‘ntarib ketibdi.

Aka-ukalar ertalab uyg‘onsalar qozon to‘ntarilgan, ovqat yo‘q emish. Katta akasi ovqat

tayyorlaganini, ovqatni esa kim yeganini bilol-mayotganini aytibdi. Ikkinchı kun kechki payt o'rtanchasi ovqat qilibdi, unda ham shu hol ro'y beribdi. Uchinchi kun kechasi eng kichi-gi – kenja botir ovqat qila turib mudroq bossa jimjilog'ini qonatib, tuz sepibdi. Uning og'rig'iga chidolmay, uxlolmay turganida yalmog'iz kampir kelibdi. Kenja botir o'zini panaga olibdi. Yalmog'iz kampir qozondagi ovqatlarni yeya boshlabdi. Kenja botir qilich bilan yalmog'iz kampirning boshiga uribdi. Uning kallasini shartta kesibdi. Qarasa, tanasi bir yoqda qolib, kallasi dumalab ketayotgan emish. Kenja botir kallaning ketidan quvlab ketibdi. Kalla dumalab-dumalab o'rmonzordagi bir g'orga tushib ketibdi. Kenja botir hayron bo'lib, kalla tushib ketgan joyni belgilab qo'yibdi-da, yalmog'izning tanasini ko'mib akalarining oldiga kelibdi. Ovqatni pishirib ularning uyg'onishini kutib o'tiribdi. Ertalab akalari uyqudan turganda, kechasi bo'lgan voqeani aytib beribdi. Ular xursand bo'lib ovqatni yeishihibdi-da, so'ngra kalla tushgan g'or oldiga kelibdilar. G'orni ko'rsalar yer ostiga qarab ketgan bo'lib, chuqur emish. G'orga katta akasi tushmoqchi bo'libdi. Arqon bog'lab tusha boshlabdi, yarmiga borganda «dod, arqonni tortinglar», deb baqiribdi. Keyin o'rtancha akasi arqonni bog'lab, tusha boshlabdi. Yarmiga borganda chiday olmay, «dod, arqonni tortinglar» deb qichqiribdi. Uni ham tortib olibdilar. Eng oxiri kenja botir o'zini rostlab, dadillik bilan arqonni beliga mahkam bog'labdi.

– Sizlar, arqonni mahkam ushlab turinglar,
 – deb g'orga tushib ketibdi. Qarasa, g'or qo-
 rong'i, zimiston emish. Uzoqdan bir chiroqning
 yorug'i ko'rinishi. Sekin-sekin yurib borib qa-
 rasa, bir uy, uyda bir qiz haligi yalmog'iz kam-
 pirning boshini tizzasiga qo'yib:

– Ha, men sizga aytgan edim, yer yuzi-
 ga chiqavermang, kishilarning turmushiga
 zarar bermang, axir bir kun sizga qarshi ku-
 rashuvchilar chiqib qoladi, degandim. O'z bil-
 ganingizdan qolmay, o'zingizga o'zingiz zomin
 bo'ldingiz, – deb qayg'urib turganmish.

Shu vaqt kenja botir:

– Ey, qiz, nima uchun sen bu kallaga qarab
 gapiryapsan. Sen kimsan, u kim? – deb so'rab-
 di.

Qiz hayron bo'lib:

– E, odamzot, sen bu yerga qanday qilib
 kelding. Bu yalmog'iz meni yer yuzidan olib
 qochib kelgan. Bu yerdagi hujralarda bir qan-
 cha odamlar qamalib yotibdi. Mana bu huj-
 ralar mol-dunyoga to'la. Bu yerdan tezroq ket,
 bo'lmasa seni ham bandi qiladi, – debdi.

Kenja botir:

– Yalmog'izning tanasi yo'q-ku, qanday qilib
 meni bandi qiladi? – debdi.

– To'g'ri, yalmog'izning tanasi yo'q, ammo
 hali joni bor, – debdi qiz.

– Qo'lingdagi yalmog'izning joni qayerda?
 Uni ko'rsatsang, seni ozodlikka olib chiqaman,
 – debdi.

Qiz kallani bir yoqqa qo'yib qirq hujraning
 kalitini olibdi. Hujrani birma-bir ochib, eng

ichkaridagi hujradan bir sandiq olibdi, sandiq ichidan bir qutini olib, uning ichidan paxtaga o'ralgan bir jonli qurtni olib beribdi.

– Mana – uning joni.

Kenja botir qurtni o'ldiribdi. Shu zamon butun yer ostiga yorug'lik shu'lesi yoyilibdi-da, yalmog'iz o'lib, qiz ozod bo'libdi.

Kenja botir qizni sandiqqa solib, tushgan yeriga kelibdi. Sandiqni arqonga bog'lab «tortinglar» debdi. Akalari tortib olib, sandiqni ochib qarasalar, bir sohibjamol, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor. Aka-uka qizga xushtor bo'lib, «men olaman», «yo'q, men olaman», deb janjal qilibdilar.

– E, to'xta, ukamizni g'ordan chiqaraylik, – debdi katta akasi.

Arqon tashlab tortayotgan vaqtida, o'rtancha akasi uni fikridan qaytaribdi:

– Ke, qo'y, uni tortib olib nima qilamiz. U ham janjal chiqarib boshimizga balo bo'ladi. Kattasi «xo'p» deb arqonni pichoq bilan kesib yuboribdi. Bechora kenja botir «gup» etib yiqilib tushibdi. Kenja botir endi qanday qilib yer yuziga chiqdim, deb aylanib yurib-yurib bir qo'shchining oldiga kelib qolibdi. Qo'shchi «xo'k-xo'k», deb qo'sh haydayotgan ekan.

Kenja botir qo'shchidan so'rabdi:

– E, ota, yer yuziga qanday qilib chiqish mumkin?

Chol aytibdi:

– Bu yerdan nariroqqa borsang, bir katta chinor keladi, chinorda Semurg' qushning bo-

lalari bor. Har kuni bir ajdar kelib, Semurg' yo'q vaqtida bir bolasini yeb ketadi. Agar sen Semurg' bolalarini shu falokatdan qutqarsang, yer yuziga chiqarib qo'yari, deb o'ylayman, – debdi.

Kenja botir «xo'p», deb chinor yaqiniga boribdi-da, o'zini panaga olib turibdi. Bir vaqt vishillab ajdar kelibdi. Chinorga o'rmalab chiqa boshlabdi. Buni ko'rgan Semurg' bolalari chiy-chiylashibdilar. Kenja botir sekin o'rni-dan turibdi va ajdarni qilich bilan ikkiga bo'lib tashlabdi. Go'shtini maydalab Semurg'ning bolalariga beribdi va yana o'zini panaga olib o'tiraveribdi. Bir vaqt Semurg' uchib kelib bolalariga:

– Bu yerdan odam isi kelyapti, aytinglar, kim bor, – debdi.

Bolalari:

– E, ona, agar bizni yaxshi ko'rsang senga aytadigan bir gapimiz bor, – debdi.

Semurg':

– Xo'sh, nima gap, – debdi.

Shunda bolalari:

– Bizni og'ir falokatdan qutqargan va har kuni bittamizni jondan ajratib turgan ajdarni o'ldir-gan yigit sizdan yordam istaydi, – debdi.

Semurg':

– Qani u, – debdi.

Bolalari yigitni chaqirishibdi. Kenja botir Semurg'ning qoshiga kelibdi. Semurg' kenja botirga qarab:

– Tila, tilagingni, – debdi.

Kenja botir:

– Meni yorug‘ dunyoga olib chiqib qo‘ysang, shuning o‘zi kifoya, – debdi.

Shunda Semurg‘ aytibdi:

– Sen bir mesh suv, bir qop go‘sht tayyorla. Ularni ikki qanotimning o‘rtasiga joylaysan-da, ustimga o‘tirasan. Uchib ketayotganda «suv» desam go‘sht berasan, «go‘sht» desam suv berasan, – debdi.

Bola xo‘p, deb, bir mesh suv bilan bir qop go‘sht tayyorlabdi va uni Semurg‘ ustiga joylab, o‘zi ham o‘tiribdi. Semurg‘ suv desa go‘sht, go‘sht desa suv berib ketaveribdi.

Semurg‘ so‘rabdi:

– Yer qanday ko‘rinayotir?

Kenja botir:

– Bo‘yraday, – debdi.

Semurg‘ yana ko‘tarilibdi.

– Endi-chi, – deb so‘rabdi Semurg‘.

– Gugurt qutisiday.

Yana ko‘tarilibdi.

– Endi-chi? – debdi Semurg‘.

– Angishvonaday, – debdi.

– Suv ber, – debdi, ammo go‘sht tamom bo‘lgan ekan. Kenja botir o‘z sonidan shartta kesib beribdi. Semurg‘ bu go‘shtning shirinligidan odam go‘shti ekanligini bilib yemabdi. Semurg‘ kenja botirni yer yuziga olib chiqib qo‘ygach so‘rabdi:

– Oxirgi bergen go‘shting qanaqa go‘sht edi?

Kenja botir:

– O‘sha go‘shtdan edi, – debdi.

Semurg‘:

– Yo‘q, to‘g‘risini ayt, – debdi.

Kenja botir sonini ko‘rsatib:

– Suv deganingda go‘sht tamom bo‘lgani uchun o‘z sonimdan kesib bergan edim, – debdi.

Semurg‘:

– Bundan keyin yolg‘on gapirma. Meni deb o‘zingni shuncha qiynadingmi, – deb tilining ostidagi go‘shtni olib yigitning soniga yopishtirib, so‘ngra yalabdi. – Xayr, sen menga yaxshilik qilganing uchun men ham senga yaxshilik qildim, – deb uchib ketibdi.

Kenja botir akalarini qidirib-qidirib g‘orning oldiga kelibdi. Qarasa, akalari hali ham janjal-lashib o‘tirgan emish. Akalari yigitni ko‘rib, undan uzr so‘rab, kechirishini iltimos qilishibdi.

Kenja botir qizni olib, akalari bilan uyga qaytib kelibdi. Otasiga bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Otasi kenja botirning qilgan ishlariga qoyil qolibdi. Ukasiga xiyonat qilgan o‘g‘illaridan xafa bo‘libdi.

Ovchi kenja botirga qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib haligi qizni olib beribdi va shu bilan murod-u maqsadiga yetibdi.



ZIYOD BOTIR

Sulton Murod o'lgandan keyin o'rniga Sulton Fotih taxtga o'tiribdi. Sulton Fotih ko'p dono, aqlli, hushyor odam ekan.

Sulton Fotihning go'zallikda tengi yo'q, aqlli, o'qimishli qizi bo'lgan ekan. Bu qizni kim bir marta ko'rsa, yana ko'rsam, deb orzu qilarkan. Ismi jismiga monand Qamarxon ekan. Sulton Fotih qizini jon-dilidan yaxshi ko'rarkan. O'q otishda, nayza sanchishda, tig' urishda unga teng keladigani yo'q ekan. Qamarxonga xushtor bo'lganlarning son-sanoғ'i yo'q ekan. Boshqa mamlakatlardan ham shahzodalar, bekzodalar oshiq bo'lib, sovchi qo'yar, ammo qiz hammasiga yo'q, deb javob berarkan.

Sultonning saroyida bir usta bo'lib, hamma hunarda komil ekan. Uning yasagan asboblari Sultonga juda ma'qul bo'lgani uchun saroydagi barcha ustalarning boshlig'i qilib qo'ygan ekan. Saroydagilarning katta-yu kichigi ustani hurmat qilarkan. Ustaning navqiron o'g'li bo'lib, xushsurat, o'qigan, aqli, shijoatli yigit ekan. Bu yigitning oti Ziyod bo'lib, botirlikda ancha shuhrat qozongani uchun hamma uni Ziyod botir deb atar ekan. U ham Sultonning qizi Qamarxonqa oshiq ekan.

Otasi o'g'liga hunar o'rgatmoqchi bo'lib, «O'g'lim, ko'zim ochiqligida hunar o'rganib olgin», debdi. Ziyod botir ko'p vaqt o'tmasdan otasining hunarlarini o'rganib olibdi. Bir kun malika ustaga o'q-yoy buyurtiribdi. Usta ham otasidan yashirincha o'q-yoy tayyorlagan ekan. Tayyorlagan o'q-yoyni otasiga ko'rsatibdi. Otasi uni ko'rib hayratda qolibdi. O'q-yoy otasi tayyorlagan o'q-yoydan ancha yaxshi ishlangan bo'lib, o'q-yoyning qabzasiga ajoyib ruboilar naqsh qilib bitilgan ekan. Otasi azbaroyi xursand bo'lganidan o'g'lining peshonasidan o'pib: «Balli, o'g'lim, mening hunarimni o'rganib olibsan, endi hech narsaga zor bo'lmasan», debdi. So'ng o'zi tayyorlagan o'q-yoyni qoldiribdi-da, malikaga Ziyod botir ishlagan o'q-yoyni yuboribdi. Malika o'q-yoyni ko'rib qoyil qolibdi. O'q-yoy o'zining o'ylagandan ham ziyoda bo'lgani uchun ustaga in'omlar beribdi.

Usta ancha keksayib qolgan ekan. Kasal bo'lib qolibdi, hech qanday dori-darmon kor

qilmabdi. Oxiri olamdan ko'z yumibdi. Usta o'lgandan so'ng Sulton Fotih Ziyod botirni otasining o'rniغا tayinlab, ustalarga boshliq qilib qo'yibdi.

Kunlarning birida Sulton haramga kirsa, qizi bir kamonni o'ynab o'tirgan ekan. Kamonning ishlanishini ko'rib, hayratlanibdi va qo'liga olib tomosha qilib turganda ko'zi kamonning qabzasisiga yozilgan baytga tushibdi. Bunday o'qib qarasa, oshiqona yozilgan bayt. Sulton darg'a-zab bo'lib Ziyod botirni chaqirib:

- Buni kim yozgan? – deganida, Ziyod botir:
- Men yozdim, – debdi.

Sulton:

– Hali sen shunday yaramas ishlarni ham qilasanmi, ko'rnamak! – deb jallodni chaqirib, uni o'limga buyuribdi.

Shunda vazirlardan biri podshoning oyog'iga yiqlib, Ziyod botirning gunohini so'rabdi. Sulton vazirning so'zini yerda qoldirmay, Ziyod botirni o'limdan ozod qilibdi, lekin shahardan tashqariga haydab yuboribdi.

Ziyod botir yo'l yurib, cho'l yurib, tog' bosib, qir oshib, bir necha kun deganda bir toqqa yetibdi. Bu tog' ko'kalamzor, odamning ko'nglini ochadigan xushhavo joy ekan. Ziyod botir tog'da aylanib yurib yilqi-qo'ylarini o'tlatayotgan mo'ysafidni ko'rib qolibdi. Mo'ysafid unga bir kosa qimiz uzatibdi va:

- Qayerdan kelyapsan, o'g'lim? – deb so'rabdi.

Ziyod botir boshiga tushgan musibatni gapirib beribdi. Cholning rahmi kelib:

– O'g'lim, endi qayoqqa borasan? – deb so'rabdi.

– E, ota, endi qayoqqa borar edim. O'z yurtimdan judo bo'lgan bir g'arib-u musofirman. Hozir boshim oqqan tomonga ketayotibman, – debdi Ziyod botir.

– Men shu tog' xalqining molini boqaman, – debdi chol, – ota-bobomdan tortib hammamiz shu kasbni qilib kelamiz. Topganimga qanoat qilsang, menga o'g'il bo'la qol.

Ziyod botirga bu gap ma'qul tushibdi.

– Otajon, agar siz shuni xohlasangiz, men jon-u dilim bilan roziman, – debdi u.

Shunday qilib, Ziyod botir cho'ponga o'g'il bo'lib, qo'y-yilqilarni boqib yura beribdi. Ziyod botir bu yerda palaxmonga tosh solib otishni juda yaxshi mashq qilibdi. Yirtqich hayvonlar mollarni talasa, bir tosh bilan urib o'ldiraveribdi. Ziyod botirning bu ishidan otasi ham xursand bo'libdi. Har yili yirtqich hayvonlar bir qancha molni nobud qilar ekan. Ziyod botir kelganidan so'ng mollar tinchib qolibdi. Ziyod botirning ta'rifi butun tog' xalqiga yoyilib ketibdi. Odamlar Ziyod botirga «Sangandoz botir» deb nom beribdilar. Oradan ikki yil o'tibdi. Ziyod botir shu yerda otasi bilan mol boqib yuraversin. Endi gapni Sultonning qizi Qamarxonidan eshititing.

Qamarxon zimdan Ziyod botirga ko'ngil qo'ygan, ichida: «Agar otam meni erga beradi-gan bo'lsa, shunga bersa edi», deb yurar ekan. Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yubor-

gandan keyin Qamarxonning ko'ziga yorug' dunyo qorong'i bo'lib, erta-yu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig'lab tong ottiradigan bo'lib qolibdi. Ammo dardini hech kimga aytmas ekan. Qamarxonning qirq kanizi bo'lib, ularning boshlig'i Humoyun degan bir qiz ekan. Qamarxon o'z sirini axiyri shunga aytibdi. Malika ko'ngil yozish uchun tez-tez ovga chiqib turar ekan. Bir kuni erkakcha kiyinib, otasidan ijozat olib, ov itini oldiga solib ovga ketibdi. Bir necha kun yurgandan so'ng bir o'rmonga yetibdi. Tustovuq va qirg'ovullarni ovlabdi, lekin tuzukroq ov uchramabdi. Qamarxon otni boshqa tomonga solibdi va osmono'par tog' oldidan chiqibdi. Qiz toqqa chiqib ketayotgan paytda oldidan bir bo'ri chiqib qolibdi. Qamarxon bir o'q bilan bo'rini o'ldirib, kanizagining qo'liga berib, oldinga qarab yurgan ekan, kiyikka duch kelibdi. Kiyikning qulog'iga tilla halqa osilgan, shoxiga tilladan muhr bosilgan, bo'yniga har xil asil toshlar taqilgan ekan. Qamarxon kiyikni yaxshi ko'rib qolibdi. Qizlarga: «Shu kiyikni o'rab olib, tiriklay tutinglar, kiyikni hech kim qochirmasin, agar kimki qochirsa, yuziga qora surtib, ovdan haydanglar», – debdi.

Qizlar Qamarxonning aytganini qilib, qolla-riga kamon olib kiyikning atrofini o'rabdilar. Humoyun o'rtaga tushib kiyikka kamon tashlabdi. Malika ketma-ket uch marta kamon tashlabdi, ammo kiyikni ilintirolmabdi. Qizlardan uyalib kiyikning orqasidan quvib ketibdi. Kiyik ham otgan toshday zirillab, uchar qush-

day pirillab ketaveribdi. Kiyik ham, ot ham ni-hoyatda charchabdi. Kiyik xalloslab bir g'orga kirib ketibdi. Ha, endi tutdim, deb malika suyunib g'orga kirib qarasa, g'or teshik ekan, kiyik naryog'idan chiqib qochibdi. Malikaning jahli chiqib, yana otga minib, kiyikning orqasidan izma-iz quvlabdi. Kiyik tog' yoqalab ketylgan paytda Ziyod botirga duch kelib qolibdi. Ziyod botir shu tog'da yilqilarni o'tlatib yurgan ekan. Palaxmonga toshni solib kiyikning shoxini mo'ljallab uribdi. Tosh kelib kiyikning naq boshiga tegibdi. Jonivor kiyik til tortmay o'libdi. Ketma-ket malika ham quvib kelibdi. Qarasaki, kiyik o'lib yotibdi. G'azab bilan qilichini qinidan sug'urib:

– Nomard cho'pon! Kiyikni otadigan bo'lsam, allaqachon otardim, maqsadim tiriklayin tutmoq edi, nega sen birovning ovini otasan, – deb otining jilovidan tortib, Ziyod botir tomonga burgan paytda to'satdan yo'lbars paydo bo'libdi. Malikaning oti yo'lbarsdan hurkib orqasiga chekinganda, malika ot ustidan uchib ketibdi. Qo'lidagi yalang'och qilich tirsagiga botibdi. Ziyod botir sher paydo bo'lishi bilanoq palaxmonga toshni solib mo'ljallab turgan ekan. Sher malikaga sakray deganda Ziyod botir sherning oyog'ini mo'ljallab urgan ekan, tosh sherning tumshug'iga tegib, til tortmay o'libdi. Keyin kelib qarasaki, yuziga niqob tutgan bir chiroyli yigit behush bo'lib yotibdi. Yigit darrov ko'ylagini yechib, yengini yirtib, qizning qilich kesgan qo'lini tang'ib qo'yibdi.

Bu bechora bekorga o'lib ketmasin deb, suv olib kelib yuziga sepibdi. Yuzidan niqobini olib, suv ichirmoqchi bo'lgan ekan, qarasa, qora sochlari yuziga yoyilib ketgan Qamarxon. Yigit uni darhol tanibdi.

Oradan biroz o'tgandan keyin qiz o'ziga kelibdi. Ko'zini ochib qarasa, tepasida cho'pon yigit turganmish. Tikilib qarab Ziyod botirni tanibdi va quvonganidan yana hushidan ketibdi. Shu payt Qamarning kanizaklari yetib kelishibdi. Qarashsa, bir sher o'lib yotibdi, malika behush, cho'pon yigit tepasida suv sepib o'tiribdi. Qizlar darrov otdan tushibdilar. Humoyun yugurib kelib malikaning boshini tizzasiga olib, ko'zidan yosh to'kib turgan paytda malika hushiga kelibdi. Malikani shaharga olib qaytishmoqchi bo'lganda unamabdi. «To tuzalmagunimcha shu yerda qolaman», – debdi. O'sha yerda chashma, chashma yonida ikki tup daraxt bor ekan, soyasi ikki botmon yerga tusharkan. Malikaning bargohini o'sha yerga tikishibdi. Malika Ziyod botir tanirmikin deb, undan: «Siz bu yerda qachondan beri cho'ponlik qilasiz?» – deb so'rabdi. Ziyod botir, nima bo'lsa bo'lar, rostini aytib qo'ya qolay deb: «Sizning otangiz haydar yuborgandan beri», – debdi. Malika Ziyod botirdan kechirim so'rab:

– Menda ayb yo'q, – debdi.

Ziyod botir quvonib, otasini chaqirib kelibdi. Otasi: «Bu aziz mehmonlarni ziyofat qilishimiz kerak», – deb, qishloqdan bir katta qozon keltilrib, bir necha qo'yni so'yibdi. Cho'pon ota qizlarga:

– Chanqagandirsizlar? – deb qimiz quyib berib turibdi. Oradan bir qancha kun o'tibdi. Malikaning yarasi ham tuzala boshlabdi.

Endi so'zni malikaning otasidan eshititing.

Malika ovga chiqib ketganiga o'n besh kun bo'libdi hamki, undan darak bo'lmabdi. Otasi bir pahlavonni chaqirib, unga shunday debdi:

– O'n besh kun bo'libdi, haligacha malikadan darak yo'q, borib bir xabar ol-chi, qayerda ekan? Uni qayerda uchratsang ham olib kel.

Bu pahlavon malikani sevar ekan. Shuning uchun ham podshoga astoydil xizmat qilib yurar ekan. Podshoning buyrug'ini eshitib, pahlavon benihoya xursand bo'libdi. U yigitlariiga: «Malikani qayerda yolg'iz topsak, u bilan suhbat quramiz», deb, bir xum sharob olib, safarga chiqibdi. U besh kun deganda malikani topibdi. Qarasa, malika Ziyod botir bilan suhbat qilib o'tirgan emish. Buni ko'rib pahlavonning jahli chiqib ketibdi. Bir narsa degani malikadan qo'rqib, otdan tushibdi. Ular bilan so'rashib bo'lib, malikaga:

– Otangiz sizdan xavotir olib, meni yubordilar, – debdi.

Shu payt mehmonlarga ovqat olib kelishibdi. Pahlavon ham olib kelgan sharobini o'rta ga qo'yibdi. Ikki-uch qiz kosagul bo'lib, sharob quyib turibdi. Pahlavon arzimagan narsadan bahona topib, Ziyod botirni uribdi.

Ziyod botir achchiqlanib, pahlavonni bir urg'an ekan, chakagi tushib, og'zidan ko'pik oqib, o'sha ondayoq o'lib qolibdi. Pahlavonning yigit-

lari Ziyod botirga tashlanibdi. Ziyod botir jang qilib, ularni yengibdi. Jang tugagandan keyin malika: «Endi bu yerda turib bo'lmaydi, boshqa bir yurtga ketaylik», – debdi, keyin kanizaklariga javob berib:

– Otam meni so'rasha: «Malika bir kiyikning orqasidan quvlab ketdi, biz axtarib topolmadik, deb aytinglar», – debdi va ular bilan xayrlashibdi.

Ziyod botir bilan malika cho'pon otaga qulluq qilib xayrlashib, ikki otga minib, yo'lga ravona bo'lishibdi. Ular ov qila-qila bir necha kun deganda bir shaharga yetib boribdilar. Bu shaharning nomi Hirot ekan. Ana shu yerda Sulton Husayn Mirzo podsho ekan. Bular kelib bir saroyga tushibdilar. Bir necha kun o'tgandan keyin Ziyod botir qizni nikohlab olish uchun domla axtaribdi. Shu saroyga yaqin joyda bir shayx yashar ekan. Ziyod botir shayxnikiga boribdi. Shayx uyda yo'q ekan. Uning o'g'li Ziyod botirning gapini eshitib: «Men o'zim nikohlab qo'ya qolay», – debdi va Ziyod botir bilan saroyga kelibdi. Nikoh paytida qizga ko'zi tushib: «Attang, shunday chiroyli qizni nikohlab qo'ldan berib qo'ydim», – deb afsuslanibdi.

Qiz dardida yigit Ziyod botir bilan og'ayni bo'lib qolibdi.

Shayxning o'g'li:

– Musofirni siylamoq lozim, – deb ularni botbot ko'rgani kelib turibdi.

Ziyod botir malika bilan maslahatlashib, bir temirchiga shogird tushibdi. Temirchiga uning

xizmati yoqib qolibdi. Temirchi qarasaki, yigit o'zidan ham usta hunarmand. Temirchi insofli odam ekan. Uni o'ziga sherik qilib olibdi.

Bir kuni shayxning o'g'li Ziyod botirga:

– Birodar, siz saroyda yotmang, men mahallamdan bir hovli topib qo'ydim. Shuni sizga olib beraman, – debdi.

– Hovli olishga pulim yo'q, – debdi Ziyod botir.

– Sizda bo'lmasa, bizda bor, menga topganingizda berarsiz, – debdi shayxning o'g'li.

Ziyod botir hovlini ko'rib yoqtiribdi. Ishlab orttirgan puli bor ekan, pulni naqd sanab beribdi. Shundan keyin er-xotin ko'chib keli-shibdi.

Kunlarning birida shayxning o'g'li Ziyod botirga:

– Xotiningiz yosh narsa, siz ishga ketgan paytda u yolg'iz qoladi. Biznikida bir zohid kampir bor, o'zi befarzand. Shu kampirni siznikiiga yuborsam qanday bo'ladi? – debdi.

Ziyod botir undan juda xursand bo'libdi.

Shayxning o'g'li bir makkor kampirni topib, unga pul beribdi va: «Shu Qamarxonni nima qilib bolsa ham yo'ldan uring», – deb uni Ziyod botirning uyiga oborib qo'yibdi.

Kampir Qamarxon bilan ona-boladay bo'lib ketibdi. Kampir erta-yu kech qo'lida tasbeh, namoz o'qir ekan. Qamarxon eri ishga ketgandan keyin gilam to'qir, zeriksa ashula aytar ekan. Kampir asta-sekin qizning pinjiga kirib, shayxning o'g'lini maqtay boshlabdi. Qamarxon makkor kampirning maqsadini sezib qolibdi.

Eriga kampirning gaplarini aytib beribdi. Shunda Ziyod botir:

– Men ham nega bu mehribon bo'lib qoldi, deb o'ylagan edim-a. Sababi bu yoqda ekan-da! Mayli, hozircha indamay turaylik-chi, yana nima der ekan, – debdi.

Ertasiga makkor kampir yana shayxning o'g'lidan gap ochib:

– Sizni u kishi juda yaxshi ko'radi, u bilan bir gaplashsangiz nima qiladi? – debdi.

Qamarxonning achchig'i kelib, kampirning lunjiga bir musht tushiribdi. Kampirning lunji shishib, tili og'ziga sig'may, yigitning oldiga boribdi va bo'lgan voqeani aytib beribdi. Shayxning o'g'li achchiqlanibdi. Kallakesar bir tanishi bor ekan, uni chaqirib:

– Bu kecha hech qayerga borma, bir ish bor, shuni bajarasan, – debdi.

Shayxning o'g'li yarim kechada xizmatkori bilan Ziyod botirning uxlaganini bilib, ikkisi devordan oshib tushibdi. U Ziyod botirni o'ldirib, xotinini olib chiqib ketmoqchi ekan. Qamarxon odam sharpasini sezib, Ziyod botirni uyg'otibdi. Ziyod botir qarasa, ayvon oldida ikki odam turgan emish. Yostig'i tagidan xan-jarini olib, shayxning xizmatkoriga tashlanibdi va uning kallasini olib, unga hamla qilmoqchi bo'lib turgan shayx o'g'lini ham dast ko'ta-rib yerga uribdi. Shayxning o'g'li Ziyod botirning oyog'iga yiqilib, ikkinchi bunday noma'-qulchilik qilmaslikka so'z beribdi.

Malika «O'ldiraylik» desa ham, Ziyod botir: «Mayli, ketsin bu nomard. Ikkinchibunday ishni qilmasin!» deb uni uydan chiqarib yuboribdi.

Shayxning o'g'li bu yerdan chiqqandan keyin: «Nega podshoga borib chaqmayman?» deb saroyga yo'l olibdi.

Sulton Husayn Mirzo o'z yaqinlari bilan o'tirgan ekan, orasida shayx ham bor ekan. Shayxning o'g'li podshoga ta'zim qilib:

– Shohim, yaqinda yurtimizga bir oqpadar yigit bir qiz bilan kelgan edi. Men ularni durust odam, deb nikohlab qo'ygan edim. Keyin hovli ham olib berdim. Shu kecha ko'chadan o'tib ketayotsam, hovlidan kulgi eshitildi. Qarasam, haligi oqpadarning xotini yigitlar o'rta-sida o'ynab turgan ekan. Achchig'imga chidolmay yigitni chaqirib: «Bu nima buzuqlik, uyal-maysanmi?» degan edim, u menga bir musht soldi. Shohim, shu yaramas yigitni shahardan badarg'a qilishga farmon berishingizni so'rayman. Buning kasofati hammamizga tegmasa deb qo'rqaman, – debdi.

Sulton g'azablanib:

– Uni shahardan haydamayman, hoziroq kallasini tanidan judo qilaman! – debdi va Ziyod botirnikiga navkarlarini yuboribdi.

Sulton yuborgan kishilar Ziyod botir bilan Qamarxonning qo'llarini orqalariga bog'lab olib kelishibdi. Sulton Qamarxonni ko'rishi bilanoq ikkovining ham hech qanday gunohi yo'qligini sezibdi. Ammo o'zi ham Qamarxonga oshiq bo'lib qolibdi. U Ziyod botirdan:

– Sen bu qizni qayerdan olib kelgan eding? – deb so'rabdi.

– O'zidan so'rang, – debdi Ziyod botir.

Podsho Ziyod botirga:

– Sen bu qizni bizga tashlab ketaver! – debdi.

Ziyod botir unamabdi. Sulton achchiqlanib:

– Jallod! Olib chiq buni, dorga os, – debdi. Botirni jallodlar olib chiqib ketishayotganda Ziyod botir chaqqonlik bilan ular qo'lidan chiqib qochibdi va to'ppa-to'g'ri haligi temirchi ustanning uyiga boribdi. Bo'lgan voqeani unga so'zlab beribdi. Temirchi: «Falon joyda bir g'or bor, sen o'sha yerga borib turasan, men shaharda nima gap bo'lganini bilib senga aytaman», debdi.

Endi gapni malikadan eshiting.

Sulton Qamarxonqa yaxshi gapirib: «Men sizni malikalarning malikasi qilay, siz menga tegishga rozilik bering», – deb ko'p yalinsa ham bo'lmasabdi. Sulton g'azablanibdi. Sultonning bog'ida yashirin bir zindon bor ekan, uni hech kim bilmas ekan. Qamarxonni shu zindonga solibdilar. Ziyod botirning qochganini eshitib, shahar darvozalarini berkitib, qidiruv boshlashibdi. Ertasiga kechqurun temirchi usta Ziyod botir yashiringan g'orga boribdi.

– Endi nima qilamiz, bir tuzukroq yo'l ko'rsating? – debdi Ziyod botir.

– Bir yo'l bor, – debdi, – sen vazir bilan uchrasasan, u nihoyatda odil kishi, butun voqeani unga aytasan, dardingga o'sha kishi davo topa oladi, – debdi temirchi o'ylab-o'ylab.

Ziyod botir yarim kechada g'ordan chiqib, vazirning uyiga boribdi. Eshikda turgan mulozimga salom berib:

– Men vazir janoblarinikiga uzoq yerdan mehmon bo'lib keldim, – debdi.

Vazir kechalari uxlamasdan ishlar ekan. Mulozim vazir huzuriga kirib: «Bir mehmon yigit uzoqdan sizni ko'rgani kelibdi», – degan ekan, vazir:

– Chaqir, kirsin! – debdi.

Ziyod botir vazir bilan ko'rishib-so'rashib bo'lgach, boshidan o'tgan voqealarni birma-bir bayon qilibdi. Vazir uni yupatib:

– Xotirjam bo'ling, sulton Qamarxonni o'l-dirmaydi, ertaga xabar olaman, – debdi.

Vazir ertasi kuni podsho saroyiga borib, to'g'ri boqqa kiribdi. U sultonning shu yerda yashirin zindoni borligini bilar ekan. Bog'ni aylanib yurganda bog'bonga duch kelibdi. Bog'bon vazirga ta'zim qilib, bir dasta gul tutibdi. Bu kishi ham bog'bonlik, ham zindonbonlik qilar ekan.

Vazir bog'bonga qarab:

– Qizdan xabar olib turibsizmi? Yoshlik qilib tag'in o'zini o'zi o'ldirib qo'ymasin, – debdi.

– Ha, taqsir, xabar olib turibman, sultonning o'zlari ham hozir kelib ketdilar, – debdi bog'bon.

Shu bilan vazir xotirjam bo'lib, uyga qaytibdi va Ziyod botirga qizning sog'-salomatligini bildiribdi. O'zi shu kundan boshlab odamlarga podsho bog'i tomonga lahim kavlatibdi. Uch kun deganda lahim kavlanib bo'libdi. Vazir Qamarxonni zindondan chiqazibdi.

– Senga birodarman, Qamarxon, bajonidil, singlim, mening uyimda bir umr tursangiz ham bemalol, birov sizlarga daxl qilmaydi, – debdi vazir.

Qamarxon bilan Ziyod botir xursand bo'lib vazirning uyida yashay boshlabdilar. Oradan uch yil o'tibdi. Qamarxon o'g'il ko'ribdi. Bolasi yuradigan bo'libdi. Bir kun vazir bog'dan chiqib ketayotganda bola yolda suv o'ynab turgan ekan. Vazir uni ko'tarib, qo'liga gul berib, eshik oldiga yetganida ichkaridan Ziyod botirning ovozini eshitibdi:

– Nega yig'laysan, otangni sog'inganining bilan borib ko'rolmaysan. Qo'y, yig'lama, yuragimni ezma!

Vazir buni eshitib, hovliga kiribdi. Qamarxon ko'z yoshini artib o'rnidan turib, vazirga salom beribdi. Vazir:

– Xafa bo'l mang, singlim, yana bir oy sabr qiling, yurtingizga o'zim oborib qo'yaman, otangizga ham tushuntiraman, – debdi.

Oradan bir oy o'tibdi. Vazir sultondan sayohat bahonasi bilan ijozat olib, o'zining sirdosh yigitlaridan to'rttasini hamroh qilib, safar jadug'ini rostlabdi. Yigitlar bir hafta ilgari Qamarxon bilan Ziyod botirni shahardan chiqarib, bir tog'ning bag'riga qo'yib kelishibdi. Navoiy bir haftadan so'ng yo'lga chiqibdi. Qamarxon bilan Ziyod botirni olib, to'ppa-to'g'ri ularning yurtiga jo'nabdi.

Bir necha kun yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri Qamarning yurtiga yetibdilar.

Sulton Fotih qo'shni podsholikning vaziri kelganini eshitib, bir qancha yigitlarini peshvoz chiqaribdi. Vazirni bir necha kun mehmon qilgandan keyin:

– Xush kelibsiz, xizmat? – debdi podshoh.

Vazir:

– Sizzan ikki gunohkorning gunohini kechirishingizni so'ragani keldim. Shularning gunohidan o'tsangiz, bir necha kun turaman, bo'lmasa, hozir qaytib ketaman, – debdi.

Podsho:

– Agarda gunohkorlar og'ir gunoh qilgan bo'lalar ham siz tufayli ularning gunohidan kechdim, kim ekan ular? – debdi.

Vazir Qamar bilan Ziyod botirni chaqiribdi. Qamar kelib, otasining poyiga o'zini tashlabdi.

Podsho sevinganidan hushidan ketayozibdi.

– Qayerda eding, bolam? – deb yig'lab yuboribdi.

Qamar yo'qolganidan so'ng Sultonning darak solmagan joyi qolmagan ekan.

Sulton shahar xalqiga yetti kun ziyofer beribdi. U Ziyod botirni o'ziga lashkarboshi qilib tayinlabdi. Ziyod botir tog'da cho'ponlik qilib yurgan otasini chaqirtirib kelibdi. Vazir bir necha kun turgach, Hirotg'a qaytibdi. Ziyod botir bilan Qamarxon shod-xurramlik bilan umr kechiribdilar.



QIRQ KUYOV

Bir podshohning qirq o'g'li bor ekan. Bir kuni podshoh katta o'g'lini uy-lantirmoqchi bo'libdi. Buni eshitgan boshqa o'g'illari: «Bizlarni ham uylantiring», deyishibdi. Podshoh qirqta o'g'liga qirqta qizli odamni qidirtira boshlabdi. Juda ko'p vaqt qidirgandan keyin, o'z mamlakatidan olti oylik yo'lda bo'lgan bir podshohning dargohiga bir maston kampirni sovg'a-salom bilan sovchilikka yuboribdi. Kampir podshohning o'r dasiga kelib eshik oldini supuribdi. Podshohning xizmatkorlari kampirni ushlab podshohning oldiga olib kirishibdi. Podsho kampirdan nimaga kelganini so'rabdi.

Kampir:

– Ey, podshohim, sizning qirq qizingiz bor ekan. Shu qizlaringizga sovchilikka keldim, – debdi.

Podshoh:

– Haqiqatan, mening qirqa qizim bor. Ular-ning hammasini bir tug'ishgan qirqa yigitga beraman, – debdi.

Kampir ham o'z podshohining qirqa o'g'li borligini aytibdi.

Podshoh:

– Men qizlarimni berishga roziman, lekin bir shartim bor: podshohingiz o'z mamlakatidan mening mamlakatimgacha bo'lgan olti oylik yo'lga ariq qazdirib, o'z suvini mening suvimga qo'shsin, – debdi.

Maston kampir o'z mamlakatiga qaytib podshohga aytibdi:

– Ey, podshohi olam, shu olti oylik yo'lga ariq kavlab, o'z suvingizni ul podshoh suvlariga qo'shsangiz, qizlarini berar ekan, – debdi.

Podshoh bu shartga rozi bo'libdi.

Podshoh shahardagi hamma fuqarolarni yig'dirib, ariq kavlata boshlabdi. Xalq bir oyda uch-to'rt toshlik yo'lgacha ariq kavlabdi. Podshohning o'g'llari ariqni tezroq kavlatish uchun navbat bilan mehnat qilayotgan odamlar ustida xo'jayinlik qilib turishibdi. Bir qancha odamlar uylaridan, bola-chaqalaridan ayrilib, podshohning zulmiga chiday olmay, bu ishdan norozi bo'la boshlashibdi. Bir kun odamlarning: «Podshohning o'g'llari xotinli

bo'laman deb, hammamizni uy-joyimizdan, bo-la-chaqamizdan judo qildi», deb gaplashganlarini podshohning kichik o'g'li eshitib, ariq kavlayotgan odamlarning hammasiga javob berib yuboribdi. Akalari uni «Bizni xotinsiz qoldir ding», deb do'pposlay ketishibdi. Kichik ukasi yig'lab-yig'lab ariq labida uxlab qolibdi. Sahar vaqtি bir chol kelibdi-da, bolani uyg'otib:

– Ha, o'g'lim, nima uchun bu yerda yotib-san? – debdi.

Bola bo'lgan voqeani cholga gapirib beribdi.

Chol:

– O'g'lim, xafa bo'lma, bu ariqni kavlash qiyin emas. Lekin senga bir nasihatim bor, shuni bajarasan. Kavlanadigan ariqning bir tomoni yoz, bir tomoni qish bo'ladi. Akalaring kelinlarni olib yo'lning yarmiga kelganda yomg'ir yog'adi, yomg'irdan keyin qor yog'adi, qordan keyin tosh yog'adi. Shu vaqtda bir oq uy ko'rinadi. Zinhor shu oq uyga kirishmasin. Tez orada havo ochilib ketadi. Otangga shu gaplarni tayinla, – debdi-da, tayog'ini ot qilib minib «ko'zingni yum!» debdi. Birpasdan keyin «och!» debdi. Bola ko'zini yumib ochsa, shu olti oylik yo'lga ariq kavlanib, ikki podshohning suvi bir-biriga qo'shilganmish. Chol bolaga yana «ko'zingni yum!» debdi. Bola ko'zini yumibdi. «Ko'zingni och!» debdi. Bola ko'zini ochib qarasa, o'zini avval o'tirgan joyida ko'ribdi. Chol g'oyib bo'libdi. Bola yana ariq bo'yida avvalgiday yotibdi. Ertasi akalari ariq boshiga kelib qarashsa, suv oqib yotganmish. Akalari bolani uyg'otib ariq haqida so'rashibdi.

Kenja uka akalariga chol aytgan so'zlarni aytib, qattiq ogohlantiribdi.

Keyin akalari ukasini otalarining oldiga olib borishibdi. Bola otasiga:

– Ariqni men kavlab ikki suvni bir-biriga qo'shdim, – debdi.

Podshoh o'g'lidan xursand bo'lib, kelinlarni olib kelishga tayyorgarlik ko'rib, bir qancha askarlari bilan jo'nabdi. Faqat kenja o'g'il otasining o'rnida qolibdi. Bir necha oy yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, suvsiz sahro-cho'l yurib, qizlar yashayotgan mamlakatga yetib borishibdi. Podshoh kuyovlarning kelayotgani ni eshitib, yo'llariga poyandozlar tashlab kutib olish uchun bir qancha askarlari bilan peshvoz chiqibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, bir kam qirq yigitga qizlarni nikoh qilishibdi. Kichkina kelinni esa pichoqqa nikoh qilishibdi. Yigitlar bir qancha askarlar bilan kelinlarni olib yo'lga tushibdi. Bir necha kun yo'l yurib, yo'lning yarmiga kelganda, yomg'ir yog'a boshlabdi. Yomg'irdan keyin qor yog'a boshlabdi, qordan keyin tosh yog'a boshlabdi. Shu payt oq ravot ko'rinishibdi. Podshohning katta o'g'illari shu ravotga kirishga ijozat so'rabdi. Podsho: «Ukangizning nasihatি bor, kirmanglar», deb ravotga kirishga rozilik bermabdi. Akalari otasini koyib: «Siz bitta o'g'lingiz deb bizlarni o'ldirasizmi», – deyishibdi va qu-loq solmasdan qo'rg'onga kirishibdi. Podshoh ham noiloj orqalaridan kiribdi. Bular hammasi qo'rg'onga kirishi bilan havo charaqlab

ochilib ketibdi. Qo'rg'onning to'rt burchagidagi to'rt quduqdan suv otilib chiqib, pastga tushib turibdi, qozonlarda palovlar pishgan, dasturxonlar yozilgan, shirin-sharbatlar, turli taomlar qo'yilgan, ko'rpa chalar solinganmish. Otlar uchun har biriga yakka qoziqlar qoqilgan, oxurlarga yemlar solinganmish. Lekin hech kim yo'q emish. Ravotga kirgan odamlarning hammasi taomlardan yeb, bu oqshom shu joyda yotishibdi. Ertalab turib, yo'lga tayyorlanib darvozadan chiqayotganlarida bir ajdaho kelib darvozaning og'zini to'sibdi. U tilga kirib:

– Qani, buning haqini berib ketinglar-chi! – debdi.

Podshoh:

– Pul kerakmi, dunyo kerakmi, ot kerakmi? Ol! – debdi.

Ajdaho:

– Menga pul ham, dunyo ham kerak emas, kichik o'g'lingni bersang bo'ladi, boshqa hech narsa olmayman, – debdi.

Podshoh xafa bo'libdi. Lekin katta o'g'llari otalariga:

– Mayli, beraman deb ayting, yo'l uzoq, borib ololmaydi, – deb podshohni ko'ndirishibdi.

Podshoh kichik o'g'lini ajdahoga berishga rozi bo'lib jo'nab ketishibdi.

O'n kun yo'l yurganlaridan keyin uzoqdan bir narsaning uchib kelayotganini ko'rishibdi. Uchib kelayotgan narsa xash-pash deguncha yaqinlashibdi. Qarasalar, kichik ukasini ajdaho domiga tortayotgan ekan. Bola podshoh

yoniga yaqinlashganda: «Ota, olib kelayotgan keliningizni kimga bersangiz bering», deb o'tib ketibdi-da, ravotning oldida turgan ajdahoning oldiga tushibdi. Ajdaho bola bilan yuzma-yuz kelib:

– Bir kunlik umringdan kechasanmi, qirq kunlik umringdan kechasanmi? – debdi.

Bola o'ylab turib:

– Qirq kunlik umrimdan kechaman, – debdi.

– Bo'lmasa, falon mamlakatda bir podshohning qizi bor. Shu qizni qirq kun ichida menga keltirib berasan, keltirmasang o'zingni yeymen, – debdi.

Bola ajdahodan qirq kunlik javobni olib, yo'nga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l yurib bir joyga kelsa, yo'lda juda ko'p chumolilar yurgan emish. Bola ularni bosib o'ta olmay, kechgacha chumolilarning o'tib bo'lishini kutib o'tiribdi. Kechqurun chumolilar o'tib bo'lganidan keyin oxirida chumolilarning podshohi bolaning oldiga kelib:

– Ha, yigit, nima uchun bu yerda o'tiribsan?
– deb so'rabdi.

– Men chumolilarni bosmay, deb ularning o'tib ketishini kutib o'tiribman, – debdi bola.

Chumoli:

– Senga rahmat, biz ham bir kun kelib kunningga kerak bo'larmiz, – debdi-da, bolaga bir hovuch somon beribdi. Bola somonni olib, yana bir necha kun yo'l yurgandan keyin ikkita sherning olishib yotgani ustidan chiqib qolibdi. Qarasa, sherlar bir quyonni ushlab olib,

qanday bo'lib yeishni bilmasdan olishayotgan ekanlar. Bola shershordan quyonni so'rab olibdi-da, yonidagi pichog'i bilan ikkiga bo'lib beribdi.

Sherlar:

– Rahmat, odamzot, shu quyonni bo'lib yeya olmasdan uch kundan beri ovora edik, – deb boladan xursand bo'lishibdi va: – manavini olib qo'y, bir kuningga yarab qolar, – deb ustlaridagi yunglaridan uzib beribdilar.

Bola yana yurib-yurib, kechqurun bir qishloqqa kirib kelibdi. Kechasi yotish uchun bir kampirdan joy so'rabdi.

Kampir joy berib:

– Ha, o'g'lim, qaysi tomonlardan kelayotibsan, qanday yumush bilan yuribsan? – debdi.

Bola oldiniga nimaga kelganini kampirga aytmabdi. Kampir qistaganidan keyin podshoh qizini olishga kelganini aytibdi. Kampir xafa bo'lib:

– O'g'lim, bu ishni qo'y, juda og'ir ish, bajarishing mushkul. Yosh yigit ekansan, bekorha nobud bo'lma. Bir necha qiyin shartlari bor, ularni bajara olmaysan. Mana qara, yetti qoziqda yetti ot turibdi. Mana shu yetti otni yetti o'g'lim minib yurar edi. O'g'llarim shu podshohning qizini olamiz, deb shartlarini bajara olmasdan, birin-ketin nobud bo'lishdi. Bir o'zim shu hovlida qoldim. Qo'y, o'g'lim, podshohning qizidan boshqa qizlar ko'p. Shershordan biriga seni uylantirib, o'zimga o'g'il qilib olaman, – debdi.

Bola:

– Hay, ona, nima bo'ssa ham men shu podshoh qizining shartlarini bajarishga bel bog'laganman, bajarishga majburman, – debdi.

Ertalab kampirning yig'lab-yalinishiga qaramay, podshoh dargohiga borib, dovulini chalibdi. Podshohning odamlari kelib, bolani shoh oldiga olib boribdilar.

Podshoh boladan:

– Sen mening qizimni olishga kelgan bo'sang, uchta shartim bor. Shu shartlarni bajar olmasang, kallangni olaman. Yaxshisi shashtingdan qayt, urinma, yo'lingdan qolmay ketaver, – debdi.

Bola podshohga:

– Shartingizni ayting, bajaraman, – debdi.

Podshoh:

– Uchta shartdan biri – qirq qop tariqni yerga septirib beraman, bittalab terib berasan; ikkinchi shartim – otamdan qolgan ikkita bo'rdoqi ho'kizim bor. Shularning go'shtini ertalab-gacha yeb, suyagini keltirib berasan; uchinchi shartim – darvozaga yaqin joyda otamdan qolgan to'rt pudlik ko'za yerga ko'milgan, og'zi ochiq, ichida hech narsa yo'q. Shuning oldidan o'tib, qaytguninggacha ichida tilla qaynab tursin. Mana shularni bajarsang, qizimni bera man, – debdi.

Birinchi shartga ko'ra podshoh qirq tuyaga qirq qop tariqni orttirib ochiq maydonga sep tiribdi. Xizmatchilar bolani qoldirib o'zlari qaytishibdi.

Bola shuncha tariqni qanday terib tamomlash ilojini topa olmay, o'ylay-o'ylay qo'li bilan tera boshlabdi. Peshingacha yarim qop tariq teribdi. Peshin vaqtida, bir joyga o'tirib, yana o'ylay boshlabdi. Birdan chumolilar bergen somon esiga tushib qolibdi. Yonidagi chaqmog'ini olib chaqib somonni tutatibdi. Somonning tutuni chumolilarga yetib borishi bilan hamma chumolilar yig'ilib bolaning oldiga kelishibdi va:

- Nima xizmat, buyuring, – debdi.
- Ey, hasharotlar, mening boshimga mushkul ish tushdi. Mana shu yerga sepilgan qirq qop tariqni terib beringlar, – debdi.

Bola qopning og'zini ochib turibdi, chumolilar tariqni terib qopga sola boshlabdi. Kechgacha qirq qopga tariqni to'lg'azib, chumolilar o'z joylariga ketishibdi. Bola qirq qop tariqni tuyalarga ortib, podshoh o'rdafiga olib kelibdi. Bolaning bu ishidan hamma xursand bo'libdi. Ikkinchchi kuni ikkinchchi shartni bajarish uchun podshoh otasidan qolgan ikkita novvosni chiqarib:

- Mana shu novvoslarning go'shtini ertalab-gacha yeb, suyaklarini qopga solib keltirib berasan! – debdi.

Bola ho'kizlarni yetaklab bir joyga olib borib bog'lab qo'yibdi. Kechasi ho'kizlar yoniga kelib qanday yeb tamomlashni bilmay xafa bo'lib, o'ylab o'tirib sherlarni eslabdi. Sherlarning yungini tutatibdi. Sherlar «Labbay, xizmatingga tayyormiz», deb bolaning oldiga yetib kelishib-

di. Tong otguncha ikki sher ikki ho'kizning go'shtini yeb tamomlabdi. Bola suyaklarni qopga solib saharda podshoh o'rdasiga kelibdi: «Qornim ochib ketdi, qani, yana yeyishga biror narsa bormi?» deb chaqiribdi. Xizmatkor bolani podshoh oldiga olib kiribdi. Bola suyaklarni podshoh oldiga qo'yibdi. Odamlar buni ko'rib: «Bu devmi yoki boshqa biror narsami», deb hayron qolishibdi.

Podshohning buyrug'i bilan bolaga bir tog'ora qatiq bilan sakkizta non keltirib beribdilar. Bolaning haqiqatan qorni och ekan, ana-mana deguncha qatiq bilan sakkizta nonni yeb qo'yibdi.

Podshoh bolaga uchinchi shartni buyuribdi. Malika esa, bu yigitning ikkita shartni bajganidan juda xursand bo'lib, yo'liga chiqib turibdi. Yigit podshohning uchinchi shartini qanday bajarishni bilmay, xafa bo'lib, o'ylanib chiqib kelayotsa, podshohning qizi uchrabdi. Qiz qo'lidagi gavhar uzukni yigitga berib:

– Ey, yigit, mana shu uzukni darvoza yonidagi ko'zaning oldidan o'tayotganingizda ichiga tashlang, lekin orqaga qaramay, ketavering. Siz qaytib kelguningizcha tilla qaynab chiqaveradi, – debdi.

Yigit uzukni olib ketibdi. Ko'za yoniga borib, uzukni tashlabdi-da, qiz aytgandek orqasiga qayrilib qaramasdan darvozadan chiqib ketibdi. Podshohning xizmatchilari ko'zadan oltin qaynab chiqqanini ko'rib, yigitning orqasidan borib uni ko'tarib, podshoh oldiga olib kelihibdi.

Xizmatkorlar podshohga:

- Podshohi olam, qizingiz ana shu yigitniki,
- deyishibdi.

Podshoh butun shahar xalqini yig'ib, to'y-tomoshalar qilib, qizini yigitga nikohlab beribdi.

Ajdahoga bergen va'dasi tugashiga bir kun qolganda, yigit bir oh tortibdi.

Qiz yigitga:

- Ey, yigit, nega bunchalik qattiq oh tortasiz? – debdi.

Yigit ajdahoga bergen va'dasini qizga aytmasdan:

- Ota-onam esimga tushdi, – debdi.

Erta bilan yigit qizga:

- Meni desang birga ketasan, bo'lmasa ixtiyorin, – debdi.

Qiz ham ketishga rozi bo'libdi. Ikkovi podshohdan javob olib, yo'lga tushishibdi. Bir necha kun yo'l yurishgandan keyin, yigitning holi tang bo'lib, rangi qop-qora bo'lib ketaveribdi.

Qiz yigitning holini ko'rib:

- Nimaga bunchalik qattiq diqqat bo'lib ketyapsiz? – debdi.

Shunda yigit chidamay, hozir ajdaho oldiga ketayotganlarini aytibdi:

- Tez yetib bormasak ajdaho ikkovimizni ham yeb qo'yadi, – debdi.

Qiz yigitdan juda xafa bo'lib:

- Ey, yigit, nega shu vaqtgacha bu gaplarni menga aytmaditingiz, uning iloji qo'limizda edi, hali ham kech emas. Endi siz chopib borib otamning kichik hujrasini ochasiz, hujraning

ichida bir sandiq bor, sandiqning ichida bir kaptar bor. Shu kaptarning kallasini kesasiz. Tomog'idan bir qurt chiqadi, qurtni o'ldirasiz. Ana shundagina ajdaho o'ladi, bo'lmasa ikkimizni ham yeysi, – debdi.

Shu gapni aytib bo'lishi bilan ajdaho qizni domiga torta boshlabdi. Yigit esa kuchining boricha podshoh o'rdasi tomon chopibdi. O'rdadan hujraning kalitini topib qulfini ochibdi. Hujraning ichiga kirib, tokchada turgan sandiqni ochib kabutarni ushlay deganda, kabutar uchib ketibdi, yigit tezda hujraning eshigini berkitib, kabutarni ushlabdi va kallasini uzibdi-da, tomog'idan qurtni olib o'ldiribdi. Hujradan chiqib ajdaho turgan ravot tomon ot choptirib ketibdi. Yo'lda ketayotib «Qizga nima bo'ldi ekan, ajdaho yutdimi, o'likmi, tirikmi», deb o'ylab, xafa bo'lib qiz oldiga kelib qarasa, qiz bilan ajdahoning orasi uch qadam qolgan bo'lib, ajdaho o'lib yotgan mish. Qiz esa hushidan ketib yotgan mish. Yigit xafa bo'lib ko'zi yoshga to'libdi. Bir tomchi yosh qizning yuziga tushishi bilan qiz ko'zini ochib, yigitni ko'rib xursand bo'lib ketibdi.

Yigit:

– Ajdaho o'libdi, jonimiz foydaga qoldi, ajdahodan qutuldik, ajdahoning makoni bizga kerak emas, o'z yurtimizga ketamiz, – debdi.

Bir necha kun yo'l yurib, otasining yurtiga yetib kelishibdi. Podshoh o'g'lining kelayotganini eshitib, xursand bo'lib kutib olibdi. Qayta boshdan qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib, ikki yosh murod-maqsadlariga yetishibdi.



DONISHMAND CHO'PON

tgan zamonlarda bir podsho bor ekan.
Podsho otlarni juda yaxshi ko'rар edi.

Kunlardan bir kuni podsho otxonaga borib qarasa, otlari ancha oriqlagan. Podsho darhol otboqarni chaqirib: «Nima uchun otlar oriqlagan?» deb so'rabdi. Otboqar podshoning g'azabidan qo'rqib: «Shohim, otlaringiz bir necha kundan buyon ovqat yemasdan, zo'r berib kishnaydilar. Men o'ylaymanki, shu shahardan nariroqda o'zga otlar bolsa kerak. Shu otlarning ovoziga otlaringiz ovqat yemay qo'ygan», debdi.

Podsho o'ng qo'l vazirini o'z yoniga chorlab:
«Ey, dono vazir, navkarlaring bilan chiqib, sha-

har tashqarisidagi o'zga otlarning ovozini chiqarmaydigan qil, toki ular kishnab, mening otlarimning tinchligini buzmasin», debdi.

Vazir yoniga navkarlarini olib, o'zga otlarni qidirib topish uchun shahardan chiqib ketibdi. Yurib-yurib, shahardan 20–30 chaqirim narida bo'lgan bir toqqa yetibdi va toqqa chiqib ko'rissa, bir cho'pon bir qancha yilqini o'tloqqa qo'yib yuborib, o'zi katta xarsang toshning ustida bahuzur cho'zilib yotibdi.

Vazir shitob bilan, ot o'ynatib cho'ponning oldiga yetib borib, baqira boshlabdi:

– Ey, ahmoq cho'pon, yilqilaringni o'tloqqa qo'yib yuborib, buning ustiga ularning kishnashiga mast bo'lib, bu yerda bahuzur cho'zilib yotishingni qara. Shaharda bo'lsa otlaringning kishnagan ovozini eshitib, podshoning arg'umoq otlari oziq yemasdan, ozib ketayotibdi. Men senga buyuraman, otlaring og'zini boylab qo'y. Agarda buyrug'imni bajarishdan bo'yin tovlasang, o'zingni jallodga topshiraman.

Cho'pon vazirning aytganlarini bajarishga majbur bo'libdi. Yilqilaring og'zini lattalar bilan bog'lab, o'zi qanday qilib otlarini bu falokatdan qutqarish yo'lini o'ylay boshlabdi.

Oxiri cho'pon bir qarorga kelib, yaylovda yurgan katta tuya va soqoli ikki qarich keladigan takani ushlab kelibdi. Otasidan qolgan eski kamon, o'qlar bor ekan, ularni ham olib, shaharga qarab ravona bo'libdi.

Shahar qal'asidan ichkariga kirib, katta rastalarda nog'ora chalib o'tirganlarga qarab kamondan o'q otib, nog'oralarni yora boshlabdi.

Shahar xalqi cho'ponning bu ishidan tashvishga tushib, podsho o'r dasiga borib, cho'ponning ustidan arz qilishibdi. Podsho ularning so'zini eshitib, yonida o'tirgan vaziriga buyuribdi:

– Tezda borib shahar nog'oralarini yorayotgan cho'ponni ushlab, mening oldimga keltir.

Vazir yoniga navkarlarini olib, shahar bozoriga qarab ketibdi. Borib ko'rsa, haqiqatan ham tuyaga mingan, oldiga soqoli uzun takani o'ngarib olgan bir cho'pon, qo'lidagi kamoni bilan hadeb duch kelgan nog'orani yorayotgan ekan.

Vazir navkarlarga qarab:

– Ushlanglar uni, – deb buyurdi.

Navkarlar borib, cho'ponni tuyadan tushirib, qo'lini orqasiga bog'lab, tuya bilan takasini ham yetaklab, podsho huzuriga olib kelishibdi.

Podsho cho'pondan:

– Sen kimsan? Nima uchun shahar nog'oralarini yorayapsan? – deb so'rabdi.

Cho'pon javob beribdi:

– Men shaharning tashqarisidagi tog' xalqidan kelgan elchiman.

Podsho cho'ponning elchiligiga ishonmay, uning ustidagi eski chostoniga va oyog'idagi yirtiq chorig'iga qarab debdi:

– Sendan boshqa tuzukroq odam qurib qolganmidi elchilik qilishga?!

Cho'pon hayron bo'lib, podshodan so'rabdi:

– Sizga qanaqa tuzukroq odam kerak? Men ham oyoq-qo'lli odamman-ku!

Podsho g'azablanib:

– Men sendan kiyimi yangiroq, bo'yi baland, soqoli uzunroq odam yo'qmidi, deb so'rayapman, – dedi.

Cho'pon javob berdi:

– Agar sizga bo'yi balandroq va kiyimi yangiroq kerak bo'lsa, mana, mening tuyam: yaqinda tullagan, kiyimi yangi, bo'yi baland. Agarda sizga soqoli uzunrog'i kerak bo'lsa, mana takam: soqoli naq ikki qarich keladi. Agar sizga aqlliroy odam kerak bo'lsa, mana men o'zim, har qancha savolningiz bo'lsa beravering.

Podsho cho'ponning ma'noli javoblaridan ta'sirylanib, o'ylanib qolibdi va cho'pondan so'rabdi:

– Xo'p bo'lmasa, sen elchi ekansan, nima uchun shahar nog'oralarini yorayapsan?

– Sababi bu nog'orachilar chalgan nog'oralarining ovoziga bizning yaylovdagi yilqilar hurkib, hech bir joyda tek turmay qo'ydilar. Nog'orachilarning ovozini o'chirsam, zora yilqilar tek tursalar, deb o'yladim, – debdi cho'pon.

Podsho cho'ponning javobidan kulibdi:

– Shahardan 20–30 chaqirim uzoqda bo'lgan otlarning shahardagi nog'ora ovozidan hurkishi bo'lмаган gap, – debdi.

Cho'ponga aynan shu javob kerak ekan:

– Unda shahardan 20–30 chaqirim narida bo'lgan otlarning ovozini eshitib, shahar ichi-

dagi otlar ovqat yemasdan oriqlashi bo'ladigan gapmi?

Shunda podsho shahar tashqarisida bo'lgan otlarning ovozini o'chir, deb vaziriga bergan buyrug'ini eslab, xijolat bo'libdi. Hamda bu donishmand cho'ponga so'z bilan bas kela olmasligini bilib, unga qarab:

- Tilla, tilagingni, - debdi.

Cho'pon:

- Agar malol kelmasa, menga shu shahardan besh ho'kiz terisidek yer bersangiz, - debdi.

Podsho cho'ponning bu talabini nazarga ilmasdan munshiysiga qarab debdi:

- Cho'ponning nomiga vasiqa qilib ber, men unga shahrimdan besh ho'kizning terisicha yerni in'om qildim.

Munshiy vasiqani tayyorlab, podshodan muhr bostirib cho'ponga topshiribdi. Cho'pon vasiqani olib, o'z joyiga qaytibdi.

Cho'pon uyiga borib, o'ziga o'xshagan uch-to'rtta kambag'al cho'ponni yig'ib, ularga bo'lgan voqeani batafsil aytib beribdi. Keyin:

- Endi men bir ish qilayki, nomim dunyoda qolsin, - dedi.

Cho'ponlar undan:

- Qanday ish qilmoqchisan? - deb so'rashibdi.

Cho'pon ularga:

- Endi hammamiz bir bo'lib, beshta ho'kiz topishimiz kerak. Keyin men sizlarga qiladigan ishimni aytib beraman, - debdi.

Cho'ponlar ham uning so'ziga rozi bo'lishib, bittadan ho'kiz olib kelibdilar, cho'ponning o'zi

ham bitta ho'kiz topibdi. Hammasi bo'lib beshta ho'kiz yig'ilibdi, beshovini ham so'yib, terilarini shilib olib, kanop ip yo'g'onligida tasma qilib qirqa boshlabdilar. Tasmalar tayyor bo'lgandan keyin, ularni va bir qancha qoziqchalarni olib, shahar qal'asiga yetib borishibdi va qal'ani aylantirib qoziqlarni qoqib, ularga tasmalarni bog'lab chiqishdi. Besh ho'kizning terisidan bo'lgan tasmalar shaharni aylantirib chiqishga yetibdi.

Cho'pon bu ishlarni bitirib bo'lgandan keyin, podsho bergen vasiqani qo'liga olib, to'g'ri podshoning o'rdafiga boribdi. Podshoga ta'zim qilib:

– Ey, ulug' podsho, o'z farmoningizdan qaytmaysizmi? – deb so'rabdi.

– Agar muhrim bosilgan bo'lsa, albatta, qaytmayman, – debdi podsho.

Cho'pon qo'lidagi vasiqani podshoga ko'rsatib:

– Bo'lmasa, mana shu vasiqaga binoan, bu shahar butun xalqi, yeri va xazina-yu dafinalari bilan menga o'tdi, – debdi.

Podsho hayron bo'lib:

– Jinni-pinni bo'ldingmi, qaysi asosga binoan bu so'zlarni aytyapsan, – debdi.

Cho'pon javob berib:

– Mening asoslаримни о'з ко'zingiz bilan ko'rishni istasangiz, yuring men bilan shahar tashqarisiga chiqamiz, – debdi.

Podsho cho'ponning so'zini qabul qilib, butun amaldorlari, vazirlari bilan shahar qal'asining tashqarisiga chiqib qarashsa, shahar qal'asi

bo'ylab har yerga qoziqlar qoqilgan va u qoziqlarga teri tasmalar tortilgan.

Podsho hech narsani fahmlamay, cho'pondan:
– Qani asosing, ko'rsat, – debdi.

Cho'pon podshoni boshlab, butun shahar qal'asini aylantira boshlabdi va hamma yerda qoqilgan qoziqlarga boylangan teri tasmalarni ko'rsatibdi. Shu ahvolda shaharni tamom aylanib chiqqanlaridan keyin, cho'pon o'rtoqlariga hamma teri tasmalarni yig'ishtirib chiqishni buyuribdi. Teri tasmalar yig'ishtirilib bo'lgandan keyin, har ho'kiz terisini boshqa-boshqa qilib ajratib, terilarni qaytadan butunlab, avvalgi holiga keltirib podshoga ko'rsatibdi:

– Mana, atigi besh ho'kizning terisi, haligi shaharni aylantirib o'rab chiqqan teri tasmalar shulardan edi, besh terilik joy bering dedim, berdingiz. Mana vasiqa, mana asos, – debdi.


Podsho, donishmand cho'ponning aqliga qoyil qolib, o'zi bergen vasiqani qaytarib olishga amadorlar oldida yuzi chidamay, cho'ponga qarab noiloj:

– Bor, shu shaharni senga berdim, – deb o'zi yolg'iz hayyo-huv, deb cho'lga chiqib ketibdi.

Vazirlar darrov o'sha yerdayoq cho'ponning boshiga toj kiydirib, uni oq namatga solib shoh qilib ko'tarib, karnay-surnaylar chaldirib, cho'ponni podsho o'rdasiga olib jo'nabdilar.

Shunday qilib cho'pon o'zining donishmandligi bilan shaharga podsho bo'libdi va unga yordamlashgan to'rt cho'ponni yaramas zolim

amaldorlarning o‘rniga amaldor qilib va begunoh zindonda yotgan kambag‘allarni ozod qilib, o‘zi odillik bilan yurt so‘rab, bir necha yil umr o‘tkazib, bola-chaqa ko‘rib, murod-maqsadlariga yetishibdi.





EGRIBOY VA TO‘G‘RIBOY

Eadim zamonda bir qishloqda bir yigit bo‘lgan ekan. Uning ismi To‘g‘riboy ekan.

Uning bittagina ozg‘in otidan bo‘lak narsasi yo‘q ekan.

Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo‘lib, uning ahvoli og‘irlashibdi. Oti bilan mardikor ishslash uchun uzoq o‘lkalarga jo‘nab ketibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Yo‘lda unga bir piyoda yigit hamroh bo‘libdi. Ikkisi suhbatlashib ketaveribdi.

– Xo‘sish, yo‘l bo‘lsin? – debdi To‘g‘riboy.

– Mardikorlik qilish uchun uzoq shaharga ketayotirman, – deb javob beribdi piyoda yigit.

– Isming nima?

– Egriboy.

- Seniki-chi?
- To'g'riboy. Ikkimizning ismimiz bir-biriga mos ekan, kel do'st bo'laylik, birga ishlab, birga yuraylik, – debdi To'g'riboy.

Ikkovlari shunday deb ahdlashibdi.

Oqliq yigit sherigining piyoda yurganiga rahm qilib, unga otini beribdi. Egriboy egarga o'tirishi bilan otga bir qamchi bosib, tezda ko'zdan g'o-yib bo'libdi. To'g'riboy hayron bo'lib qolaveribdi. «Do'stman, deb dushmanning ishini qilib ketdi», deb o'ylabdi u. Rangi o'chibdi, qoni qochibdi. Oxiri piyoda yo'lga ravona bo'libdi. Kech kiribdi. Tik yo'ldan adashib, bir so'qmoqqa qayrilibdi. So'qmoq ham qalin bir o'rmonga kirib yo'qolgach, To'g'riboy qayoqqa borishini bilmay, sarosimaga tushib qolibdi.

Kech kuz pallasi ekan. Daraxtlarning yaproqlari to'kilgan, bargsiz qolgan qalin o'rmon ekan. To'g'riboy hamon yo'l axtarib yuraveribdi. Kech kirib, qorong'i tushibdi. Osmonda yulduzlar ham ko'rina boshlabdi. To'g'riboy tunni o'tkazish, uplash uchun joy axtaribdi. Atrofga qarab, bir daraxt kavagini ko'ribdi. U: «Qorong'i kechada o'rmonda yurish yaxshi emas, kechani shu kavakda yotib o'tkazayin», deb o'ylabdi va uplash uchun daraxt kavagi ichiga kirib yotibdi.

Shu katta o'rmonda arslon – podsho, yo'lbars – vazir, bo'ri – karnaychi, qashqir – surnaychi, tulki – dostonchi ekan. Haligi daraxt atrofi ularning bazmgohi ekan. Ular bir oyda bir marta shu daraxt tagida yig'ilishib, qiziq hikoyalar aytishib.

shar ekan. Birozdan keyin bir qashqir kelib, daraxt atrofini aylanib uvlabdi. Oradan sal o'tmay, o'rmondagi butun hayvonlar shu yerga to'planishibdi. Arslon podsho o'z o'rniga o'tirib, o'rmon ahllarining majlisini davom ettiribdi.

Tulki doston boshlabdi:

– Yoronlar, shu o'rmon orqasidagi tog'da bir g'or bor, men o'n yildan buyon o'sha g'orda yashayman. Odamlarning uyida nima bolsa, mening uyimda ham bor. O'n yildan beri mol yig'aman: gilam, sholcha, ko'rpa-to'shak – hammasi bor menda. Yaxshi-yaxshi ovqatlar ham bor.

Kavak ichida o'tirgan To'g'riboy o'zicha: «Attang, tulkiboynikiga mehmonga borsam bo'lar ekan», deb o'yabdi.

– Sening joying qiziq emas, tulkiboy. Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kuni tush vaqtida shuni tomosha qilaman. Uning qirq bitta tillasi bor. Shularni inidan chiqarib o'ynaydi, keyin ularni o'rtaga uyib, o'zi tomosha qiladi, atrofida aylanadi, keyin yana iniga olib kirib ketadi.

– Bu ham qiziq emas, – deb so'zga kirishibdi ayiq, – bizning shu o'rmonda bir qayrag'och bor, uning pastrog'ida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarning yaproqlari butun kasallarga davo. Mana shu shahardagi podshoning qizi yetti yildan buyon kasal. Podsho jar soldirgan. «Kilda kim shu qizimni sog'aytirsa, uni o'shangan beraman», degan. Sog'aytirolmagan kishini o'ldi-

radi. Ko'p tabiblar qizni sog'aytirolmasdan, dorga osilib ketdi. Agar o'sha qayrag'och yaprog'ini ezib, shu qizga ichirilsa, u darrov sog'ayadi va shu ishni qilgan kishi podsho qizini oladi.

So'ngra bo'ri gap boshlabdi:

– Yoronlar, bizning ham bir qiziq hikoyamiz bor. Shu o'rmonning u chekkasida bir boyning mingta qo'yи bor. Men har kuni ikki qo'yни yeymen. Meni ushslash uchun hamma hiylani ishlataldilar. Lekin hech iloj topolmadilar. Mana shu yaqin oradagi qir boshida turuvchi chol boboning bir iti bor. Agar shu itni sotib olsalar, u meni tilka-pora qilar edi.

Eng oxirida yo'lbars gap boshlabdi:

– Bo'ri aytgan boyning ming yilqisi shu o'rmonning bir chekkasida o'tlab yuradi. Men shundan har kun bir ot yeymen. Lekin shu otlarning ichida bir ola ayg'ir bor. Bir kishi ana shu ola ayg'iriga minib qo'liga qildan eshilgan kamar olsa, bir qo'liga uzun xoda ushlab, bo'ynimga kamar solib, meni o'lguncha ursa, shu yilqiga sira yaqinlashmas edim. Mening eng katta dushmanim shu ola ayg'ir ekanligini boy bilmaydi.

Yo'lbars hikoyasini tugatishi bilan tong ham yorishibdi. Hamma hayvonlar tarqab ketibdi.

To'g'riboy kavakdan chiqib, tulkinining makoniga boribdi. Qarasa, hamma narsa joy-joyida, go'sht ham bor, yog' ham bor, guruch ham bor. Darhol qozonga yog' solib, olovni yoqa boshlagan ekan, tog' boshidan oshib kelayotgan tulkini ko'rib qolibdi va o'zini panaga olibdi. Tulki uyiga

kelgach, qozonda yog‘ dog‘ bo‘layotganini ko‘rib, hayron bo‘lib turganda, To‘g‘riboy tulkini tappa bosib, bo‘g‘ib o‘ldiribdi. Osh qilib yeb, qornini to‘ydiribdi va yotib uxbabdi.

Ertasiga To‘g‘riboy qashqir aytgan tepalikni izlab ketibdi. Uni ham topib, sichqonni o‘ldiribdi va tillalarни beliga tugib olibdi. Keyin ayiq aytgan qayrag‘ochning yaprog‘ini ham olibdi.

So‘ngra cho‘pon tomonga yo‘l solibdi. Cho‘ponni topib, undan hol-ahvol so‘rabdi. Shunda cho‘pon:

– Ahvol yomon, – debdi, – ancha vaqtadan beri bir bo‘ri har kuni ikkitadan qo‘yimni yeb ketadi. Hech ilojini qilolmayapman. Bu ahvolda qo‘ylarimga qiron keladi.

Shunda To‘g‘riboy:

– Men sizni shu bo‘ridan qutqarsam, nima berasiz? – deb so‘rabdi.

Cho‘pon qirq qo‘y berishga va‘da qilibdi.

To‘g‘riboy haligi boboning itini sotib olib, cho‘ponga beribdi. Cho‘pon shu kuniyoq bo‘ri ofatidan qutulibdi va To‘g‘riboyga qirq qo‘y ajratib beribdi.

Shundan so‘ng To‘g‘riboy yilqichining oldiga boribdi. U bilan hol-ahvol so‘rashgandan keyin: «Shu kechasi ola ayg‘irni egarlab, qildan eshilgan kamar va uch gaz xodani menga tayyorlab bering!» – debdi.

To‘g‘riboy otni minib, yo‘lbars keladigan so‘q-moqni poylab turibdi. Birdan yo‘lbars o‘rmondan yugurib chiqib, o‘zini otlar orasiga uribdi. To‘g‘ri-

boy kamarni rostlab turib, yo‘lbarsning bo‘yniga solibdi. O‘rmonda yo‘lbarsni aylantirib yurib o‘lguday uribdi. Yo‘lbars holdan ketib yiqilibdi. Yilqibon To‘g‘riboyning xizmati uchun ola ayg‘irni beribdi. To‘g‘riboy ola ayg‘irni minib, shaharga yo‘l olibdi. Shaharga borsa, bozorda jarchi jar solib yurgan ekan. «Podshoning qizi yetti yildan buyon kasal, kimki uni sog‘aytirsa, podsho o‘shanga qizini beradi! Sog‘aytirolmasa, o‘ldiradi!»

To‘g‘riboy jarchining orqasidan podsho huzuriga boribdi va qizini tuzatishga izn so‘rabdi. Podsho To‘g‘riboyni qizining huzuriga boshlab kiribdi. To‘g‘riboy yonidagi yaproqni qizga ezib ichiribdi. Shu bilan qiz uch kun deganda sog‘ayib ketibdi. Podsho to‘y qilib qizini To‘g‘riboyga beribdi.

To‘ydan keyin podsho To‘g‘riboydan:

– Endi sizni qaysi shaharga hokim qilay? – deb so‘rabdi.

To‘g‘riboy shunday deb javob beribdi:

– Menga hokimlik kerak emas. O‘rmon etagida-
gi tog‘ ustiga bir uy solib bersangiz bas. Men o‘z
mehnatim bilan kun kechiraman.

Podsho uning aytganini qilib beribdi. To‘g‘ri-
boy malika bilan tog‘da yashay boshlabdi.

Kunlardan bir kun tush vaqtida o‘zining avval-
gi otini minib borayotgan Egriboyga ko‘zi tushib-
di. Uni chaqirib keltiribdi va yaxshilab ziyofat
qilibdi. Egriboy:

– Do‘stim, – debdi, – bunday baland joyga
qanday qilib imorat solding? Uyli-joyli bo‘lib-

san, bularni qayerdan topding? Birovga xiyonat qilgan kishining qorni nonga sira to'ymas ekan. Sening otingni olib qochib, qayerga borsam ishim chappasidan keladi. O'shandan beri bir marta ham qornim nonga to'yanini bilmayman.

To'g'riboy:

– Mana shu o'rmon ichida bir daraxt bor. Men o'sha daraxt kavagi ichida bir kecha yotib, bunarsalarga erishdim, – degan ekan, Egriboy:

– Sadag'ang bo'lay, menga ham ko'rsatib qo'y, men ham o'sha daraxt kavagida bir kecha yotib chiqay, – debdi.

To'g'riboy uni boshlab borib daraxtni ko'rsatibdi. Egriboy kavakka kirib yotibdi.

Egriboyning daraxt kavagida tunashi o'rmon hayvonlarining yig'iladigan kuniga to'g'ri kelib qolibdi. Arslon podsho:

– Mening hikoyachi do'stim tulki qayerda? – deb so'rabdi.

Qashqir o'rnidan turib shunday debdi:

– Hikoya qursin, o'tgan oyda bo'lgan suhbatning kasofati bilan siz tulki do'stingizdan, men tilla sichqonimdan ayrildik.

Buning ketidan ayiq o'rnidan turib:

– Qayrag'ochimizning yaproqlarini ham olib ketibdilar, – debdi.


Navbat bo'riga kelganda, podshoga qarab debdi:

– Men oziq-ovqatimdan ajradim, cho'pon men qo'rqqan itni sotib oldi, endi borsam, tilka-poramni chiqaradi. Bir marta kaltak zarbidan a'zoyi badanim shishib ketdi.

Arslon podsho qovog'ini solib turib buyuribdi:
– Kim chaqimchi bo'lsa, tutib o'ldiring!

Qashqir tustovuqdan ko'ribdi. Tustovuq: «Chaqimchi kavakda», deb uchib ketibdi. Hamma hayvonlar birdaniga kavak tomon yugurishib, uning ichida pisib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va «chaqimchining jazosi – shu!» deb, uni tilka-tilka qilib tashlashibdi.

Shunday qilib, To'g'riboy to'g'riliqidan maqsadiga yetibdi, Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi.





ZUMRAD VA QIMMAT

Bir zamonlarda katta bir soy bo'yida kichki-na bir uy bo'lgan ekan.

Bu uydagi chol va uning Zumrad degan qizi, o'gay ona hamda uning Qimmat degan arzanda qizi yashar ekanlar. Kampirning Zumradni ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. U hadeb qizni urib, qarg'ab ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.

Zumrad nihoyatda chiroyli, odobli, mulo-yim va aqli qiz ekan. Uni bir ko'rigan kishi yana ko'rsam deb orzu qilar ekan. Xullas, u juda ajoyib qiz ekan.

Qimmat esa ishyoqmas, injiq va dimog'dor qiz ekan. Uning butun kuni urish-janjal va to'polon bilan o'tar ekan.

Zumrad erta bilan barvaqt ko'zasini ko'tarib, soy yoqalab buloq boshiga borarkan, yo'lda uchragan gullar boshlarini egib, unga salom berarkan. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib unga hikoyalar aytib berarkan.

Ammo xuddi shu gullar kampirning arzandasini sevmas, uni erkalamas ekan, chunki bu qiz ularni yulib tashlar, xushbo'y gullarni hidsiz deb tepkilar ekan. Shuning uchun ham ular Qimmat kelayotgan bo'lsa, qovoqlarini solib, yumilib qolar kan. Kampir esa buni Zumraddan ko'rarkan.

Bularning hammasi o'gay onaning g'azabini keltirar ekan.

– Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor! Bo'lmasa sen bilan bir kun ham birga yashamayman! – debdi.

Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Oxiri kampir:

– Qizingni o'rmonga oborib adashtirib kel! U bilan birga turmayman, – debdi.

Cholqizini adashtirib kelish uchun tog'-toshlar ni kezib, bir o'rmonga boribdi. Ota-bola o'rmon ichida uzoq yurishibdi. Oxirida quyuq soyali bir joyga borib to'xtashibdi. Keyin chol qiziga o'tin kesgani ketayotganini aytibdi. Zumrad yolg'iz qolibdi.

Shu payt birdan kuchli shamol ko'tarilibdi. Chol esa o'rmondagi bir katta daraxtga boltsini osibdi-da, unga og'irroq tosh bog'lab, qattiq

itarib yuboribdi. Bolta u yoqdan-bu yoqqa urilib to'qillayveribdi.

Shamol kuchaygandan kuchayibdi. Bolta shamol kuchi bilan uzoq vaqt daraxtga urilib «to'q-to'q» qilib tovush chiqaraveribdi.

Zumrad «otam o'tin kesayapti» deb o'ylab, otasini anchagacha kutibdi. Kech bo'libdi, ota-sidan darak bo'lmabdi. Shamol to'xtabdi. Qiz o'rmondag'i chuchmomalar ni terib yurib, bexos-dan bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Qa-rasa, otasi yo'q emish.

– Voy, sho'rim qursin. Voy, otajon! – deb uvvos solib yig'lab, to'rt tomonga yuguribdi. Biroq ota-sini topolmay, yura-yura adashib qolibdi.

O'rmon unga yanada vahimali bo'lib ko'rinish-di. Qiz qayoqqa borishini bilmay oxiri kichik bir so'qmoqdan ketaveribdi.

Zumrad uzoq yo'l bosibdi. Qorong'ida gullar uning yo'lini yoritibdi. Ketaturib bir vaqt qarasa uzoqda miltillagan chiroq ko'rinish, itning hurishi eshitilibdi, u yerda bir kampir yashar ekan. Qiz se-vinib, kampirning oldiga kiribdi, boshidan kechir-gan voqealarni kampirga birma-bir aytib beribdi.

Uyiga shunday chiroyli qizchaning kelganini ko'rgan kampir juda quvonibdi. Bu o'rmonda ya-shaydigan sehrgar kampir ekan. Kampir qizning yig'laganini ko'rib:

– Ko'p xafa bo'lma, qizim, senga yordam bera-man, – deb qizni ovutibdi.

Qiz ham unga:

– Rahmat! Men sizni o'z onamdek ko'raman. Buyurgan ishingizni jonim bilan bajaraman, – deb javob beribdi.

Shu choq kampirning uyi tepasiga juda ko'p qushlar yig'ilibdi, ular qizchani maqtab, sayrashibdi. Qushlar tilini bilgan sehrgar kampir yana ham quvonibdi, xosiyatli qizga dunyoda topilmaydigan rasmli kitob va qo'g'irchoqlar berib:

– Oppoq qizim, shirin qizim! Do'm bog'im, mun-chog'im! – deb qizning boshini silab erkalabdi.

Ular shu zaylda birga yashashibdi. Kampir qizchani yaxshilab parvarish qilibdi.

Zumrad ozoda qiz bo'lgani uchun uyni supurib-sidirib, oynalarni artib-surtib, hamma yoqni chinniday qilib qo'yari ekan. Buni ko'rib kampir yana ham quvonar ekan.

Bir kun kampir qizga osh qilib bermoqchi bo'lib:

– Tomdan o'tin olib tush, qizim, – debdi.

Qiz o'rnidan turib:

– Xo'p bo'ladi, onajon, – debdi-da, darrov tingga chiqibdi.

Tom baland ekan, undan hamma yoq ko'rinar ekan.

Qiz atrofga qarab turib, birdan o'z uyining tomini ko'rib qolibdi. Yuragi orziqib yig'lab yuboribdi. Buni eshitgan kampir:

– Nega yig'layapsan, jon qizim? – deb so'rabdi.

Qiz:

– Ko'zimga uyimiz ko'rindi, otamni sog'indim,
– deb yana yig'labdi.

Kampir uni aldab-suldar yupatibdi, ikkoslari ovqat pishirib yeishibdi.

Erta bilan qizga kampir:

– Narsalarin ni yig'ishtir, qizim! – debdi.

Qiz qo'g'irchoqlarini yig'ishtiribdi. Kampir qizga:

– Yerto'lada qizil va oq sandiq bor, oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib chiq! – debdi-yu, o'rmonga kirib ketibdi. Bir vaqt dan keyin o'rmon dan saman ot qo'shilgan bir arava yetak-lab chiqib, qizni aravaga o'tqizibdi.

– Sandiqni uyga borgandan keyin och! – deb qizga bir kalit beribdi.

Qiz kampir bilan qayta-qayta xayrlashib yo'lda tushibdi. Bir zumda arava qizning uyi oldida hozir bo'libdi. Shu paytda uy eshigi oldida chol o'z qizini sog'inib, uning dardida yig'lab o'tirgan ekan. Qiz otasini ko'rishi bilan:

– Salom, otajon! – deb otasining bag'riga otilibdi.

Chol benihoya xursand bo'lganidan anchaga-cha ko'z yoshlarini to'xtat olmabdi. Oxiri yig'idan to'xtab, qizga:

– Oppog'im, meni kechir, – debdi.

Ular uyga kirishibdi. Qizning kelgani ham-maga ma'lum bo'libdi. Qo'ni-qo'shnilar yig'i-lishibdi. Qip-qizil sandiqni ochishi bilan hamma hayron qolibdi: qizil sandiq asil mollar bilan liq to'la ekan.

Bu narsa o'gay onani tashvishga solibdi.

U cholga qizi Qimmatni ham tezda o'rmonga olib borib adashtirib kelishni buyuribdi. Chol «xo'p» deb, Qimmatni darrov o'rmonga olib borib-di-da, adashtirib kelibdi.

Kech kirganda, Qimmat, xuddi Zumradga o'xshab, bolta osilgan daraxt tagiga borib qo-

libdi. Adashganini sezibdi. Ho'ng-ho'ng yig'lasa ham, lekin uni ovutadigan odam topilmabdi.

Faqat uning ro'parasida boyqushlar o'tirib olib, qorong'i, vahimali o'rmonlar haqida sayrarmish.

Bu ovozlar Qimmatni vahimaga solibdi. U qo'rqib o'rmondan qocha boshlabdi. Qorong'i tushgan paytda sehrgar kampirning uyiga kirib boribdi. Kampir uni yaxshi kutib olibdi, ovutibdi, mehmon qilibdi. So'ngra qizga qarab:

- Xafa bo'lma, qizim, o'zim yordam beraman,
- debdi.

Ammo Qimmat kampirni xursand qiladigan gaplar topib aytolmabdi, chunki onasi unga yaxshi gaplar o'rgatmagan ekan. Kampir uni sevmabdi, yaxshi ertaklar ham aytib bermabdi, dunyoda topilmaydigan suratli kitoblar va qo'g'irchoqlar ham bermabdi.

Qimmat ertadan kechgacha yalqovlanib o'tiraverar ekan. Uyni yig'ishtirib, supurmas ham ekan.

Bir kun kampir o'rmondan qaytib kelib, unga:

- Tomdan o'tin olib tush, qizim! – degan ekan, qiz:
- O'zingiz olib tushing, men sizga xizmatkor emasman! – debdi.

Kampir judayam xafa bo'libdi, shunga qaramay qizni aldab-suldab tomga chiqaribdi. Lekin qiz o'tin olib tushish o'rniga tom boshida chin-qirib yig'layveribdi. Kampir buni eshitib:

- Nega yig'layapsan, qizim? – deb so'ragan ekan, Qimmat yer tepinib:

- Uyimni ko'rdim, ketaman, – deb yana ho'ngrabdi.

So'ngra kampir qizga:

– Juda yaxshi, pastga tush, yerto'lada oq sandiq bor, o'shani olib chiq, – debdi.

Qimmat sandiqni olib chiqibdi. Keyin kampir qizga bir kalit bera turib:

– Mana kalit, sandiqni uyingga borganingda ochasan, – debdi.

Qiz o'sha onda yig“isini ham unutib, oq sandiqni orqalab jo'nabdi. Sehrgar kampir unga arava ham bermabdi, qiz og‘ir sandiqni ko'targanicha uyiga piyoda ketibdi.

Qizning kelayotganini dastavval olapar it sezibdi. U Qimmatning onasi oldiga borib:

– Vov, vov, vov, – degan ekan, kampir quloq solmabdi, it yana vovullab:

– Opam kelayotirlar, orqalaganlari oq sandiq, ilon bilan liq to'liq, – debdi.

Kampir g'azablanib, o'qlog'i bilan itni urib, oyog‘ini sindiribdi.

– Mening aqli qizim qimmatbaho mollar keltiradi, – debdi u.

Qizning kelganini ko'rib kampir o'zida yo'q sevinibdi. Qo'ni-qo'shnilar yig'ilibdi, so'ng sandiqni ochmoqchi bo'lishibdi.

Shunda kampir bilan qizi ikkisi: «Yo'q, ochmanglar!» deb o'zlarini sandiq ustiga tashlabdilar. Keyin uni ko'tarib uyga olib kiribdilar.

Yarim kecha payti ekan, kampir bilan qiz eshik-teshikni yopib, sandiqni ochishibdi-yu, birdaniga «dod-voy, qutqaringlar!», «dod-voy!» deb baqirishibdi.

Sandiqda kattakon ikkita ajdar yotgan ekan. Qoqvosh kampir bilan uning urishqoq qizi dod-

lashib, uyni gir-gir aylanishibdi, qo‘rqqanlaridan qulflangan eshikni ochishholmabdi.

Ikki ajdar kampir bilan qizni yutib, darchadan chiqib ketibdi.

«Dod-voy!» degan ovozni eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar eshikni buzib ichkari kiribdilar. Qarasalar, hech kim yo‘q emish. Uyda yovuz kampirni ham, uning urishqoq qizini ham topolmabdilar.

Shundan so‘ng oq ko‘ngil Zumrad bilan ota-si ikkisi tinchgina yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar.





MALIKAYI HUSNOBOD

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. Uning bir qizi bor ekan. Qizning oti Malikayi Husnobod ekan. Bu qizning jamoliga o'n to'rt kechalik oy xira bo'lar ekan. Ko'p joylardan sovchi kelibdi, ammo otasi bermabdi.

Kunlardan bir kuni podsho taxtida o'tirgan ekan, o'rdadagi daraxtga bir qarg'a kelib qo'nibdi. Qarg'a «qag'-qag» debdi. Podshoning to'rt yuz ulamosi bor ekan. Podsho ularni chaqirtiribdi:

- Ey, ulamolar, qarg'a nima deyapti? - deb so'rabdi.
- Qarg'aning nima deyotganini biz bilmaymiz,
- debdi ulamolardan biri, - chunki u - qarg'a,

biz – odamzotmiz. Qarg‘a o‘z vaqtini chog‘ qilmoq uchun qag‘illayotgandir-da.

Zolim podsho g‘azablanib, jallodni chaqiribdi.

– Kimning ajali yetdi, oftob shu’lasini yerga yetkazmay bosh kesamiz, – deb qilichlarini yalang‘ochlab turibdi jallod.

Podsho ularga qarab: «Olib chiq, bu to‘rt yuz kishining boshini kes!» debdi.

Malika bu so‘zni eshitib, darhol otasi huzuriga boribdi:

– E, ota, sizga nima bo‘ldi, nima savol so‘radningiz? To‘rt yuz kishini bekorga o‘ldirasizmi? Savolningizga javob bersam, bularni o‘limdan ozod qilasizmi? – debdi.

Malikaning onasi bir kambag‘alning qizi ekan. Shuning uchun podsho uni doim xo‘rlar ekan. Podsho doim xotiniga: «Men podshoman, davlatim soyasida yaxshi kun kechirasan, agarda bir kambag‘alga tekkaningda, xor-zor bo‘lib, kun ko‘rarding!» deb pesh qilar ekan.

Qiz esa har gal: «E, ona, meni bir kambag‘al, mehnatkashga bering, agar toleyim bo‘lsa, uni podsho qilib, otamning taxtiga o‘tzazay», – der ekan.

Podsho qiziga:

– Agar savolimga javob bersang, to‘rt yuz kishining gunohidan o‘tdim, – debdi.

Qiz:

– Qarg‘aning «qag‘» degani – erni bor qiladigan ham xotin, yo‘q qiladigan ham xotin, deganidir, – deb javob beribdi.

Podsho g‘azablanibdi:

– E, sochi uzun, aqli kalta, bo'lмаган gapni aytma, men seni zindonda yetti yil saqlab, keyin teringga somon tiqayin, toki bu ish boshqa qizlarga ibrat bo'lsin, bundan keyin hech kim otasiga qarshi chiqmasin! – deb qizini zindonga solibdi.

Podsho bir haftagacha uydan chiqmay darg'azab bo'lib, «Qizni zindonda ochdan o'diraymi, osaymi, nima qilsam, bu ishni xalq bilmas ekan?» deb o'yabdi.

Podshoning bir vaziri bu ishlardan xabardor ekan. Qizga rahmi kelib, kechasi uni zindondan qutqarib olibdi.

Uyiga olib kelib bir duradgorga mustahkam sandiq yasattiribdi. So'ngra qizga qarab:

– E, qizim, otangning niyati buzildi, senga qirq kunlik ovqat tayyorladim, sandiqqa tush, uning qopqog'ini mahkam berkitib, daryoga tashlayman, baxting bo'lsa, qutulib ketarsan, podsho qilichidan o'lganingdan ko'ra sahroda cho'pon bo'lib yurganing yaxshi, – debdi.

Qiz «xo'p» deb sandiqqa tushibdi. Vazir sandiqni ko'tarib, daryo labiga kelibdi va uni suvga oqizib yuboribdi. Sandiq suvda bir necha kun oqibdi. Qiz bir kunlik ovqatini to'rt kunga yetkazibdi.

Boshqa bir yurtda bir kambag'al kishi bor ekan. Sahrodan o'tin keltirib sotib bola-chaqasini boqar ekan. Bir kun qo'liga o'roq olib, beliga arqon bog'lab dalaga boribdi, chanqovni bosish uchun daryo labiga suv ichgani borgan ekan, shu paytda daryo o'rtasida kelayotgan

bir sandiqni ko'ribdi. Chol ust-boshini yechib o'zini daryoga tashlabdi, sandiqni tortib chiqaribdi. Uni qayerdan ochishni bilmabdi. Ni-hoyat, urinib-urinib o'roq uchi bilan sandiqni ochibdi. Qarasa, husnda tengi yo'q bir qiz yotgan emish.

Chol:

– Hoy qiz, o'likmisan, tirikmisan? – deb so'rabi. Qiz: «Tirikman», deb ko'zini ochibdi. Qizning tirnoqlari o'sgan, sochlari paxmaygan emish. Chol ko'rib:

– E, qiz, seni tag'in daryoga tashlayman, – debdi. Qiz yalinibdi:

– E, ota, meni sandiqdan chiqarib olsangiz, men sizni ko'p davlatmand qilardim.

Chol qulq solmay, sandiqni berkitib: «Buni shaharga olib borib sotaman, bunda nima bor-yo'qligini hech kim bilmaydi», deb bozorga olib borgan ekan, ko'chadan o'tib ketayotgan podshoning ko'zi chol bilan sandiqqa tushibdi. «E, chol, o'zing o'tinchiga o'xshaysan, lekin birovning uyini o'g'irlab, sandig'ini olib kelibsan!» – deb sandiqni choldan olib qo'yib, saroyga keltiribdi.

Podsho xizmatkorlariga «Sandiq ochilsin!» debdi, sandiqni ochib qarasalar bir qiz yotgan emish. Podsho uni ko'rib, oshiq-u beqaror bo'libdi va qizni sandiqdan olib: «Menga turmushga chiq» debdi. «Qiz: «Podshohim, menga qirq kun muhlat bering! To'rt oydan beri ko'p azob chekdim, endi qizlar bilan birga yurib besh-o'n kun o'ynab, dimog'imni biroz chog' qilay», – debdi. Podsho qabul qilmabdi. Hozir «Xo'p» demasang, boshingni

tanangdan judo qilaman!» debdi. Qiz yig'labdi: «Bo'lmasa uch kunga javob bering, qizlar bilan bog'da sayr etib o'ynab olay, keyin sizning ayt-ganining bo'lsin», debdi. Podsho faqat bir kunga javob beribdi.

Qiz qirq qiz bilan podshoning bog'iga kiribdi. Bog'ning orqasi daryo ekan, qizning ko'zi daryoga tushibdi. «Yuringlar, qizlar daryoga tushib cho'milib chiqamiz», deb daryo tomonga yo'l boshlabdi.

«Men bir kambag'alga tegib, uni podsho qilib, zolim otamning tepasiga lashkar tortib borib, uning taxtini ko'kka sovuraman, deb ahd qilgan edim. Agar bu podshoga tegsam, maqsadim hosil bo'lmaydi» deb o'ylabdi o'zicha va qizlardan oldinroq borib, daryoga sho'ng'ibdi. Bir katta baliq daryoda yotgan ekan, qizni yutibdi-yu suv tagiga ketibdi, qirq kaniz daryo labida chapak chalib qolaveribdi.

Qizlar borib bu voqeani podshoga aytibdilar. Podsho oh tortib, boshidagi tojini, belidagi tilla kamarini yerga urib, o'zi bir qalandar suratiga kirib, cho'l-biyobonga chiqib ketibdi.

Endi ikki og'iz so'zni Jurjon shahridan eshiting.

Bir podachining o'g'li daryo bo'yida mol boqib yurar ekan. Bir to'da baliqchi daryoga to'r solibdi. Podachi bola baliqchilarga yig'lab, bunday debdi:

– Uch kundan beri otam och, kasal. Ovqat topib kelgani shaharga borolmaydi. Men borsam, «podangni boq», deb hech kim ko'chada yurg'izmaydi. Menga biror narsa beringlar.

Haligi baliqchilar:

– Mana shu solgan to'rimizga nima ilinsa seniki, – deyishib to'rni suvdan ko'tarishibdi. Qarasalar, bir katta baliq ilinibdi. «Ol, bola», debdilar. Podachi bola baliqni to'rtta ho'kizning beliga bog'lab, sudratib uyiga olib boribdi, otasi suyunib, baliqni yorgan ekan, ichidan bir qiz chiqibdi. Chol suyunib, qizning nafasiga qulqolsa, qiz tirik ekan. Chol darrov qizning og'ziga suv tomizibdi. Birozdan keyin qiz ko'zini ochibdi, o'rnidan turib, cholga salom beribdi:

– Ota, qornim och, menga ozgina ovqat bering,
– debdi.

Chol bilan o'g'li qizga haligi baliqdan pishirib berishibdi. So'ngra qiz so'rabdi:

– Ota, sizning kasbingiz nima, o'g'lingizning kasbi nima?

– Men podachi edim. Endi qarib qoldim. O'g'lim podachilik qiladi.

Qiz suyunib:

– Men endi murodimga yetdim. Sizga qiz bo'laman. Xohlasangiz meni o'g'lingizga olib bering, – debdi.

– E, bolam, to'y qilishga bizda hech nima yo'q.

– Men o'zim xohlasam, to'y xarji uchun hech narsaning keragi yo'q.

Chol xursand bo'lib, qizni o'g'liga olib beribdi. Yangi kelin uy-ro'zg'orni butlashga kirishibdi. Uning ozodaligi va chaqqonligini ko'rgan chol juda xursand bo'libdi va keliniga:

– Bolam, sening g'ayratingni ko'rib, mening ham g'ayratim keldi. Xizmat bo'lsa, menga ham buyursang, – debdi.

Kelin o'ng qulog'idagi bitta baldoqni cholga berib:

– Buni bozorga olib boring, xaridor nima ber-sa, olib keling, – debdi.

Chol baldoqni olib, karvonsaroyga borib o'tiribdi. Bir savdogar baldoqqa xaridor bo'lib:

– Ota, necha pul bu? – deb so'rabdi.

– O'zingiz insof qilib bir nima bering, – debdi chol. Savdogar bir qutini oltinga to'lg'izib beribdi.

– Ota, bo'ladi mi yo ozmi? – debdi.

– Insوف qiling, deb edim, gapim tamom, – debdi. Savdogar yana bir bo'z xaltada oltin chiqarib beribdi. – Yuklab keting, – deb bir xachir beribdi. Cholning achchig'i kelib: «Bu meni masxara qilayapti, bir olib qochayki, savdogar meni hech topolmasin», deb o'ylabdi. Oltinlarni xachirga yuklab jo'nabdi. Savdogar o'z ko'nglida: «Agar shundan tag'in bitta topganimda, shahrimning podshosiga yetti iqlimning boji-xiroji uchun sotardim», debdi, chunki baldoq gavhar ekan.

Chol uyiga kelib, oltinlarni keliniga beribdi.

Keyingi haftada kelin chap qulog'idagi bal-dog'ini ham chiqarib beribdi. Chol yana avvalgi joyga borib o'tiribdi. Yana shu savdogar kelib qarasa chol o'tirgan emish.

– Necha pul, ota? – deb so'rabdi savdogar.

– Senga sotmayman, – debdi chol. – Sen meni hazil-mazax qilayapsan.

Savdogar:

– Yuring hujraga, – deb cholni saroyga boshlab kiribdi. Cholga ikki sandiq tilla beribdi, shohi to'n kiygizibdi, ikki xachir beribdi.

– Ota, turar joyingiz qayerda? – deb so'rabdi. Chol «joyimni aytsam, oltinlarni tortib oladi», deb o'ylab:

– Mening joyim yo'q, – debdi va aytmabdi. Chol uyiga kelibdi. Kelin pullarni olib, uyga qo'yibdi. Tashqariga chiqib dashtni taxmin qilibdi, kengligi o'n kunlik yo'l kelar ekan.

Kelin cholga qarab:

– Paxsa devor uradigan yigirmata yigit toping, ota, – debdi.

Chol topib kelibdi. Kelin yigitlarga:

– Bola-chaqangizni ham olib keling, – debdi.

Ular olib kelibdilar. Har kun ularga osh, non, pul, yaxshi kiyim-bosh berib turibdi. Buni eshitib, ikki yuzta yigit o'sha yerda jam bo'libdi. Ular devor urishni boshlabdilar. Bu yigitlarni ko'rgan odamlar: «Bu ishni kim qilayapti?» deyishsa, «Podachi qilayapti, sizlarga ham ish kerak bo'lsa, kelaveringlar», deb javob berar ekanlar.

O'n besh kunda o'n besh ming uylik odam to'planibdi. Uch oy deganda devor bitibdi. O'n ikki joyga darvoza qurilibdi. Kelin har darvozaga xat yozdirib, suratini yopishtiribdi.

Xatning mazmuni quyidagicha ekan:

«Bu yurtning nomi Husnobod. Har kimga oshlik, nonlik kerak bo'lsa, kelib xizmat qilsin».

Bir yil ichida yetmis besh ming uylik odam jam bo'libdi. Hammasiga qo'sha-qo'sha uylar solib berilibdi. Bir qancha odam yarog'-asla ha tayyorlabdi. Malika har darvozaga yigirma beshtadan odam qo'yib: «Kimki darvozaga kelib

suratga yomon tikilsa, uni menga keltiringlar» deb hukm qilibdi. Bu shaharning xabari Jurjon shahri podshosiga yetibdi.

Podshoning achchig'i kelib: «Mening zamonimda kim menin shahrimga kelib, podsholik da'vo qiladi. Borib tig'dan o'tkazay!» deb darvozaga yetib kelibdi va darvozada turgan soqchilarni ko'ribdi.

– Bu shaharni kim bino qildi? – deb so'rabdi podsho.

– Shu darvozadagi suratning egasi, – deyishibdi soqchilar. – Sizga yaxshi xizmat qilsak, o'zimizgagina ovqat berar edingiz, bola-chaqamiz och qolaverardi, shu sababli bola-chaqalarimiz ko'cha-ko'yarda sarson bo'lib, tilanchilik qilishib yurardi. Bu malika esa bola-chaqamizni yaxshi parvarish qildi. Bizdan bir non tama qilmasdan bolalarimizni yaxshi joylarda tarbiya qilib o'qitdi. Ko'p bolalar bir ishning egasi bo'ldilar...

Podsho suratni ko'rib, oshiq bo'lib, qizni o'ziga xotinlikka olmoqchi bo'libdi. Shaharga kirib, malikaning o'r dasiga boribdi.

– Jurjon podshosi keldi. Sizni o'ziga xotinlikka tilaydi, – deb malikaga xabar yetkazibdilar. Bu gapdan malikaning jahli chiqib, podshoni chaqirtiribdi.

Malika:

– E, podsho, nechta xotining bor? – deb so'rabdi.
– Qirqta.

– E, ahmoq podsho, qirq xotin ustiga meni ham olmoqchimisan? Sen bu ishni ixtiyor qilma!

Podsho bu so'zdan g'azablanib:

– Sen kabi ahmoq qizning qo'lidan nima ish kelardi?! Meni xalq ichida sharmanda qilding! – deb yonidan qilichini sug'urgan ekan, qiz o'zini taxt orqasiga olibdi. Qizning xizmatkorlari kelib podshoni ushlabdilar. Oyoq-qo'liga kishan urib, zindonga solibdilar. Shunday qilib, xaloyiq zolim podshodan qutulibdi.

Oradan bir necha kun o'tibdi, bir qalandar darvoza oldiga kelib suratga tikilib, yig'layveribdi. Soqchilar uni malikaning oldiga olib kelibdilar. Malika qarasa, bir kun muhlat bergen podsho ekan. Shunda malika so'rabdi:

– E, qalandar! Nimaga yig'laysan?

– Bir qoshiq qonimdan o'tsangiz, aytaman.

– O'tdim, ayt!

– Mening bir mahbubam bor edi. Oti Husnobod edi. Sizning darvozangizda o'shaning suratini ko'rdim. Darvozada ham «Husnobod» deb yozilgan. Sizni ko'rsam, kimligingizni bilardim.

– Agarda o'sha qiz tirik bo'lsa-chi?

– «Daryoga tushib yo'q bo'lgan» deb eshitdim, agar biron hiyla bilan qochgan bo'lsa, qo'limga tushdi deguncha etini bir burdadan qilardim!

– Malika senga hech qanday gunoh ish qilgani yo'q, hali ham bu shaxtingdan qayt, – debdi qiz.

Qalandar «Mening xotinim shumikan?» deb gumon qilibdi. Ichidan qilichini sug'urib malika ga o'qtalibdi va: «Yuzingni och, ko'raman!» debdi. Malika taxt orqasiga yashirinibdi va: «Ushla, bu qonxo'rni!» deb buyuribdi. Xizmatkorlar buni ham ushlab zindonga solibdilar. Malika xotirjam bo'lib, vazirga buyuribdi:

– Lashkarlarimizning hisobini ol-chi, qancha ekan!

Vazir lashkar hisobini olib chiqibdi. Otliq, pi-yoda lashkar yig'ilibdi, qirq kun yo'l jabdug'ini tayyorlab, eri va lashkari bilan ota shahriga jo'nabdi. Dasht-u biyobonlarni, cho'l-u sahrolarni keza-keza, oxiri malikaning ota shahriga ya-qinlashibdi...

Endigi gapni qizning otasidan eshititing.

Qizning otasi kechasi tush ko'ribdi. Qarasa, osmondan bir burgut kelib podshoni ko'tarib uchibdi, olib ketaturib: «Menga qulluq qilasanmi yo boshingni uzib tashlaymi?» – debdi.

Podsho: «Yurtimni va xazinalarimning hammasini senga beray, lekin meni omon qoldir», – debdi. Shunda qush: «Menga dunyo kerak emas, sen zolimdan Husnobodning qonini talab qilaman», deb turganda podsho cho'chib uyg'onibdi. Qarasa, yon-atrofida hech kim yo'q, qorong'ida bir o'zi yotgan ekan. Erta bilan qirq to'rt vazirini va to'rt yuz akobirini cha-qirtiribdi. Ular yig'ilishib kelibdilar, podsho ularni o'tirishga ishorat qilibdi. Hammalari qo'l qovushtirib o'tiribdilar. Podsho o'ziga qarashli odamlarni yig'ib, kechasi ko'rgan tushini bir-ma-bir aytib beribdi, ta'birini so'rabdi. Ammo o'tirganlarning birontasi ham churq etmabdi. Shunda podsho g'azablanib, ikki qo'lini musht qilib debdi:

– Kimki tushimning ta'birini aytmasa, shu o'tirgan odamlarning bittasini ham tirik qo'y mayman.

– E, shahanshoh, – debdi katta vazir ta'zim bilan, – bir qoshiq qonimdan kechsangiz, tushin-gizning ta'birini aytay.

– Ayt, kechdim!

– Boshingizdan ko'targan qush dushman bo'lsa kerak, – debdi vazir. – Dushman yurtimizni vayron qilay, deb turgan bir vaqtida qizingiz ke-lib ajratib olsa-yu, podsholik boshqa odamning qo'liga o'tsa.

Podsho yana g'azablanibdi va:

– E, yolg'onchi, qizimning suyaklari zindonda chirib ketganiga necha yil, necha zamonlar bo'ldi, sen qo'rqqaniningdan shu gapni aytib, yuragimni g'ash qilmoqchimisan, seni ham zindonga solay, qizim yonida sening ham suyaklaring chirisin! – deb, vazirini zindonga solibdi.

Shundan so'ng podsho kechalari qo'rqb uxlol-may, o'q yegan qushday har tarafga yugurib oppoq tong ottirib chiqadigan bo'lib qolibdi. Bir haftadan keyin bir xabarchi kelib, podshoga debdi:

– Jurjon shahrining podshosi ustingga lashkar tortib keldi, tez chiqib toj-taxtingni bersang ber-ganing, bo'lmasa, o'zing bil! – deb Yugura kelib, podshoning halqumiga bir musht uribdi. Podsho o'zini o'nglab olguncha u odam qochib ketibdi.

Podsho buni ko'rib:

– Bitta xabarchisi shunday bo'lsa, yarog' taqqan lashkarlari qanday ekan, – deb xayol su-rib qolibdi va vazirlardan maslahat so'rabdi.

Vazirlar:

– Bizdan maslahat chiqmaydi. Yaxshi desak ham o'dirasan, yomon desak ham o'dirasan.

Zindondagi vazirni olib chiqib in'om dasturxon qilib dushman oldiga chiqar, xoh o'lib ketsin, xoh tirik kelsin, – deb javob beribdilar.

Podshoga bu so'z ma'qul bo'lib, vazirni zindondan chiqaribdi. Unga bir qancha pul, mol berib bunday debdi:

– Jurjon podshosiga borib, mening salomimni yetkazasan. Mabodo shahar kerak bo'lsa, «xo'p» de, negaki kecha yegan mushtimning og'rig'i hali ketgani yo'q, bordi-yu qon kerak bo'lsa, u holda shahardan chiqib ketaman, chunki ikkinchi mushtga asti tobim yo'q.

Vazir kulib:

– Tushining ta'birini aytsam qilgan ach-chig'ing boshqacha edi, bitta qizga nima ish qilding? Axir, boshingga shu ishlarni o'zing orttirding. U podsho kelib seni zindonga solar, zindondan olib otning tuyog'ida seni xor-zorlik bilan o'ldirar, – debdi.

Podsho loyga botgan kattakon boshini quyi solib turibdi.

Vazir tortiqlarni olib, shahardan jo'nab ketib, qo'shin oldiga boribdi, so'ngra o'z nomi-nasabini yozib xat qilibdi: «Qon kerak bo'lsa, butun shahar odamlari uchun men jonimni beraman, yo'q desalar nohaq qon to'kilmasin, podsholik taxtini beraman» deb qo'l qo'yib, elchi orqali xatni jo'natibdi. Xat malikaga borib tegibdi. U xatni o'qib, vazirni bilib, uni chaqirtiribdi:

– Ichkariga kirsin, – deb ijozat beribdi.

Vazir qarasa, taxtda bir podsho o'tiribdi, boshi-da toj, belida kamar, qirqta mahram bel bog'lab, xizmat uchun turibdi. Vazir unga ta'zim qilibdi.

Podsho yonida yuziga niqob tutgan bir odam o'tiribdi. Bu odam vazirga qarab:

– E, vazir, bizning makonimizga qo'rmasdan bir o'zing kelibsiz, o'dirsam nima deysan? – debdi.

Vazir debdi:

– Kishi o'z farzandidan ham qo'rqadimi? Farzand har qancha g'azab qilsa ham, otalik hurmatini saqlaydi. Jigarpora qizimni tushimda ko'rganimga bugun yetti kun bo'ldi. Tushimda meni ko'p hurmat qildi, shoyadki tushim o'ng kelsa.

Bu so'zlarni eshitishi bilanoq malikayi Husnobod yuzidan niqobini olib, vazir bilan ko'rishibdi va bunday debdi:

– E, mehribon ota, siz orqali murodimga yetdim. Otamning yurtini sizga bersam, fuqaroga, beva-bechoralarga zulm qilmasdan podsholik qilsangiz.

Vazir darhol o'rnidan turib, qulluq qilib:

– Ey, bolam, men qarib qoldim, podsholik hukmini menga bergen bo'sang, ro'paramda o'tirgan toj-u taxt egasi podshoga tutdim. Lozim ko'rsang, qolgan umrimni sening qoshingda o'tkazsam, – debdi.

Malikayi Husnobod lashkar bilan shaharga kiribdi. Eri bilan bu yurtni ham idora qilib, zindonda begunoh yotganlarni ozod qilibdi. Ulardan bir qanchasini shaharlarga hokim qilib tayinlabdi.

Shunday qilib, Husnobod «Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin» ekanligini ota-siga isbotlab beribdi. O'zining qallig'i podachi yigit bilan umr kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.



HIYLAGAR BEDANA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir zag'izg'on bo'lgan ekan. U bir tup do'lananing tepe-siga in qo'yibdi va beshta polapon ochibdi. Polaponlarini endi uchirma qilishga yaqinlashgan kunlarda undan bir och tulki xabardor bo'lib qolibdi. Tulki zag'izg'onga do'q qilib, bolalarini yeish payiga tushibdi. U do'lananing tagiga kelib:

– Ey, zag'izg'on, bitta polaponingni tashlasang tashlaganing, tashlamasang do'lana Angni tagidan ag'daraman, qizil qoningni shimiraman, etingni yeb, suyagingni kemiraman, bolalaring bilan bitta qo'y may hammangni qiraman, – deb qo'rqa ta boshlabdi.

Bechora zag'izg'on qo'rqi b ketganidan bitta bolasini yig'lab-yig'lab tashlab yuboribdi. Tulki uni olib jo'nab ketibdi. Ertasiga tulki ovqat

topib yeyolmay yana do'lananing tagiga kelib, zag'izg'onga kechagidek do'q qila boshlabdi:

*Do'lanañni to'miraman¹,
Qonlaringni shimiraman.
Suyagingni kemiraman,
Bitta qo'y may qiraman.*

– Yana bitta bolangni tashla, yaxshilikcha tashlamasang, o'zing bilasan, – debdi. Zag'izg'on boshqa bolalarim omon qolar-ku, degan niyat bilan jonidan aziz bo'lgan bolasining ikkinchisini ham qurban qilibdi.

Tulki zag'izg'onning ikkinchi bolasini ko'tarib, jo'nab qolibdi. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, deganlaridek tulki to'rt kun deganda zag'izg'onning to'rtta bolasini yeb qo'yibdi. Beshinchchi kuni zag'izg'on bittagina bolasi bilan qolib yig'lab o'tirgan ekan, uning oldiga birdan bir bedana uchib kelibdi. Yig'lab o'tirgan zag'izg'onga ko'zi tushib, bedana uning holini so'rabdi. Zag'izg'on o'z ahvolini so'zlab beribdi. Dono bedana zag'izg'onning nodon va qo'rqoqligiga ko'p achinibdi. Keyin unga shunday deb o'rgatibdi.

– Ey, zag'izg'on, tulki yana sening oldinga kelib:

*Do'lanañni to'miraman,
Qonlaringni shimiraman...*

deb do'q qilsa, sen «To'mirsang to'miraver, shimiraver», deb turaver. Qolgan bolangni tashlama, – debdi.

¹ To'miraman – ag'daraman.

Bedana ketgandan so'ng tulki kelib qolibdi. Tulki kundagi do'qini qilib, zag'izg'onni qo'rqtimoqchi bo'lgan ekan, zag'izg'on:

– Do'lanani to'mirsang to'miraver, kemirsang kemiraver, endi sendan qo'rqlayman, – debdi.

Shunda tulki:

– E, zag'izg'on, bu so'zlarni senga kim o'rgatdi? – debdi.

Zag'izg'on:

– Bu so'zlarni menga bedana o'rgatdi, – debdi.

Tulki:

– Bedana qayoqqa ketdi? – deb so'rabdi.

Zag'izg'on bedana ketgan tomonni tulkiga ko'rsatibdi.

Endi tulki bedananing orqasidan izlab ketibdi. Bedana bir o'tloqqa borib uqlab yotgan ekan. Tulki uning izidan borib, topib, ustalik bilan bedanani tutib olibdi.

Bedana:

– E, tulki, meni nima qilmoqchisan? – degan ekan, tulki:

– Sen zag'izg'onga gap o'rgatganing uchun u bolasini tashlamadi. Endi seni yemoqchiman, – debdi.

Bedana tulkiga aytibdi:

– Meni yeganing bilan hech baraka topmaysan, qorning ham to'ymaydi, mening bir barmoqchalik ham etim yo'q. Sen meni yemasang, seni yaxshilab to'ydiraman.

Tulki:

– Qanday qilib meni to'ydirasan? – deb so'rabdi.

Bedana javob beribdi:

– Katta yo'lga chiqib turamiz, sen bir to'da xashakning ichiga kirib berkinib turasan, xotinlar dasturxonlarda turli narsalarni tugib o'tadilar. Men ularning oldiga tushib, hurpayib tura-man. Xotinlar meni ko'rib: «Mana bu bedanani ko'ringlar», deydilar. Shunda men ucholmagan-day, yo'rg'alab qolaman. Xotinlar dasturxonini qo'yib, meni ushiamoqchi bo'ladilar. Men sekin-sekin yo'rg'alab, sekin-sekin uchib, ularni uzoq-roqdagi bir tepaning orqasiga olib ketaman. Sen shu vaqt xashak orasidan chiqib, dasturxonlarni ochasan, eng yaxshi narsalarni olib qocha-verasan.

Bu tadbirini eshitgan tulki shodlanibdi. Tulki bilan bedana katta yo'lning bir chetiga chiqib turibdilar. Tulki xashak orasiga kirib yashirinibdi. Shunda uzoqdan uch-to'rtta xotin katta-katta dasturxonlarni ko'tarib kelaveribdi. Xotinlardan bittasi:

– E, anavi bedanani qaranglar, – debdi.

Boshqa bir xotin:

– Mening bolamning bedanasi uchib ketgan edi. U har kuni bedana deb xarxasha qiladi. Kelinglar, hammamiz o'rab tutib olamiz. Bu bedana ucholmaydiganga o'xshaydi, – debdi.

Xotinlar tugunlarini yerga qo'yib, bedanani ushslash uchun quvlabdilar. Bedana avval yo'rg'alabdi, keyin kalta-kalta uchibdi, oxiri xotinlarni qiziqtirib, tepaning orqasiga olib o'tibdi. Xotinlar «Bu bedananing qanotlari yulingan bo'lsa kerak, zo'rg'a uchyapti», deb o'ylab turgan ekanlar, bedana birdan «pirr» etib uchib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Xotinlar dasturxonga bir talay non va go'shtlarni solib to'yga ketayotgan ekanlar. Tulki dasturxonlar xoli qolganini ko'rib, darrov ularni olibdi, non va go'shtlardan olib bir chetga qarab qochibdi va ularni to'yib yeb olibdi. U yana bedanani qidirib topibdi. Shunda tulki:

– E, bedana, meni ko'p to'ydirib yubording, ovqatni hazm qilishim qiyin bo'lib qoldi. Endi men ga bir qiziq tomoshalarni ko'rsatib, aylantirib kelgin va meni kuldirgin, – debdi.

Bedana uchib borib, bir sigir sog'ib o'tirgan kampirning oldiga yaqinlashibdi va sigirning shoxiga qo'nib olibdi. Kampir buni ko'rib cholni chaqiribdi.

Chol bedanani urib olmoqchi bo'libdi, mo'ljal lab turib bir tayoq otgan ekan, bedana uchib ketibdi, sigirning shoxi sinibdi, hurkib ketgan sigir kampir sog'ib turgan sutni to'kib yuboribdi. Buni ko'rgan tulki kulaverib, ichagi uzilay deb qolibdi. Bedana xira tulkidan uzoqlashib, u bilan xayrlashmay jo'nab qolibdi.

Tulki ertasi erta bilan yana bedanani qidirib ketibdi. Bedana bir o'tloqda o'tlarning urug'larini yeb yurgan ekan, birdan zavq bilan sayrab yuboribdi. Agar u sayramaganda, tulki uni kechgacha ham topolmas ekan. Tulki bedanani ko'rib, buyruq qilibdi:


– E, bedana, bugun ham meni to'ydirib, xursand qilasan, bo'lmasa o'zingni yeb qo'yaman, – debdi. Bedana ichida: «Bu xira tulkidan qutulish kerak, u xavfli dushman, chunki uxlab qol ganingda ushlab olsa, yeb qo'yishi mumkin», deb o'yabdi.

Bedana tulkiga:

– Xo‘p, bugun ham to‘ydiraman, lekin bu yaqinda to‘y ham yo‘q, kechagidek dasturxon ko‘targan xotinlar ham yo‘q, shuning uchun qishloqqa yaqin joyda bir parcha go‘sht ko‘rgan edim, shunga boshlab boraman, – debdi.

Tulki rozi bo‘libdi. Bedana bu gal tulki ni cho‘ponlarning qopqoniga boshlab boribdi. Qopqondagi go‘shtni ko‘rgan tulki bora solib o‘zini go‘shtga uribdi. Qopqonning ilgagi chiqib, tulkining bo‘ynidan qisib olibdi. Ayyor tulki o‘z tumshug‘idan qopqonga ilinib, ko‘p azob chekib o‘libdi.

Bedana ham, zag‘izg‘on ham xira va ayyor dushmandan qutulib qolibdi. Cho‘ponlar ham qopqondagi tulkini ko‘rib, juda xursand bo‘libdilar.





OVCHI, KO'KCHA VA DONO

Bir zamonda bir ovchi bo'lgan ekan. Bir kuni u dalaga chiqibdi, tuzoq qo'yib, o'zi bir pana joyda pisib o'tiribdi. Bir gala kabutar uchib kelib, chinorga qo'nibdi, yerga tushib donlamoqchi bo'lishibdi. Kabutarlar orasida Ko'kcha degan keksa bir kabutar bor ekan. U kabutarlarga qarab: «Pastga tushmanglar, tuzoq bor, ilinib qolasizlar», debdi.

Kabutarlar Ko'kchaning so'ziga qulq solmay, bitta-bitta uchib tushib, donlay boshlabdilar. Oxiri nafslari g'oliblik qilib, to'r ostiga kiribdilar. Buni Ko'kcha ko'rib, sheriklaridan ajrab qolishni, yolg'iz yashashni o'ziga ep ko'rmabdi va o'zi ham pastga tushib, to'r ostiga kiribdi. Ovchi sekin-asta to'rning ipini tortibdi, hamma kabutar to'rga ilinibdi.

Ko'kcha sheriklariga qarab:

- Endi bir so'zim bor, agar xo'p desangiz, aytayin, zora qutulsak, - debdi.

Kabutarlar:

- Xo'p, ayting, avval sizning so'zingizga kirmay, shu baloga yo'liqdik, endi nima desangiz, shuni qilamiz, - deyishibdi.

Ko'kcha:

- Men qaysi tomonga uchsam, sizlar ham o'sha tomonga baravar uchasizlar, baravar harakat qilasizlar, - debdi.

Ko'kcha boshliq hamma kabutarlar birdan osmonga ko'tarilgan ekan, to'rning ipi uzilibdi, ovchi kaptarlar orqasidan quva ketibdi va «biror yerga borib tushishsa, ushlab olaman», deb o'ylibdi.

Ko'kcha qarasa, ovchi quvib kelayotgan ekan. Kabutarlar juda baland ko'tarilib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Ko'kcha endi to'rdan qutulish yo'lini izlab turgan ekan, Dono ismli bir sichqon do'sti yodiga tushib qolibdi va kabutarlarni shu tomonga boshlabdi. Kabutarlar cho'l-biyobonlar ustidan o'tib, tog'lardan oshibdilar, borib-borib Dononing ini yoniga kelib qo'nibdilar. Ko'kcha Dononi chaqiribdi. Dono chiqib qarasa do'sti Ko'kcha emish. Dono do'sti Ko'kchaning iltimosi bilan avval Ko'kchaning sheriklarini, keyin o'zini to'rdan qutqaribdi. So'ngra hol-ahvol so'rabdi. Ko'kcha butun voqeani aytib beribdi.

Dono qadrdon do'stlarini mehmon qilish uchun, salqin va xushhavo yerga joy qilibdi, don-dun, noz-ne'matlarni serob qilibdi.

Chinorda o'tirib hamma voqeani ko'rgan bir qarg'a: «Kabutarlar biron yerga borib tushsa, doniga sherik bo'lарman» degan umid bilan ular orqasidan uchib kelgan ekan. Qarg'a Dononing kabutarlarga bergan yordamini ko'rib hayron qolibdi, o'zicha «Do'st yordam berar ekan, men ham sichqon bilan do'st bo'layin», deb o'yabdi. So'ngra borib Dononi inidan chaqiribdi. Dono chiqib qarasa, bir qarg'a turgan emish.

Dono eshikda turgan qarg'aga qarab:

– Xo'sh, keling, birodar, – debdi, qarg'a:

– Men jonivorlarning hech biriga qo'shilmay, yolg'iz o'zim yashab kelaman, yor-birodarim, jonkuyarim yo'q, jonivorlar hamisha mendan qochishadi. Yolg'izlik jondan o'tdi, qiynalib ketdim, o'yab-o'yab siz bilan do'st bo'lishni ma'qul ko'rdim, taklifimni qabul qilsangiz, deb umid bilan keldim, – debdi.

Sichqon qarg'aga javoban:

– Durust, lekin siz meni qayerda ko'rsangiz yeysiz, shuning uchun so'zingizga ishonish qiyin, – degan ekan, qarg'a:

– To'g'ri aytasiz, do'stim, rostini aytsam, qayerda sichqon ko'rsam, tutib yer edim. Ammo do'stlik yaxshi ekan, endi sizga sira zarar yetkazmayman, – deb va'da beribdi.

Dono bo'lsa qarg'aning so'ziga ishonib, inidan chiqibdi, qarg'a bilan qo'l olishib, do'st bo'libdi, uni mehmon qilibdi.

Bir kuni qarg'a do'sti Dononi bog'iga taklif qilibdi. Dono boradigan bo'libdi. Qarg'a Dononi

tumshug'ida olib bormoqchi bo'libdi, lekin sichqon qiynalmasin deb, uni changalida avaylab olib ketibdi, bog'iga kelib qo'nibdi. Bu bog' jahonda bor hamma meva daraxtlari bilan bezangan ajoyib joy ekan. Xilma-xil gullar xushbo'y hid sochib, bo'stonni yashnatib turar, shishaday tiniq suvlar shildirab oqib turar ekan. Turli-tuman mevalar pishib, tagiga tushib yotar ekan. Qarg'a Dononi yaxshilab ziyofat qilibdi. Sichqon ko'p xursand bo'lib, bog' ichida qarg'a bilan tomosha qilib yuribdi. Buni shu bog'da yurgan bir toshbaqa ko'rib qolibdi. Ularga havasi kelibdi. Salom berib, ular oldiga boribdi. Hol-ahvollarini, sichqon bilan qarg'a o'rtasidagi inoqlik mehribonlik sababini so'rabdi. Qarg'a toshbaqaga kabutarlar voqeasini aytib beribdi.

Toshbaqaning havasi yana ortibdi. Do'stlik, birgalikning bahosi yo'q, deb ular bilan qadrdon do'st bo'lishga so'z beribdi. Qarg'a toshbaqani ham ko'p izzat-hurmat bilan ziyofat qilibdi.

Bog'ning bir tomonidagi baland tepa bag'rida bir kiyik yurar ekan. U qarg'a, sichqon va toshbaqaning totuvligini ko'rib, qarg'aning makoniga qarab yo'l olibdi. Ular yaqiniga kelib, salom beribdi. Uni hammalari xursandlik bilan kutib olibdilar. Qarg'a kiyikni dasturxonga taklif qilibdi va o'zaro gaplashib o'tirishganda kiyik, qarg'a, sichqon, toshbaqaning bir-birlari bilan hamjins bo'lmasalar ham, nima uchun bunchalik inoqliklarining sirini bilishga kelganini aytibdi.

Qarg'a bo'lib o'tgan voqealarni kiyikkäirma-bir hikoya qilib beribdi. So'ngra kiyik ham

ular bilan do'stlik iplarini bog'lamoqchi bo'libdi. Do'stlar qabul qilibdilar. Hammalari boshqatdan o'rinalidan turib ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, kiyikni yuqoriga o'tqazib, unga ko'p iltifot qilibdilar. Shu paytda Dono kabutarlar ni xotirlabdi. Qarg'a kabutarlarga bir xat yozib berishni Donodan so'rabdi. Dono xursand bo'lib xat yozib, uni qarg'aning o'ng oyog'iga bog'labdi. Qarg'aga oq yo'l tilab, hammalari uni kuza-tishibdi. Qarg'a kabutarlarning makoniga kelib, xatni beribdi. Kabutarlar xatni o'qib, qarg'a bilan uchib, boqqa kelib qo'nibdilar. Do'stlar ko'rishib-so'rashib, shirin-shirin suhbatlashib o'tiribdilar.

Bir zamон kiyik sayrga chiqib ketibdi. Lekin hadeganda kelavermabdi. Do'stlar xavotir olibdilar. Shunda Ko'kcha qarg'aga qarab:

– Kiyikdan shu choqqacha darak yo'q, undan xabar olish kerak, – debdi.

Qarg'a kiyikni ko'p axtarsa ham topolmabdi. Oxiri xavotirdan nima qilarini bilmay, hayron bo'lib ketayotganda bir yerga ko'zi tushibdi, qara-sa – bechora kiyik ovchining tuzog'iga ilinib qolgan ekan. Tezda uchib borib, do'stlarini bu voqeadan xabardor qilibdi. Ular o'zaro maslahat qilishibdi.

Ko'kcha shunday maslahat qilibdi:

– Qarg'avoy, sen sichqonni changalingda olib bor, sichqon kiyikning tuzog'ini qirqsin.

Bu gap hammaga yoqib tushibdi. Qarg'a sichqonni changaliga olib uchib ketibdi, orqasidan Ko'kcha ham uchibdi, bularga toshbaqa ham ergashibdi. Ko'kcha toshbaqaga harchand borma-

gin, desa ham bo'lma bdi. Qarg'a sichqonni kiyik ilingan joyga oborib qo'yibdi. Sichqon kiyikning oyog'idagi tuzog'ini qirqa boshlabdi. Ko'kcha o'ylab turib:

– Do'stim Dono, kiyikning oyog'idagi tuzoqning hammasini qirqma: uch tolasini qoldir. Tag'in ovchi buni bizdan ko'rib, zarar yetkaza-digan bo'lmasin. Ovchi kelgach, kiyik bir zo'r berib, uch tolasini uzib ketaveradi, – debdi.

Dono Ko'kchaning aytganini qilib, uch tola ipni qoldiribdi. Avval qarg'a sichqonni ko'ta-rib uchibdi. Uning ketidan kaptar uchibdi. Ular boqqa kelib qo'nishibdi. Qarg'a sichqonni chan-galidan yerga sekin qo'yibdi.

Ovchi tuzoqqa ilingan kiyikni ko'rib, yugurib kelgan ekan, kiyik bir intilish bilan uch tola ipni uzib qochibdi. Ovchi noumid bo'lib tuzoqni olib ketmoqchi bo'lgan ekan, toshbaqani ko'rib qolib xurjuniga solibdi. Kiyik allaqachon qarg'aning bog'iga yetib kelgan ekan. Do'stlar qarasalarki, toshbaqa yo'q emish. Ko'kcha:

– Men unga harchand bormagin desam, ko'n-magan edi. Bor, qarg'a, xabar olib kel! – debdi.

Qarg'a kiyik ilingan joyga borib qarasa, ov-chi toshbaqani xurjuniga solib, og'zini mahkam bo'g'ib ketayotgan emish. Tezda kelib do'stlariga aytibdi. Ko'kcha yana maslahat beribdi. Do'stlar Ko'kchaning maslahatini ma'qul topib, shun-day qilibdilar: qarg'a sichqonni ko'tarib uchib ketibdi. Kiyik ovchining oldidan cho'loqlanib o'taveribdi. Ovchi kiyikni ko'rib, xursand bo'lib-di va: «Tuzoqdan qochish vaqtida oyog'i sinib,

cho'loq bo'lib qolgan ekan, endi uni ushlab ola-man», deb kiyikning orqasidan yuguribdi. Kiyik ham oqsoqlanib qochaveribdi. Oxiri ovchi juda charchabdi, yelkasidagi xurjunini yerga qo'yibdi. Sichqon xurjUNNI teshib, toshbaqani qutqaribdi. Toshbaqa bir katta toshning tagiga kirib berkinibdi. Qarg'a sichqONNI boqqa olib borib qo'yibdi. So'ngra kiyikning oldiga borib: «Ish bitdi, endi qochaver!» debdi. Kiyik qochib ketibdi. Ovchi kiyikka yetolmay qolibdi. Kiyik bilan kabutar ikkisi qarg'aning bog'iga borishibdi. Do'stlar xursand bo'lishib, bog'da tinch umr kechira boshlashibdi.





NON QUDRATI

Qadim-qadim zamonlarda, kun botish tomonda, biri yolg'on, biri chin bo'lib o'tgan zamonda bir chol bo'lib, uning uchta o'g'li bor ekan. Cholning o'g'llari bir-biridan epchil, chaqqon, bir-biridan o'tkir bolalar bo'lib o'sishibdi. Ularning bisotida bitta ola baytallari bo'lib, u har yili bitta tug'ar ekan. Lekin baytal tuqqan zahoti bolasini kimdir o'g'irlab ketar ekan. Uni kim o'g'irlashini – odam zotidanmi, devmi yo parizodmi, hech kim bilmay dog'da qolar ekan. Cholning boshi qotib, o'g'llarini yoniga chaqirib, ularga qarab shunday debdi:

– Bolalarim, o'zingizga ma'lumki, bisotimizda shu baytaldan boshqa hech narsamiz yo'q. Sizlar ham voyaga yetib, uylanadigan bo'lib qoldilaring.

Sizlarni uyli-joyli qilay desam kuchim yetmaydi. Hech narsam yo'q. Baytalning tuqqanini boqib, katta qilib, bozorga olib borib, sotib pulini jamlab uylantiray desam, ko'rib turibsizlar, har yili uni kimdir o'g'irlab ketadi. Shunga judayam boshim qotib hayron bo'lib qoldim, – debdi.

Otalaridan bu gapni eshitib, o'g'illari:

– Ota, siz bizni deb g'am yemang. O'zingizni boshqalardan kam tutmang. Agar rozi bo'sangiz, uchovimiz birma-bir poyloqchilik qilib baytalimizning bolasini kim o'g'irlab ketayotganini bilsak. Dev bo'sayam, odam bo'sayam, pari, ins-jins bo'sayam tutsak, – deyishibdi.

Otalari rozi bo'lib, oq fotiha beribdi.

Cholning katta o'g'li baytalning tug'adigan kuni yaqinlashganda uning yoniga bir chuqur xandaq qazib ichiga tushib, ko'z yummasdan poylab yotibdi. Baytalning tug'ishiga oz vaqt qolganda katta o'g'lini uyqu bosib uqlab qolibdi. Baytalning bolasini yerdan chiqibmi, osmondan kelibmi, bir narsa o'g'irlab ketibdi. Katta o'g'il uyg'onib ketib baytalning yonida bolasini ko'rmay qattiq afsuslanibdi. Qancha achinmasin, so'kinmasin, foydasi bo'lmasibdi. «Keyingi pushaymon – o'zinga dushman» bo'lib qolaveribdi.

Oradan yana bir yil o'tibdi. Baytalning tug'ishi ni poylash navbatni o'rtancha o'g'ilga kelibdi. O'rtancha o'g'il ham baytalning yoniga chuqur xandaq qazib, ichiga tushib ko'z yummasdan poylab yotaveribdi. Baytal tug'ishiga kelib, to'lg'oq tutganda o'rtancha o'g'ilni uyqu bosib, qancha urinmasin uqlab qolibdi. Baytalning bolasini yer-

dan chiqibmi, osmondan tushibmi, bir narsa kelib yana o'g'irlab ketibdi. O'rtancha o'g'il uyg'onib ketib, baytalning bolasini saqlab qololmaganidan judayam achinibdi. Qancha achinmasin, ranjib xafa bo'lmasin, foydasi bo'lmabdi. «Keyingi pu-shaymon – o'zingga dushman» bo'lib qolaveribdi.

Oradan yana bir yil o'tibdi. Baytalning tug'ishi ni poylash navbati kenja o'g'ilga kelibdi. Kenja o'g'il xurjuniga besh-oltita non olib poyloqchilikka chiqibdi. Bu ham baytalning yoniga chuqur xandaq qazib, ichiga tushib ko'z yummasdan poylab yotaveribdi. Bir payt baytal tug'ishiga kelib, to'lg'oq boshlabdi. Kenja o'g'il xurjunidagi nondan olib ushatib, baytalga beribdi, o'ziyam yebdi. Baytal tug'olmay yana to'lg'oqlanibdi, bolaning unga rahmi kelib, yana nonidan beribdi. Nondan kuch-quvvat olgan baytal kattagina qulun tug'ibdi. Bola qulunni endi qo'liga olmoqchi bo'lgan ekan, qibla tomondan shamol turib, qora bir narsa uchibmi-yuguribmi kelib, qulunni ko'tarib ketibdi. Kenja o'g'il qulunga osilganicha bir joyga boribdi. Haligi maxluq uni bir turtgan ekan, yiqilib tushibdi. Maxluq qulunni olgancha ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Kenja o'g'il ertalab otasining oldiga kelib kechasi bo'lgan voqeani aytib beribdi-da:

– Ota, menga javob bering, men toyimizni topib kelaman, – debdi.

Otasi rozi bo'libdi. Ikkala akasi ham:

– Biz ham ukamiz bilan birga boramiz, u hali yosh, tag'in qiynalib, yolg'izlik qilib qolmasin, – deyishibdi.

Ota o'g'illarga oq fotiha beribdi. Uch og'a-ini yo'lga tushib, yerning ustidan, osmonning ustidan uzoq yurishibdi. Yurib-yurib bir joyga borib qolishibdi. Bu joy shunday joy ekanki, to'rt tomoni baland osmono'par tog' emish. O'rtasidan katta soy oqib yotgan emish. Soyning bu yog'idagi tog' muzlab yotgan emish, u yog'idagi tog' lov-lov alanga olib yonib turgan emish. Tog'ning kunchiqar tomonidagi tog'da ko'mko'k o'rmonzor bo'lib, u nuqlul daraxtzor emish. Kunbotar tomondagi tog' meva-chevaga kon emish. Bu joyda bir qo'lini uzatsa sovuq toqqa, bir qo'lini uzatsa olov toqqa yetadigan, o'tirgan joyda kunchiqar tomondagi o'rmondagi bahaybat daraxtlarni ildiz-pildizi bilan yulib oladigan maxluqlar, balogardonlar yashar ekan. O'tirgan joyida kunbotar tomondagi tog'dagi mevalarni bemalol terib yeyaverarmishlar. Bu maxluq dev bo'lib devmasmish, jin-alvasti bo'lib jin-alvasti emasmish. Ko'z ko'rмаган, quloq eshitmagан maxluqlar – бало-ю балогардонлар emish. Uzoqdan bularni ko'rib, qo'rqib ketgan ikki aka bahanoga o'tibdi. Katta aka:

- Mening qornim og'rib qoldi, uyga qaytmasam bo'lmaydi, o'lib qolaman, – deb otiga qamchi bosibdi. Birpasdan keyin o'rtancha aka:

- Boshim og'rib qoldi, uyga ketmasam bo'lmaydi, o'lib qolaman, – deb u ham otining boshini uylari tomon burib, qamchi bosibdi. Ot uni uchirib olib ketibdi.

Kenja o'g'ilning bitta o'zi hay-haylagancha, yolg'iz qolibdi. Haligi maxluqlarning oldiga bo-

rishni ham, bormasligini ham bilmay turgan ekan, qayoqdandir bir nuroni chol paydo bo‘libdi. Chol kenja o‘g‘ilga yaqinroq kelib:

– Bolam, yo‘l bo‘lsin, umring mo‘l-ko‘l bo‘lsin, – debdi.

Bola cholni ko‘rib:

– Assalomu alaykum, bobo, – debdi. Keyin nima maqsadda yo‘lga chiqqanini aytib: – Shu toyimni izlab topmasdan uygaga qaytmayman. Olsam o‘lamanki, uni topaman, – debdi.

Shunda chol:

– Toyining shu yerda, uni anavi oyog‘i daroz, o‘zi xo‘roz maxluq olib qochgan, – debdi.

Bola:

– Uni qanday olsam bo‘ladi, – degan ekan, chol:
– Bolam, toyiningni endi olish juda mushkul, qaytib ketaver, behudaga o‘lib, juvonmarg bo‘lib ketma, – debdi.

Bola:

– Ota, shu toyim yo‘lida o‘limimga ham roziman, – debdi.

Chol:

– Unday bo‘lsa, gapimga yaxshilab qulq sol. Hozir ular ov ovlagani jo‘nab ketishadi. Ular orasida uch og‘a-inisi bor. Shulardan birini poyloq-chilikda qoldirishadi. Sen qo‘yningga bitta non solib olib, uning oldiga borasan-da, salomlashgach, «Toyimga keldim, shuni bering», deysan. U toyiningni berishni istamay, sen bilan olisha boshlaydi. Shunda sen qo‘yningdagi nondan bir tishlab ol-da, olishishni davom ettiraver. To nonni yeb bo‘lguningcha u kuch-quvvatdan ketadi, sening

bo'lsa shu non tufayli tobora kuch-quvvating ortib boradi. Shunda payt poylab turib, maxluqni dast ko'tar-da, toqqa qarab otib yubor. Yoning-ga kelib oyog'ingga yiqilib, «Meni o'ldir», – deydi. Uni o'ldirma, o'ldirsa sang bir tomchi qonidan o'nta o'ziga o'xshagan maxluq paydo bo'ladi. O'ldir deb, qancha yalinsa ham o'ldirma-da, o'zingga xizmat-kor-qul qilib ol. Keyin foydasi tegadi, – debdi.

Kenja o'g'il cholning aytganini qilib, poylab yotibdi. Maxluqlar to'da-to'da bo'lib, qayoqqadir jo'nab ketishibdi. Bittasini qorovul qilib qoldirishibdi. Bola qo'yniga bitta nonni solib olib asta boribdi-da, unga salom beribdi. Maxluq salom nima, alik nima – bilmas ekan.

– Kimsan? Nimaga kelding?! – debdi.

Bola:

– O'g'irlab olib qochilgan toyimga keldim, shuni bering, – debdi. Maxluq:

– Toyiningni osonlikcha bu yerdan olib ketib bo'psan, – debdi.

Bola:

– O'lsam ham toyimni olib ketaman, birovning moliga zo'rlik qilish ekan-da, – debdi.

Maxluq:

– Toy seniki emas, meniki. Kel, yaxshisi, olishaylik, yo chopishaylik. Kim yutib chiqsa, toy o'shaniki bo'ladi, – debdi.

Bola:

– Olishishmi, chopishishmi? – debdi.

Maxluq:

– Olishish, – debdi.

Ikkovlon yoqa, bel ushlashib olisha boshlashibdi. Bola kuchdan ketib, yiqilay-yiqilay degan-

da maxluqqa sezdirmasdan qo'ynidagi nondan bitta-bitta tishlab olarmish-da, yana kuch-g'ayratga to'larmish. Maxluq olisha-olisha holdan toya boshlabdi, bola esa qo'ynidagi nondan yeb-yeb kuch-quvvatini yo'qotmasmish. Bora-bora maxluq tamoman kuchdan qolibdi. Shu payt bola uni dast ko'tarib, toqqa qarab otib yuboribdi. Maxluq dodlaganicha yonib turgan toqqa borib tushibdi. Keyin yarim yonib, yarim qolib bolaning oldiga kelib:

– Meni yengding, toy seniki. Endi bir yaxshilik qil, meni o'ldir, – debdi.

Bola maxluqning ustiga chiqib, uni bo'g'ib o'ldira boshlabdi. Bir payt cholning: «U oyog'ingga yiqilib meni o'ldir, desa ham, sen uni o'ldirma. Bordi-yu o'ldirsang, har bir qon tomchisidan o'nlab o'ziga o'xshagan maxluq paydo bo'ladi, o'ldirmasdan o'zingga qul qilib ol», degani esiga tushib, uni o'ldirmabdi.

Maxluq tozayam yalinibdi, yolboribdi, ammo bola uni o'ldirmay yotgan joyidan turg'azib qo'yibdi.

Maxluq:

– Meni o'ldirmading, o'ldirganingda omon qolmas eding. Shu kundan men senga xizmatkor-qul, sen menga xo'jayin, – deb bolaga bosh egib, uning xizmatini qila boshlabdi. Shu payt lov-lov yonib turgan tog'ning alangasi yanada kuchayibdi, soydag'i suv qurib, o'rmonzordagi ko'm-ko'k daraxtlar ham sarg'ayib, quriy boshlabdi.

Maxluq bolaga qarab:

– Hoy, xo'jam, sen berkinib olmasang o'rtanca akam kelib bir hamladayoq seni majaqlab

tashlaydi. Avval bekinib tur-da, payti kelsa chiqib u bilan uchrasharsan, – debdi.

Bola:

– Kel-e, shuning aytganini ham qilay, – deb bir toshning ostiga bekinib olibdi.

O'rtancha maxluqning oti tosh oldiga kelib taqa-taq to'xtab, bir qadam ham bosmay qo'yibdi. Maxluq otiga ustma-ust qamchi ursayam, oti miq etmay turgan joyida qoqqan qoziqday bo'lib turaveribdi. Shunda maxluq toshga qarab:

– Hoy, tosh ostidagi insmisan-jinsmisan, odamzotmisan, yo biron bir jonzotmisan, bu yoqqa chiq. Olishaman desang – olishaman, solishaman desang – solishaman, – debdi.

Bola tosh tagidan, qo'yniga ikkita nonni solib, chiqib kelibdi-da:

– Xo'sh, nima deysan? – debdi.

Maxluq:

– Odam tugul pashsha uchib kelolmaydigan bu joyga qanday qilib kelib qolding, maqsading ne? – debdi.

Bola:

– Men o'g'irlatgan toyimni izlab keldim, shuni olib ketaman, – debdi.

Maxluq:

– Toyiningni olib ketib bo'psan. Bir hamla bilan seni asfalasofilinga ketkazaman. Yaxshilikcha, ajalingdan oldin o'lmay bu yoqdan jo'nab qol, – debdi.

Bola:

– Sen o'ylagan xomaki, quruq do'qingdan qo'r-qadigan nodon men emasman. Toyimni olib ket-

masdan, bu yerdan bir qadam ham jilmayman. Olishaman desang – olishaman. Kim kimni yengsa, mayli, toy o'shaniki bo'la qolsin, – debdi.

Maxluq otidan yerga tushgan ekan, yer titrab ketibdi. Oyog'i tizzasigacha yerga botib ketibdi. Bola bilan maxluq olisha boshlabdi. Uch kecha-yu uch kunduz olishishgach, bola yengila boshlabdi. Birdan esiga qo'ynidagi non tushib undan bir tishlab yebdi. Kuchiga kuch qo'shilib, yana olisha boshlabdi. Maxluqning qo'li baland kela boshlaganda, bola qo'ynidagi nondan bir tishlam yeb olarmish, to'rtinchi kun deganda bir yarimta nonni yeb bo'libdi. Maxluq kuchdan qola boshlabdi. Bola payt poylab turib, uni dast ko'tarib, muzlab yotgan toqqa qarab otib yuboribdi. Sovuq toqqa tushgan maxluq muzday qotib qolganiga qaramasdan, urinib-turtinib bolaning oldiga kelib:

– Bir yaxshilik qil. Meni o'ldir, – debdi.

Bola o'ldirsam o'ldira qolay deb, uning ustiga chiqib bo'g'a boshlabdi. Birdan haligi cholning: «Uni o'ldirsang bir tomchi qonidan o'nta shunaqa balo paydo bo'ladi, yaxshisi o'ldirma-da, o'zingga xizmatkor-qul qilib ol, keyincha kerak bo'ladi», degani esiga tushib, maxluq qanchalik yalinib-yolvormasin uni o'ldirmabdi.

Maxluq:

– Men seni bola desam, sen mendan o'tkir ekansan. Meni o'ldirganingda sen omon qolmagan bo'larding. Endi buyur, men xizmatkorman, sen menga xo'jayinsan, – debdi.

Bola buni ham ukasi qatoriga qo'shib, o'ziga xizmatkor, cho'ri qilib olibdi-da, uchinchi maxluqni poylay boshlabdi.

Bir payt olamni qorong'u zimiston bosib ketibdi. Yonar tog'ning alangasi osmonga yetibdi, muz tog'ning muzi erib olamni tutibdi. Kunchiqar tomondag'i tog' qurib, kunbotar tomondag'i tog' esa qaqshab qurib qolibdi. Shu payt otini o'ynatib eng katta maxluq kelib qolibdi. O'rtancha bilan kenja maxluq bolaga qarab:

– Sen berkinib ol. Uncha-buncha kishi bu akanga bas kelolmaydi. Uning bir qarashiyoq seni yerga kiritib yo osmonga uchirib yuboradi. Jimjilog'i tegsa tariqday maydalani, sochilib ketasan, – deyishibdi. Bola:

– Qani, shularning aytganini qilay-chi, – debdi-da, yerto'lagi kirib bekinib olibdi. Katta maxluq otini o'ynatib kelayotgan ekan, yerto'laning oldiga yetganda oti pishqirib, bir qadam ham bosmay qo'yibdi. «Harom o'lgur, senga nima bo'ldi», deb otni uribdi hamki, u bir qimirlab ham qo'ymabdi. «Bunda bir gap bor», deb katta maxluq yerto'laning ichiga qarab:

– Hoy, kimsan? Odammisan, devmisan, parimisan yo ins-jinsmisan, bu yoqqa chiq. Yaxshi bo'sang oshingni yediraman, yomon bo'sang boshingni yediraman, – debdi.

Bola qo'yniga ikkita nonni solib:

– Ko'pam do'q-po'pisa qilaverma, mana chiqdim, nima deysan, – deb yerto'ladan chiqib kelibdi.

Katta maxluq bolani ko'rib, qarshisida pashsha turganday uni mensimay:

- Otimning oyog'i tagiga yiqil, – debdi.
- Bu gapdan bolaning judayam jahli chiqib:
- Otdan tush-da, yo men bilan olish, yo chospish, – debdi.

Maxluqning qahri kelib, sening qo'lingdan nima kelardi, deb otidan sakrab tushibdi-da, bola bilan bellasha ketibdi. Maxluqning bunisi juda zo'r ekan, oldingi ikki maxluq uning oldida pashshaday ekan. Bola yengilay-yengilay deb qolganda, esiga qo'ynidagi non tushibdi. Nondan maxluqqa sezdirmay bir bo'lak olibdi-da, og'ziga solibdi. Bolada kuch-qudrat paydo bo'lib, maxluqqa basma-bas kela boshlabdi. Keyin yetti kecha-yu yetti kunduz olishib, nonning kuchi bilan bu maxluqni ham yengibdi. Uni ham belidan ushlab turib, otib yuborgan ekan, tog'lar yorilib, to'rt tomonga yo'l ochilibdi. Maxluq tizzalab kelib:

- Meni o'ldir, sharmanda qilma, – deb yalnibdi.

Bola o'ldirmoqchi bo'lib qilichini ko'targan ekan, cholning: «Maxluqni o'ldirma, mabodo o'ldirib qo'ysang, uning har bir tomchi qonidan lakkak maxluqchalar paydo bo'lib, seni o'ldirmay qo'yishmaydi», degan gapi esiga tushib, «Ha, aytganday, yolda uchragan bobom shu gapni aytgan edi-ya, esim qursin», – deb katta maxluqni ham o'ldirmabdi. U yalinib-yolvorib, yig'lab-yig'lab qolibdi-da, bolaning oyog'iga yiqilib:

- O'ldirmading, o'ldirmading-da. Endi sen xo'jayin, men esa, qul bo'ldim, – debdi.

Bola uchala maxluqni qulga aylantirib, ular yiqqan mol-u dunyoga ega bo'libdi. Otxonaga

kirib o'zining toyini ham tanib, boshqa otlarga qo'shib olib chiqibdi. Bolani maxluqlarni yengib, ular yurtiga ega bo'lib, podsholigini so'rashda qo'yib, ikki og'iz gapni akalaridan eshititing.

Akalarining biri «voy qornim», ikkinchisi «voy boshim», deb uylariga kirib borishibdi. Ota-si ularni ko'rib, qo'rqoqlar, yaramaslar, ukalar-ringni yolg'iz qoldirib, qaysi yuz bilan bu yerga keldinglar, mening sizlarday o'g'llarim yo'q, deb haydab yuboribdi. Ikki aka-uka otalaridan ta'zirini olib, so'kish, qarg'ishini eshitib endi or-qamizga qaytib ukamizni topmasak bo'lmaydi, deb izlariga qaytishibdi.

Yerning ustida, osmonning ostida yurib-yurib, bir kuni ukalarini aldab ketgan joyga yetib kelishibdi. Qarashsa, hamma yoq saranjom-sarishta emish. Allaqanday maxluqlar ukalaringning xizmatida: «Nima ish qilaylik, buyuring?» «Qanday yumushni bajaraylik, topshiring?» deb atrofida parvona bo'lib turishgan emish. Yalmog'iz kampirlar, devlar, ins-jinslar ham bolaning xizmatida emish. Kenja o'g'ilning katta mamlakatni, undagi mol-dunyosini, qo'y-molini, ot-ulovini ko'rib, akalarining aqlari shoshib, og'zilari ochilib qolibdi. Tilla-yu zarlar, kumushlar, qimmatbaho matolar to'lib-toshib yotgan emish. Yuzi shuvut akalar ukalaringning oldiga borib, oyog'iga yiqilibdi.

– Ukajon, bizning uzrimizni qabul et. Biz sening oldingda gunohkormiz. Seni yolg'iz tashlab ketib qoldik, endi unday qilmaymiz, – deyishib, yalinib-yolvorishibdi.

Kenja o'g'il ularning gunohidan o'tib, birini bir viloyatga, ikkinchisini ikkinchi viloyatga hokim qilib qo'yibdi. Ikki aka odatdagidan tashqari vaqt-i-vaqt bilan xufiyona uchrasha boshlashibdi, oxir-oqibat ukalarini yo'q qilib, uning mol-dun-yosiga ega bo'lishni rejalab qo'yishibdi.

Kunlardan bir kuni ikki aka maslahatlashib, kenja o'g'ilning oldiga kelishibdi.

– Ukajon, qishlog'imizda qolgan yolg'iz otamizning ahvoli ne kechdiykin? Bir borib xabar olsak yaxshi bolardi, – debdi.

Ukasi:

– Mayli, borib kelinglar, – degan ekan, o'rtancha aka:

– Uydan uchovlon chiqqan edik, uyga uchovlon yetaklashib kirganimiz ma'qul. Sen bu yerda ajralib yolg'iz qolsang, otamiz ukalaring qani, deb so'rab qolsa, nima deb javob beramiz, – debdi.

Shunda kenja o'g'il:

– Bu ham to'g'ri gap. Bo'lmasa tayyorgarlik ko'ringlar birga boramiz, – debdi.

Ikki aka-uka qirq tuyaga zar-u zarboflardan yuklab, yana bir qancha tilla-yu kumushlardan olib, ikki aka-uka katta va o'rtancha maxluqni bu joyga boshliq qilib, kichkinasini o'zları bilan olishib, yo'lga tushibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham oz emas, ko'p emas, qirq kecha-yu qirq kunduz yurishibdi. Bir payt katta daryoning oldidan chiqib qolishibdi.

Katta akasi:

– Shu yerda bir kecha tunab, ertaga yo'lga chiqsak, juda charchadik, otlar ham holdan toydi, – debdi.

O'rtancha aka ham:

– Akam to'g'ri aytadilar, tuyalar horidi, otlar charchadi, biz ham holdan toydik. Shu kecha bu yerda yotaylik-da, erta azonda yo'lga chiqaylik, – debdi.

Kenja o'g'il akalarining gapiga ko'nib, to'xtashga buyruq beribdi. Hamma charchab horiganidan uqlab qolibdi. Shuni kutib turgan katta aka o'rtancha ukasini asta turtib uyg'otibdi-da, unga:

– Hozir payti, ukamizni o'ldirib daryoga tashlamasak, boshqa bunday qulay fursat topishimiz qiyin. O'ldirmasak, uyga borgach bizga «Senlar undaysanlar, senlar bundaysanlar», deb kun bermay qo'yadi. Shunda qanday qilib el oldida bosh ko'tarib yuramiz. Yaxshisi, shu bugun uni o'ldirib, suvga tashlaymiz-da, butun mol-dunyoni o'zimizning qilib olib, otamizning oldiga boramiz. Otamiz ukang qani, desa yo'lda ajdaho yutib yubordi, biz zo'rg'a qochib keldik, deymiz, – debdi.

O'rtancha aka bu gapga jon-jon deb qo'shilindi.

Birga-birga kelayotgan maxluqlarning eng kichigi uqlamay yotgan ekan, ikki aka-ukaning gaplarini eshitib qolibdi. Kenja o'g'ilning oldiga borib, uni uyg'ota boshlabdi. Kenja o'g'il ko'zini ochsa, tepasida boyagi maxluqning eng kichigi turgan emish. Shunda kichik maxluq bolaga: «Akalaring seni o'ldirib, daryoga tashlab yuborishmoqchi bo'lishyapti. Men ularning gap-so'zlarini eshitib qoldim», – debdi. Bola: «Bu tuhmat, qachon bir qorindan talashib tushgan akalar ukalarini o'ldirib, daryoga tashlagan. Sen o'zing

meni o'ldirib, daryoga tashlamoqchi bo'lgansan, men uyg'onib qolib bu ishingni amalga oshirolmay qolib, akalarimga tuhmat qilishga o'tding», – deb yolg'ondan uxlab yotgan akalarini uyg'ota boshlabdi.

Akalari yolg'ondan uyg'ongan bo'lib, ko'zlarini ishqalab, bolaning oldiga kelgan ekan, u:

– Mana bu maxluqning kenjası, meni o'l-dirmoqchi bo'lib turganida uyg'onib qoldim. Nega ustimda turibsan desam, akalaring seni o'ldirib, daryoga tashlamoqchi bo'lishyapti, deb sizlarga tuhmat qildi, – debdi.

Shunda katta aka:

– Ablah, ukamizni o'ldirib daryoga tashlab, buni akalari qildi, deb bizlarga tuhmat qilmoqchi bo'ldingmi? Biz ukamizni o'ldirish u yoqda tursin, siz degan tilimiz senga bormadi-ku, – deb kenja maxluqni tutib olib, uning to'xtanglar, meni qo'yib yuboringlar, men tuhmat qilganim yo'q, deyishiga qaramasdan daryoga tashlab yuborishibdi. Keyin hamma yana uyquga ketibdi. Yarim kechaga borganda ikki aka-uka asta kelib, ukalarini tappa bosib bo'g'izlashibdi-da, oyog'ini kesib, qo'lini bog'lab, daryo bo'yiga olib borib, suvga tashlab yuborishibdi.

Qaytib kelib, hech narsa bilmaganday joylarda uxlab yotaverishibdi. Ertalab katta aka, kichik ukamiz haligi maxluq bilan birga tunda qochib ketibdi, endi yuklarga, karvonga biz egamiz, yo'ldan qolmay, safarga jo'naymiz, tez bo'linglar, deb hammani shoshririb yo'lga otlanishibdi.

Bularning ketishida qo'yib, ikki og'iz gapni haligi daryoga tashlangan kichik maxluq bilan kenja o'g'ildan eshititing.

Kenja o'g'il qo'l-oyog'ini bog'lab, daryoga tashlab yuborishganda bir daraxtning ildiziga ilinib qolgan ekan. Ikki aka buni payqamay, ukamiz daryoga tushib ketdi, deb o'ylashgan ekan. Bir payt kenja maxluq ham daryoda oqib ketayotib bir quruq joyga borib qolibdi. Sayoz yerda o'ziga kelib, qani ular nima bo'ldiykin, deb karvonlar qo'ngan joyga kelsa, hech kim yo'q emish. Hamma allaqachon jo'nab ketibdi. Qayoqqa borishini bilmay daryo bo'yiga borib o'tirgan ekan, qirg'oqda bir narsa qimir-qimir qilarmish. «Bu nima bo'ldi?» deb yaqinroq borsa, qora bir narsa emish. Uni tortib olibdi. Qarasa, kenja o'g'il emish. Kenja o'g'il maxluqni tanib:

– Uzrimni qabul et, sening yaxshililingni bilmay xato qildim, – debdi.

Maxluq:

– O'zi shunaqa, siz insonlar yaxshilikni keyin tushunasizlar, – deb uning uzrini qabul etib, ikkovlon qalin do'st-birodar bo'lib, daryo bo'yida yashay boshlashibdi.

Keyin maxluq:

– Sen shu yerda yashab tur, men borib yemish keltiray, seni olib ketay desam bir qadam bosolmaysan, – deb o'z yurtiga jo'nab ketibdi.

Bola daryo bo'yida qolib, baliq tutib kunini o'tkaza boshlabdi. Bir kuni baliq tutay deb tursa, bir narsa oqib kela boshlabdi. Qora narsa yaqinroq kelganda «qutqaringlar, qutqaringlar,

oqib ketyapman», degan odam ovozi kelibdi. Kenja o'g'il daryoga o'zini tashlab, oqib kelayotgan odamni qirg'oqqa sudrab olib chiqibdi. Bu ko'zi ko'r odam ekan. Bola gap so'ragan ekan, ko'r:

– Ey, og'ayni, gapisam gap ko'p, ko'mir oz. Dardimni yorsam tugamaydi, yozsam daryo suvi quriydi, – debdi. Keyin: – Ko'zlarimni o'yib olib ko'r qilganlaridan keyin dunyo tor ko'rinish, o'zimni daryoga tashladim. Jon shirin ekanmi, dodlab qutqaringlar deyaverdim. Mana sening rahming kelib, qutqarib qolding. Baribir qutqarib chakki qilding. Daryoda oqib o'lganim yaxshi edi bu kunimdan ko'ra, – debdi.

Bola uni yupatib:

– Hali yosh ekansiz, nima qilasiz o'limni o'ylab, – deb uning egni-boshini quritib, o'zini odam qatoriga keltirib qo'yibdi. Ikkovlon daryo bo'yida gaplashib o'tirishgan ekan, daryodan yana, «Qutqaringlar, qutqaringlar, o'laman», degan ovoz kelibdi. Bola qarasa, daryoda bir odam oqib kelayotgan emish. U o'zini daryoga tashlab suzib borib, oqayotgan odamni sudrab qirg'oqqa olib chiqibdi. Qarasa, bu odamning ikki qo'li yo'q emish. Bir kuni yana daryodan «o'laman, qutqaringlar», degan ovoz kelibdi. Kenja o'g'il daryoga o'zini tashlab, uni olib chiqibdi. Bu odamning ikki qo'li bor emish-u, ikki oyog'i yo'q emish. Shunday qilib, biri ikki qo'li bor-u, ikki oyog'i yo'q, biri ikki qo'li yo'g'-u ikki oyog'i bor, biri ikki qo'li, ikki oyog'i bor-u, ikki ko'zi yo'q to'rtovlon bo'lishibdi. To'rtovlon daryo bo'yida baliq tutib, qush otib yashayveribdi. Kichik maxluq ham ke-

lib ularga qo'shilib beshovlon to'liq bo'lib yashab turishgan ekan, bir mushuk miyov-miyovlab ke-lib qolibdi. Bular xursand bo'lishib, beshov edik, oltov bo'ldik, deb uni saflariga qo'shib olishibdi. Kundan-kun o'tibdi, oydan-oy o'tibdi.

Bir kuni kichik maxluq:

– Men borib ovqat, kiyim-bosh topib kelay. Siz-lar hech qayoqqa qimirlamay, shu yerda o'tirib turinglar, – deb jo'nab ketibdi.

Bular beshovlon kenja o'g'il, ko'r, qo'li yo'q, oyog'i yo'q, mushukvoy qolishib, yana baliq tutib, qush otib yashayverishibdi.

Bir kuni mushuk jahllarini chiqargan ekan, ko'rning jahli chiqib uni urib-so'kib beribdi. Bundan mushukning jahli chiqib, mana senga bo'lmasa deb, o'choqdagi olovni o'chirib qo'yib-di-da, ko'zdan yo'qolibdi. Bu mushuk aslida yalmog'iz kampirning mushugi ekan. O't-olov-siz qolgandan keyin bola qo'li yo'g'-u oyog'i bor oshnasini o't-olov topib kelish uchun yuboribdi. Qo'li cho'ltoq o't izlab bir joyga borib qolibdi. Borsa, bu joy yalmog'iz kampirning makoni ekan.

Cho'loq:

– Assalomu alaykum, – deb ichkariga kiribdi.

Yalmog'iz kampir:

– Agar haq saloming bo'lmaganda, ikki yam-lab, bir yutgan bo'lardim. Kimsan, nega bu yerga kelding? Hozir jo'nab ket, bo'lmasa, qornim och, pishirmasdan xomligingcha yutaman, – debdi.

Cho'loq:

– Ey, momo, men bir musofir, yo'ldan adash-gan kishiman. O'g'ilsizga o'g'il, qizsizga qiz bo'la-man, – debdi.

Yalmog'iz cho'loqning xushmuomalasidan yumshab:

– Nima maqsadda kelding, – debdi.

Cho'loq:

– Olovimiz o'chib qoldi, olovingizdan berib tur-sangiz, – debdi.

Yalmog'iz:

– Ana o'choqdan ol-da, tezroq jo'nab qol, – debdi.

Cho'loq olovni olib, jo'nab qolibdi. Yalmog'iz ham u bilan ketma-ket kelib, ularning qayerda yashayotganliklarini bilib ketibdi. Bular payqamay qolishibdi. Shundan keyin kechasi poylab kelib, ularning navbatda-navbat qonini so'rib ketaveribdi. Bir payt kichik maxluq kelib, oshnalarining yuziga qarab tanimay qolibdi.

– Nega bunchalik ranglaringda qon qolmabdi, uchovlaring men yo'g'imda kasalga chalindilaringmi, mushuk qani? – deb so'rab-surishtiribdi.

Oshnalari:

– O'zimiz, shunday, hech narsa bo'lgani yo'q, – deb bir tayinli gap aytishholmabdi.

Kichik maxluq «Bu yerda bir sir bor», deb kechasi poyloqchilik qilibdi. Yarim kechaga borgan-da yalmog'iz kampir asta-sekin kelib, ko'rning qonini so'ra boshlabdi, uni so'rib bo'lgach, kenja o'g'ilga o'tibdi. Shu payt poylab turgan kichik maxluq yotgan o'rnidan sapchib turib yalmog'izga tashlanib, uning kallasini uzib tashlabdi.

Kampir dodlaganicha daryoga borib yuvinib-di. Kichik maxluq qarab tursa kampirning boshi butun emish. Quvib borib uning kallasini yana

uzib tashlabdi. Kampir dodlaganicha borib yana suvga yuvinibdi. Yana yangi kalla paydo bo'libdi. Shu payt uyg'onib ketgan kichik o'g'il uni ushlab, bog'lab:

– Suvga bormasin, shundagina boshi o'sib chiqmaydi, – deb baqiribdi. Kichik maxluq kampirni quvib-quvib ushlolmabdi. Qo'li yo'g'-u oyog'i bor, aslida chopog'on ekan. U chopsa kiyikka, quvsqa qulunga yetar ekan. Kichik maxluq yalmog'izni quvib yetolmagach, qo'li yo'g'-u oyog'i bor quvibdi. U yalmog'izni quvib yetibdi-yu, uni ushlay olmabdi. Lekin kelishtirib bir kalla qilgan ekan, yalmog'iz ag'darilib tushibdi. Shunda kichik maxluq borib, kampirning sochidan sudrab olib kelibdi.

Kampir:

– Meni nima qilmoqchisizlar? – deb so'ragan ekan. Kichik o'g'il:

– Seni nima ham qillardik. Hozir nimta-nimta qilib, xomligingcha yeymiz, – debdi.

Bu gapdan qo'rqb ketgan yalmog'iz:

– Yo'q, meni o'ldirmanglar, xo'p desanglar ham-malarinги soppa-sog' qilib qo'yaman, – debdi.

Hamma rozi bo'libdi. Kampir avval qo'li bor-u oyog'i yo'jni, keyin ko'rni, undan keyin kichik maxluqni, eng oxirida kenja o'gilni sog'lom, kelishgan yigitlarga aylantirib qo'yibdi. Beshovlon bo'lib yalmog'izning uyiga kelishib, ketma-ket qirq eshikdagi qulflarni ochishib, qamab qo'yilgan odamlar, otlar, mollar, qo'y-qo'zilarni ozod qilishibdi. Eng oxirgi uyni ochay deyishsa, yalmog'iz qattiq qarshilik qilibdi. Kenja o'g'il kampirni

bir turtgan ekan, u yetti chaqirim nariga uchib ketibdi. Uyni ochishsa, ichidan biri biridan chiroyl, biridan biri go'zal malikalar chiqib, yigitlarga ta'zim bilan salom berishibdi.

Yalmog'izning yurtiga kichik o'g'il maxluqni podsho qilib ko'tarib, qolgan odamlarni, hayvonlarni o'z xohishlariga binoan birini yurtiga, birini o'rmonga jo'natishibdi. Qolaman degani qolibdi. Hammani joy-joyiga qo'yib tinchitgach, kenja o'g'il ko'r oshnasidan:

– Senga yo'l bo'lsin, qolasanmi, yo men bilan bo'lasanmi? – deb so'rabdi. Shunda ko'r:

– Oshna, sen bilan qiyomatli og'a-ini bo'l-dim. To o'lguncha sening yoningda bo'lib xizmatingni qilaman. Lekin men avval ko'zimni ko'r qilgan podshohdan o'chimni olishim kerak. Mening ko'zim o'tkir edi. Ming chaqirim joydan pashshani, yetti tosh joydan qumursqani, yerning ostida nima bor-u, tog'ning ichida nima bor, hammasini ko'rар edim. Podshohimizni aytgandan ko'ra o'lganim afzal, deb o'zimni daryoga tashladim. Jon shirin ekan, daryoda «Qutqaringlar, qutqaringlar», deb dodlab ketayotganimda sen eshitib qolib, meni ushlab olib chiqib, qanotingga olding. Shuning uchun o'la-o'lguncha sen bilan birga bo'laman, – debdi. Bola:

– Sen nima qilasan? – deb so'rabdi ikki qo'li yo'g'-u ikki oyog'i chaqqon oshnasidan. U:

– Sen bilan uchrashganda hasratimni aytsam gap yetmaydi, yozsam daryo quriydi, degan edim. Menga na tulpor yetardi, na uchqur kiyik. Podshohning tanti qizi, ovda yurganimizda qochirgan kiyikni ushla, deb buyurdi. Kiyikni quvib yet-

dim-u, u meni ushlama, deb yalingach, rahmim kelib uni ushlamadim. «Sen kiyikni quvib yetding-u uni ushla mading», deb qo'limni kesib tashladilar. Shu-shu har maxluqni quvib yetdim-u, lekin tutolmadim. Oxiri alam qilib shu kunimdan o'rganim ma'qul dedim-da, o'zimni daryoga tashladim. Buyog'i o'zingga ayon, – debdi.

– Endi nima qilmoqchisan, yurtingga keta sanmi yo men bilan birga bo'lasanmi? – degan ekan, u:

– O'la-o'lguncha sen bilan bo'laman. Ammo qo'limni kesgan podshohdan qasdimni olmoq men uchun qarz, – debdi.

Shunda kichik o'g'il:

– Sen nima qilmoqchisan? – deb so'rabdi ikki qo'li bor-u ikki oyog'i yo'qdan. – Yo sen ham men bilan birga bo'lasanmi? – debdi.

– Sen bilan jon deb ketar edim-u, hech narsadan hech narsa yo'q oyoqlarimni kestirgan podshodan qasdimni olmasdan tinchimayman, – deb javob beribdi u.

– Bo'lmasa bunday qilamiz. Sen uzoqni ko'rasan. Hozir kunchiqish tomonga qara. Mening akalarim uyga yetib borishdimi-yo'qmi, ayt, – debdi kenja o'g'il.

Ko'zi o'tkir tikilib qarab, ikki aka-ukani ko'ribdi.

– Hozir akalaring mol-u dunyo ortilgan tuya karvonlari bilan uylaringga yetib bordi. Ularni tushirishyapti, – debdi.

Shunda kichik o'g'il:

– Bo'lmasa to'rtovlon bizning uyga boramiz. Bizni oyog'i chaqqon tez yetkazadi-da, qolgan gaplarni o'sha joyda gaplashamiz, – debdi.

Hamma bolaning gapini ma'qullab, tez choppuvchining ustiga minib, shu vaqtning o'zida kichik o'g'ilning uyiga yetib borishibdi. Akalari endi uyga kirib, yuklarni tushirib, otalarining, «Kichik ukang qani?» degan savoliga javob berishayotgan ekan. Bola qulq solib tursa katta akasi:

– Ota, kichik ukamizni yo'lda bir ajdaho uchrab qolib, tiriklayin yutib yubordi. Biz zo'rg'a qochib qutulib qoldik, – deb yolg'on so'zlab turgani ustiga kichik o'g'il pari xotini, do'st-oshnalarini ergashtirib uyga kirib boribdi.

U otasiga qarab:

– Akalarim yolg'on gapistishyapti. Meni hech qanday ajdaho yutmadi. Shu ikki ajdaho o'g'il-laringiz – akalarim yaxshilikka yomonlik qilib, boylik talashib yutishdi. Oyog'imni kesib, tiriklayin daryoga tashlashib qochib qolishdi. Manavi do'st-birodarlarim bor ekan, tirik qolib, siz bilan diydor ko'rishib turibman, – debdi.

Ikki aka-uka birdan yonlaridan qilichlarini sug'urib, ukalarini chopib tashlamoqchi bo'lishgan ekan, kichik o'g'ilning oshnalari ularning qolla-rini ushlab qolibdi. Keyin kichik o'g'il boshidan o'tgan-ketganlarini otasi bilan do'stlariga so'zlab beribdi. Ota ikki o'g'lini, «Mening senlarday o'g'il-larim yo'q», deb uyidan haydab yuboribdi.


Kichik o'g'il oshnalariga:

– Sizlarning biringiz ko'zingizni o'yib olgan podshohdan, ikkinchingiz qo'lingizni kesgan podshohdan, uchinchingiz oyog'ingizni kesgan kishidan qasos olmoqchi edinglar. Sizlarga

javob, borib ishlaringizni tez bajarib qaytinglar. Akalarimning jazosini otam berdi. Mening ham unday akalarim yo'q. Endi sizlar menga og'asizlar, – debdi.

Bu gapdan ko'rag'on ham, ushlag'on ham xursand bo'lhib, azobga solib ko'r qilgan, qo'lsiz qoldirgan, cho'loq qilgan o'z podshohlaridan o'chlarini olishga jo'nab ketishibdi. Kichik o'g'il ular yetib kelguncha to'y-tomosha qilmay, kutib turibdi. Uchovi o'z yurtlariga borib, ishlarini bitkazib kelishgandan keyin, to'rtovlon to'rt pariga uylanib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha beribdi, to'yga yo'lda qolgan oshnalarini ham chaqirishibdi.

Kichik o'g'il elning talabi bilan yurtga podsho bo'libdi, chopag'on o'ng qo'l vazir, o'tkir ko'z chap qo'l vazir, ushlag'on xazinabon bo'lib, to'rtovlon yurtni adolat bilan boshqarib, uzoq yillar bir-birlari bilan inoq yashab, murod-maqsadlariga yetishibdi.



MUNDARIJA

BAROQVOY, MIYOVJON VA XO'ROZVOY.....	3
HUNARLI YIGIT	9
HAR KIMNING MEHNATI O'ZIGA SHIRIN	18
PODACHINING QIZI.....	20
HALOL MEHNAT.....	29
SUV QIZI	39
HASAN VA HURILIQO	52
MALIKAYI GULIZOR.....	69
BESH QIZ.....	78
QUYOSH YERINING PAHLAVONI	107
UR, TO'QMOQ!	141
LAYLAK, TULKI VA BO'RI.....	146
UCH OG'AYNI BOTIRLAR.....	152
QILICH BOTIR	168
MUSHUK, IT VA SICHQON	178
SEMURG'	193
ZIYOD BOTIR	200
QIRQ KUYOV	216
DONISHMAND CHO'PON	228
EGRIBOY VA TO'G'RIBOY	236
ZUMRAD VA QIMMAT.....	244
MALIKAYI HUSNOBOD	252
HIYLAGAR BEDANA	266
OVCHI, KO'KCHA VA DONO	272
NON QUDRATI.....	279

Adabiy-badiiy nashr

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI

UCH OG'AYNI BOTIRLAR

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Musahhih
Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2017-yil 9-yanvarda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 19,0. Shartli bosma tobog'i 31,92.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozsi.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 5\008.
Bâhosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.
Kitob matni «Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-72.
Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14
e-mail: yangiasravlod@mail.ru



O'zbek xalq ertaklari

Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalganidek, o'zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Ularning juda qadim zamонлардан yaratilganini «ertak» atamasining Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074-yilda yozilgan «Devonu lug oti-t-turk» asarida «etuk» tarzda qo'llanganidan bilsa bo'ladi: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so'z qo'llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan». Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar olasiga kiruvchi millatlar og'zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Ertak atamasini O'zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho'pchak», farg'onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzida atashgan.

Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardir:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.
2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.
3. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan» boshlamasi va «murod-maqsadiga yetibdi» yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.
4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo'llanadigan ustuvor usuldir.
5. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I – initsial – boshlanma; M – medial – asosiy qism; F – final – yakunlanmadan iborat bo'ladi.

ISBN 978-9943-27-722-9

9 789943 277229